The use of this or that pitch (and range) shows the degree of its semantic importance. As a rule the low pitch level expresses little semantic weight, on the contrary the high pitch level is a sign of importance, stronger degree of feeling.

It is fairly obvious that words are seldom pronounced by themselves, as vocabulary items. They are usually arranged into sentences in accordance with its grammatical and phonetic structures of the language. And one of the components of the phonetic structure of a language is its intonation. It is the main factor that turns a word or group of words into a sentence. British phoneticians consider intonation as a close connection between intonation and stress whereas American descriptivists speak of intonation and stress as different phonetic phenomena. C.H.Prator states that intonation is the tune of what we say. Quite different is the opinion of the majority of Russian linguists on the problem of intonation. According to their point of view intonation is a



complex unity of speech melody, word prominence, tempo, rhythm and pauses, and voice-tamber. [7] The components of intonation all function together, they are inseparable from one another but they can be singled out for the sole purpose of phonetic analysis.

Tempo, rhythm and pauses are considered to be temporal components of intonation. Tempo is a rate, or duration of speech. It may be slow, normal or quick. The more important parts of a sentence is said at a slow tempo, the less important ones are pronounced quickly. Tempo is closely connected with rhythm. Our speech is subdivided rhythmically into units. Speech rhythm maybe defined as a regular recurrence of stressed and unstressed syllables. The tempo of speech may influence the accentual pattern of words. With the quickening of the speed the carefulness of articulation is diminished, the vowels are reduced or elided, the secondary stress may be dropped, e.g. The 'whole organi'zation of the 'meeting was 'faulty.

The tempo is moderate, mostly constant in reading descriptive and scientific prose and in newspapers, it is quicker in parenthetic and absolute constructions. It is changeable and moderate in drama. It is constant and slow in poetry. The tempo of public speeches depends on the size of the audience and the topic. The climax of a speech is characterized by a change in tempo, range and loudness.

Conclusion. English intonation is a pretty complicated and varied phenomenon. There are dialectal and regional differences in intonation. For example, there is a noticeable difference between British and American intonation. Intonation may sound differently depending on whether the speakers have high or low voices, speak fast or slowly, loudly or quietly, energetically, emotionally, neutrally, or listlessly. Men and women may have their own differences and preferences in intonation. For the purpose of studying, this variety may be described in several intonation patterns characteristic of English speech. And I understood when I was in practical work. Many students of colleges and pupils in schools or the beginners learning English must study intonation.

Literature:

1. Abduazizov. English Phonetics. A Theoretical Course, T., 2007.
2. Sokolova M.A. and others. Theoretical Phonetics of English.
3. Peter Roach. English Phonetics and Phonology. Cambridge University Press, 2006
4. Martin Hewings. Pronunciation Practice Activities. Cambridge University Press, 2004
5. David Crystal. The Encyclopedia of the English Language. London
6. A.C.Gimson. An Introduction to the pronunciation of English.



7. Dvorjeska M.P., Makuxina T.V., Velikova L.M., Snegirova E.O. Fonetika angliyskoi movi: fonostilistika i ritorika movliennsvoi komunikatsii (Phonetics of English: Phonostylistics and Rhetoric in Speech Communication). Vinnytsya, 2005.

8. Salomova G.A. Research of Abbreviations in English and Uzbek Linguistics.//Journal of advanced linguistic studies.// India—Jan—Jun 2023. (Vol. 10, no. 1, ISSN 2231—4075) – P.430—437. №1 [10.00.00 №13]

9. Salomova G.A. The study of the structure and content of Abbreviations in Uzbek linguistics.//World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Germany—2023 y. ISSN: 2749—361X., Vol.19. – P.163—166

10. Salomova, G. A., The structural—semantic analysis of abbreviations and acronyms of the English, Russian and Uzbek languaGES Thematics journal of English language teaching ISSN2231—4873 Vol—5—Issue—1—2021. Indonesia <http://thematicsjournals.in/index.php/tjs> UIF 2021=7.023 IFS 2020=7.433 DOI10.5281/zenodo.5702901, — P.24—27. (2021)

11. Salomova G.A. Gap qurilmasi komponentlarining qiyosiy tahlili haqida.//Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta’limiy g‘oyalar Respublika ilmiy—amaliy onlayn konferensiyasi. Termiz—2020, 15 may. — B.334—337.



XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI OILADA FARZANDLARNI KITOBXONLIKKA TARBIYALASH

Sabirova M.

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

I'yasova Z.

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Pedagogika kafedrasi assistant o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kitob, kitobxonlik, oila, farzand, kitobxonlik madaniyati, xalq og'zaki ijodi, pedagog.

Ключевые слова: книга, чтение, семья, ребенок, культура чтения, фольклор, педагог.

Key words: book, reading, family, child, reading culture, folklore, teacher.

Резюме:

Kitob - axborot, g'oya, tasvir va bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasidir. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi orqali oilada farzandlarni kitobxonlikka tarbiyalash va oilada farzandlarni kitobxonlikka o'rgatish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Резюме:

Книга является средством хранения и распространения информации, идей, образов и знаний, а также формирования общественно-политических, научных и эстетических взглядов. В данной статье говорится о воспитании детей к чтению в семье и обучении детей чтению в семье посредством фольклора.

Summary:

A book is a means of storing and disseminating information, ideas, images and knowledge, as well as the formation of socio-political, scientific and aesthetic views. This article talks about raising children to read in the family and teaching children to read in the family through folklore.

Kitob - axborot, g'oya, tasvir va bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasidir. Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatiga ham alohida e'tibor qaratildi. Ushbu ijtimoiy harakatlar o'z fikrlari va dunyoqarashiga asoslangan, faol ommaviy saviyaga ega bo'lgan, bilimli va ma'naviy yoshlarni har tomonlama to'liq hokimiyatga erishishga o'qitishni o'z ichiga oladi. Shu bois, mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 13 sentabrda qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik

madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son qarori xalqimizning yosh avlodlarini ular kitobxonlik va kitobxonlik muhitini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Qarorda oldimizda turgan dolzarb muammolar borligi va ularni keng omma miqyosda hal etish zarurligi aniq ko'rsatilgan. Ayniqsa, xalqimiz birinchi navbatda yoshlarni ma'rifatli bo'lishga, badiiy estetik talablarga mos kelishiga, sifatli kitoblarni nashr etishga, joylarga, ta'lim muassasalariga o'z vaqtida va maqbul tarzda yetkazilishiga g'amxo'rlik qildi, milliy adabiyotning tanlangan namunalarini e'tiborga oldi, ularni ijtimoiy tarmoqlarga kiritdi, bolalarimizni bolaligidan adabiy kitob o'qishga qiziqtirishga alohida e'tibor qaratdi.

Aynan oilada farzandlarni kitobxonlikka o'rgatishda xalq og'zaki ijodi mihim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan bo'yon jahon xalqlarining, shu jumladan o'zbek xalq pedagogikasining ham muhim tarbiya vositasi bo'lib kelgan. Xalq og'zaki ijodining turli janrlari oilada bolalarni tarbiyalashda vositasi sifatida hozirgacha foydalanib kelinmoqda. Oilada bolalarni tarbiyalashda maqollar, afsona va rivoyatlar, ertak va dostonlar, masallar katta ahamiyatga ega.

Maqollar xalqning og'zaki ijodi hisoblanadi-da, dastlab uni bir kishi yaratadi. Ma'noli gapdan huzurlangan odamlar uni eslab, keyin o'z nutqlarida ishlatadilar. Shunchaki aytmay unga jilo beradilar, o'zlaridan yana bir ma'no qo'shadilar. Ibratli gaplar shu zaylda odamlar tiliga ko'chadi. Ayrim maqollar yuz yillardan beri tildan tushmay keladi. Bir so'z bilan aytganda, maqollar xalqning uzoq davrlar mobaynida erishgan hayotiy tajribasidan hosil bo'lgan iboralar, xalq donishmandligining billur tomchilaridir.

Maqollar orqali oilada bolalarda bilimlilik, kasb-hunarga ega bo'lish, adolat, insoniylik, sadoqat, kamtarlik, jasorat, shirinso'xanlik, poklik, vafodorlik, do'stlik, mardlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy xislatlar tarkib topadi. Aksincha, bilimsizlik, nodonlik, manmanlik, nomardlik, vafosizlik kabi xislatlarga nisbatan murosasizlik tarbiyalanadi.

Qo'shiqlar qadimdan xalq orasida keng tarqalgan. Ular asosan kuyga solinib ijro etilgan. Qo'shiq aslida keng ma'noli tushuncha bo'lib, o'z ichiga bir qancha turlarni oladi. Ular orasida mehnat va marosim qo'shiqlari, hunarmandchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar, mavsum qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va boshqalar bor.

Qo'shiqlarda alohida kishilarning shodlik va g'ami, his-hayajoni tuyg'ulari, fikr-mulohazalari ifodalansada, ularda asosan keng xalq ommasining orzu-umidlari, o'y-xayollari, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlarini, dunyoqarashi mujassamlashgan. Shuning uchun ham ularda shu xalq tarixi muayyan darajada badiiy ifodasini topgan bo'ladi.



Qo'shiqlar hayotiy voqelikni badiiy ifoda etganligi sababli kishilar ko'ngliga tez yetib boradi. Ana shu sababli ham oilad bolalarni tarbiyalashda mazkur xalq og'zaki ijodi janrining o'rni katta. Masalan, bolalarni «salomlashish»ga o'rgatish ularni tili chiqishi bilanoq boshlanadigan va ota-ona hamda oiladagi kattalar oldida turgan dastlabki pedagogik faoliyat – insoniy burch hisoblanadi. Qo'shiqlarda o'z farzandini «salomlashish»ga o'rgatgan ota-ona maqталadi, taqdirlanadi:

*Qizil-qizil olma terdim, tepa shohidan egilib,
Qizlarjon o'tib boradir sochbog'i yerga tegib,
Salom bersam alik oldi tol xivichdek egilib,
O'stirgan onangga rahmat, o'lmagaysan ko'z tegib.*

Aks holdagi ko'rinishlar qattiq qoralanadi. Ota-ona tiurli ta'na va isnodga qoladilar:

*Ikki yuzing pishgan olma,
Noz etib hargiz burolma,
Ishdan hech bo'yin tovlama,
Chiroylisan, ko'rdik kelin.
Onang seni o'stirgan ham,
So'zlarimni uqqin tamom.
Kattalarga bergin salom,
Shunda qadring ortar kelin.*

Ota-ona obro'si. «Avtoritet» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda, ta'sir etish, kuch degan ma'noni bildiradi. Avtoritet bolalar uchun «ataylab» maxsus hosil qilinishi mumkin emas. U ota-onalarning o'zlari bilan bog'liq. Uning o'zagi – ota-onalarning xulq-atvori, ularning g'oyaviy va madaniy qiziqishlari, xatti-harakatlari, ishga, fikrga, odatlarga, munosabatida.

Pedagog olimlarning fikricha, «haqiqiy avtoritet ota-onalarning fuqarolik faoliyati, fuqrolik tuyg'usi, bola hayoti haqidagi bilim, unga ularning yordami va ularning bola tarbiyasiga mas'ulitiga asoslanadi».

Agar ota-onalar bola hayoti haqidagi to'liq bilimga ega bo'lsa, unga e'tibor qaratadi, ana shunda bolalar ularni haqiqatdan ham hurmat qiladi.

Ota-onalar ularning bolalari o'sishi, o'zgarishini esda tutishlari kerak. Ta'lim muassasasidagi har bir dars, har bir o'qilgan kitob, yangi uchrashuvlar bolalarning odamlarning xarakteri, o'zaro munosabatlari bilan tanishishlarini chuqurlashtiradi. Ma'lum bo'ladiki, ota-ona obro'si beshikdagi vaqtdagidek qoladi, deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ota-ona obro'sini so'z va ish birligi mustahkamlaydi. Bolalar bizga juda diqqat bilan e'tibor bilan qarashadi va ular bizning xatti-harakatlarimizdagi so'z va ish mos kelmasligini payqashsa – bu biz uchun



haqoratning boshlanishi. Chuqur o'ylamasdan, bajara olishingizga ishonch hosil qilmasdan bolaga hech narsa va'da qilmaslik lozim.

Ota-ona obro'sini shakllantirishda hal qiluvchi rolni ularning o'z so'zga munosabati o'ynaydi. Talablar ohang va mazmun jihatdan jiddiy va dadil bo'lishi kerak.

Inson ham tabiatning bir mo'jizasi bo'lganligi bois, oilada bolalarni tabiat vositasida tarbiyalash ularning barkamol bo'lib voyaga yetishlarida muhim ahamiyatga ega. Chunki tabiatga munosabat, unga bo'lgan g'amxo'rlik to'yg'usi inson shaxsi madaniyatining bir belgisiga aylanadi.

Har bir inson, albatta tabiatdan zavq olishni istaydi. Ammo bu degani hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go'zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi.

Tabiat ham insonda insonda kuzatuvchanlik, sezgirlik, nazokatlilikni tarbiyalaydi. Bu insonda ikki tomonlama namoyon bo'ladi: biri tabiatga munosabat orqali, ikkinchisi o'z-o'ziga munosabat orqali.

Inson ma'naviyatini tarbiyalashda san'atning o'rni beqiyosdir. San'at inson tuyg'ularini boyitib va rivojlantirib, uning hayotini ma'naviy jihatdan yanada yaxshilaydi va mazmunli qiladi. Chunki san'at insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, uning didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini kamol toptirish bilan ularni jaholatda saqlaydi, ezgulik sari yetaklaydi. Bu bilan san'at insoning ma'naviy o'sishiga imkon beradi, eng murakkab muammolarni hal etishiga, hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi. Lekin buning uchun avvalo, san'atni tushunish, u bilan oshno bo'lish, uni yoshlar ongiga singdirish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oilada bola tarbiyasi jarayonida kitob o'qish, kishi undan chiqariladigan ijobiy xulosani ham o'z hayoti va faoliyatiga singdirib, undagi ezgu g'oyalarni jamiyat rivoji, oila farovonligi yo'lida targ'ib qila oladi. Zero, kitob mutolaasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishidagi ahamiyati bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlarda o'z tasdig'ini topmoqda. Har tomonlama yetuk, ma'nan baquvvat avlodni tarbiyalashda kitobga tayanish, ular qalbida mustahkam tafakkur ildizlarini uyg'otishda kitob mutolaasi doim dolzarb masala bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli qarori. Lex.uz
2. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur //O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1999. – 200 b.
3. Nishonova S. Ezgulik yo'li. – T.: Ma'naviyat, 2000, 25-26-bet
4. Pedagogika /A.Q.Munavvarovning umum. tah. ostida. – T.: O'qituvchi, 1996. – 200 b.



ТОҲИР МАЛИК АСАРЛАРИДА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ

Сабирова М.Г.

*Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти,
Педагогика кафедраси катта ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: оила, фарзанд, тарбия, тарбиявий масалалар, ота- она, болалик.

Ключевые слова: семья, ребенок, воспитание, проблемы воспитания, родители, детство.

Key words: family, child, education, problems of education, parents, childhood.

Резюме:

Ушбу мақолада Тоҳир Малик асарларида оилавий тарбия масалалари ҳақида сўз юритилади.

Резюме:

В данной статье рассматриваются вопросы семейного воспитания в творчестве Тахира Малика.

Summary:

This article discusses issues of family education in the works of Tahir Malik.

Машҳур адиб Мирзакалон Исмоилийнинг жияни Ўзбекистон халқ ёзувчиси Тоҳир Малик ҳам сўнгги йилларда қатор “Алвидо болалик”, “Чархпалак”, “Шайтанат” детектив асарлари билан бирга “Келинлар дафтарига” бадиий-маърифий асарини яратди. Мазкур асар ўтган асрнинг етмишинчи йилларида Мирзакалон Исмоилий томонидан яратилган “Қизлар дафтарига” деб аталган “Ўн бир оқшом ҳикояти”нинг мантиқий давоми десак, хато бўлмайди.

Адибнинг таъкидлашича, “Қизларимиз кундалик дафтар тутишни яхши кўришади. Аммо бу яхши одатни турмушга чиққач тўхтатишади. Эҳтимол уялишар, балки эрлари рухсат беришмас. Лекин келинларнинг ўзларига хос бир дафтарлари бўлгани дуруст. Унга ҳаётга доир турли ҳик-матларни, йўл-йўриқларни ёзиб боришса маъқул бир иш бўларди. Чунки суюкли келинларимиз орасида қайнота ёки қайнона кириб келганда теле-визордан кўз узиб, ўрнидан туриб қаршилаш шартлигини билмайдиганлар ҳам, ариққа ахлат ташлашнинг гуноҳ эканлигини англамайдиганлар



ҳам, сергаплик киши қадрини кетказишига аҳамият бермайдиганлар ҳам учрайди. Тавсия этилаётган рисолада шу каби хулқ ва фазилатлар ҳақида фикр юритилади”.

“Келинлар дафтарига” асари уч китобдан иборат бўлиб, биринчи китоби “Севгининг жони” деб номланади. Мазкур китоб қуйидаги 26тани суҳабтни ўз ичига олади:

1. Оила ҳаловати – жамият ҳаловати.
2. Бахт саройи.
3. Мувозанат.
4. Савоб.
5. Агар уялсанг.
6. Зурриёт.
7. Никоҳ.
8. Талок.
9. Ярашиш.
10. Рашк.
11. “Ёмон хотин”.
12. Яхши хотин.
13. Фарзанд неъмат.
14. Хизмат.
15. Нозик масала – кундош.
16. Иффат ва ҳаё.
17. Вафо.
18. Номус.
19. Виждон.
20. Инсоф.
21. Бошингга қилич келса ҳам.
22. Ёлғончидан худо безор.
23. Чақимчилик.
24. Тухмат, бўхтон.
25. Ғийбат.
26. “Қариндош” иллатлар.

Китобдаги суҳбатлар нафақат келинларга, балки улар орасида йигитларга ҳам тегишли гаплар борлигини таъкидлаб ўтиш зарур. Масалан, “Оила ҳаловати – жамият ҳаловати” суҳбати ана шундай тавсифга эга. Суҳбатда “оила” тушунчасининг ҳатто илмий адабиётларда учрамайдиган тушунарли таърифи берилган: “Оилани мўжазгина бир жамиятча деб фараз қилсак, бутун инсоният жамиятининг дахлсизлиги айнан ана шу “жамиятча”нинг жипслигига боғлиқ. Демак, қайси жамиятда оилалар мустаҳкам эмас экан, бу жамият ҳарбий қудрати ва бойлигидан қатъий назар ҳалокатга маҳкумдир. Оилавий муҳаббат одамлар орасида кенг тарқалган энг мустаҳкам муҳаббатдир. Шунинг учун ҳам у кишилар ҳаётига таъсир кўрсатиш жиҳатидан одамнинг энг муҳим ва энг ҳаётбахш туйғусидир. Ўз уйида бахтли бўлган кишигина чинакам бахтлидир. Хароб уйдаги бахтсиз одамлардан ташкил топган жамиятнинг ҳақлокатга маҳкумлиги шундан келиб чиқади”.

Асарда ўзбек оилаларидаги миллий ўзига хослик “Бахт саройи” деб аталган иккинчи суҳбатда Кумушбиби талқинида очиб берилган. Адиб “русларнинг улуғ ёзувчиси (таъкид – Т.М.га тегишли)” Лев Толстойнинг “Анна Каренина” асаридаги Анна ва ўзбек романчилигининг асосчиси Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романидаги бош қаҳрамон Кумушни киёслаш орқали ўзбек аёлининг оилага садокати, иффати, ҳаёсини ёрқин бўёқларда ифодалаб берган. Адибнинг таъкидлашича, икки ёзувчи (Лев Толстой ва Абдулла Қодирий)нинг тасвирига қараганда, бу аёллар (Анна ва Кумуш)нинг иккови ҳам ғоят гўзал, икковида ҳам муҳаббат бор, икковлари ҳам севги қурбони. Ҳар икки асар ҳам лобарларнинг ўлимлари билан ниҳоясига етади. Лекин уларнинг муҳаббатлари ва оила-



га садоқатлари бир хилми? Анна – оилали жувон, бегона эркакни севди. Оқибатда ўзини ҳалок қилди. Унинг бир гуноҳи икки бўлди. Кумушбиби – маъсума аёл. У жуфти ҳалоллига содиқ. Уни ҳатто кундошидан ҳам қизғанади. Балки ана шу қизғаниши, рашкининг чегарасидан чиққани учун ўлим топгандир? Бу икки аёл ўлими сабабчилари – Аннанинг севгилиси (эри эмас!) билан Кумушнинг кундоши – Зайнаб тақдирида қандай яқинлик бор? Ҳеч қандай! Кумуш-Зайнаблар тақдирини европаликлар ҳаётидан излаб тополмаймиз .

“Келинлар дафтарига” асарининг иккинчи китоби “Азалий насиба” деб номланади. У еттита суҳбатни ўз ичига олади: 1. Ҳасад ўти. 2. Саломинг бўлмаса. 3. “Дуои бад”. 4. Ҳазил ва мазах. 5. Тилингни авайла. 6. Оҳуни қувиш илинжи. 7. Сабр таги – олтин.

Иккинчи китобни том маънода маънавий-ахлоқий фазилатларни шакллантиришнинг бадий-маърифий ифодаси деб аташ мумкин. Чунки муаллиф суҳбат чоғида ахлоқий фазилатларни шакллантиришнинг насихат методигагина таяниб қолмайди. Балки жонли, реал мисол ва намуналар келтириш, тушунтириш, изоҳлаш, рағбатлантириш орқали китобхон хотирасида яхши ва ёмон ахлоқни гавдалантиради. Масалан, адиб ҳасад ўти суҳбатида “ҳасад”нинг изоҳини, унинг келиб чиқиш тарихини аниқ мисолларда очиб берган: “Ҳасад – шайтоннинг энг ишончли қуроли. ... Одам ҳамиша яширадиган, яширишга уринадиган иллат ҳасаддир. Ҳасад – бирон танишининг, ҳамкасбининг ёки яқин қариндошининг муваффақияти, ютуғи учун тугилган азадир.

Ҳасад Одам Атонинг ўғли Қобилдан қолган энг разил одатдир. Биласиз ҳасад туфайли Қобил укаси Ҳобилни ўлдирди. Одамзот тарихидаги биринчи қотиллик ҳасад туфайли бўлди. Ҳасад гўдакликда туғилади. Агар киши ўзидаги ҳасад ўтини ўчира олмаса, одамлар ундан нарига қоча бошлайдилар. Ҳасадгўйлигини яширмайдиган одам хавфли эмас, балки ўта усталлик билан яширувчи кимса ҳар бир жон учун хатарлидир” .

Бир оилада тутай бошлаган ҳасад ўти вақтида ўчирилмаса, аланга олиб атрофга тарқайди. Бу ўт жабрини бир эмас, кўпчилик тортади. Ҳасад шундай ўтдирки, агар тутаса, ҳўлу қуруқ барабар ёнади. Адиб мазкур фикрни исботлаш учун Сталин замонини эслашга даъват қилади. XX асрнинг 30 йилларида яхшиларни маҳв этган тухмат, иғво, фитнадан олдин ёмонларнинг чиркин қалбида ҳасад ўти ёнган. Эҳтимол ҳасад ўти бир оилада, эр-хотин орасидаги суҳбатдан сўнг ёнгандир? Тасаввур қилайлик: қайси бир ижодкорнинг хотини камхаржликдан сиқилиб, эрига: “Сизнинг фалончидан кам ерингиз борми? Нима учун унинг китоблари чиқаверади-ю,



сизга йўл бермайдилар. Нега у жарақ-жарақ қалам ҳақи олади-ю, сиз маошга қараб кун кечирасиз?” деди. Бу ижодкор “Оғзингни юм, хотин, сен айтаётган фалончи миллатнинг фахри, ундай ёзувчи юз йилдами ё икки юз йилдами бир битади миллатнинг пешонасига. Мен ўзимнинг қобилиятимга яраша топяпман” деганида олам гулистон эди. Ҳасад ўти ўша онда ўчарди. Лекин... тарихдан маълумки, бу ўт учмаган.

“Келинлар дафтарига” асарининг иккинчи китобида бугунги куннинг энг асосий муаммоларидан бири қўл телефонларидан фойдаланиш одоби ҳақида ҳам алоҳида фикр билдирилган. Жумладан, “Саломинг бўлмаса...” суҳбатида мазкур масала ҳақида шундай фикрлар билдириб ўтилади: “Телефон ҳақида гап кетганда, мавзудан салгина четга чиқсак-да, қўл телефонларидан фойдаланиш одобига тўхталиб ўтсак: ҳозир катта-ю, кичикнинг қўлида телефон кўрамиз. Қайерда бўлса ҳам баралла овозда гаплашаверадилар. Бир куни хорижлик меҳмон билан ошхонада тамадди қилиб ўтирган эдик, ёнимиздаги сўрида ўтирган йигитлардан бири телефонда гаплаша бошлади. Меҳмон унга ажабланиб қараб-қараб қўйди. Йигит гапини мухтасар қилмади. Бундан ғашланган меҳмон ошхона ходимини чорлаб: “Бу укамизга айтинг, биз бу ерга таомланиб, ҳузурланиш учун келганмиз, гаплари бўлса, идораларида гаплашсинлар”, деди. Ошхона ходими мижозини бездириб қўйишдан чўчиб, уни инсофга чақирмади. Шунда меҳмоннинг ўзи танбех берди. Хайриятки, йигит инсофли экан, айбини тушуниб, дарров узр сўради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, оилавий тарбия жараёнида адабий асарларнинг ўрни жуда аҳамиятли ва унда келитирилган панду - насихатлар ўз ўрнида фойдаланилса оиланинг мустаҳкам бўлишига замин яратади.

Адабиётлар:

1. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур //Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 200 б.
2. Тоҳир Малик. Келинлар дафтарига. Иккинчи китоб. – Т.: “DAVR PRESS”, 2009. – Б.6-7.
3. Нишонова С. Эзгулик йўли. – Т.: Маънавият, 2000, 25-26-бет
4. Педагогика /А.Қ.Мунавваровнинг умум. тах. остида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 200 б.



DIFFERENSIAL TA'LIM VA UNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI PEDAGOG OLIMLAR NIGOHIDA

Shodmonova S.M.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti*

Tayanch so'zlar: differensial, differensial ta'lim, metod, texnologiya, individual, ichki differensiatsiya, tashqi differensiatsiya.

Ключевые слова: дифференциал, дифференциальное образование, метод, технология, индивидуальный, внутренняя дифференциация, внешняя дифференциация.

Key words: differential, differential education, method, individual, internal differentiation, external differentiation.

Резюме:

Ushbu maqolada differensial ta'lim mazmuni, ahamiyati va pedagog olimlarning differensial ta'lim haqidagi qarashlari yoritilgan.

Резюме:

В данной статье описываются содержание и значение дифференцированного образования, а также взгляды ученых-педагогов на дифференцированное образование.

Summary:

This article describes the content, importance of differential education and the views of pedagogical scientists on differential education.

Bugungi fan va raqamli texnologiyalar asri bo'lgan XXI asrda ta'lim sohalarining tez va jadal rivojlanishida differensial ta'lim alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Differensial ta'lim o'quv jarayoni tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, bunday ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratiladi va shunga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi. Differensiatsiya lotin tilidan olingan bo'lib, "differentia"- farq, tabaqa ma'nolarini anglatadi. Differensial ta'lim muammosi pedagog va psixolog olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo'lib, turlicha ta'rif berilgan. Ro'zmon Keldiyorov, Nurilla Ahmedovlar differensial ta'limni kelajakda o'quvchilarning kasb tanlashida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar: "Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar o'z qiziqishlari asosida yo'nalishlar bo'yicha guruxlarga

bo'linib, ta'lim ma'lum kasbga yo'naltirilgan tarzda amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasbga yo'naltirish va yo'llashning muhim asosi hisoblanadi hamda biror mutaxassislik sohasidagi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan bog'liq bilimlar asosida amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar kasbga yo'nalish va qiziqishidan qat'i nazar, barcha o'quv predmetlari bo'yicha to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim asosida o'quvchilar tanlangan mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim asoslarini egallashadi va amaliy malakalarga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasb tanlashning asosi hisoblanadi va o'quvchilarning o'z qiziqish va moyilliklari asosida kasb tayyorgarligi sirlarini egallashlarida muhim o'rin tutadi". Ushbu qarashda o'quvchilarni tabaqalashtirishda asosiy mezon sifatida ularning qaysi predmetga qiziqishlari yuqori ekanligi hamda bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari tanlab olingan.

E.N.Sattorov tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni qayd etadi:

- o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishiga erishiladi;
- ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi, ularning fanga qiziqishlari orta boradi;
- o'quvchilarning faolligi oshadi;
- o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilayotganligi sababli, ularda o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari bo'lmaydi;
- iqtidorli o'quvchilarning chuqur bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi;
- tabaqalashtirib o'qitish, uni demokratlashtirishga va insonparvarlashtirishga yordam beradi.

R.Safarova tabaqalashtirish mezonlari hamda zaruriy shart-sharoitlar borasida to'xtalib o'tadi: "Tabaqalashtirib o'qitishni o'quvchilarning aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etish noto'g'ri. Uni tashkil etishda o'quvchilarning individualligi, qiziqishlari, iqtidori kabilarga tayanish lozim. Chunki bu jarayonda o'quvchining individualligini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat vujudga keladi. O'quvchilarning qiziqishlari, iqtidori, intilish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish demokratik yondashuv bo'lib, u o'quvchi shaxsining o'zligini namoyon qila olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Bugungi kunda pedagogika fani oldida tabaqalashtirilgan ta'limning ilmiy asoslarini yaratish, o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish jarayonini nazariy metodik jihatdan ta'minlash, tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish shakl, metod, vosita va texnologiyalarini



ishlab chiqish va amaliy faoliyatga joriy qilish kabi muhim masalalar ko'ndalang turibdi va ular o'z yechimini kutmoqda".

S.Qoraev differensial ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratadi va o'quvchilarni tabaqalashtirishda quyidagi xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi:

- mustaqil faoliyatida o'quvchilarning o'ziga xos individual xususiyatlari;
- fanlarga munosabati, layoqatliligi;
- boy dunyoqarashi va intellektual xususiyatlari, ijodiyliigi;
- mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanganligi;
- o'z faoliyatiga ijodiy yondasha bilishi, fan mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil shug'ullana olishi;
- ularda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi, ularning mustaqil ishni qiziqib bajarishi;
- faolliigi, tashabbuskorligi, ijodkorligi kabilar.

MDH olimlaridan D.Kosyakov differensial ta'limni tadqiq etar ekan, ta'lim oluvchilarni guruhlarga ajratish mezonlariga alohida to'xtaladi va bunda quyidagi belgilarni inobatga olmaslik lozimligini alohida ta'kidlaydi:

- inson ichki organlari faoliyatidagi o'ziga xosliklar;
- shaxsning konstitutsion o'ziga xosliklari;
- salomatligi;
- mavjud layoqatni namoyon etishdagi to'sqinliklar;
- nerv tizimidagi o'ziga xosliklar;
- yosh va jinsga oid farqlar;
- temperament;
- fiziologik rivojlanishdagi deffektlar.

Pedagogikada ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalari birga ishlatiladi. Ba'zi manbalarda ushbu tushunchalar umumiy holda ham qo'llaniladi. I.Unt ushbu tushunchalarni pedagogik nuqtai nazardan farqlab ko'rsatadi. Uningcha, ta'limni individuallashtirish bu – o'qitish jarayonida o'quvchilarning qaysi xususiyati bo'lishidan qat'iy nazar ta'limning barcha shakl va metodlarida ularning individual xususiyatlarini inobatga olishdir.

Ta'limni differensiallashtirish esa bu o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishning shunday shakliki, unda o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratiladi va alohida tahsil oladilar; odatda bunday ta'lim jarayoni bir nechta o'quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi.



Demak, differensial ta'lim bu – o'quvchilarning o'quv jarayonida muhim bo'lgan umumiy xususiyatlariga ko'ra ajratilgan (gomogen) guruhleri bilan olib boriladigan ta'limning tashkiliy shakli; o'quvchilarning muhim didaktik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan guruhleri uchun o'quv materialini moslashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik tizim bo'limi.

Differensial ta'lim tushunchasi ta'limga differensial yondashuv muammosini o'rganishni taqozo etadi. Ta'lim jarayoniga differensial yondashuv bu – turli tipdagi guruhlar uchun uning kontingentining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida turlicha ta'lim vaziyatini yaratish; gomogen guruhlarda ta'lim jarayonini amalga oshirish maqsadida o'quv, metodik, boshqaruv, pedagogik va psixologik tadbirlar tizimini tashkil etishdir. Bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra differensiallashtirish past va o'rta darajada o'zlashtiruvchi talabalar bilimlar doirasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, bilim o'zlashtirishga rag'batlantirishdan iboratdir. Bilim o'zlashtirishlariga ko'ra tabaqalashtirishda talabalarning o'zlashtirishlarini doimiy ravishda diagnostika qilib borish talab etiladi. Aks holda past o'zlashtiruvchilarda bilimga bo'lgan motivatsiya susayishi kuzatilishi mumkin.

Qiziqishlari va moyilliklarga ko'ra tabaqalashtirish differensial yondashuvda keng qo'llaniladi. Ushbu guruhlarda talabalar qiziqishlariga ko'ra topshiriqlar bilan mashg'ul bo'ladilar. Ushbu qiziqishlar keyinchalik ma'lum bir qobiliyatning rivojlanishiga va o'z navbatida boshqa qobiliyat turlarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Differensial ta'lim jarayoni individual va guruhli shakllarda tashkil etiladi. Differensial ta'lim ishtirokchilar masshtabiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

1. Ichki differentsiatsiya – bir guruh ichida talabalarni kichik guruhlariga ajratish. Bu kichik guruhlar bitta auditoriyada bir xil fanni o'qiydilar, ammo bilim berish metod va vositalari turlicha tanlanadi. Shuningdek, o'quv materialini o'zlashtirishga doir qo'shimcha material va tavsiyalar har bir guruh uchun alohida tanlab olinadi.

2. Tashqi differentsiatsiya – talabalarni qiziqishlariga qarab guruhlariga ajratish va har bir guruhni alohida dastur asosida o'qitishni nazarda tutadi. Bunday differentsiatsiya asosida odatda elektiv kurslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar yoki tor mutaxassisliklar bo'yicha tahsil tashkil etiladi.

Differensial ta'lim jarayonida bir qator zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan ham foydalaniladi. Jumladan:

- modulli ta'lim;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi;



- muammoli ta'lim texnologiyasi;
- o'yinli texnologiyalar.

Ta'lim jarayonida ta'lim texnologiyalari, shakl va metodlaridan o'qituvchi qanchalik keng va unumli foydalansa, ta'limga nisbatan talabalarning qiziqishlari ham oshib boradi va samaradorlik darajasi ham yuqori bo'ladi.

Pedagogik ta'lim jarayonida differensial ta'limni tashkil etishning asosiy tashkiliy shakllaridan biri bu amaliy va laboratoriya mashg'ulotlaridir. Differensiallashtirish jarayonida o'qituvchi talabalarning turli shaxsiy sifatlarini o'rganadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va tasniflaydi.

Ichki differentsiatsiya asosidagi mashg'ulotlarda turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar keng qo'llaniladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil bajarish darajasi, mustaqillik darajasi, o'quv material hajmi, talabalarga yordam ko'lamiga ko'ra ham topshiriqlar tabaqalashtiriladi.

Differensial ta'lim texnologiyasi rivojlantiruvchi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirilganda muvaffaqiyatli kechadi. Shuningdek, muammoli izlanish metodlari, interaktiv metodlar, o'yin metodlari, diskussiya, ijodiy topshiriqlar, intuitiv va simulyatsion mashqlar differensial ta'lim jarayonida qo'llash uchun samarali hisoblanadi.

Differensial ta'lim faqatgina ta'lim mazmunini differensiallashtirishni emas, balki ta'limning tashkiliy shakllari (individual, guruhli, frontal), metodlari, o'quv materialini va topshiriqlarni ham differensiallashtirishni taqozo etadi.

Differensial ta'lim umumiy holda quyidagi afzalliklarga ega:

- bilim oluvchilarni rivojlantirish uchun ularning individual xususiyatlari va qiziqishlariga ko'ra optimal shart-sharoit yaratilganligi;
- o'quv jarayonining samaradorligi;
- bo'lajak pedagoglarning kasbga ijobiy va ijodiy munosabatlarining shakllantirilishi;
- talabalarning pedagogik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi;
- turli darajada o'zlashtiruvchi talabalarning o'z kuchi va muvaffaqiyatiga ishonchning mavjudligi.

O'qituvchi ta'lim jarayonining asosiy tashkil etuvchisi va boshqaruvchisi sifatida differensial ta'lim davomida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- talabalarni tabaqalashtirish uchun diagnostik tadbirlarni amalga oshiradi. Ya'ni, talabalarning tafakkuri, intellektual darajasi, xotirasi, diqqati, qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlarini aniqlaydi;
- talabalarni guruhlariga ajratish uchun mezonlarni belgilaydi;



- har bir guruh uchun o‘quv materiallari (nazariy ma’lumotlar, topshiriqlar, tavsiyalar, mustaqil ishlar)ni tayyorlaydi;
- talabalarning o‘zlashtirish darajalarini doimiy ravishda nazorat qiladi va tahlil qiladi;
- o‘zlashtirish darajalariga ko‘ra talabalarni qayta guruhlaydi.

Adabiyotlar:

1. Nurullaeva Sh.U. Pedagogik mahorat va kompetentlik: mazmuni, shakllantirish metodikasi va rivojlantirish yo‘llari // Pedagogik mahorat. № 1. 2021. 19-22 bet.
2. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish nazariyasi. Xalq ta’limi. 2021, №5, 75-81 b.
3. Bim-Bad B.M. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. — M., 2002.352 str.
4. Oleshkov M.Yu., Uvarov V.M. Sovremennyy obrazovatelnyy protsess: osnovnyye ponyatiya i terminy.— M.: Kompaniya Sputnik, 2006.154 st.
5. Yegamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika, - T: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009



PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI O'QUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Qo'chqarov D.U.

Professional ta'limni rivojlantirish instituti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: professional ta'lim, raqamli kompetensiya, kompetensiya, axborot savodxonlik, kompyuter savodxonlik, virtual reallik, media savodxonlik.

Ключевые слова: профессиональное образование, цифровая компетентность, компетентность, информационная грамотность, компьютерная грамотность, виртуальная реальность, медиаграмотность.

Key words: professional education, digital competence, competence, information literacy, computer literacy, virtual reality, media literacy.

Резюме:

Maqolada professional ta'lim tizimi o'quvchilarining raqamli kompetensiyalarini hukumatimiz qarorlarida berilgan raqamli savodxonlikka oid ayrim tushunchalar bilan qiyoslash va ta'lim dasturlari mazmuniga singdirish zarurati keltirilgan.

Резюме:

В статье рассматривается необходимость сопоставления цифровых компетенций учащихся системы профессионального образования с некоторыми концепциями цифровой грамотности, изложенными в постановлениях правительства, и интеграции их в содержание образовательных программ.

Summary:

The article presents the need to compare the digital competencies of students of the professional education system with certain concepts related to digital literacy given in the decisions of our government and to integrate them into the content of educational programs.

Professional ta'lim tizimi o'quvchilarini hayotga mos, zamon bilan hamnafas ravishda zamon talablariga javob bera oladigan bo'lajak mutaxassis sifatida tarbiyalashda, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim o'rin utadi.

Bugungi kun ilm-fanida "Bilim-ko'nikma-kompetensiya" uchligida "kompetensiya" so'zi lug'aviy jihatdan "bilim" va "ko'nikma"ga qaraganda ko'proq muhim va ustivor hisoblanmoqda. Ilmiy munozaralarda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi yuzasidan ko'plab munozaralar mavjud.



Mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda “Kompetensiya” va “Kompetentlik” tushunchalariga turlicha o‘ziga xos ta’riflar berib o‘tilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 7-avgustdagi 466-son qarorida, “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui, Kasbiy kompetensiya — bilim, ko‘nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati” deb ta’rif berilgan.

O‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim darajasi o‘quvchilari malaka talabida belgilangan bitiruvchilarining umumiy kompetensiyalari ro‘yxatida, “UK-8. Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” kompetensiyasi berilgan.

Borthwick va Hansenlar “pedagogik ta’limda raqamli imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratilgan an’anaviy yondashuvlar o‘quvchilarning “raqamli savodxonligini” ilgari surishga qaratilgan” deydi o‘z ishlarida [4]. Raqamli savodxonlik - kompyuterlar yordamida turli xil formatlarda taqdim etilgan ma’lumotlarni tushunish va ulardan keng ko‘lamda foydalanish qobiliyati.[5]

Raqamlik kompetentlik so‘ziga ta’rif keltirsak raqamli kompetentlik bu – bilim olish, ishlash va jamiyatda ishtirok etish uchun raqamli texnologiyalardan ishonchli, tanqidiy va mas’uliyatli foydalanish va ular bilan o‘zaro ta’sir qilishni o‘z ichiga oladi. U axborot va katta ma’lumotlar bilan ishlash savodxonligi, aloqa va hamkorlik, media savodxonligi, raqamli tarkibni yaratish (jumladan dasturlash), xavfsizlik (raqamli farovonlik va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq kompetensiyalar), intellektual mulk bilan bog‘liq savollar, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda raqamli savodxonlik XXI asr asosiy ko‘nikmalaridan biri bo‘lib nafaqat bir insonni balki butun jamiyatni bu bilan butun bir davlat fuqorolarini raqamli savodxonlik ko‘nikmasini oshirish muhim sanaladi. Individing raqamli savodxonlik darajasi uning rivojlanib borayotgan texnologiyalar asrida sharoitga moslasha olishi, katta axborotlar Ichida o‘zi uchun zarurini topa olishi, yuborishi va zamonaviy raqamli multimedia imkoniyatlaridan foydalana olishi bilan belgilansa, butun bir davlatning raqamli savodxonlik darajasi har bir fuqoroning axboriy savodxonlik darajasi bilan aniqlanadi. Bu esa o‘z vaqtida xalqning madaniyatlilik darajasini belgilab, raqamli iqtisodiyotga o‘tish vaqtida davlatni innovatsion rivojlanish darajasini oldinga olib chiqa olishi imkoniyatlarini beradi. Rivojlanayotgan davlatlar o‘z e’tborini axolining raqamli savodxonligi va uning davlatning rivojlanishidagi



ro'liga qaratmoqda. Jumladan Amerika "XXI asr ko'nikmalarini qo'llab quvvatlash" tashkilotlarining takidlashicha raqamli savodxonlik eng muhim rivojlantirilishi dolzarb bo'lgan ko'nikmalardan biri sanaladi. Rivojlangan davlatlar raqamli savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun davlat darajasida dasturlar ishlab chiqishgan. Amerika Qo'shma shtatlarida axolining raqamli savodxonligini oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish uchun davlat dasturi joriy qilinib unga mos ravishda infrotuzilma shakllantirishni moliyalashtirgan. Amerikada raqamli savodxonlikni joriy qilish modelida ekspert institutlarga ham alohida vazifalar yuklatilgan. Yaponiya modeli esa Amerikadan farqli ravishda nazariy bilim bilan cheklanmagan holda amaliyotga yo'naltirilgan natijaviylikni nazarda tutdi. Yevropada ham Amerika kabi raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun dastur joriy qilinib unda asosan axolini raqamli savodxonligini oshirish masalasi 3 darajaga ajratilgan. Bunda hayot davomida tahsil olish prinsipi asosida davlat, ta'lim muossasalari, jamiyatda ta'lim olish nazarda tutilgan. Davlat dastur ishlab chiquvchi ta'lim muossasalari o'z navbatida raqamli savodxonlikga oid mavzularni alohida fan doirasida emas balki boshqa kurslarning tarkibiga kiritganlar. Bu modeldagi jamiyatning ro'li kutubxona asotssatsiyasiga yuklatilgan ya'ni kitobxonlikni keng joriy qilish orqali raqamli savodxonlikni oshiradilar.

Mamlakatimizda o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichi o'quv rejalariga ko'ra, "Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari" fani orqali raqamli kompetensiyani shakllantirish ko'zda tutilgan. Fan dasturida quyidagi mavzularga oid zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallash ko'zda tutilgan:

- jamiyatda axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish;
- kompyuterda asosiy va qo'shimcha qurilmalarni o'rnatish;
- Windows operatsion tizimini o'rnatish va sozlash;
- fayllar va kataloglar bilan ishlash;
- kompyuterda antivirus dasturlarini o'rnatish;
- ofis dasturlarida ishlash;
- Microsoft Access dasturida ishlash;
- internet tarmog'ida ishlash;
- lokal kompyuter tarmog'ida ishlash;
- elektron pochta bilan ishlash;
- avtomatlashtirilgan tizimlarda ishlash;[7]

O'quvchilarning raqamli kompetensiyasi mazmunini, uning tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmonida ko'rsatilgan quyidagi vazifalarni singdirish orqali isloh qilish mumkin:

“...tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va «bulutli» hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;

- axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish;

- raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o'rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish [3]“. Ushu farmon talablaridan ko'rinib turibdiki, jamiyatda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarga oid zaruriy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishligi belgilangan.

Raqamli savodxonlik - bu raqamli texnologiyalar va Internet resurslaridan xavfsiz, samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'plami. Bunga quyidagilar kiradi: raqamli iste'mol; miqdoriy kompetentsiya; raqamli xavfsizlik. Raqamli iste'mol - ish va hayot uchun Internet xizmatlaridan foydalanish. Bunga quyidagilar kiradi: statsionar Internet, mobil Internet, raqamli qurilmalar, Internet - ommaviy axborot vositalari, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, Davlat xizmatlari, telemeditsina, bulutli texnologiyalar. Raqamli kompetentsiya - texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Bularga quyidagilar kiradi: ma'lumot qidirish, raqamli qurilmalardan foydalanish, ijtimoiy media funksiyalaridan foydalanish, moliyaviy operatsiyalar, onlayn xaridlar, axborotni tanqidiy qabul qilish, multimedia kontentini ishlab chiqarish, qurilmalarni sinxronlashtirish. Raqamli xavfsizlik - Onlayn xavfsizlik asoslari. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kuchli parol, huquqiy tarkib, xulq-atvor madaniyati, obro'e'tibor, Etika, ma'lumotlarni saqlash, zaxira nusxalari.

Biz, ushbu keltirilganlardan foydalanib, ta'lim mazmunida quyidagilar bo'lishligini ta'kidlaymiz, ya'ni:



1. Bulutli texnologiyalardan foydalanish. Bunda google qidiruv tizimining bepul xizmatlari: elektron pochta, google disk, google docs, google sheets, google forms, google classroom imkoniyatlari;

2. Sun'iy intellektdan kasbiy faoliyatda foydalanish. Openai.com, chatgpt.com, poe.com imkoniyatlari;

3. Masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini egallash. Onlayn kurslarda ro'yxatdan o'tish, o'qish, sinovlardan o'tish va sertifikatlarga ega bo'lish;

4. O'quvchilarni raqamli savodxonligini baholash. Bunda axborot savodxonlik, kompyuter savodxonlik, mediasavodxonlik va texnologik innovatsiyalarga intilish qobiliyatlarini shakllantirish.

5. Davlat xizmatlari portalidan foydalanish. Turli ma'lumotnomalarni elektron masofadan turib olish, elektron kalitlar olish va foydalanish.

Demak, professional ta'lim tizimi o'quvchilarining raqamli kompetensiyasi, ularning axborot savodxonlik, kompyuter savodxonlik, mediasavodxonlik va texnologik innovatsiyalarga ijodiy munosabat kabi komponentlari rivojlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlat va jamiyatning rivojlanish strategiyasida belgilangan vazifalarni ta'lim dasturlariga singdirish - zamon talabiga mos kompetentli mutaxassisni shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 7-avgustdagi 466-son qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 5.11.03.01 - Ishlab chiqarish ta'limi (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligining malaka talabi.

4. Borthwick, A., & Hansen, R. (2017). Digital literacy in teacher education. Are teacher educators competent? *Journal of Digital Learning in Teacher Education*, 33(2), 46-48.

5. Ayupov R.H., To'xtayeva F.Sh. Raqamli iqtisod va 4.0 industriyaning korporativ boshqaruvdagi ro'li "Amaliy matematika va information texnologiyalarning dolzarb muammolari" Xalqaro anjuman tezislari to'plami Toshkent, 2019. 186-187 b 5.



TA'LIMDA SMART TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MUAMMO VA YUTUQLARI

Aliqulov A.

Bosh ilmiy – metodik markaz tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: SMART texnologiyalar, masofaviy o'qitish, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlil.
Ключевые слова: SMART-технологии, дистанционное обучение, искусственный интеллект, анализ данных.

Key words: SMART technologies, distance learning, artificial intelligence, data analysis.

Резюме:

“Ta’limda SMART texnologiyalarini qo’llash muammo va yutuqlari” deb nomlangan ushbu maqola yangi smart pedagogik texnologiyalar yo’nalishiga bag’ishlangan bo’lib, unda turli sohalarida dars beruvchi professor-o’qituvchilar uchun dars berishning bir qancha interfaol uslubda bo’lgan zamonaviy smart ta’lim usullari hamda dasturiy-texnik vositalarining imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada yoritilgan interfaol muloqot tizimlari dars davomida talabalar bilan bevosita muloqot qilishning zamonaviy dasturiy-texnik vositalari bo’lib, ular vositasida o’qituvchi va tinglovchilar orasida real vaqt rejimida to’g’ridan-to’g’ri axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Bunday dasturiy-texnologik tizimlarda kompyuter, o’qituvchi va talabalar orasida simsiz aloqa mavjud bo’lib, standart taqdimotlar dasturiy ta’minoti orqali ma’lumot almashiniladi. Talabalarning tizim bilan aloqasi mahsus distantsion pultlar, mobil telefonlar, shaxsiy kompyuterlar yoki Internet orqali amalga oshirilishi mumkin bo’ladi. Bunday texnologiyani turli xil nomlar bilan ataladi, masalan, talabalardan ma’lumot qabul qiluvchi tizimlar, real vaqt rejimida javob beruvchi tizimlar, testlashtiruvchi tizimlar, interfaol aloqa tizimlari, talabalarning muloqot tizimlari va boshqalar. Maqola malaka oshirish institutlari va oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilari uchun mo’ljallangan.

Резюме:

Направлению новых интеллектуальных педагогических технологий посвящена данная статья под названием «Проблемы и достижения использования SMART-технологий в образовании», в которой представлены несколько интерактивных методов обучения для преподавателей, преподающих в различных областях. Возможности современных интеллектуальных методов обучения и программного обеспечения, и технические инструменты будут выделены. Интерактивные коммуникационные системы, рассматриваемые в статье, представляют собой современные программно-технические средства непосредственного общения с обучающимися во время урока, с помощью которых осуществляется прямой обмен информацией между преподавателем и аудиторией в режиме реального времени. В таких программно-технологических системах между компьютерами, преподавателями и учащимися осуществляется беспроводная связь, а обмен информацией осуществляется посредством стандартного презентационного программного обеспечения. Студенты смогут общаться с



системой через специальные пульта дистанционного управления, мобильные телефоны, персональные компьютеры или Интернет. Такие технологии называют по-разному, например, системы получения информации от студентов, системы реагирования в реальном времени, системы тестирования, системы интерактивного общения, системы общения студентов и т. д. Статья предназначена для профессоров и преподавателей институтов повышения квалификации и высших учебных заведений.

Summary:

This article entitled "Problems and Achievements of Using SMART Technologies in Education" is devoted to the direction of new intelligent pedagogical technologies, presenting several interactive teaching methods for teachers teaching in various fields. The capabilities of modern intelligent teaching methods and software. and technical tools will be highlighted. The interactive communication systems considered in the article are modern software and hardware tools for direct communication with students during a lesson, with the help of which a direct exchange of information between the teacher and the audience is carried out in real time. In such software and technology systems, wireless communication is carried out between computers, teachers and students, and the exchange of information is carried out through standard presentation software. Students will be able to communicate with the system through special remote controls, mobile phones, personal computers or the Internet. Such technologies are called differently, for example, systems for receiving information from students, real-time response systems, testing systems, interactive communication systems, student communication systems, etc. The article is intended for professors and teachers of advanced training institutes and higher education institutions.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan tub islohatlar ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 202-yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini belgilash chora tadbirlari to'g'risida”gi 6079-son farmoni va uning ijrosidagi vazifalar ta'limda SMART texnologiyalarini keng qo'llash talablarini qo'yimoqda.

Bu bizga ta'limda bir qator imkontyalarni yaratish bilan bir qatorda dolzarb tashkiliy ishlarni bajarishni talab qiladi. SMART texnologiyalarini ta'limda qo'llanilishi jarayoni ta'lim oluvchilardan raqamli texnologiyalardan foydalanish va amaliyotda qo'llay olish bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab qiladi. Ta'limning jadal rivojlanishi hamda raqamli texnologiyalarning rivojiga asoslangan raqamli jamiyat muhitida zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategiyalaridan biri bu ta'lim jarayoriga raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. SMART texnologiyalarini ta'limda qo'llash masofalar farqini yo'qqa chiqaradi, tinglovchining muoliyaviy ahvolidan qat'iy nazar har yerda ta'lim olish imkonini beradi. Ya'ni yurtimizning istalgan chetidan turib raqamli texnologiyalar yordamida internetga ulangan holda nufuzli oliy ta'lim muassasalari profesor o'qituvchilarining maruzalarini tinglashi shuningdek bilvosita joriy vaqtda savollar yuborib javob olishi mumkin. SMART ta'lim texnologiyalari ko'p miqtordagi ilmiy manbalar multimediyasining (audio, video, grafika) maksimal hilma-hiligini, tinglovchining talab va ehtiyojlariga

qaragan holda taklif etadi. SMART ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifalaridan biri tinglovchilar va o'qituvchilarga yuqori samaradorlikga erishish uchun sharoit yaratishning yangicha usli hisoblanishi.

SMART ta'lim texnologiyalarining eng muxim avfzaliklaridan biri tinglovchining individual ta'lim olish imkoniyatini taqdim etish hisoblanadi. Har-bir tinglovchining o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari bor. Shu boisdan tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini kuzatish va ularning ehtiyojlariga moslashtirish uchun ilg'or tahlil hamda suniy intellektga asosalangan algoritmlardan foydalaniladi. Ushbu individual shug'ullanish o'z bilim qabul qilish tezligida o'rganishlari, ko'proq yordamga muhtoj bo'lgan sohalariga etibor berishlari va ularning qiziqishlariga yo'naltirilgan tarzda ta'lim olishlarini taminlaydi. Ma'lumot bizning qo'limizda mavjud bo'lgan dunyoda faqat yodlashning o'zi yetarli emas. SMART ta'lim tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va tahliliy ko'nikmalarga urg'u beradi. Ushbu ko'nikmalar yangi muammolarga moslashish, ongli qarorlar qabul qilish va jamiyatga ijobiy hissa qo'shish uchun zarurdir.

SMART texnologiyalari hozirgi kunda talimda keng ko'lamda qo'lanilmoqda misol qilib aytishimiz mumkinki Tube.edu.uz o'quv portali. Barcha OTMlarning masofaviy o'qitish platformalari vazirlikning <https://tube.edu.uz/> yagona media portaliga birlashtirildi. Ya'ni oliy ta'lim muassasalarining masofaviy ta'lim platformalariga o'tish yagona portali orqali amalga oshiriladi. Bu esa OTMlar o'rtasida resurslardan hamkorlikda foydalanish imkonini berdi (1-rasm). Ushbu portalda biz barcha fan tarmoqlarida video darslarni korishimiz mumkinligi bilan bir qatorda ilm fandagi dolzarb mavzular yuzasidan turlicha falsafiy qarashlarni turli oliy ta'lim muassasa o'qituvchilarining nazariy va amaliy bilimlari orqali solishtir imkoniga ega bo'lamiz. Bu platformadan foydalanish mutloqo bepul hamda foydalanish uchun qulay interfeys bilan ta'minlangan. Platformadan foydalanishda bizga dastaval menyular satri, qidiruv, tilni o'zgartirish va tizimdan ro'yxatdan o'tish imkoniytlarini taqdim qiladi. Qidiruv tizimi orqali siz o'zingizni qiziqtirgan mavzuda yoki yo'nalishdagi video darslarni topishingiz mumkin. Bu platforma tinglovchiga video taqdim qilinish vaqtini belilash, tezlashtirish yoki sekinlashtirish imkonini berishi tinglovchiga keng qulayliklarni yaratadi.

Hozirda ushbu platformaga foydalanuvchilar tomonidan bo'layotgan kunlik murojaatlar soni **50 ming**dan ortiqni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida, platformaning real vaqt rejimidagi yuklamasi ortishiga olib keldi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida platforma joylashtirilgan server qurilmalarining texnik imkoniyatlari kengaytirildi va internet tezligi 2 barobarga



1-rasm. Tube.edu.uz media portali.

oshirildi. Ayni vaqtda platformaning texnik holati bo'yicha barcha muammolar bartaraf etildi. Shuningdek, talabalarning bir qismi respublikaning chekka hududlarida yashashlarini hisobga olib, platformadan foydalanish joylardagi simli va mobil internet tezligiga ham bog'liq bo'lib qolmoqda. Talabalarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida barcha (**GSM standartidagi**) mobil aloqa operatorlari tomonidan ushbu platformadan foydalanishda internet trafiklari hisoblanishi vaqtincha to'xtatildi. Bu, ushbu portaldan foydalanishda hech qanday pulik trafiklar sarflanmasligini anglatadi.

Doimiy rivojlanish va bilimlarning tez yangilanish sharoitida insonning butun faoliyati davomidagi kompetensiyalarning uzliksiz rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimida eng tez fursatda o'sib boradi.

O'qituvchi kapitalining tasiri endi ta'limni yuqori darajada rivojlantirish uchun yetarli emas. Faqat mehnat resurslari bilim hajmini oshirish uchun emas, balki ta'lim muhitining o'zini o'zgartirish kerak, ta'limning mazmun - mohiyati, uning metodlari, vositalari va sharoitlari sifat jihatdan tubdan o'zgartirilishi kerak. Bu shuni anglatdiki endi biz SMART ta'limga o'tishimiz kerak.

Analistik ko'nikmalar, murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmari, innovatsionlik – yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish qobiliyati va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari kabi kopetentsiyalarni rivojlantirish kerak. Profrrsor V.P Tixomirov bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning asosiy pozitsiyasini juda to'g'ri ifodalab bergan: "Eski ta'lim tizimi har qanday darajaga ko'tarilmasin, SMART jamiyatda ishlashga va hayotda uchraydigan muammolarni hal qilishga tayorlamaydi. SMART



texnologiyalarisiz yangi innovatsiyalarni amalga oshirish mumkin emas. Agar ta'lim tizimi rivojlanishning ushbu yo'lidan ortda qolsa, bu shu joyda to'xtash hisoblanadi". So'ngi o'n yillikda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi sezilarli darajada oshdi, har yili ishlab chiqaruvchilar professional faoliyat va aloqa uchun yangi qurilmalarni taklif qilishadi. Hozirgi va bundan keying zamonda bilim uzatish, yangi SMART texnologiyalarining platformalari yaxshilanishini va SMART qurilmalardan keng foydalanishni talab qiladi. Bu bizga kadrlarni qayta tayorlash masalasida ham dolzarb mavzularni oldimizga qo'yadi. Har bir kelajak ta'lim beruvchisi zamon bilan ham nafas bo'lib SMART texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, yani oddiy misol sifatida aytishimiz mumkin xonadagi SMART doskadan tinglovchilarga ta'lim berishda maksimal darajada foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bilim va texnologiyalarni yangilash tezligi ta'lim tizimi sifatining mezoni sifatida qaralishi kerak. Microsoft Power Point yoki Macromedia Flash kabi dasturiy paketlarda tayyorlangan multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish allaqachon odatiy holga aylanib bormoqda. Biroq, odatiy taqdimot texnologiyalari (Microsoft Power Point, Macromedia Flash) bilan bir qatorda, slayd-shou ko'rinishidagi taqdimotlardan uzoqlashishga imkon beradigan yangi interaktiv texnologiyalar ta'lim sohasiga kirib bormoqda. Ta'lim sohasiga bog'liq SMART texnologiyalar quyidagilardan iborat:

Tinglovchilarga bilim yetkazish uchun turli gadjetlardan (smartfonlar, planshetlar va boshqa shunga o'xshash qurilmalar) qanday foydalanish;

Integratsiyalashgan intellektual virtual o'quv muhitini yaratish vositasi sifatida;

Interfaol jihozlardan foydalangan holda materialni taqdim etishning yangi shakli (interfaol SMART doskalar, simpodium interaktiv displeylari) ma'ruzachi tomonidan o'z nutqi davomida yaratilgan taqdimotdir - bu yerda va hozir yaratilgan taqdimot. SMART Boards interaktiv doskalarida siz maxsus marker bilan yozishingiz, o'quv materialini namoyish qilishingiz va ekrandagi tasvir ustida yozma mulohaza yuritishingiz mumkin. Bunda SMART Board interaktiv doskada yozilgan barcha ma'lumotlar tinglovchilarga uzatiladi, magnitli tashuvchilarda saqlanadi, chop etiladi va darsda bo'lmagan tinglovchilarga elektron pochta orqali yuboriladi. SMART Board interaktiv doskasida ma'ruza davomida yaratilgan o'quv materialini o'rnatilgan videoregistrator yordamida yozib olinadi va uni ko'p marta takror tinglash mumkin. Doskani interaktiv qilish mumkin bo'lgan bir nechta texnologiyalar mavjud. Birinchisi texnologiya rezistiv sensorli texnologiya, ikkinchisi SMART



Technologies kompaniyasining DviT texnologiyasi. U ekranning burchaklarida joylashgan maxsus raqamli videokameralardan foydalanadi. Bundan tashqari, maxsus ulagichlar yordamida siz istalgan plazma panelini interaktiv doskaga aylantirishingiz mumkin. Shuningdek, SMART Boards interaktiv doskalarining barcha xususiyatlarini maksimal darajada oshirish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar yaratilgan (SMART Notebook, Bridgit, SynhronEyes). Ushbu dasturlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. SMART Notebook matn va ob'ektlar bilan ishlash, ma'lumotni saqlash va yozma matnni bosma matnga aylantirish imkonini beradi. Bridgit dasturi butun dunyo bo'ylab hamkorlarga oson va tez taqdimotlar qilish va hujjatingiz bo'yicha fikr-mulohazalarni qabul qilish imkonini beradi. Umumiy ish stolida nutqingizning asosiy nuqtalarini ajratib ko'rsatishingiz bilan, dastur darhol barcha qaydlaringizni boshqa konferentsiya ishtirokchilarining ekranlarida real vaqt rejimida ko'rsatadi. O'qituvchi SynhronEyes dasturiy majmuasidan foydalanib, tinglovchilar nima qilayotganini kuzatishi, doskada barcha tinglovchilar ishi monitorlarini ko'rsatishi, tinglovchilar monitorlarini bloklashi, interfaol doskadan barcha kompyuterlarga test kabi o'quv materiallarini yuborishi mumkin. Interfaol doskada ishlash jarayonida tinglovchilarning diqqatini jamlash yaxshilanadi, o'quv materialli tezroq o'zlashtiriladi va buning natijasida har bir tinglovchining faoliyati yaxshilanadi. Ta'lim sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish reproduktiv bilimlarni uzatishning eski sxemasidan ta'limning yangi, ijodiy shakliga o'tishga olib keladi. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri tinglovchilarda bilim olish uchun barqaror motivatsiya yaratish bo'lsa, ikkinchisi bu bilimlarni ijodiy yechimlar orqali o'zlashtirishning yangi shakllari va vositalarini izlab ta'limda qo'llash.

SMART ta'lim texnologiyalarining kelajakdagi istiqbollari juda porloq hisoblanib jammiyatda ushbu sohaga bo'lgan talab va ehtiyojning yuqoriligini hamda zamonaviy ta'limning tababi ekanligini inobatga olgan holda bu sohada salmoqli ishlar olib bolishi kerak. SMART ta'lim texnologiyalarini sohasidagi ko'nikmalarni dastavval o'qituvchilarga targ'ib qilish lozim. Uzluksiz malaka oshirishi tizimida barcha malaka oshirish kurslari mazmunini shakllantirishda SMART-ta'limning sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) texnologiyasining ekspert tizimlari hamda ma'lumotlar tahlili (Data analisis) texnologiyasining tahlil, tashxis va bashorat metodlarini joriy etish hamda pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli SMART-malaka oshirish kursini maktab ta'limi va professional ta'lim tizimi malaka oshirish kurslariga tadbiiq etish kerak.



Xulosa. Dunyo raqamli asrda rivojlanishda davom etar ekan, ta'lim ham u bilan birga rivojlanishi kerak. Aqlli ta'lim shunchaki tendentsiya emas; bu zaruratdir. Bu talabalarga kelajakka mos keladigan ko'nikmalarni beradi, inklyuzivlik va mavjudlikni ta'minlaydi va o'rganish tajribasini yaxshilash uchun texnologiya imkoniyatlaridan foydalanadi. Aqlli ta'limni qo'llash orqali biz kelajak avlodni doimo o'zgaruvchan dunyoning qiyinchiliklari va imkoniyatlariga qarshi turish uchun yaxshiroq jihozlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Алексеева, Л. Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л.Н. Алексеева// Учитель. - 2004. - № 3. - с. 78.
2. Бычков, А. В. Инновационная культура/ А. В. Бычков// Профильная школа. - 2005. - № 6. - с. 83.
3. Дебердеева, Т. Х. Новые ценности образования в условиях информационного общества/ Т. Х. Дебердеева// Инновации в образовании. - 2005. - № 3. – с. 79.
4. Кваша В.П. управление инновационными процессами в образовании. Дис. канд. пед. наук. М.,1994. – 345с.
5. D.L. Rogers “A paradigm shift: Technology Integration for Higher Education in the New Millennium”. Educational Technology Review, pp 19-33, 2000. www.editlib.org/p/8058/article_8058.pdf
6. M. Fleury and S. S. Al-Majeed, "Streaming uncompressed HD over WiFi channels", in Proc. of Int'l Broadcasting Conf. (IBC), Amsterdam, Netherlands, 2012.
7. C. Sanphan and S. Suksakulchai “Interactive virtual whiteboard for collaboration learning,” EDU-COM Int'l Conf., 2006, pp 100-104.
8. Y. Shi, Z. Yang, H.H. Yang, and S. Liu, “Study on the research hotspots of interactive whiteboards in education,” in Proc. of the 4th Int'l Conf. on Internet Multimedia Computing and Service, 2012, pp. 209-2012.



RAQAMLI PEDAGOGIK TA'LIMDA ZAMONAVIY BAHOLASH TEKNOLOGIYALAR

Ismatova Sh.

O'zDJTU, ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida v.b.dotsenti (PhD)

Tayanch so'zlar: raqamli baholash, texnologiya, qayta aloqa, malaka, ta'lim natijalari, test.

Ключевые слова: цифровое оценивание, оценивание, обратная связь, навык, результаты обучения, тест.

Key words: digital assessment, assessment, feedback, skill, learning outcomes, test.

Резюме:

Bu maqolada talablarning bilim va ko'nikmalarini elektron vositalar orqali baholash usuli bo'lgan raqamli baholash butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarida hal qiluvchi yangilik sifatida paydo bo'lgani haqida yoritildi. Ushbu maqola raqamli baholashning ahamiyati, afzalliklari, muammolari va kelajakdagi istiqbollarini o'rganib chiqadi va u ta'lim landshaftini qanday o'zgartirayotganiga oydinlik kiritadi.

Резюме:

В этой статье рассказывается о том, как цифровое оценивание, метод оценки требований к знаниям и навыкам с помощью электронных средств, стало важнейшей инновацией в системах образования во всем мире. В этой статье рассматриваются важность, преимущества, проблемы и будущие перспективы цифрового оценивания, а также проливается свет на то, как оно меняет образовательный ландшафт.

Summary:

This article highlights how digital assessment, a method of assessing the knowledge and skills of requirements through electronic means, has emerged as a crucial innovation in education systems around the world. This article examines the importance, benefits, challenges, and future prospects of digital assessment and sheds light on how it is changing the educational landscape.

So'nggi yillarda texnologiyaning jadal rivojlanishi hayotimizning turli jabhalarini o'zgartirdi va ta'lim ham bundan mustasno emas. Raqamli baholash o'quvchilar faoliyati va tushunishini baholash uchun texnologiyadan foydalanishni anglatadi. Bunga onlayn viktorinalar va interaktiv testlardan tortib talabalarining vaqt o'tishi bilan erishgan yutuqlarini kuzatuvchi murakkab ma'lumotlar tahliligacha bo'lgan bir qator vositalar va platformalar kiradi. An'anaviy qog'ozga asoslangan baholashdan farqli o'laroq, raqamli baholash

talabalar faoliyatini to‘plash, tahlil qilish va hisobot berish uchun raqamli platformalardan foydalanadi.

Raqamli baholashning afzalliklari:

1. Tezkor fikr-mulohaza: Raqamli baholashning eng muhim afzalliklaridan biri bu tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish qobiliyatidir. Talabalar real vaqt rejimida natijalar va ularning faoliyati haqida tushunchalar oladilar, bu ularga takomillashtirish sohaslarini aniqlash va shunga mos ravishda o‘qish strategiyalarini o‘zgartirish imkonini beradi.

2. Kengaytirilgan ishtiroki: Raqamli baholashlar ko‘pincha videolar, simulyatsiyalar va interaktiv savollar kabi multimedia elementlarini o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlar baholashni yanada jozibador va zavqli qiladi, shu orqali o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqishini oshiradi.

3. Mavjudlik va qulaylik: Raqamli baholash yordamida talabalar internetga ulangan istalgan joydan test topshirishlari va topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Ushbu moslashuvchanlik turli xil o‘quv muhitlari va jadvallarini o‘z ichiga oladi, bu esa ta’limni kengroq auditoriya uchun qulayroq qiladi.

4. Ma’lumotlarga asoslangan insights: Raqamli baholash platformalari katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plashi va tahlil qilishi mumkin, bu esa o‘qituvchilarga o‘quvchilar faoliyati va o‘rganish usullari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Ma’lumotlarga asoslangan ushbu yondashuv ko‘proq shaxsiylashtirilgan va maqsadli ko‘rsatmalar beradi.

5. Samarali ma’muriyat: Baholash jarayonini avtomatlashtirish baholash va hisobni yuritish kabi ma’muriy yuklarni kamaytiradi. Bunday samaradorlik o‘qituvchilarga ko‘proq o‘qitishga e’tibor qaratishga va ma’muriy vazifalarga kamroq e’tibor qaratishga imkon beradi.

Raqamli baholashning qiyinchiliklari:

1. Digital Divide: Hamma talabalar raqamli qurilmalar va ishonchli internet ulanishlaridan teng foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ushbu nomutanosiblik ta’limdagi tengsizliklarni kuchaytirishi va samarali raqamli baholash uchun to‘siqlar yaratishi mumkin.

2. Xavfsizlik va maxfiylik masalalari: Talabalar ma’lumotlarini himoya qilish va baholashning yaxlitligini ta’minlash muhim masalalardir. Ta’lim muassasalari ma’lumotlarning buzilishi va ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun mustahkam xavfsizlik choralari ko‘rishlari kerak.

3. Texnik muammolar: Tizimdagi uzilishlar yoki dasturiy ta’minotdagi xatolar kabi texnik nosozliklar baholash jarayonini buzishi va o‘quvchilar faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Iшонchli texnologiya va qo‘llab-quvvatlash tizimlari ushbu xavflarni minimallashtirish uchun zarurdir.



4. Haqiqiylik va akademik yaxlitlik: Baholar individual talabalarning qobiliyatlarini to'g'ri aks ettirishini ta'minlash va aldash yoki plagiatning oldini olish raqamli muhitda qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu tashvishlarni bartaraf etish uchun ilg'or tekshiruv vositalari va yaxlitlik choralari zarur.

5. Moslashish va o'qitish: O'qituvchilar va talabalar raqamli baholash vositalaridan samarali foydalanish uchun treningni talab qilishi mumkin. An'anaviy usullardan raqamli usullarga o'tish qiyin bo'lishi mumkin va etarli yordam va resurslarni talab qiladi.

Raqamli baholashning rivojlantirish:

Raqamli baholashning kelajagi doimiy innovatsiyalar va integratsiya bilan tavsiflanadi. Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish kabi rivojlanayotgan texnologiyalar baholashning aniqligi va moslashuvchanligini yanada oshirish imkoniyatiga ega. Sun'iy intellektga asoslangan platformalar pedagoglarning javoblari asosida real vaqt rejimida sozlanishi, ularning qobiliyatlarini aniqroq baholash imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan baholashlarni taklif qilishi mumkin.

Shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari rivojlanishi bilan ular real dunyo senariylarini yaxshiroq taqlid qiladigan immersiv baholash tajribalarini yaratishi mumkin. Ushbu yutuqlar talabalarning muammoni hal qilish ko'nikmalari va bilimlarini amaliy qo'llash haqida chuqurroq tushuncha berishi mumkin.

Bu borada, blokcheyn texnologiyasining davom etayotgan rivojlanishi akademik natijalarni tekshirish va almashish usulini inqilob qilishni va'da qilmoqda. Bu raqamli baholash va sertifikatlarning ishonchliligi va xavfsizligini oshirishi mumkindir.

Xulosa. Raqamli baholash o'quvchilar faoliyatini baholashning innovatsion va samarali usullarini taklif qilish orqali ta'limni o'zgartiradi. U hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni taqdim etsa-da, uning foydalari, masalan, tezkor fikr-mulohaza, faollik va ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar – o'qituvchilar va talabalarning o'rganish va baholashga qanday yondashishlarini qayta shakllantirmoqda. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, raqamli baholash, ehtimol, ta'lim tajribasining ajralmas qismi bo'lib, shaxsiylashtirilgan va samarali o'rganish imkoniyatlariga yo'l ochadi.

Ushbu dinamik landshaftda raqamli baholashni qamrab olish va uning muammolarini faol hal qilish uning to'liq salohiyatidan foydalanish va barcha talabalar uchun adolatli, samarali va qiziqarli ta'limni ta'minlash uchun kalit bo'ladi.



Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakalarni baholash tizimin tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chor-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4939-son qarori. 2020 yil 31 dekabr.
3. Black P. & Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. – 5(1). – P. 7-74.
4. I Shakhnoza, R Laziza, B Feruza. “THE ROLE OF MIND MAPPING TO IMPROVE READING SKILL IN A2 LEARNERS”. Western European Journal of Linguistics and Education, vol. 2, no. 5, May 2024, pp. 3403, <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/997>.
5. Irons A. Enhancing Learning through Formative Assessment and Feedback. New York: Routledge. 2008.
6. Ismatova, S. M., and N. D. Mukhamedjanova. “TEACHING ENGLISH IN INCLUSIVE EDUCATION BASED ON SMART TECHNOLOGY. Results of National Scientific Research International Journal, 2 (2), 101–106.” (1899).
7. Muradkasimova, K. (2020). Enhancing Assessment Procedure by Applying Effective Tips. In Inter Conference.



O'QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI

Mirzukurrov M.M.

Xalqaro Nordik universiteti talabasi

Tayanch so'zlar: kreativlik metodika fikrlash, ta'lim, tafakkur, belgi, mashq, ijodkorlik, erkinlik.

Ключевые слова: творчество, методическое мышление, воспитание, мышление, знак, упражнение, творчество, свобода.

Key words: creativity, methodology, thinking, education, character, exercise, thinking, creativity, freedom.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ kompetensiyani rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim bo'lgan o'qituvchining vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlardan o'qituvchilar va ota-onalar o'zilar uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Резюме:

В данной статье представлены необходимая информация и ресурсы о задачах учителя, которые следует использовать в целях развития творческой компетентности учащихся начальных классов. Из информации, представленной в статье, педагоги и родители смогут получить для себя необходимые рекомендации.

Summary:

This article provides the necessary information and resources on teacher responsibilities that should be used to improve creative competences in primary school students. Based on the information provided in the article, teachers and parents can be used to get the advice they need.

Kirish. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQShlik olim D. Simpson qo'llagan. Ushbu ibora orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. *Kreativlik* (lot. *creatio* – yaratish, kashf qilish, vujudga keltirish) – bu insonning g'ayrioddiy mulohaza, g'oya, bera olish, muammolarni yangicha, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kechib o'zgacha fikrlash qobiliyatidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. K. Rodjers (1944) kreativlik deb yangicha qarash, muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi.



Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Dj. Gilford tomonidan intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati hisoblanib, uni o'zni-o'zi takomillastirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liqdir.

Kreativlik (inglizcha. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchan, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning ongida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

5) bolalarga katta odamlardek e'tibor bilan munosabatda bo'lish

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkalchilikdan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda ularga dakki berish

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining munosib baholanmasligi;

4) boshqalarga to'be bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama munosabatga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng muloqotlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostidaq amalga oshadigan jarayon, degan not'g'ri fikrni tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 ta asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:



1. Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra inson o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning muntazam shakllanishi ko'zga tashlanadi.

2. O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili. O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Bu o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o'quvchi o'zini pedagogik ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O'qituvchining o'rganilayotgan fan bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida o'quvchilarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O'quvchilarni o'rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o'qish o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo'lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: «O'quvchining o'quvbiiluv faoliyati nafaqat qiziqarli o'quv materialini va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta'lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo'lgan muhitda o'quvchi o'quv topshiriqlarini oson o'zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi». O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bo'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr laboratoriyasiga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1. U o'quvchilarni , ilmiyman,tiqiy, , didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

2. U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi.

3. U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg'usini



vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil kashf etilishi olingan bilimlarni unutmazligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o'quvchilarning o'quv jarayoniga munosabati o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ta'sir jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o'quv natijalariga qo'yiladigan baho tizimiga bog'liqligini ko'rsatdi. Kreativlik va o'zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog'liq. Zero, faqatgina yangicha yondashuv asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o'z ifodasini topadi. Pedagogik kreativlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o'tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog'lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g'alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkorlik bo'lmagan joyda, ma'muriyatchilik va o'qituvchining irodasi bilan dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga rahna solinsa, ijodiy hamkorlik barham topadi. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda har bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali ham maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali



o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil mano anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

Xulosa. Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagilar xulosa sifatida ishlab chiqildi:

1) avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo'lishi. O'qituvchi o'quvchilarga erkinlikni, albatta, me'yorida ta'minlab berishi lozim;

2) boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu -bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtainazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni o'qituvchilar ma'suliyatli va e'tiborli bo'lish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Hato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.



3) muayyan omillar o'quvchilarda kreativlik sifatlari, malakalarining rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. "Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016
7. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2003. – 276 b.
8. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent:



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI PEDAGOGLARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Meliboyev A.R.

Professional ta'limni rivojlantirish instituti dotsenti v.b., PhD

Tayanch so'zlar: raqamli kompetensiya, raqamli savodxonlik, raqamli texnologiya, bulutli texnologiya, buyumlar internet, virtual haqiqatlar (VR), sun'iy intellekt.

Ключевые слова: цифровая компетентность, цифровая грамотность, цифровые технологии, облачные технологии, Интернет вещей, виртуальная реальность (VR), искусственный интеллект.

Key words: digital competence, digital literacy, digital technologies, cloud technologies, Internet of Things, virtual reality (VR), artificial intelligence.

Резюме:

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida professional ta'lim tizimi pedagoglarining raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va ko'nikmalari hamda kompetensiyalarini rivojlanib borishiga hissa qo'shayotgan bulutli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, buyumlar interneti, virtual haqiqatlar (VR), sun'iy intellekt, shuningdek pedagoglarning raqamli savodxonligi va kompetensiyalari to'g'risida so'z yuritilgan.

Резюме:

В этой статье рассматриваются облачные технологии, использование цифровых технологий в образовании, интернет вещей, виртуальная реальность (VR), искусственный интеллект, а также цифровая грамотность и компетенции педагогов, которые способствуют развитию знаний и навыков и компетенций педагогов системы профессионального образования в области цифровых технологий в условиях цифровой экономики.

Summary:

This article discusses cloud technologies, the use of digital technologies in education, the Internet of Things, virtual reality (VR), artificial intelligence, as well as digital literacy and teacher competencies, which contribute to the development of knowledge and skills and competencies of teachers of the professional education system in the field of digital technologies in the digital economy.

Dunyoni idrok etish va talqin qilishning yangi usullari, madaniy, ijtimoiy jarayonlarning tez o'zgruvchanligi, texnologiya, raqamlashtirish, hayotning ko'plab sohalarini robotlashtirish, zamonaviy ijtimoiy sharoit va o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi paradigmalarni joriy qilish zamonaviy ta'lim



tendensiyalariga mos ravishda ta'lim sifatini takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda "Pedagogning maqomi" to'g'risida qoninning imzolanishi pedagoglarga bir qator imtiyozlar yaratib, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish majburiyati belgilab qo'yildi [1]. Qonunda ko'rsatilganidek, pedagoglar kasbiy faoliyatida, dars mashg'ulotlarida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi hamda muntazam ravishda malakalarini oshirib borish zarurati vujudga keladi.

Pedagoglarning raqamli iqtisodiyot sharoitida malakasini oshirish mazmuniga turlicha qarashlar mavjud. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim vazifalar o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy faoliyatda olingan bilimlarni qo'llash sharoitida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida ko'rsatilgan quyidagi vazifalarni pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan pedagoglarning ish faoliyatiga singdirish mumkin deb hisoblaymiz:

“...tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va «bulutli» hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;

- axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish;

- raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o'rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish “[2]. Ushu farmon talablaridan ko'rinib turibdiki, jamiyatda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, hususan pedagoglar ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarga oid zaruriy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishligi belgilangan.



Raqamli texnologiya – bu axborotni “raqamlashtirilgan”, ya’ni universal raqamli shaklda taqdim etadigan, ma’lumotlarni yaratish, saqlash va tarqatish imkonini beradigan barcha texnologiyalardir. Raqamli texnologiyalarga: bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar, virtual reallik tizimlari kiradi.

Bulutli hisoblash (ingl. cloud computing) odatda, foydalanuvchiga kompyuter resurslari va quvvatini internet-xizmat ko‘rinishida taqdim etadi. Shunday yo‘l bilan foydalanuvchiga “sof” ko‘rinishdagi hisoblash resurslari taqdim etiladi.

Virtual reallik (VR) - texnik vositalar bilan yaratilgan insonga sezgi organlari orqali: ko‘rish, eshitish, teginish va boshqalar ta’sir ko‘rsatadigan dunyo. Reallik sezgilarining ishonarli majmuasini yaratish uchun real vaqtda virtual reallik xususiyatlari va reaksiyalarining kompyuter sintezi amalga oshiriladi[3].

Kengaytirilgan haqiqat - har qanday qurilmalarning ekrani orqali har qanday raqamli ma’lumotlarni (rasmlar, video, matn, grafika va boshqalar) proektsiyalash. Natijada, real dunyo sun’iy elementlar va yangi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi. Bu odatiy smartfon va planshetlar, kengaytirilgan reallik ko‘zoynaklari, statsionar ekranlar, proektsion moslamalar va boshqa texnologiyalar uchun dasturlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tasavvur qiling-a, ko‘chada yurib, atrof va insonlar haqida qo‘shimcha ma’lumotni ko‘rasiz. Kengaytirilgan haqiqatga misol tariqasida istirohat bog‘larida jismoniy dunyodagi ob’ekt va virtual dunyo o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatadigan belgilarni olishimiz mumkin. To‘ldirilgan reallik elementlariga ega o‘yinlar faol tarqalmoqda, kiyim-kechak sotiladigan do‘konlarda virtual oyna va jihozlash xonalari mavjud, to‘ldirilgan reallik allaqachon avtomobillarda sinovdan o‘tkazilmoqda. Sun’iy intellekt - tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo‘llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun’iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o‘ylash va ulardek yechim topishga yo‘naltiradigan texnologiyadir.

Raqamli texnologiyalar orqali pedagoglar tomonidan ta’lim berilsa, ta’lim oluvchilarga ta’lim olish, mavzuni idrok qilish jarayoni osonlashtiriladi. Bunda, ta’lim vositalari rolini turli multimediya vositalari, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi. Demak, raqamli ta’limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;

- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- "Raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga

ega bo'lish kabilar[4]. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar, IT markazlar ochilishi katta xizmat qiladi. Pedagoglarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar - Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Masalan, ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin. Bulutli texnologiyalar – internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir.

Zamonaviy o'qituvchilar quyidagi raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi taqozo etiladi:

1. Onlayn o'quv materiallarini topish va baholash;
2. Vizual jihatdan qiziqarli materiallar yaratish;
3. O'z ishi uchun virtual saytlar yaratish: bloglar, saytlar, platformalar;
4. Internetda ma'lumotlarni samarali izlash qobiliyati;
5. Kasbiy rivojlanish uchun ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish;



6. Raqamli ta'lim resurslarini taqdim etish;
7. Raqamli portfolio yaratish, qayta ishlash;
8. Multimedia kontentini yaratish, tahrirlash va tarqatish;
9. Zamonaviy pedagogik amaliyotlarni joriy etishda onlayn vositalardan foydalanish;
10. O'qituvchilar bilan online munosabatga kirisha olish.

Raqamli kompetentsiya – bu bo'lajak mutaxassisning raqamli muhitda qulay yashash, jamiyat bilan o'zaro munosabatda bo'lish va kasbiy faoliyatda raqamli vazifalarni bajarish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatidir.

Raqamli kompetensiyalar o'qituvchining mutlaqo yangi, raqamli muhitda ishlashga va o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari: bevosita o'quvchilar, hamkasb o'qituvchilar, ma'muriyat va ota-onalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishga majbur bo'lishi bilan bog'liqligini tushunish ta'lim jarayoniga jalb qilingan uchinchi shaxslar sifatida muhimdir. Bugungi kunda masofaviy ta'limning ikkita formati mavjud: sinxron va asinxron. Birinchisi, real vaqtda bolalar bilan muloqot qilishni o'z ichiga oladi. Bu o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha talabalar bilan muloqot qiladigan onlayn darslar. Shu bilan birga, masofaviy jamoaviy ishlash uchun u onlayn doskalar, hamkorlikdagi ekranlar, mobil ilovalar va chatlardan ulanish, o'quvchilarni muhokamaga jalb qilish va chalg'itishning oldini olish uchun foydalanishi mumkin. Asinxron format o'qituvchiga onlayn darslar tugashi bilan talabalar bilan muloqotni davom ettirish imkonini beradi. Bu yerda turli raqamli texnologiyalar ham yordamga keladi. Bularga yozma darslar va ma'ruzalar, viktorinalar, onlayn topshiriqlar, o'yinlar va boshqalar kiradi. Ushbu yondashuv o'qitishni iloji boricha samaraliroq qiladi, o'quvchilarning jarayonga doimiy ravishda jalb qilinishini ta'minlaydi, shuningdek, ular bilan doimiy aloqada bo'lish imkonini beradi.

O'quvchilarning yangi avlodi o'qituvchidan yangi kompetensiyani talab qiladi. Bu, yosh avlodning raqamli savodxonlik darajasi yuqori bo'lib borayotganligi bilan izohlanadi.

Professional ta'lim tizimi pedagoglari quyidagi asosiy raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishi tavsiya etiladi:

1. Axborot topish va ular bilan ishlash;
2. Internet xavfsizligi;
3. Axborot va ma'lumotlarni boshqarish;
4. Raqamli muhitda o'qitishni tashkil etish;
5. Raqamli muhitda hamkorlik;
6. Raqamli muhitda muloqot;



7. O‘z-o‘zini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hulosa qilish mumkinki, professional ta’lim tizimi pedagoglarining raqamli kompetensiyalari tarkibiga ta’limda raqamli texnologiyalardan, bulutli texnologiyalardan, virtual reallik va blokchayn texnologiyalardan, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim texnologiyalari va hk.lardan foydalanishni kiritish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi 901-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.
3. Mirzahmadova N.D. “Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida qo‘llanilishi” *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. VOLUME 2 | SJIF 2022: 5.947* <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545>
4. Abduraxmanova Sh. A. Individualization of professional education process on the basis of digital technologies. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 65-67. (2022). Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/721>
5. Uralov S.A. The issue of the development of digital competence of masters of production education. *Current research journal of pedagogics. ISSN – 2767-3278 volume 03 issue 10 pages: 20-27.* <https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1042>
6. Uralov S.A. Professional ta’limda ishlab chiqarish ta’limi ustalarining raqamli kompetentligini rivojlantirish *PEDADOGA* jurnali, 2023 йил, 1-сон



ISH BERUVCHILAR VA TA'LIM MUASSASALARINING IJTIMOIY HAMKORLIK MUNOSABATLARI

Siddiqova S. G'.

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

Tayanch so'zlar: korxonalar, ish beruvchilari, ta'lim, ta'lim muassasalari, kasbiy faoliyat, kadrlar tayyorlash, integratsiya, ijtimoiy hamkorlik, mutaxassis, muhandis

Ключевые слова: предприятие, работодатель, образование, образовательные учреждения, профессиональная деятельность, подготовка кадров, интеграция, социальное сотрудничество, специалист, инженер.

Key words: enterprise, employer, education, educational institutions, professional activity, personnel training, integration, social cooperation, specialist, engineer.

Резюме:

Mazkur maqolada ish beruvchilar va ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorlik munosabatlari, ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvi, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning kelajakda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zaro manfaatli ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi masalalar yoritib berilgan.

Резюме:

В данной статье рассматриваются отношения социального сотрудничества работодателей и образовательных учреждений, интеграция системы производства и образования, развитие системы подготовки кадров, развитие способностей будущих специалистов к самостоятельной работе в будущем, налаживание взаимовыгодного социального сотрудничества.

Summary:

In this article, social cooperation relations of employers and educational institutions, integration of production and education system, development of personnel system training, development of future specialists' abilities to work independently in the future, establishment of mutually beneficial social cooperation such issues are covered.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan yuqori malakali malakali mutaxassislar tayyorlash uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan professional ta'lim tizimi zimmasiga yuklatilgan. Ushbu ma'suliyatli vazifani amalga oshirish uchun ishlab chiqarish korxonalari bilan ta'lim muassasalari o'rtasida mustahkam aloqalarni o'rnatish, boshqacha qilib aytganda, o'zaro manfaatli ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish bugungi

kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Biz tomondan olib borilgan kuzatishlar va ilmiy tahlillar asosida aniqlangan ma'lumotlar mazkur muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb ta'kidlaganlari bejiz emas [2].

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisidir. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu dolzarb masala ishlab chiqarish korxonalari bilan professional ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo qilmoqda.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Bugungi kunda ta'lim muassasalari malakali mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti talab va ehtiyojlari asosida tayyorlash, tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablari asosida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, kelajakda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish hamda sifatini nazorat qilishning yangicha yondashuv va zamonaviy metodlar asosida ilmiy asoslangan mexanizmini yaratish talab etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari oldida turgan yana muhim dolzarb vazifalardan biri ta'lim jarayonini yangi o'quv-adabiyotlari va didaktik vositalar bilan ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda faol ta'lim metodlarini qo'llash hamda ishlab chiqarish bilan manfaatli ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish hisoblanadi.

Q.T.Olimov ta'lim muassasalarida o'qitiladigan maxsus fanlarni mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratadi [1]:

1. O'quv materialida texnikaga bog'liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.
2. O'quv materialida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.
3. O'quv materialida xom ashyo materiallariga bog'liq masalalarni yorituvchi maxsus fanlar.



4. Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyot to'g'risidagi o'quv materiallarini o'zida qamrab olgan maxsus fanlar.


So'nggi yillarda ta'limda ijtimoiy hamkorlik tushunchasi bo'yicha fikrlar va xulosalar xorijlik olimlar A.Yu.Grankin, A.R.Baykulova, E.I.Baldisina va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ifodalangan. Ushbu va boshqa tadqiqotlar xulosalari, davlat va oila o'rtasidagi munosabat, davlatning shaxs, oila va jamiyatdan ustivorligi asosida qurilgan. Bu holat davlat organlarining oila va shaxs faoliyatiga aralashishiga olib keldi. Davlat tizimining bir qismi sifatida maktab ham, o'zaro munosabatlarning va birgalikdagi harakatning mos prinsiplarining omili hisoblanadi. Oxirgi yillarda bu muammoni aniqlash va uning yechimini anglash zaruriyati yuzaga keldi. Bu muammolar oila va ta'lim muassasasining hamkorligi bo'yicha alohida tadqiqotlarda (Yu.V.Medova), G.L.Mozjuxina, R.M.Vasilyeva, N.G.Odinets), shuningdek davlat hujjatlarida ifodalangan [8].

Tadqiqot natijalari. Ixtisoslik va mutaxassislik fanlari mazmunida ishlab chiqarish xususiyatlarining o'z aksini topishi, talaba olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish imkoniyatini ta'minlanishi kerak. Oliy ta'lim muassasasi talabalari maxsus fanga tegishli faoliyat usullari bo'yicha etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

«Ijtimoiy hamkorlik bozor iqtisodiyoti asosida sivilizatsiyalashgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos turidir. Unga xos quyidagi belgilar mavjud:

- bu munosabat manfaatlari bir xil va qarama-qarshi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlari prinsipial jihatdan har xil sub'ektlar va tomonlar orasida bo'ladi;
- bunda tomonlarning qarama-qarshiligiga emas, balki barqaror foyda keltiruvchi ijtimoiy murosaga erishish yo'lini izlash uchun ishonchli ma'lumotga ega erkin ishchi kuchiga yo'naltirilgan munosabatdir;
- bu toifa munosabatlarga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi uchun muhim barcha ijtimoiy guruhlar qiziqadi [4].

Demak, ijtimoiy hamkorlik o'zida muammolarni hal qilish, tinch tarixiy yo'l bilan jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga erishishga yordam beruvchi, ijtimoiy mehnatdagi nizolarni sivilizatsiyalashgan tartibda hal etish usulidir. Ijtimoiy hamkorlikni kuzatgan paytda, hamkorlar orasidagi o'zaro aloqalarni bog'lashda ko'mak berib borish muhim hisoblanadi, kichikroq doiradagi hamkorlik tomonlariga vazifalarni aniqroq belgilashga va hamkorlik natijalarini yaqqol ko'rish yordam beradi.



1-rasm. Ta'limda ijtimoiy hamkorlik munosabati tasnifi

Ijtimoiy hamkorlikka beriladigan bunday ta'riflar uning umumiy metodologik asosiga sharh berishga olib kelmoqda. Bizning tadqiqotimizning esa uning xususiy holdagi ahamiyati, ya'ni mamlakatimiz ta'lim muassasalarida tashkil etilishi va tatbiqi bilan bog'liq muammoning pedagogik va metodik jihatdan hal etishga bag'ishlanishi muhimdir. Ta'limda ijtimoiy hamkorlik munosabatini quyidagicha tasniflash mumkin:

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy hamkorlik sohasiga ta'lim muassasalari muqarrar ravishda jalb etiladi. Manfaatlarni kelishtirishning klassik shakli ta'lim muassasalarida u ko'p sonli sheriklar ishtirok etuvchi jarayonga aylanadi. Agar manfaatlarni kelishtirishning klassik usuli, eng avvalo, ish haqi, jamoaviy shartnomalar, mehnat qonunchiligi masalalarini hal etish, mehnat sharoitlariga oid qoidalarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lsa, kasb-hunar tayyorgarlik bilan bog'liq ijtimoiy hamkorlik ish beruvchilar va malakali mutaxassislarni qamrab olish bilan cheklanmaydi. Chunki u hali mehnat bilan band bo'lmagan kishilarni mehnatga tayyorlash jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Muhokama. Ijtimoiy hamkorlik kategoriyasini umuman ta'lim muassasalari muassasasiga nisbatan qo'llash nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda ta'lim muassasalari tizimi ijtimoiy hamkorlarining quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatiladi:

- ish beruvchilar;
- kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari va boshqa birlashmalar;
- davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan bandlik xizmati.

O'quv muassasasi darajasida ushbu ro'yxat ta'lim xizmatlari bozorining sub'ektlari hisobiga to'ldiriladi. Ya'ni, biz faqat sanoat korxonalarini va mehnat bozorini tartibga soluvchi institutlarnigina emas, balki boshqa ta'lim muassasalarini, shuningdek, ta'limni boshqarish organlarini ham o'quv muassasasining ijtimoiy hamkorlari sifatida qarashimiz kerak [6].

Shu tariqa, ta'lim muassasasi darajasida ijtimoiy hamkorlarning quyidagi ikki toifasi, ikki turi haqida gapirish mumkin: mehnat bozori vakillari va ta'lim



xizmatlari bozorining vakillari. Bunday bo‘linish prinsipial xususiyatga ega, chunki faqat o‘zaro hamkorlikning xususiyati va usuligina emas, balki ana shu hamkorlik davomida amalga oshiriluvchi manfaatlar tizimi ham tipologiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

An’anaviy ravishda ish beruvchilar har doim o‘quv muassasasining asosiy hamkori sifatida qaralgan, chunki ular o‘quv muassasasi «mahsuloti» ning asosiy iste’molchilari hisoblanadi va ta’lim muassasasining rivojlanish istiqboli ko‘p jihatdan ularga bog‘liq. So‘nggi paytlarda mehnat bozorida paydo bo‘layotgan korxonalarining turli–tumanligi ijtimoiy hamkorlik tizimini yaratish bo‘yicha ish boshlayotgan o‘quv muassasasining vazifasini murakkablashtiradi.

Ish beruvchilar bilan ishni rejalashtirishda faqat korxonaning mulkchilik shaklini, uning mehnat bozoridagi o‘rnini emas, balki mazkur korxonalar ishlayotgan iqtisodiyot sektorining o‘zining ham rivojlanish istiqbollari hisobga olishi zarur. Ta’lim muassasalari bilan korxonalar o‘rtasidagi aloqalarning uzulganligi shunga olib keldiki, ularning o‘zlari ham o‘z kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ham e’tibor bermay qo‘ydilar. Faqat ushbu muammoning muhimligini tushunganlarga bu borada faollikni to‘xtatmadilar, aksincha o‘zlarining ta’lim tuzilmalarini, o‘quv markazlarini tashkil etib, o‘z xodimlarini kurslarga, stajirovkalarga yuborib, kadrlar tayyorlashni jadallashtirdilar.

Ta’lim muassasalarining shartnomalardan foydalanishi anchadan beri ma’lum, biroq, so‘nggi paytlarda ularning mavzu doirasi juda kengayib ketdi. Ilgari bunday shartnomalarning an’anaviy predmetlariga quyidagilar kirar edi:

- √ talabalarining ishlab chiqarish ta’limi va o‘quv amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish;
- √ o‘qituvchilarning malakasini oshirish;
- √ korxonalar xodimlarini qayta tayyorlash va o‘qitish.
- √ Bugungi kunda yuqorida sanab o‘tilgan mavzular yoniga yangilari qo‘shildi:
- √ hamkorlikdagi tijorat faoliyati va loyihalarni amalga oshirish;
- √ tanlovlar, yarmarkalar, ko‘rgazmalarda birgalikda ishtirok etish;
- √ korxonalariga axborot va konsalting xizmatlarini ko‘rsatish;
- √ marketing xizmatlarini ko‘rsatish;
- √ halqaro loyihalarda birgalikda ishtirok etish;
- √ ilmiy-tadqiqot va texnologik ishlarni amalga oshirish.

Hamkorlikning tashkiliy shakllari ijtimoiy sheriklar bilan o‘zaro birgalikda faoliyat ko‘rsatishning ancha yuqori darajasi hisoblanadi. Ular maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan va ustav hujjatlariga hamda belgilangan tartibda



tasdiqlanadigan boshqa tartibga soluvchi hujjatlarga asoslanib harakat qiluvchi tashkiliy tuzilmalarni yaratishni taqozo etadi. Odatda bular ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning boshqaruv organlarini, bandlik xizmati, ish beruvchilar, kasaba uyushmalarini o'z ichiga oluvchi Kengashlar va boshqalardir.

Xulosa. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bo'yicha tadqiqotlariga tayanib, ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonida hamkorlik-ijtimoiy dialogga asoslangan, ijtimoiy munosabatlarning yuqori darajali shakli hisoblanadi. Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifoda etadigan atama. Demak, xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy hamkorlikni keng ma'noda faoliyatni har xil ijtimoiy guruhlar orasida jamoaviy hamkorlik asosida taqsimlash, faoliyat samaradorligi uchun ularning barcha ishtirokchilari haqli ishtirok etuvchi va javobgarligi tushuniladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar ijtimoiy hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish – ta'lim tizimini yangi ijtimoiy funksiyasini o'rnatish va uni muhokamadan o'tkazish, o'zgartirishlar kiritish, loyihalashtirishga olib keluvchi eng maqbul yo'llardan deyish mumkin. Ijtimoiy hamkor sifatida ishlab chiqarish korxonalari, byudjet tashkilotlari, qo'shimcha ta'lim olish va ta'lim muassasalari ishtirok etadi. Ta'lim muassasalarining vazifasi ijtimoiy hamkorlikni yangi sifat ko'rinishiga olib keluvchi asosiy hamkor va tashabbuskorlar bo'lib qolishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. *Eastern European Scientific Journal*, (2), 67-70.
2. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Пути осуществления межпредметной связи и преемственности. *Молодой ученый*, (8), 884-887.
3. Юнусова Г. ва бошқалар. Methods of teaching the uzbek language in higher education. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 2021, Volume 27, Issue 2, Pages 5525-5532. https://www.cibgp.com/article_11080.html
4. Tukhtayeva Z.Sh., Imomov B.B. Possibilities of Introducing Information technologies in Educational Process. *International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR)* ISSN: 2643-9603 Vol. 4, Issue 4, April – 2020. – Pages 78-80.
5. Тошева, Н. М., Тухтаева, З. Ш., & Атамурадова, Г. О. (2014). Значение самостоятельного образования при формировании творческой деятельности. *Молодой ученый*, (8), 878-879.
6. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. *Профессиональное образование. Столица*, (9), 43-44.
7. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интеграциясини таъминлаш муаммолари. *Касб-хунар таълим*, 4, - 21 б.



МДҲ МАМЛАКАТЛАРИДА ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ

Матякубов К. К.

*Чирчиқ давлат педагогика университети Технологик таълим
кафедраси доцент в/б*

*Тошкенбоева К., Усмонова Н., Таджидинова М.
Технологик таълим кафедраси талабалари*

Таянч сўзлар: технология, технологик таълим, таълим технологияси, политехник таълим.

Ключевые слова: технологии, технологическое образование, образовательная технология, политехническое образование.

Key words: technology, technological education, educational technology, polytechnic education.

Резюме:

Ушбу мақолада технологик таълимнинг пайдо бўлишига нисбатан ҳаётий зарурат, унинг дунё мамлакатлари таълимида пайдо бўлиш тарихи, ривожланиш тадрижи ёритилган. Шунингдек, технологик таълимнинг мамлакатимиз узлуksиз таълим тизимидаги ўрни, аҳамияти ва ривожланиш тенденциялари таҳлил қилинган. Технологик таълимнинг устувор йўналишлари аниқлаштирилган.

Резюме:

В данной статье описывается насущная необходимость появления технологического образования, история его появления в образовании стран мира, процесс развития. Также были проанализированы роль, значение и тенденции развития технологического образования в системе непрерывного образования нашей страны. Определены приоритеты технологического образования.

Summary:

This article describes the urgent need for the emergence of technological education, the history of its emergence in the education of countries of the world, the development process. The role, significance and development trends of technological education in the continuous education system of our country were also analyzed. The priorities of technological education were determined.

Собиқ Иттифок республикаларида 1950 йилларда кузатилган фан-техника тараққиёти умумий ўрта таълим мактабларида политехник таълимни жорий қилиш заруриятини келтириб чиқарди. Шундан келиб чиққан ҳолда, ўн йиллик умумий ўрта таълим мактабларида политехник таълимни ўқув режага киритиш ва худди шу йўналишдаги мактабларни ташкил қи-

лишга қарор қилинди. Бу эса олий педагогик таълим муассасалари олди-га ушбу мактабларда умумтехника ва меҳнат фанларидан дарс берадиган юқори малакали ўқитувчи кадрлар тайёрлашни асосий вазифалардан бири қилиб қўйди. Бу вазифани амалга ошириш учун 1957 йил Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтида “Физика ва ишлаб чиқариш асослари” ўқитувчисини тайёрлаб бериш учун моддий техника базани яратишга киришилди. 1957-1959 йилларда, “Физика” факултети қошида машинасозлик технологияси лабораторияси, автотрактор ўқув хонаси, металлларга ишлов бериш ва дурадгорлик устахоналари ташкил қилинди. [7]

Умумий ўрта таълимнинг бир қатор таълим стандартлари ва дастурлари қайта кўриб чиқилиши ва амалиётга жорий этилишига қарамай, масалан МДХ мамлакатларининг айрим мактабларида технологик таълимнинг мазмунида сезиларли ўзгаришлар кузатилмади: у ҳали ҳам иқтисодиётнинг талаблари ва воқелигига мувофиқ амалга оширилмоқда. Технологик таълимнинг эскирган воситалари, жумладан, устахоналар ва лабораторияларнинг моддий-техник базаси энг муҳими технология дарслари ва синфдан ташқари машғулотларда ўқувчиларга долзарб ишлаб чиқариш, технологик ва конструкторлик ҳамда тадқиқот муаммоларини тўлиқ ҳал қилишга имкон бермайди, гарчи бундай уринишлар бўлса-да баъзи мактабларда, кўшимча таълим марказларида, ёшлар инновацион ижодиёт марказларида ва болалар технопаркларида амалга оширилмоқда.

Мактаб ўқувчиларига технологик таълимни ривожлантиришнинг асосий муаммоси - бу шахснинг технологик маданияти даражасига сезиларли даражада ортиб бораётган талабларни қўшган ҳолда янги технологик тартибнинг вазифаларига жавоб берадиган мазмуни ва воситаларини топишдан иборат.

Технологик таълим структураси МДХ мамлакатларида 1980-йилларда шаклланди. Ўтган асрнинг сиёсатида кузатилган политехника тамойили В.С.Леднев, П.Р.Атутов, В.А.Поляков ва бошқаларнинг асарларида батафсил тавсифланган ва таҳлил қилинган. Уларда политехника таълимининг асосий таркибий қисмлари сифатида қуйидагилар кўриб чиқилган:

- технологиянинг умумий таълим ўрганишни белгиловчи инструментал (техник) компоненти;
- технологияни ўрганиш йўналишини белгиловчи оператив ва процессуал (технологик) компонент;
- мактаб ўқувчиларининг келажакдаги касбининг ўзига хос хусусиятларидан қатъи назар, энг кенг тарқалган фаолият турлари соҳасида техник ва технологик тайёргарлик.



Тадқиқотларимиз мактаб ўқувчиларининг технологик таълими мазмунида санаб ўтилган компонентлар асосида тўртта йўналиш мавжудлигини кўрсатди:

- техник меҳнат;
- хизмат кўрсатиш меҳнати;
- қишлоқ хўжалиги меҳнати;
- чизиш.

Ҳозиргача “Технология” фанини ўрганишнинг умумий модуллари уй маданияти, оила иқтисодиёти, тадбиркорлик асослари ва лойиҳалаш усули бўлган ва шундай бўлиб қолмоқда.

Мақолада анализ, синтез, адабиётлар таҳлили, қиёсий таққослаш, солиштириш методларидан фойдаланилди.

Технологик таълим бўйича ўқув материалининг мураккаблиги ва ҳал қилиниши керак бўлган вазифалар турлари меҳнат объектларига қўйиладиган талабларнинг ўзгариши (қисмлар сони, қайта ишлаш шакли ва сифати, маҳсулотни йиғиш хусусиятлари) асосида юзага келди. Шунингдек, технологик жараёнларга материалларни қайта ишлашнинг қўлда ишлов бериш усулларидаан электрлаштирилган, машина ва автоматлаштирилган усулларга ўтилди.

Тегишли моддий-техник таъминотнинг йўқлиги, ўқув дастурларининг анъанавий турларни чуқур ўрганишга йўналтирилганлиги сабабли, қайта ишланган материаллар турларини, ўрганилаётган технологиялар ассортиментини ва жиҳозларнинг замонавий моделларини кенгайтириш орқали технологик таълим мазмунини янгилаш сўнгги пайтларда деярли имконсиз бўлиб қолди. Эндиликда ўқув материалларини ўқитиш мазмунига ва мавжуд дарсликларга интеграция қилиш лозим. Технологик таълим мазмунининг ягона янги таркибий қисми (меҳнатга ўқитиш билан солиштириганда) муаммони комплекс ҳал қилишни ва турли хил илмий билимлардан олинган билимларга асосланган моддий (баъзан ахборот) маҳсулот яратишни ўз ичига олган ўқув ва ижодий лойиҳаларни амалга оширишдан иборат.

В.А.Калней, Д.А.Махотин, Е.Г.Ряхимоваларнинг тадқиқотлари шуни кўрсатадики, мактабнинг технологик таълимини ислоҳ қилиш даврлари янги технологик режимларнинг биринчи ўн йиллигига тўғри келади.

Технология (грекча: “techno” — хунар, уста ва “logos” — фан, таълим) илмий-практика асосида хом-ашёни тайёр маҳсулотга айлантиришнинг усуллари маъносини англатади.



Технология саноат, қурилиш, транспорт, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларда маҳсулотлар олиш, уларга ишлов бериш ва уларни қайта ишлаш усуллари тартибга солинган тизимдир. Шу усулларни ишлаб чиқиш, жорий қилиш ва такомиллаштириш билан шуғулланадиган фаннинг номи ҳам технология атамаси билан юритилади. Ҳар бир соҳанинг ўзига хос технологияси бўлади: кон ишлари технологияси, машинасозлик технологияси, қурилиш технологияси, қишлоқ хўжалиги ва бошқалар.

Умумий саноат жараёнининг бир қисми ҳисобланувчи ишлаб чиқариш, ташиш, сақлаш, назорат қилиш ҳақидаги иш-ҳаракатлар ҳам технология деб аталади. Ҳозирги вақтда технология қуйидагиларга бўлинади:

- олдинги қатордаги технология;
- қолдиқсиз технология;
- ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш технологияси;
- халқаро стандартга мос технология.[2]

Технологик таълим билан таълим технологиясини аралаштирмаслик керак. Таълим технологияси технологияни қўллашнинг тор доирасига йўналтирилган бўлиб, у технология таълимнинг умуман технологиядан фойдаланишга қарама-қаршиликдан фарқли ўлароқ, таълим жараёнида ва ундан фойдаланишни ифодалайди. [3]

Бугунги кунда рақамли инқилоб янги таълим истиқболларини таклиф этмоқда. Таълим олувчилар синф ичида бўлмасалар ҳам, онлайн тарзда ўрганишлари мумкин. Технологияларнинг ривожланиши ҳозирги ва келажакдаги технологик такомиллаштиришни бирлаштириш ва ушбу янгиликларни халқ таълими тизимига киритишнинг янги ёндашувларини ўз ичига олади. Кундалик таълимга киритилган технологиялар аралаш таълим билан янги муҳит яратади. [4]

Технологик таълим - ижодий технологик фикрлаш, технологик қобилиятлар мажмуи бўлиб, шахсий хусусиятларни ривожлантиришни назарда тутати ва ўқувчиларнинг технологик, экологик, иқтисодий маданиятини шакллантиришга қаратилган ўқитиш ва таълимнинг уюшган жараёни, ижтимоий мослашувчанлик, рақобатбардошлик, тайёргарлик, касбий фаолиятни ўз ичига олади. Технологик таълим мазмунини амалга ошириш натижаси ўзгарувчан амалиёт билан боғлиқ муҳитда фаол ва мустақил ҳаракат қилишга тайёр бўлган барқарор ва муваффақиятли ўрганувчи (ўқувчи, талаба) бўлиши керак.

Касбий педагогика соҳасидаги таниқли мутахассис Ю.Л.Хотунцева технологик таълим технологик маданиятга эришишнинг асосий воситаси эканлигини, бу ҳар қандай ижодий фаолиятнинг универсал ва ажралмас



шарти эканлигини таъкидлайди. Технологик маданият деганда, моддий ва маънавий ишлаб чиқариш технологиялари ютуқларида ифодаланган ва табиат, жамият ва технологик муҳит билан уйғун муносабатда бўлиш асосида замонавий технологик жараёнларда самарали иштирок этиш имконини берадиган инсоннинг ўзгартирувчи фаолиятининг ривожланиш даражаси тушунилиши мумкин.

Технологик таълимнинг тузилиши сифатида В.Д.Симоненко технологик билимлар, кўникмалар ва технологик жихатдан муҳим шахсий хусусиятларнинг йиғиндисини кўриб чиқади. Технологик билимлар трансформацион фаолият усуллари, воситалари ва усуллари ҳақидаги билимлар билан ифодаланади. Технология мактабнинг асосий амалиётга йўналтирилган ўқув предмети бўлиб, маҳсулотларни лойиҳалаш, қуриш ва ишлаб чиқариш соҳасидаги фан асосларига оид билимларни амалиётда қўллаш ва ижодий фойдаланиш имконини беради. Бу ўқувчиларнинг умумий таълимдан технологик таълимга ўтишнинг узлуксизлигини, узлуксиз ўз-ўзини тарбиялаш ва меҳнат фаолиятини таъминлайди.

Ўқувчиларнинг қизиқиш ва майлларини, таълим муассасаларининг имкониятларини ва маҳаллий ижтимоий-иқтисодий шароитларни ҳисобга олиш мақсадида 5-9-синфларда технология бўйича асосий таълим дастурлари мазмуни учта йўналишдан бири доирасида олиб борилиши мақсадга мувофиқ: “Саноат технологиялари”, “Уй хўжалиги технологиялари” ва “Қишлоқ хўжалиги технологиялари”.

Замонавий ва истиқболли технологияларни ўрганиш шуни кўрстадики, уларнинг мазмунига технология бўйича таълим дастурларини киритиш асосида жараён жадаллашади. Бунинг натижасида технология таълимида қуйидаги йўналишлар ажралиб чиқади:

- 1) янги материалларни яратиш технологияси (биопластика, углерод толаси, генетик модификацияланган маҳсулотлар ва бошқалар);
- 2) материалларни ўзгартириш (нанотехнологиялар, лазер технологиялари);
- 3) энергия тежовчи технологиялар, муқобил энергия, биоёқилғи;
- 4) ахборот технологиялари (компютер технологиялари, робототехника, ақлли уйлар, глонасс ва бошқалар);
- 5) транспорт технологиялари;
- 6) барқарор ривожланиш технологиялари (материалларни тежаш, чиқиндиларни қайта ишлаш).

Одамларнинг технологик фаолиятининг умумий тамойилларини, технологик тизимлар тузилишини, лойиҳалаш тамойилларини ва ижодий фа-

олият қонуниятларини ўрганиш ўқув предмети сифатида технологиянинг зарур илмий даражасини таъминлаш имконини беради. [5]

Аҳолининг ривожланмаган технологик компетенциялари ва бу соҳаларни яхши ўқийдиган мактаб ўқувчилари ва талабаларнинг амалий фаолият даражасининг пастлиги мактаб ўқув дастурининг туб технологик ўзгаришлардан орқада қолиши билан изоҳланади. Кўпгина мактабларда технология дарслари ўнлаб йиллар давомида ўзгармади. Кўшимча таълимда болаларнинг атиги 7 фоизи технологияга йўналтирилган дастурларда қатнашади. Технологик таълим тизими таклиф этаётган технологик компетенциялар ҳозирги меҳнат бозори талабларига (ҳатто минтақавий даражада ҳам) жавоб бермайди. Технологик таълим мактаблари ва олий ўқув юртларида технологик таълим форматлари ҳам эскирган: узок, мослашувчан бўлмаган дастурлар тез ўзгарувчан технологияларга мос келмайди.

Технология таълими - бу профессионал ташкилотга, яъни Халқаро Технология Таълими Ассоциациясига (ITEA) тааллуқли бўлган таълим соҳаси бўлиб, у учун ITEAнинг “Барча америкаликлар учун технология” лойиҳаси (TfAAP) доирасида технологик саводхонлик стандартлари тўплами ишлаб чиқилди. Унга кўра технологик саводхонлик қуйидаги мазмунни ифодалайди:

- технология ёки технологик тадқиқотларни ўрганиш;
- технология таълими технологияни контентнинг таълим соҳаси сифатида ўргатади.
- Технология таълими технологиянинг кенг спектри билан шуғулланади, яъни инсоннинг идрок этилган эҳтиёжларини қондириш учун табиий муҳитни ҳар қандай янгилик, ўзгартириш ёки модификация қилиш тушунилади.

Умумий ўрта таълимнинг таълим стандартлари ва дастурларида технологик таълимни ўқитишнинг янги мазмунини жорий этиш учун қуйидагилар амалга оширилиши зарур:

биринчидан, ўқувчилар томонидан универсал фаолиятни ўзлаштириш, бундай мазмунни танлаш мезонларини ишлаб чиқиш ва фундаментал тушунчалар ва кетма-кетлик асосида ўқув материални қуриш тамойиллари, тартиби ва мантиғини тавсифлаш зарур;

иккинчидан, технологик тайёргарликни амалга ошириш воситаларини танлаш ва улардан энг мақбулини аниқлаш керак;

учинчидан, ўқувчиларнинг дарс ва дарсдан ташқари машғулотлар жараёнида замонавий услуб ва технологиялардан фойдаланиш бўйича ўқитувчилар учун услубий кўрсатмалар ишлаб чиқиш талаб этилади.

**Адабиётлар:**

1. Poligrafiya, oʻlsheu texnikasi, agʻash oʻnɗeu jabdiqtari jone metall oʻnɗeu texnikasi men texnologiyasi: Qazaqsha-orissha terminderdiɗ tʻysindirne soʻzdigi.
2. Kichik Dugger, Uilyam E. Naik, Nitin (2001 yil sentyabr). "Texnologik ta'lim va ta'lim texnologiyalari o'rtasidagi noto'g'ri tushunchalarni aniqlashtirish". *Texnologiya o'qituvchisi*. 61 (1): 31–35.
3. "Ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati | Pearson blogi". AQSH. 2015-12-10. Olingan 2018-07-03.
4. Кутумова А.А., Алексеевна А.К., Злыгостев А.В. Технологическое образование в двухуровневой системе подготовки педагогических кадров // *Фундаментальные исследования*. – 2014. – № 9-2. – С. 414-417; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=34864> (дата обращения: 06.05.2022).
5. U.S. Department of Education, Office of Educational Technology. (2016) Future ready learning: reimagining the role of technology in education. Retrieved from <https://tech.ed.gov/netp/>
6. Lerner, C. & Barr, R. (2014) Screen sense: setting the record straight: research-based guidelines for screen use for children under 3 years old. Zero to Three, page 2. Retrieved from <https://www.zerotothree.org/resources/1200-screen-sense-full-white-paper>
7. <https://new.tdpu.uz/fakultet/45>



КАСБГА ЙУНАЛТИРИШ ИШИНИНГ МАКТАБ СИСТЕМАСИ

Матякубов К.К.

*Чирчиқ давлат педагогика университети Технологик таълим
кафедраси доцент в/б*

Таянч сўзлар: касбга йўналтириш, мактаб тизими, касбга йўналтириш иши мактаб системасининг вазифалари, шахсий меҳнат, ҳам жамоа меҳнати, қобилият ва қизиқишларнинг шакллантиришнинг политехник асослари.

Ключевые слова: профессиональная ориентация, школьная система, задачи профориентационной школьной системы, индивидуальная и командная работа, политехнические основы формирования способностей и интересов.

Key words: career guidance, school system, tasks of career guidance school system, individual and team work, polytechnic foundations of formation of abilities and interests.

Резюме:

Ушбу мақола таълим соҳасида касбга йўналтириш ишини амалга иширишнинг умумий системасида мактаб системаси дастлабки босқич ҳисобланади, умумтаълим мактаблари учун рақобатбардош мутахассисларни - бўлажак фани ўқитувчиларни етказиб бериш бугунги кунда энг долзарб масала ҳисобланади.

Резюме:

В данной статье школьная система является первой ступенью в общей системе профессиональной подготовки в сфере образования, обеспечение общеобразовательных школ конкурентоспособными специалистами - будущими учителями естественных наук является наиболее актуальным вопросом на сегодняшний день.

Summary:

In this article, the school system is considered the primary stage in the general system of vocational guidance in the field of education, the supply of competitive specialists - future science teachers for general education schools is considered the most urgent issue today.

Касбга йўналтириш ишини амалга иширишнинг умумий системасида мактаб системаси дастлабки босқич ҳисобланади. Касбга йўналтириш иши мактаб системасининг вазифалари:

- шахсининг юксак маънавий-ахлоқий фазилатларига эга бўлган фукроларни тарбиялашдан;
- политехник ва бошланғич касбий малакаларнинг муайян системасини эгаллаган бўлғуси малакали мутахассисни тайёрлашдан;



– ҳам шахсий меҳнат, ҳам жамоа меҳнати муайян ташкилотчилик малакаларини шакллантиришдан иборат.

Касб эгаллашгача булган тайергарлик мактаб ешларини моддий ишлаб чиқариш соҳасида меҳнатга ҳозирлашнинг умумий қисми бўлиб қолади. Зарур политехник тайёргарликнинг олган йигит ёки қиз ишлаб чиқариш касбини тез эгаллайди, бунда ҳунар - техника таълими системасининг шундан кейинги ҳамма босқичларида касбий маълумот, ўрта махсус ёки олий маълумот олиш жараёни жадаллашади.

Ўқувчиларни касб танлашга тайерлаш - бутун педагоглар жамоасининг, ота-оналар ва завод жамоатчилигининг кўп йиллик таълим-тарбия ишидир. Ёшларни маънавий-психологик жиҳатдан меҳнат фаолиятига тайёрлашга шахсни ҳар томонлама камол топтиришнинг ўзаро боғлиқ жараёни деб қаралади, бу жараёнда қобилият ва эътиқод билан бирга ўсмирнинг шахси ҳаракатлантирувчи куч сифатида намоён бўлади.

Қобилият ва қизиқишларнинг шакллантиришнинг политехник асослари ва мактаб ёшлари бошланғич ишлаб чиқариш тайёргарлигини кенгайтириш билан ўзвий боғлиқ бўлиши ишчи касбларини эгаллашга йўналтиришнинг ҳал қилувчи шартидир.

Меҳнат тарбияси жараёни бир мунча илк босқичда амалга оширилган тақдирда бунга эришилади.

Ўрта ва юқори босқич таълимида давомийлик шу нарсада ифодаланидики, ўқувчилар мунтазам принцип асосида тузилган ягона дастурлар бўйича ишлайдилар. Бундай дастурлар аста секин мураккаблаштириб боришни, билимларни, кўникма, малакани, меҳнатнинг муайян усуллари эгаллашни таъминлайди.

Таълим ва касбга йўналтириш билан қўшилган унумли ҳамда мунтазам қатнашиш энг кўп педагогик самара беради.

Ўрта мактабларни тамомлаб ёки ҳунар-техника таълими системасида, ўқув комбинатларида зарур тайёргарликдан ўтиб, халқ хўжалигининг турли тармоқларида дарҳол ишлай бошлаган ёшларнинг сони йил сайин кўпайиб бормоқда. Мактабда касбга йўналтириш соҳасидаги ҳамма ишларнинг бир-бирига мувофиқлаштирилишини таъминлаш мақсадида мактаб директори раислигида касбга йўналтирувчи кенгаш тузилади.

Кенгаш таркибига мактаб директорининг тарбиявий ишлар бўйича муовини, касбга йўналтирувчи ўқув-методик кабинет мудири, меҳнат таълими, ўқувчиларнинг ижтимоий-фойдали, унумли меҳнатини касбга йўналтирувчи ўқитувчи еки ташкилотчи, битирувчи синфларнинг синф раҳбари, мактаб кутубхоначиси, мактаб ўқувчилар ташкилотининг вакил-



лари, мактаб врачлари, ота-оналар қўмитасининг аъзолари, базавий корхона вакиллари киради.

Касбга йўналтирувчи кенгашнинг иш режасини халқ маорифи бўйича мактаб кенгаши куриб чиқади ва тасдиқлайди.

Касбга йўналтирувчи кенгашнинг вазифалари касбга йўналтириш бўйича умуммактаб ва синфларнинг тадбирларини режалаштириш ва ташкил қилишдан, касбга йўналтириш ишига оид илгор тажриба маълумотларини йиғиш, умумлаштириш ва оммалаштиришдан иборат. Касбга йўналтирувчи кенгаш район мактаблараро ўқув-ишлаб чиқариш комбинатлари, халқ депутатлари район Кенгаши ижроия қўмитаси ҳузуридаги ёшларни касбга ва ишга жойлаштириш комиссияси, хунар техника таълими системасидаги ўқув юртлари, базавий корхоналар ва ташкилотлар, ўқувчиларнинг ота-оналари билан алоқа боғлаб туради.

Касбга йўналтириш ишини режалаштирган чоғда кенгаш маҳаллий ша-роитларни ва мактаб ишининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиши лозим. Кенгашнинг касбга йўналтириш иш режаси мактаб таълим-тарбия иши умуммактаб режасининг таркибий қисмидир.

Касбга йўналтириш кенгашининг мажлисларига район мактаблараро ўқув-ишлаб чиқариш комбинатлари ходимлари, муассасалар, базавий корхона, қишлоқ хунар-техника билим юртлари, техникумлар, олий ўқув юртларининг вакиллари, балоғатга етмаганлар иши бўйича комиссия аъзолари ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш органларининг вакиллари таклиф қилинадилар.

Ўқувчиларни касбга йўналтириш ишини ўтказган чоғда мактаб ходимлари ва мактаб маъмуриятининг вазифалари ўқувчиларни касбга йўналтиришга оид йўриқномалар, бўйруқлар, қарорлар билан танишишдан, илмий-методик адабиётни ўрганишда, чиқарилган методик тавсияномаларни ўрганиш ва ўз ишларида фойдаланишдан иборат.

Синф раҳбарининг вазифалари аввало ўқувчининг шаклланаётган шахсини, унинг майллари, қизиқишлари, қобилиятларини чуқур ва ҳар томонлама ўрганшдан иборат. Бу соҳада унга фан ўқитувчилари, ота-оналар билан суҳбатлар, савол варақасини тўлдириш ва ўқувчининг шахсий варақача - тавсифномасни тўлдирган ҳолда уни мунтазам равишда кузатиш ёрдам беради.

Синф раҳбари ўқувчининг шахсини ўрганиш негизида муайян дастур асосида бир мақсадга қаратиб касбга йўналтириш ишини олиб боради. Бунда синф соатларидан, факультатив машғулотлардан ва экскурсиядан



фойдаланади. Касбга йўналтириш иши ўқувчиларнинг ота-оналари билан мустаҳкам алоқада ўтказилади.

Ўқувчилар йилига бир марта савол варақасини тўлдиради. Бундан мақсад - ўқувчиларнинг ҳаётий режаларини аниқлаб олишдир. Синф раҳбарлари савол варақаси асосида ўқув йили охирида касбга йўналтирувчи мактаб кенгашига топшириш учун у ёки бу касбни онгли равишда танлаган ёки зарур малака даражаси бўйича касб эгаллаган ҳамда ўқиш ва иш хусусидаги ўз истакларини билдирган IX синф ўқувчиларининг рўйхатлари тузадилар. Ўқувчилар таълими дарсларида меҳнатнинг ҳар хил турларига оид билимларнигина олиб қолмай, шу билан бирга ўз фаолиятлари жараёнида махсус малакаларга ҳам эга бўладилар, ўз қобилиятларини ривожлантирадилар, меҳнатда ўз кучларини синаб кўрадилар. Шу боисдан меҳнат таълими ўқитувчиси меҳнат дарсини шундай ташкил қилиши керакки, токи бир ўқувчи меҳнатни севишни ўрганиб олсин, одамларга наф келтирадиган бўлсин, иш жараёнида ва унинг натижаларидан завқлансин.

Меҳнат ўқитувчиси ўз ишида билим ва малакани эгаллашда ўқувчиларга энг кўп фаоллик ва мустаҳкамликни таъминлайдиган иш шакллари ва методларидан фойдаланиши лозим. Лаборатория-амалий, ўқув-ишлаб чиқариш ишлари, ишлаб чиқариш экскурсиялари, ишлаб чиқариш тажрибаси шундай иш шакллари ва методлари жумласига киради. Бу ишлар мустақил кузатишлар тажрибалар, таҳлиллар, ҳисоб-китоблар, ишлаб чиқариш ва ижодий вазибаларни ҳал қилишни ҳамда бевосита ижтимоий-фойдали, унумли меҳнатни ўз ичига олади.

Меҳнат ўқитувчиси меҳнат таълими жараенида касб қилиб олинган меҳнат тўғрисидаги маълумотларни конкрет мавзуларни ўрганиш билан мантиқий боғлаши мумкин. Чунончи, электротехника физикаси ва бўлимини ўрганган чоғда ўқитувчи халқ хўжалигида электр қувватининг роли ва аҳамиятини, уни ишлаб чиқариш ҳамда истеъмолчига етказилиб бориш усуллари кўрсатиши, шунингдек ушбу тармоқ касблари учта катта гуруҳга бўлинишни тушунтириб бериши мумкин. Биринчи гуруҳга электро техника ускуналари, машиналари, аппаратлари ва асбобларини ишлаб чиқариш билан боғлиқ касблар (электротехника машиналарини йиғувчи слесарь, созловчи слесарь, ўровчи электромонтер изоляция қилувчи ва шу кабилар); иккинчи гуруҳга электр қувватини ўзатиш билан боғлиқ касблар (подстанцияларнинг электромонтери, электр тармоқларини ишлатувчи электромонтер ва шу кабилар); учинчи электр қувватидан фойдаланиш билан боғлиқ касблар (электромонтажчи слесарь, таъмирчи электромонтер ва шу кабилар) киради.



Ўқувчиларни касбга йўналтиришда ўқувчиларнинг шахси жуда катта роль уйнайди.

Ўқитувчининг шахси - ўқитувчининг ижодий ривожланишини, юксак педагогик маҳоратини, ишда доимий новаторлигини, омилкорлигини, болаларга нисбатан муҳаббат ва ҳурматини белгилаб берадиган хислатлар мажмуидир. Айти шундай ўқувчиларда ўзига нисбатан ҳурмат-эҳтиром, ишга ҳавас тўғдиради.

Ўзига ўхшаш бўлиш, у билан дўстлашиш ва энг эзгу истаклар, истиқбол тўғрисидаги, ўз касби ҳақидаги орзуларни баҳам кўриш иштиёқини яратади.

Мактабда қизиқишлар бўйича ўтказиладиган хилма-хил машғулотлар орасида тўгарак иши алоҳида муҳим аҳамият касб этади. Мактабда тўгаракларнинг асосий кўпчилигини меҳнат таълими ўқитувчилари олиб боради. Булар - ишлаб чиқариш техника тўгаракларидир. Ўқитувчи бундай тўгаракларда ўқувчиларда ихтирочилик, конструкторлик сингари махсус қобилиятлари ижодий ривожлантириш учун барча шарт-шароитларни яратиш имкониятига эга.

Меҳнат таълими ўқитувчиси ўқувчи шахсини ўрганган чоғда касбга йўналтириш мақсадида қуйидаги қоидаларга: шахс камол топадиган конкрет вазиятда, конкрет жамоада шахснинг хулқ атворини кўзатиш; фаолият орқали шахсни ўрганиш; шахсни қандайдир қотиб қолган нарса тариқасида эмас, балки тараққиётда кўриб чиқиш; шахснинг вақтинча психологик ҳолатини, ўртоқларига муносабатани ҳисобга олиш каби қоидаларга амал қилиши мақсадга мувофиқдир.

Меҳнат таълими ўқитувчисининг ишида психологик диагностикага катта ўрин ажратилади. Психологик диагностика жараёнида у мактаб, маҳаллий ўқув-ишлаб чиқариш комбинати, ҳунар-техника билим юртининг касб маслаҳатчиси билан биргаликда ҳар бир ўқувчининг келгусидаги касбни танлаши жараёнида шахсий хусусиятларини аниқлаши мумкин.

Шундай қилиб, меҳнат таълими ўқитувчиси қуйидаги йўналишларни:

- касб маорифи - ўқувчиларни меҳнат фаолияти соҳалари, халқ хўжалиги айрим тармоқлари, касблар ва мутахассисликлар билан таништириш;
- психологик-педагогик маслаҳат - меҳнат фаолиятининг турлари тўғрисида, ўқувчи хислатлари, билимлари ва майлларига энг мувофиқ бўлган касблар ва мутахассисликлар ҳақида ўқувчига гапириб бериш;
- касб тарбияси - ўқувчиларда у ёки бу касбга нисбатан барқарор қизиқишлари шакллантириш;



– амалий касбий кўникиш - меҳнат фаолиятининг турли соҳаларида кучларни амалий жиҳатдан синаб куриш учун шарт-шароитлар яратиш;
 – касбга йўналтириш мақсадида ўқувчининг шахсини ўрганиш, меҳнатга бўлган қизиқишларни ва касбга қизиқишларни шакллантириш каби йўналишларни кўрсатиб ўтиш мумкин.

Меҳнат таълими ўқитувчисининг касбга йўналтириш иши ўзаро боғлиқ таркибий қисмларининг бутун комплекси билан шу жумладан касбга йўналтирувчи ўқув-методик кабинет фаолияти, синф раҳбарининг, фан ўқитувчиларининг иши, ота-оналар ва шу кабилар билан маҳкам боғлангандир. Меҳнат ўқитувчиси булар билан яқиндан алоқа боғламай туриб самарали ишлаши мумкин эмас.

Xulosa.

1. Муаммонинг назариядаги ва амалиётдаги ҳолатининг замонавий методологик манбалари (ватанимиздаги ва чет элдаги) таҳлил қилинди, ўқув жаранида шакллантирилишига таъсири кўрсатиб берилди.

2. Ўқувчиларнинг меҳнат тарбиясида халқ анъаналаридан фойдаланишнинг педагогик тизими ишлаб чиқилди.

3. Ўқувчиларнинг касбга йўналтириш бўйича ўқитувчи фаолиятининг асосий йўналишларини аниқлашдан иборат.

4. Ўқув жараёни самарадорлигини тезкор ташҳис қилиш.

5. Тадқиқотлар касбга йўналтириш зарурлиги ҳақидаги илгари сурилган илмий фаразнинг ҳақиқатини тасдиқлади.

Адабиётлар:

1. Ш.Баратов "Ўқувчилар шахсини ўрганиш усуллари". Т., Ўқитувчи. 1996 й.
2. Магзумов П.Т., А.Ф.Антонов ва бошқ. "Ўқувчиларни меҳнат ва касб танлашга тайёрлаш" Т., Ўқитувчи. 1991.
3. Шодиев Н.Ш. "Внеклассная и внешкольная работа по профориентации учащихся". Т., "Фан" 1988.
4. "Халқ таълими" журнали, 1992 - 1999 йиллар.
5. Усмонов С. "Ўқувчиларни касб танлашга йўналтириш тажрибасидан" Т., Ўқитувчи 1987
6. Чориев Э.Т. "Система работ профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ". Т., "Фан" 1981
7. Профессиональная ориентация учащихся (А.Д.Сазонов, В.Д. Симоненко и др. Под ред. А.Д.Сазонова - М., 1988)
8. Учебно методический кабинет профессиональной ориентации. (А.В. Поляков, А.Б. Голомшток и др. М., 1986)



TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VA PEDAGOG XODIMLAR KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY PEDAGIGIK ASOSLARI

Xalmatov L.N.

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, "ijtimoiy siyosiy fanlar"
kafedrasi dotsent, (PhD)*

Tayanch soʻzlar: malaka oshirish, jismoniy tarbiya, sport, kasbiy-pedagogik, texnologiya, ta'lim-tarbiya, kasbiy sifatlar.

Ключевые слова: профессиональное развитие, физическое воспитание, спорт, профессиональное образование, технологии, образование, профессиональные качества.

Key words: professional development, physical education, sports, vocational education, technology, education, professional qualities.

Резюме:

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va pedagog xodimlar kasbiy mahoratini oshirish tizimi samaradorligini oshirishning tashkiliy pedagogik asoslari yoritilgan.

Резюме:

В данной статье выделены организационно-педагогические основы технологизации образовательного процесса и совершенствования системы повышения квалификации педагогов.

Summary:

This article highlights the organizational and pedagogical foundations of the technologization of the educational process and the improvement of the system of advanced training for teachers.

Kirish. Respublikamizda jismoniy tarbiya ta'limi va ommaviy sportni samarali tashkil etishda, aholining sog'lom turmush tarzi kechirishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, ta'lim, sport sohasiga oid vazirliklar buyuruq va chora-tadbirlar rejalari huquqiy-miyoriy asoslar sifatida muhim vosita sifatida xizmat qilayotgan bo'lsa, jismoniy tarbiya va sport sohasi kadrlarini tayyorlash malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari ushbu sohada belgilangan vazifalarni amalga oshirishning asosiy ijrochilarini tayyorlashda muhim vazifani bajaruvchi ta'lim tizimining asosiy bug'ini hisoblanadi. Kadrlar tayyorlar ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlash talablari asosida ta'lim-tarbiyani



takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib, sohani kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, zamon talablariga javob beradigan yetuk, madaniyatli tashkilotchilik malakalari rivojlangan, psixologik-pedagogik shakllangan kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu ma’noda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quvchi-yoshlarini yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, aqlan barkamol, axloqli va ma’rifatli qilib tarbiyalashda ushbu kadrlarni o‘rni zaruriy talab bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni kamol topishi, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga javob bera oladigan xodimlarni tayyorlashni va qayta tayyorlarni taqozo etadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati ko‘zga tashlanmoqda. Chunki shiddat bilan o‘zgarib borayotgan mamlakatimiz tez sur‘atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohani quyi bug‘inlarida, ayniqsa ta’lim-tarbiyaning ayrim yo‘nalishlarida ba’zi kamchiliklar ham ko‘zga tashlanib turibdi. Ta’lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va pedagog xodimlar kasbiy mahoratini oshirish va qayta tayyorlash orqali mazkur kamchiliklarga barham berilishi sungi chora sifatida ko‘rilmoqda.

O‘quvchi yoshlarni tarbiyalashda ilg‘or texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, avvalo, quyidagi zarurat asosida maydonga chiqadi: “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsadi va vazifalarida belgilangan barkamol avlodni voyaga yetkazish talablarini ro‘yobga chiqarish maqsadida ilg‘or pedagogik tajriba va texnologiyalardan foydalanishning zarurligini talab etadi.

Ta’lim-tarbiya muassasalari oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmaning natijalariga o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va kompetentligi, g‘oyaviy e’tiqodi, mustaqil va ijodiy ishlay olish qobiliyati, kasbi va bolalarni sevishi hamda qadrlashiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Pedagog xodimning kasbiy-pedagogik faoliyati takomillashtirish majmuaviy xususiyatga ega bo‘lib, bir-birini to‘ldiruvchi malakaviy sifatlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- loyihalovchilik - ta’lim turi, maqsadi, mazmuni va vazifalari, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari, shart-sharoiti, o‘zining tayyorgarlik darajasi kabilarga mushtarak holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi komponentlarni uyg‘unlikda rejalashtirish;

- tashkilotchilik - qo'yilgan maqsadga yetishish uchun tahsil oluvchilar jamoasini tashkil etib, ularni o'qib-o'rganishga safarbar etish;

- fikr almashish (kommunikativ) - inson-inson munosabatlari va muloqotini o'rganish, tahsil oluvchilar ongiga hamda qalbiga yo'l topish, ularni ishontirish;

- axborot - o'zi o'qitayotgan o'quv predmeti bo'yicha asosli chuqur va puxta, yondosh hamda tutash fanlar bo'yicha ham yetarli bilim, ish-harakat usullariga ega bo'lib, tahsil oluvchilarga yetkaza olish;

- rivojlantiruvchi - ijtimoiy buyurtma, ta'lim turi, maqsadi, vazifalari, shart-sharoit tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari kabilarni hisobga olgan holda ularni aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlantirish;

- yo'naltiruvchilik - tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari: yoshi, qiziqishi, moyilligi, qobiliyati kabilarni hisobga olgan holda inson-inson; inson-texnika; inson-badiiy obraz; inson-belgilar tizimi; inson-tabiati faoliyati sohalariga yo'naltirish;

- tadqiqotchilik - davlat va jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi, tinchligini ko'zlovchi dolzarb hamda istiqbolli muammolarning yechimini topishda ijodiy izlanish, faol ishtirok etish, tajriba-sinov ishlarini olib borish, g'oyalarni ilgari surish;

- texnologik - o'zining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirish, o'quv yurtining moddiy-texnik, o'quv-uslubiy ta'minotini mustahkamlash, ta'lim mazmuniga yangi texnika, ilg'or ishlab chiqarish va pedagogik texnologiyalarni kiritish.

Mamlakatimizda bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarda jahon xalqlari bilan faqat yaxshilik va ikki tomonlama hamkorlikni ko'zlab aloqalarni yo'lga qo'yish, mamlakat ichida turli millat vakillari bilan mustahkam hamjihatlik, do'stona hayot tarzini tashkil etish va ular maqsadlarini yurt tinchligi va xalq faro vonligiga yo'naltirish, qonun ustivorligini ta'minlash, diniy, milliy, madaniy bag'rikenglik va hamkorlik, xullas, tolerantlik madaniyatini shakllantirishda O'zbekistonda anchagina samaraga erishildi. Aytish mumkinki, erishilgan natijalardan ko'plab davlatlar tajriba o'rgansa arziydi va bu o'zbek xalqining o'tgan buyuk ajdodlariga munosib voris sifatida jahon madaniyati rivojiga xayrli hissa qo'shayotgan xalqligini anglatadi.

Tolerantlik – bu alohida qadriyatlarga va manfaatlariga ega bo'lgan va kerak bo'lsa, ularni himoya qilishga tayyor, ammo shu bilan birga boshqa insonlarning pozitsiyalari va qadriyatlarini hurmat qiladigan etuk kishining hayotiy pozitsiyasining muhim tarkibiy qismidir.

Demak, jamiyat taraqqiyotining omillaridan biri bo'lgan tolerantlik o'zida shu jamiyatga xos mentalitet, insoniy mahr-muhabbat hamda bag'rikenglikni mujassamlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Золотухин В. М. Тolerantность: монография. – Кемерово, 2001. – С. 250.
2. Қолқанов Н.Т. Тolerantlik тушунчаси келиб чиқишининг назарий асослари. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA. Feb. 28th 2023, – В. 64-66.
3. Қурбонова Г. Тolerantlik ва унинг турлари. Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | CSPI Conference 3 | 2021. – В. 292-293.
4. Лекторский В.А. О tolerantности, плюрализме и критицизме. // Вопросы философии. 1997. – № 11. – С. 46-54; Тишков В.А. Культуры мира. – М.: Наука, 1993. – С. 314.
5. Халилов Э.Х. Высший законодательный орган Республики Узбекистан. – Т.: Узбекистон, 2001.
6. Эрназаров Д.З., Рахимбабаева Н.А. Тolerantlik – фуқаролик жамиятини ривожлантириш идеологияси сифатида «Глобал ҳамкорлик – барқарор ривожланиш шarti ва кафолати» халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари.– Toshkent, 2020. – В. 285-289 .
7. <https://tarjumon.uz/tolerantlikning-manosi-nima/>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tolerantlik>
Wikipediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tolerantlik>



O'QUVCHILARDA NUTQIY-ME'YORIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Fayziyeva X.

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: nutq odobi, muloqot, nutq xulq-atvori, kommunikativ faoliyat, o'qitish, o'rganish.

Ключевые слова: речевой этикет, общение, речевое поведение, коммуникативная деятельность, преподавание, обучение.

Key words: speech etiquette, communication, speech behavior, communicative activity, teaching, learning.

Резюме:

O'quvchilarga nutq odob-axloq qoidalarini o'rgatish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloq qoidalariga o'rgatishning maqsadi, tamoyillari va usullari haqida batafsil yoritilgan. Nutq odobi va xulq-atvori muloqotga kirishni ta'minlash, o'quvchining axloqiy tamoyillarini shakllantirish imkonini beradi.

Резюме:

Обучение студентов этикету сегодня является исследовательской работой. В трёх статьях описаны цель, возможности и методы обучения студентов правилам речево-нормативной этики. Этикет и манеры обеспечивают доступ к общению, вызывают нравственные события ученика.

Summary:

Teaching etiquette to students is research work today. Three articles describe the purpose, possibilities, and methods of teaching students the rules of speech-normative ethics. Etiquette and manners provide access to communication, bring about the moral events of the student.

Kirish. O'quvchilarga nutq odob-axloq qoidalarini o'rgatish muhim ahamiyatga ega, chunki u nafaqat og'zaki birliklar tizimi, balki yaxshi muloqotning formulasi bo'lib, u xayrixoh munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Bu o'quvchilarning nutqiy xatti-harakatlarini ijtimoiy talablarga muvofiq tartibga soluvchi qoidalar majmuyi bo'lib, u munosabatlarning tashqi ko'rinishi hisoblanadi, xususan: jamoat joylarida o'zini tutish, diqqatni jalb qilish usuli, salomlashish va xayrlashish, kechirim so'rash, minnatdorchilik, tabriklashning og'zaki shakllari, tilak, hamdardlik, taklif, iltimos, rozilik va iltifot kabilarni misol keltirish mumkin. Nutq odob-axloqi vaziyatga, suhbatdoshning yoshi

va ijtimoiy mavqeiga, muloqot mavzusi, joyi, vaqti, motivi va maqsadiga bog'liq. Ko'rinib turibdiki, monoetnik muhitda yaratilgan til shaxsi katta etnik-madaniy tajribaga ega bo'lib, unga muloqot holatining o'ziga xos tasvirini mustaqil ravishda qurish va etnik-madaniy xususiyatlarning ustunligi bilan bog'liq holda ona tilida fikrni kontseptual tarzda ifodalash imkonini beradi. O'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirish shaxs va umuman jamiyat a'zosi sifatida kognitiv faoliyat jarayonini, ushbu faoliyat natijalarini til va madaniyatda aks ettirish jarayonini, olingan og'zaki ma'lumotlardan foydalanish jarayonini aks ettiradi.

Nutq xatti-harakati haqida. Nutq odobi deganda nutq xatti-harakatlarining ishlab chiqilgan qoidalari, muloqotning nutq formulalari tizimi tushuniladi. O'quvchilarning nutqiy-me'yoriy axloqi odamlarning ijtimoiy va psixologik rollariga ko'ra muloqotda nutq xatti-harakatlarining ijtimoiy va madaniy o'ziga xos qoidalarini, rasmiy va norasmiy muloqot holatlaridagi shaxsiy munosabatlarni aks ettiradi. O'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloq qoidalariga o'rgatishning maqsadi - o'quvchiga ularni standart muloqot darajasida qo'llash imkonini beradigan nutq ko'nikmalarini shakllantirishdir. O'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloqni o'rgatishning zamonaviy metodologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: kommunikativ yo'nalish prinsipi, tipik kommunikativ vaziyatni modellashtirish prinsipi, kommunikativ faoliyat prinsipi, intensiv amaliyot prinsipi, nutq qobiliyatlarini bosqichma-bosqich o'tkazish prinsipi.

Kommunikativ yondashuv ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni to'liq va maqbul tizimlashtirishni nazarda tutadi: umumiy faoliyat tizimi; nutq faoliyati tizimi; nutqiy aloqa tizimi; nutq mexanizmlari tizimi (nutqning o'zaro ta'siri va boshqalar); matn nutq mahsuloti tizimi sifatida; nutq ta'limi tizimi (dialog, monolog, dialogda monolog, nutqning turli xil turlari va xabarlar va boshqalar); shaxsning nutqiy xulq-atvori tizimi mavjud. O'quvchilarning nutqiy-me'yoriy axloqi muloqotning milliy-madaniy tarkibiy qismining namoyon bo'lishidir. Ko'rinib turibdiki, nutq odob-axloq qoidalari standart va stereotipikdir, ammo bu xatti-harakatning buzilishi odam uchun oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin, chunki N. I. Formanovskaya fikriga ko'ra, kommunikativ haqiqiylik odamlarning madaniy hamjamiyatiga nisbatan samimiylikdan yuqoriroq turadi. O'quvchilarning nutqiy-me'yoriy axloqi - bu nutqiy xulq-atvor qoidalari, odob-axloq qoidalariga muvofiq kerakli ohangda muloqotni ta'minlash uchun suhbatdoshlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan milliy o'ziga xos og'zaki birliklarning mikrotizimidir. O'quvchilarning nutqiy-me'yoriy axloq qoidalarini to'g'ri talqin qilish nafaqat so'zni bilish, balki ijtimoiy-madaniy



jihatlarni ham bilishni talab qiladi, og‘zaki odob orqali so‘zlovchining ijtimoiy-madaniy me‘yorlari va uning shakllari ochib beriladi.

Nutq me‘yorlarini buzish so‘zlovchini juda noqulay vaziyatga solib qo‘yadi. Qoidalarni buzish sababi beixtiyor bo‘lishi mumkin, chunki muloqot jarayonining ishtirokchilari turli madaniyatlarni ifodalashi mumkin va bu bir-birining madaniy me‘yorlarini bilmaslik natijasidir. Inson uchun muloqot - bu uning yashash muhitidir. Muloqot hamkorlikni tashkil etishga, rejalarni rejalashtirish va muhokama qilishga, ularni amalga oshirishga yordam beradi. Boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati odamga yuksak sivilizatsiyaga erishishga, kosmosga chiqishga, okean tubiga tushishga, yer osti qatlamlariga kirishga imkon berdi. Muloqotsiz shaxsning shaxsiyatini shakllantirish, uning ta‘limi, aql-idrokini rivojlantirish mumkin emas. Vedenskaya ta‘kidlaganidek, so‘z yurakka eng nozik teginishdir; u nozik, xushbo‘y gulga va yaxshilikka ishonchni qaytaruvchi hayot suviga, o‘tkir pichoqqa, qizdirilgan temirga va tuproq bo‘laklariga aylanishi mumkin. Dono va mehribon so‘z - quvonch, bemani so‘z - g‘azab beradi. Shoshqaloqlik va beozorlik - muammo keltiradi, so‘z bilan o‘ldirish va tuzatish, yaralash va davolash, yoki ma‘naviyatni yuksaltirish, shubhalarni tarqatish yoki tushkunlikka tushirish, tabassum ulashish va ko‘z yoshlarni to‘kish mumkin. So‘zlovchilarning madaniy xabardorligi, muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi omillar, til va madaniyat bir-biriga qanday mos kelishi, tilning inson ongi orqali dunyoni qanday aks ettirishi, individual va jamoaviy mentalitet, mafkura va madaniyat qanday aks etishi muhimligini ta‘kidlashimiz kerak.

Til nafaqat umumiy madaniyatning eng yaxshi ko‘rsatkichi, balki u insonning eng yaxshi tarbiyachisi hamdir. Nutqda fikrning to‘g‘ri ifodalanishi, boy til, so‘zlarning aniq tanlanishi inson tafakkurini va inson faoliyatining barcha sohalarida uning kasbiy mahoratini shakllantiradi. Tilda qo‘poliksiz aniqlik, to‘g‘rilik va ochiqlik ijtimoiy munosabatlar, oilaviy hayotning axloqiy ko‘rsatkichlari va hayotdagi muvaffaqiyat kalitidir. So‘zda qanday hissiy va ekspressiv baholash ifodalanganiga qarab, u nutqning turli uslublarida qo‘llaniladi. Emotsional va ekspressiv leksika so‘zlashuv va kundalik nutqda to‘liq namoyon bo‘ladi, bu gapning jonliligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Biroq, nutqning ilmiy va rasmiy uslublarida hissiy jihatdan bo‘yalgan so‘zlar, qoida tariqasida, mos kelmaydi. Kundalik va maishiy muloqotda og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan, asosan, so‘zlashuv leksikasi qo‘llaniladi. Bu adabiy nutq me‘yorlarini buzmaydi; biroq so‘zlashuv uslubidagi so‘zlar nutqqa jo‘shqinlik va ifodalilik beruvchi katta semantik sig‘im va go‘zalligi bilan farqlanadi. O‘quvchilarda nutqiy-me‘yoriy axloq - bu aniq vaziyatni hisobga olgan holda,



maqsad va vazifalarga muvofiq qabul qiluvchiga eng yaxshi ta'sir ko'rsatadigan fazilatlar to'plami. Ular: aniqlik, ravshanlik, nutqning sofligi, boyligi va rang-barangligi, ifodaliligi, to'g'riligi bilan ifodalanadi.

Nutq odobi milliy o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir xalq nutqiy xulq-atvor qoidalari tizimini yaratadi. Har qanday aloqa harakati boshlanishi, asosiy qismi va yakuniy qismiga ega. Agar suhbatdosh nutq mavzusiga notanish bo'lsa, muloqot tanishishdan boshlanadi. Tanishlar, ba'zan va notanishlarning rasmiy va norasmiy uchrashuvlari salomlashish bilan boshlanadi. Umumiy salomlashishdan tashqari, uchrashuvdan zavqlanishni, hurmatni, muloqot qilish istagini ta'kidlaydigan salomlashishlar mavjud.

Muloqotni o'rgatishda quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi: O'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloq qoidalarini o'rganishda ularlar quyidagilarga ega bo'lishlari kerak:

1. Muloqotning har bir tipik holati bo'yicha nutq odobining turli formulalarini va suhbatdoshning xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqotning o'zaro bog'liq sharoitlarida ulardan foydalanish ko'nikmalarini;

2. Odobli formulalarni "kengaytirish"ning mavjud usullari;

3. Ularni xushmuomalalik bilan, mimika, harakat va boshqa noverbal vositalar bilan ta'kidlab aytish qobiliyati.

O'quvchilarning nutqiy-me'yoriy axloqini o'rgatishning zamonaviy usullarining asosini quyidagi aloqa toifalari tashkil etadi: vaziyat, rol, mavqe, jamoa va zamonaviy fanda nutq aloqasi modellari sifatida qaraladigan aloqa sohasi kabilardan iborat. O'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloq shakllantirishning zamonaviy metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- kommunikativ yo'nalish prinsipi;
- tipik kommunikativ vaziyatni modellashtirish tamoyili;
- kommunikativ faoliyat tamoyili;
- intensiv amaliyot tamoyili;
- nutq qobiliyatlarining bosqichma-bosqichligi prinsipi.

O'qitishning sanab o'tilgan usullaridan eng muhimi tipik kommunikativ (nutq) vaziyatni modellashtirishdir. Kommunikativ vaziyat nutq odobini o'rgatish usuli sifatida quyidagi omillardan iborat: muloqot amalga oshiriladigan voqelik (vaziyat) holatlari (shu jumladan notanish odamlarning mavjudligi); muloqot qiluvchilar o'rtasidagi munosabatlar (bu subektiv - suhbatdoshning shaxsi); nutq motivatsiyasi; aloqa aktining amalga oshirilishi nutqqa yangi vaziyat rag'batlarini yaratadi. Belgilangan omillarning har biri, nutq odobini o'rgatishning ko'rib chiqilgan usullari suhbatdoshlar nutqiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Oddiy kommunikativ vaziyat deganda, suhbatdoshlarning



tipik ijtimoiy va kommunikativ rollarida nutq xatti-harakatlari amalga oshiriladigan haqiqiy aloqaning xayoliy qurilishi yoki modeli tushuniladi. Nutq kontaktlari muloqotda ishtirok etuvchi shaxslarning soni, ular o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri, bir muloqot harakati doirasida gapirish va tinglash rollarining o'zgarishi bilan farqlanadi. Muloqotning 3 turi mavjud: nutq odob-axloq qoidalarini o'rgatish metodologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan individual, guruh va ommaviy.

Tipik kommunikativ vaziyatni modellashtirish prinsipi o'quv, kommunikativ va didaktik ehtiyojlarga muvofiq qayta ishlanishi kerak. O'qitishga kiritilgan har qanday mavzu muayyan kommunikativ vaziyatlar to'plami sifatida ochib berilishi kerak. Kommunikativ faoliyat prinsipi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: tinglovchining e'tiborini jalb qilish, xabarni qabul qilishga erishish, unga munosabat bildirish, muloqot holatini ko'rib chiqish, tinglangan gaplarni aniqlash kabildan iborat. Shuning uchun o'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloqni o'rgatish ma'lum bir kommunikativ muhitni o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Intensiv amaliyot tamoyili takroriy nutq faoliyati natijasida erishiladigan avtomatlashtirilgan nutq qobiliyatini ishlab chiqishga qaratilgan. Nutq qobiliyatining bosqichma-bosqichligi tamoyili shuni belgilaydiki, til materialini va u bilan operatsiyalarni o'zlashtirish bosqichma-bosqich, faqat bitta vazifani o'rgatish, nutq qobiliyatining faqat bitta turini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ko'rib chiqilgan tamoyil taqdimot, amaliyot va bajarish bosqichlariga (mashqlar - trening - muloqot) asoslanadi.

O'quvchilarda nutqiy-me'yoriy axloq qoidalarini o'rgatish uchun rolli o'yinlar mavzuga ijobiy munosabat uchun hissiy zamin yaratadi. Xushmuomalalik tamoyili asosan so'roq nutqi harakatlarida amalga oshiriladi. Kommunikativ niyatning ifodasi sifatida xushmuomalalik tamoyilini amalga oshirishning ishonchli usuli sifatida ko'pincha so'rov shakli qo'llaniladi. Nutqning o'ziga xos uslubi har bir xushmuomalalik darajasiga mos keladi.

Rasmiy xushmuomalalik darajasi muassasalarda, tashkilotlarda, xo'jalik jamiyatlarida, ta'lim, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish va hokozalarda norma hisoblanadi. Suhbatdoshlarning xatti-harakatlari, ishlari va niyatlarining ijtimoiy shartlilikligi ularning nutq xatti-harakatlari uslubida ifodalanadi. Rasmiy vaziyatda rasmiy xushmuomalalik darajasidan chetga chiqish suhbatdoshga nisbatan ochiq-oydin hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi va suhbatdoshlarni mojaroga va hatto rasmiy munosabatlarning uzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, agar kerak bo'lsa va odob-axloq qoidalari bilan ta'minlangan bo'lsa, rasmiy xushmuomalalik darajasiga qat'iy rioya qilish kerak. Xushmuomalalikning neytral darajasida notanish odamlar, shuningdek, rasmiy



yoki tanish munosabatlarda bo‘lmagan tanish odamlar o‘rtasida muloyim muloqot amalga oshiriladi. Tanish bo‘lgan xushmuomalalik darajasi oilada, shuningdek, qarindoshlar va do‘stlar o‘rtasidagi muloqot uchun xarakterlidir. Oleg Tarnopolskiy nutq odobi o‘rniga kommunikativ odob-axloq qoidalaridan foydalanishni taklif qildi, ammo biz buni nutq xatti-harakatlarini ifodalash uchun eng yaxshi atama deb hisoblaymiz. Darsda o‘quvchilarning kognitiv faolligini faollashtirish kommunikativ va informatsion vazifalarni qo‘yish va ularni o‘zlari tomonidan hal qilish tufayli sodir bo‘ladi.

Xulosa o‘quvchilarda nutqiy-me‘yoriy axloqning tipik kommunikativ vaziyatlarni yaratish va bunday vaziyatlarni modellashtirish o‘quv nutqini rivojlantirishning muhim elementidir. Nutq odobi texnikasi va jarayonni interaktiv model doirasida tashkil etiladi. Nutq odobi va xulq-atvori muloqotga kirishni ta‘minlash, o‘quvchining axloqiy tamoyillarini shakllantirish imkonini beradi. Kommunikativ vaziyat tizim sifatida yangilik va xilma-xil ma‘lumotlarni taqdim etadi, bayonotni rag‘batlantiradi, ya‘ni keyingi jamoaviy muloqot uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish ijtimoiy, vaziyat va kontekstli qoidalarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Nutq odobi formulalarini o‘rgatish o‘quvchilarning og‘zaki, semantik va pragmatik bilimlarini rivojlantiradi, ularning jamiyatda ijtimoiy va kasbiy moslashuviga turtki beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjati. – T.: 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari. –T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2015.- 8 b.
3. Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta‘limida kompetensiyaviy yondashuv: Metodik qo‘llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. – 9 b.
4. Bylinina, L. va Zadorozhny, S. (2011). Baholovchi sifatlar, masshtab tuzilishi va odobli bo‘lish usullari. Rasmiy semantik dalillar bo‘yicha seminar. 18-Amsterdam kollokviumi. veb-sayt: <http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/>
5. Csajbok-Twerefou (2010). Chet tillarni o‘qitishda til odobi va madaniyati. Ta‘lim tizimlarida amaliyot va nazariya, 5-jild 3 soni.
6. Tarnopolskiy O. Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi talabalarga kommunikativ xulq-atvor odob-axloq qoidalarini o‘rgatish. veb-sayt: <http://www.jstor.org/discover>
7. www.ziynet.uz



O‘QUV JARAYONIDA GEOGRAFIK TUSHUNCHALARNI FALSAFIY AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

Shonazarova S.R.

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim
kafedrasi o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: geografik bilimlar, falsafiy aksiologik yondashuv, ta‘lim tizimi, falsafa, pedagogik aksiologiya, o‘qitish shakllari, aksiologik ong, qadriyatlar nazariyasi, tabiiy qadriyatlar, kontseptual asoslari, falsafiy-antropologik, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlar.

Ключевые слова: географическое знание, философско-аксиологический подход, система образования, философия, педагогическая аксиология, формы обучения, аксиологическое сознание, теория ценностей, природные ценности, концептуальные основы, философско-антропологические, социально-политические особенности.

Key words: geographical knowledge, philosophical axiological approach, educational system, philosophy, pedagogical axiology, forms of teaching, axiological consciousness, theory of values, natural values, conceptual foundations, philosophical-anthropological, socio-political features.

Резюме:

Ushbu maqolada geografik bilimlarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirishning nazariy asoslari, milliy qadriyatlarning o‘ziga xos belgilari, xususiy geografik tushunchalarni aksiologik yondashuv asosida tushuntirish, ta‘lim rivojlanishining hozirgi bosqichida umumiy geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirish muammosi fikr yuritilgan.

Резюме:

В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования географических знаний на основе философско-аксиологического подхода, характерные черты национальных ценностей, трактовка конкретных географических понятий на основе аксиологического подхода, проблема формирования общегеографических понятий на основе аксиологического подхода. рассмотрен философско-аксиологический подход на современном этапе развития образования.

Summary:

In this article, the theoretical foundations of the formation of geographical knowledge based on the philosophical axiological approach, the characteristic features of national values, the interpretation of specific geographical concepts based on the axiological approach, the problem of the formation of general geographical concepts based on the philosophical axiological approach at the current stage of educational development are considered.

Kirish. Geografik bilimlar o'quvchilarda er sayyorasining yaxlit geografik qiyofasini shakllantirish uchun o'z ona yurtini o'rganishdan tortib, global qonunlar va jarayonlarni bilish, hayotiy muammolarning mohiyatiga kirish va ularni hal qilish yo'llarini topishgacha bo'lgan jarayonlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bilimlar tizimi tushunchalar, g'oyalar, qonunlar va faktlar kabi o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan murakkab tuzilmadir. Bu elementlar odatda maktab o'quv dasturida taqdim etiladigan har bir bilim tizimini o'quvchilar ongida shakllanishini ta'minlash uchun har bir mavzuni ko'rib chiqish jarayonida namoyon bo'ladi [1].

Tabiiy (science) fanlar - insoniyat ma'naviy madaniyatining eng muhim va ajralmas qismidir. Ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida umumiy geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirish muammosi alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy fan o'rganilayotgan obyektlarni yaxlit va har tomonlama qamrab olishga intilishi bilan tavsiflanadi.

Tahlil va natijalar. Shuningdek, fan-bu tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunoyatlarini ochib beruvchi hamda atrofdagi muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimidir. Fanning asosiy vazifasi bilimlarni to'plash, ularni tekshirish, haqqoniyligini mantiqan va tajribada isbotlashdan iboratdir. Fan o'zi tadqiq qilayotgan voqea va hodisalarning obyektiv qonuniyatlarini ochib beradi.

Ilmiy bilimlarning asosiy xususiyati uning tizimli bo'lishi, ya'ni bir bilimning ikkinchisi orqali mantiqiy isbotlanishidir. Ma'nosi bo'yicha ilmiy bilimlar haqiqatga intilishligi, umumiy hodisalarni hamda butun olamni tadqiq etishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyatlarining o'ziga xos belgilaridan biri, u millatning ijtimoiy ideallari orzu-intilishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning negizida kishilar va jamiyatning kelajak haqidagi ijtimoiy sog'lom fikrlari, tasavvurlari, orzu-umidlari, hayotiy andozalari yotadi. Milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, o'ziga xos fazilatlarini va tarixiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi mezon hisoblanadi.

Atrof-muhitni kuzatish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan falsafiy bilimlarga asoslangan holda atrof-muhitdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib borishadi, ob-havo belgilarini anglashni o'rganishadi va tabiatga pragmatik, lekin ko'pincha g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishadi. O'qitish usullarini katta hayotiy tajribaga, pedagogik mahoratga ega bo'lgan kishilar sifatida shakllantirgan.

Geografik bilimlarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirishning nazariy asoslari, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik zaruratini yoritib berish



maqsadida aksiologiyaning mazmunini ochib berish kerak. Jumladan, aksiologiya (yunoncha “axio” - qadriyat va “logos” - fan, ta’limot) - qadriyatshunoslik ya’ni qadriyatlar haqidagi fan. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Hozirgi davrda qadriyatlarni o’rganishda falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, antropologiya, psixologiya va pedagogika fanlarini yanada takomillashtirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [4].

Qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo’lish shakllari, qadrlash hissi, qadrlash tuyg’usi, reallikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o’zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to’g’risidagi masalalarni o’rganadi. Shuningdek, qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo’lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo’ladi va rivojlanadi.

Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo’lishi mumkin. Unda aksiologik yondashuv bilan qadriyatli munosabatlarning individual va ijtimoiy namoyon bo’lish darajalarini ajratib ko’rsatish mumkin. Demak, aksiologiya kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda nafaqat ilmiy dunyo qarashni takomillashtirish balki, millatga xos qadriyatlarni o’rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuv keng o’rganilgan. Masalan, V.A.Slasyoni pedagogik jarayonni va uning subyektlari bilan o’zaro ta’sirini, aksiologik yondashuvlardan foydalanishning ijobiy jihatlarni o’rgangan.

Aristotel falsafada qaror topgan va barcha aksiologik ta’limotlar asosini belgilab bergan konsepsiyani ilgari surgan. Mazkur konsepsiya uning quyidagi g’oyasida o’z ifodasini topgan: “Qancha imkoni bo’lsa, shuncha yuqoriga ko’tarilish lozim va barcha narsani, o’zingdagi eng oliy narsa - hayot uchun qilish darkor, agar u o’z ko’lamiga ko’ra oz miqdorda bo’lsa-da, o’zining quvvati va qadriga ko’ra, u hamma narsadan yuqoridir”. Demak, barcha xatti-harakatlar, amallar hayotga xizmat qilishi, uni e’zozlashi, ulug’lashiga muvofiq qadrlidir.

Qadriyatlar falsafasining shakllanishiga I.Kant katta hissa qo’shgan. Uning “har qanday ongli mavjudot o’zi o’ziga maqsaddir” degan g’oyasi negizida insonga vosita emas, oliy qadriyat sifatida qarash zarur, degan fikr yotadi. Shu ma’noda milliy urf - odat va an’analarni yoshlar ongiga singdirish har qanday millat uchun o’z taraqqiyotining maqsad va vazifasi bo’lib qolgan.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ijtimoiy fazilatlarga bog'langan qadriyat asosan insoniyat va jamiyat manfaatlariga qaratilgan ezgu niyatlar asosida kelib chiqadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvida qism va butun o'rtasidagi dialektik aloqalar muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, qadriyatlar ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, kishilarning hayotiy, kasbiy faoliyati jarayonida kishilarning turli sohalaridagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bevosita bog'liq ravishda paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Ma'lumki, har bir xalqning o'z tarixi, urf-odati va shu xalqning madaniy va ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan olimu fuzalolari, davlat arboblari, allomalari bor. Xalqning o'z tarixini bilishga, o'zligini anglab etishga intilishi yuksak ma'naviy jasorat natijasi, shu bilan birgalikda, bugunning alohida e'tibor qaratmoq lozim bo'lgan dolzarb vazifalaridandir. Agarda xalqimiz tarixiga chuqurroq nazar tashlasak, haqiqatdan ham o'zining boy moddiy va ma'naviy merosi bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shib, dunyo tamadduni beshiklaridan biri bo'lganiga amin bo'lamiz. Bu esa o'z o'rnida xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Q.Nazarovning ilmiy ishlarida, qadriyatlarni o'rganishning o'ta dolzarbligini ta'kidlagan. Uning fikricha, qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo'lish shakllari, qadrlash hissi, qadrlash tuyg'usi, reallikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to'g'risidagi masalalarni o'rganadi.

T.Abdullayev "Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning dialektikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida milliy va baynalminallik munosabatlar bilan bog'liq qadriyatlarni o'rgangan.

N.A.Astonovanning "Pedagogik aksiologiyaning kontseptual asoslari" maqolasida pedagogik aksiologiyaning predmeti sifatida shaxsning madaniy munosabatini rivojlantirish e'tirof etiladi. Maqolada qayd etilishicha, ana shu jihat bilan pedagogik aksiologiyaning funksiyalari uning o'ziga xosliklarini belgilashga imkon beradi.

Shuningdek, qadimgi madaniy xalqlarning qo'shnilar bilan turar-joy va savdo aloqalariga bo'lgan ehtiyoj, urushlar va boshqa sof hayotiy ehtiyojlar nafaqat geografik bilimlarni to'plashga, balki uni yozuvlar yordamida qayd etishga ham majbur qilgan. Mazkur bilimlar asosan Qadimgi Misr, Finikiya, Hindiston, Xitoy va O'rta Osiyo kabi buyuk madaniy davlatlarga mansub edi.



Eramizdan oldingi III asrdan boshlab, ya'ni ellinizm davrida ba'zi bir fanlar, avvalo riyoziyot va tib alohida fan bo'lib ajralib chiqdi. Shu bilan bir vaqtda qadimgi yunon falsafasi nafaqat falsafiy, balki riyoziyot, tabiiy va ijtimoiy fanlar masalalarini qamrab olgan naturfilosofiya sifatida rivojlandi.

Eramizdan avvalgi 585-yilda yunon naturifilosofi (naturifilosofiya- tabiat falsafasi) Fales Quyosh tutilishini oldindan aytib berganligi bilan mashxur bo'ldi. Bu vaqtda haqiqatdan ham Yunonistonda Quyosh tutilishi kuzatilgan.

Shuningdek, Eramizdan oldin VI asrda yashagan yunon olimi tabib, fiziolog va faylasuf Empedokl Quyosh tutilish hodisasini Quyosh bilan Yer orasidan Oyning o'tishi tufayli sodir bo'lishini tushuntirib berdi. U yorug'likning juda katta tezlik bilan tarqalishi sababli, biz uning tarqalish vaqtini sezmasligimizni tushunib etdi.

Qadimgi davr olimlari matematikada (Evklid, eramizdan oldingi III asrda yashagan), astranomiya (Ptolomey, eramizdan oldingi II asrda yashagan) ma'lum yutuqlarga erishganlar.

O'rta asrlarda Astralogiya, kimyo, sehrgarlik va boshqa sirli bilimlar tog'risidagi ta'limotlar bu davrga xosdir. Lekin, bu davrda asta-sekin yangi-yangi ilmiy dalillar to'planib, nazariy fikrlash mantiqi o'tkirlasha bordi.

XVIII asrning o'rtalarida tabiatshunoslik bo'yicha tabiat hodisalarining evolutsion rivojlanish g'oyalari kirib kela boshladi. Bunda I.Kant, M.V.Lomonosov, P.S.Laplaslarning quyosh tizimining tabiiy paydo bo'lishi to'g'risidagi gipotezalar rivojlantirilgan ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqotchi A.Bagduyeva ta'kidlaydiki, [1] "pedagogik shart-sharoitlar ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakllari, usullari, maqsadga erishish yo'lida tanlab olingan va uni qo'llash uchun mo'ljallangan holatdir".

O.Luxantseva pedagogik shart-sharoit deganda, samaradorlikni oshirishga, o'quv jarayonining ta'sirini kuchaytirishga yordam beruvchi, ya'ni uni takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus tashkil etilgan pedagogik holatlar majmuasi tushuniladi.

Xulosa. Geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni, o'quv jarayonida o'quvchilarni geografiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning umumiy bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Falsafiy aksiologik yondashuv, geografik tushunchalarni faqat nazariy nuqtai nazardan emas, balki qadriyatlar, etik va estetik masalalar bilan bog'liq jihatlarni ham inobatga oladi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar geografik muammolarni



tahlil qilish, ularning ahamiyatini tushunish va ijtimoiy hayotda ularga berilgan qiymatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Bu jarayon o'quvchilarda kritikallik fikrlash, muammolarni hal etish va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi. Geografik tushunchalar yordamida talabalarga global masalalarni, ekologik muammolarni va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish imkoniyati beriladi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish o'quv jarayonini yanada chuqurlashtiradi va o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, qadriyatlarini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ularni zamonaviy muammolar yechimini topishga tayyorlaydi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mardonova, B.Xodjayeva, Sh.Taylanova, D.Xojimuhammedova "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma Toshkent-2013.
2. Маликова П.С. Мактаб ўқувчиларининг таълим фаолиятини шакллантириш (географияни ўқитиш мисолида). Илмий ва амалий қўлланма. Уфа: Баш.ГПИ, 1998.-120с.
3. Ахгонов Ю.А. Педагогик маъорат. О'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2002.-110 b.
4. Таълимни ривожлантириш тизимидаги дарс. (Иш тажрибасидан)/ эд. А.К.Дусавитский. Харьков: Психология ва ривожланиш таълим методикаси маркази, 1996. - 46 б.
5. Fozilov J., Sultonov R., Sodiqov X. "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish" "Sharq" nashriyoti. Toshkent.- 2000 -102
6. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. T.: Fan. 384 b.



ONA TILI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING KREATIV KO‘NIKMALARINI MODELLASHTIRISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Qulmo‘minov O‘S.

Termiz davlat pedagogika instituti, tadqiqotchi

Tayanch so‘zlar: modellashtirish, model, farazlar va nazariyalarning haqiqiyliqi, tadqiqot vositasi, kreativ ko‘nikma.

Ключевые слова: моделирование, модель, обоснованность гипотез и теорий, инструмент исследования, творческий навык.

Key words: modeling, model, validity of hypotheses and theories, research tool, creative skill.

Резюме:

Mazkur maqolada dunyo ilm-fani rivojida modellashtirish tushunchasiga e‘tibor qaratilib kelinayotganligi, o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar samarasi, barcha sohalarida modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma‘lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan keng foydalanilayotganligi, model foydali va yagona tadqiqot vositasi ekanligi xususida fikr mulohazalar bayon etilgan.

Резюме:

В данной статье уделяется внимание понятию моделирования в развитии мировой науки, результатам научных исследований по развитию творческих способностей школьников, также модель широко используется при разработке гипотез и теорий в получении информации о моделируемых явлениях во всех областях, комментирует тот факт, что модель является полезным и уникальным инструментом исследования.

Summary:

This article pays attention to the concept of modeling in the development of world science, the results of scientific research on the development of creative abilities of schoolchildren, the model is also widely used in the development of hypotheses and theories in obtaining information about modeled phenomena in all areas, comments on the fact that the model is useful and unique research tool.

Kirish. Zamonaviy ilm-fan rivojida modellashtirish tushunchasiga e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, ta‘lim jarayonida modellashtirish tizimi keng qo‘llanilmoqda. Shu jihatdan mazkur tushunchani kengroq ma‘noda izohlashni lozim topdik. Modellashtirish — zamonaviy talqinda ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, barcha fanlarda modellashtirilayotgan



hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi.

Xususan, o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o'quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilib, takomillashtirilgan metodik tizimni ishlab chiqish zarurligiga urg'u berilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida takomillashgan metodik tizimni yaratishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflar, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, muloqot va o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Zero, kreativ fikrlaydigan, iqtidorli yoshlarni ijodkorlik faoliyatiga jalb etish, ijtimoiy va shaxsiy faolligi kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini, innovatsion yondashuvni tizimli tarzda tashkil etishning metodologik asoslari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning, shuningdek, interfaol ta'limni mediatexnologiyalar vositasida tashkil etishning didaktik ta'minotini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Rivojlangan davlatlarda ta'lim oluvchilarining intellektual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Blue School, Steve Jobs School, Special Music School (Amsterdam), Alt School (San Francisco), Talent Culture Academy (Canada), "Dzyuku" (Yaponiya) kabi maktablar o'sib kelayotgan avlod tafakkuri, kreativligini rivojlantirishni yetakchi maqsad sifatida belgilab olishgan. Bu esa, jahonda zamonaviy fan yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur natijalariga ehtiyoj ortib borishini ko'rsatadi. Ushbu masalaning eng muhim tomoni esa, dunyo maydoniga chiqish uchun tafakkur tezligini shakllantirish, tez va faol fikrlaydigan avlodni tarbiyalash muhimligini ko'rsatadi.

Xalqaro miqyosdagi o'qituvchi va mutaxassislardan iborat ishchi guruh tomonidan kreativ fikrlash ko'nikmasi "yangi g'oya va yechimlarni ishlab chiqish" deb izohlandi. Ta'lim, Tadqiqotlar va Innovatsiyalar Markazi (CERI) tomonidan olib borilayotgan dasturga ko'ra, kreativ fikrlash ko'nikmasi o'z ichiga 6 ta qo'chimcha ko'nikmalarni qamrab oladi. Ular:

1. Tegishli tajriba va ma'lumotlarni idrok etish, ularga nisbatan o'z munosabatini bildirish, kuzatish hamda tasvirlash.

2. Mulohazalarni o'rganish, topishga harakat qilish va mulohaza yuritish.



3. Boshqa fanlarga oid tushunchalar orasidagi bog‘liqliklarni topish va uyg‘unlashtirish.

4. G‘ayrioddiy va fundamental mulohazalarni kengaytirish va ular yordamida fikrlash.

5. Yangicha fikrlash mahsulini oldindan ko‘ra bilish, ifodalash, yaratish va shunga o‘xshash mulohazaga (yechim yoki samaradorlikka) erishish.

6. Yechimning o‘ziga xosligi yoki uning ehtimoliy natijalarini baholay olish [3].

Bugun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko‘ra ortib bormoqda. Maktablar o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlarida muhim o‘rin tutadi. Maktablar o‘quvchilarni o‘zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o‘zlarining muhim hissalarini qo‘shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi). Kreativ fikrlash o‘quvchilarning ona tili darslarida egallagan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar asosida tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga ko‘maklashadi.

Torrens fikriga ko‘ra [1], o‘quvchilarning ijodkorlikka oid testlar bo‘yicha qayd etgan ko‘rsatkichlari umumlashtirilishi mumkin va bir bilim sohasiga tegishli ko‘rsatgich boshqasiga o‘tkazilishi mumkin. Shunga qaramasdan, sohada olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar mazkur farazga zid ko‘rinadi. Ularda aytilishicha, ijodkorlik ko‘nikmasining o‘zlashtirilishi uchun kerakli ko‘nikmalar va o‘ziga xosliklar bilim sohasiga tegishli, shuning uchun ular bilim sohasidan farqlanadi yoki ikkala yondashuv jihatlarini birlashtirib kreativlik modellarini taqdim etadi.

Modellashtirish, ayniqsa mavhum obyektlarni, olis-olislarda joylashgan obyektlarni, juda kichik hajmli obyektlarni o‘rganishda ahamiyati kattadir. Modellashtirish inson faoliyatining turli-tuman sohalariga tobora kengroq va chuqurroq kirib bormoqda, tadqiqotning samarali vositalaridan foydalanishga imkon bermoqda.

Xususan, o‘qitish jarayonini modellashtirish asosida tashkil etish yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Shu bois biz ham ona tili darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish uslubidan keng foydalandik. Mazkur uslub ilmiy-tadqiqot jarayonini osonlashtiradi, ba’zi hollarda esa murakkab obyektlarini o‘rganishning yagona vositasiga aylanadi. Modellashtirish uslubidan zamonaviy fanlardan fizika, astronomiya, biologiya,

iqtisod kabilarda keng qo'llanilgan. Izlanishlarimiz modellashtirish vositasida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini tadqiq etishga undadi.

Ona tili o'qitishda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. U manbalardagi ma'lumotlarning reprezentativligini tekshirishda, dalillarning ishochliligini, farazlar va nazariyalarning haqiqiyiligini tekshirish imkonini beradi. Masalan, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun uni modellashtiradigan bo'lsak, bunda pedagogika, psixologiya, metodika hamda kreativ ko'nikmalarning o'ziga xosligi, omillari, rivojlantirish jarayonini ham e'tiborga olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida fanlararo yondashuv uslubining qo'llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to'g'ridan-to'g'ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanining tuzilishi mohiyati nuqtai-nazaridan shakllantirish lozim bo'ladi.

Ona tili o'qitishda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishda o'ziga xoslik xususiyati muxhim sanaladi. O'ziga xoslik noodatiy g'oyalari o'ylab topish ko'nikmasidir. Masalan, 3-sinf ona tili darsligining 20-sahifasining 6-mavzusida "Ijodkorlik soati. Loyiha ishi" keltirilgan. Topshiriq sifatida o'quvchilarga quyidagicha vazifa berilgan: "Tasavvur qiling, siz tadbirkorsiz. Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz. O'z mahsulotingizni namoyish qiling. Reklama uchun sizga nimalar kerak bo'ladi? Fikringizni yozma bayon qiling" [3].

Darslikda keltirilgan topshiriqni bajarishda o'quvchilar o'zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko'nikmalarini shakllantirib, so'ng noodatiy, original g'oyalarni kashf etish ko'nikmasini hosil qilishlari lozim.

Ravon fikrlash ko'nikmasi o'quvchilarda originallikni rivojlantirishda boshlang'ich va asos soluvchi qadam bo'lib xizmat qiladi. agarda o'quvchi ko'p g'oyalarni o'rataga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi albatta boshqa o'quvchining g'oyasi ham bo'ladi.

Moslashuvchan fikrlash o'quvchilarga ularning har bir g'oyalari bir-biridan farqlanishini ko'rish va anglash imkoni beradi. Ularning orasida hammasidan ajralib turuvchi g'oya bo'lsa, demak ana shunisi original (o'ziga xos) g'oya hisoblanadi.

O'quvchilar original g'oya kontekstidan kelib chiqishi lozimligini anglashlari lozim. G'oya bir dars jarayonida, birgina sharoitlar va bir vaqt oralig'ida taqdim etilishi lozim. O'quvchilarda rovon fikrlash va moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'ziga xos tarzda (original) fikrlash



to'g'risida ham ma'lumot berib o'tish lozim. Masalan, o'quvchilarni "Aqliy hujum" strategiyasi yordamida "O'z mahsulotingizni namoyish qiling. Reklama uchun sizga nimalar kerak bo'ladi?" degan savol asosida muammoning yechimi ro'yxatini tuzish (ravonlik), so'ng berilgan g'oyalarni bir necha kategoriyalarga bo'lib chiqish (moslashuvchanlik) va ulardan qay biri o'ziga xos (originallik) g'oya ekanligini aniqlash o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalarning bir paytning o'zida qo'llanilishini ko'rsatib beradi.

Moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shallantirishda o'quvchilar qiziqishlari va madaniy qarashlaridan foydalanish ularda originallikni tarbiyalashda katta samara beradi. Shuningdek, topshiriqni bajarishda ravonlik va moslashuvchanlik bo'yicha mashq va ishbilarmon o'yinlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv mavzuni oson va samarali o'zlashtirish imkoniyatini yanada oshiradi hamda topshiriq mazmunini chuqur anglash va natijalarni original tarzda kreativ ko'nikmalarini shakllantirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

"Yaratuvchanlik" tushunchasi boshqa bir g'oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya'ni berilgan vazifalar anu shu g'oya asosida bajariladi. Bir g'oyani kengaytirish uchun o'quvchilar mavzu, muammo yoki vazifa mazmunin chuqur anglab yetishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo'lishlari lozim.

Tahlil va natijalar. Modellashtirish usulining asosiy mazmunini kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini dastlabki o'rganish asosida modelni tajriba yo'li bilan yoki nazariy tahlil qilish, natijalari haqidagi ma'lumotlar bilan solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, mavjud modellarni o'rganish, tuzatish (takomillashtirish) ga qaratdik. Biz taklif etmoqchi bo'lgan model ona tili darolarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini ifodalovchi va o'ziga xos xususiyatlarni qulay shaklda tasvirlovchi ilmiy-metodik tizim vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ta'limda modellashtirishning uch tarkibiy qismi farqlanadi:

1. Sub'ekt (tadqiqotchi, izlanuvchi)
2. Tadqiqot ob'ekti
3. Idrok etuvchi sub'ekt va idrok qilinadigan ob'ekt o'rtasidagi munosabatda vositachilik qiluvchi model.

Shu jihatdan qaralganda tadqiqotimiz ob'ekti sifatida idrok qilinayotgan ona tili darolarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy ob'ektni o'rganish uchun almashtiradi. Tadqiqot modeli o'rganilayotgan asl ob'ekt haqida yangi bilimlarni beradi. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektning xususiyatlari va xatti-harakati yordamchi tizim - o'rganilayotgan ob'ekt bilan



ma'lum mos keladigan model yordamida o'rganiladi. Har qanday model ob'ektning o'rnini bosa olmasada, biroq, biz tadqiq qilayotgan ob'ektning ma'lum xususiyatlari bilan qiziqqanimizda, model foydali va yagona tadqiqot vositasi ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Bizningcha, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. Bu ularga globallashuv sharoitida jadallik bilan o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda "21-asr" ko'nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Torrance, E. (1988), "The nature of creativity as manifest in its testing", in Sternberg, R. (ed.), *The Nature of Creativity: Contemporary Psychological Perspectives*, Cambridge University Press, New York, NY, (accessed on 29 March 2018).
2. Ismailov A. [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Qo'llanma[Matn]: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun/ Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil. – 92 bet.
3. Boynazarova D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 3-sinfi uchun darslik. II qism. Toshkent. "NovdaEdutainment", 2023. – 88 bet.



МАВЗУ: ОИЛА ТАРБИЯСИДАГИ МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАР, УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ТАЪЛИМ МУАССАЛАРИДА ЁШЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛОВЧИ ПАРАДИГМАЛАР

Исмайлов А.С.

*педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти*

Таянч сўзлар: урф-одат, анъана, ақлий хужум, мулоқот тренинги, расмга асосланган методика, айлана стол.

Ключевые слова: традиция, мозговой штурм, коммуникативный тренинг, картинная методика, круглый стол.

Key words: tradition, brainstorming, communication training, picture method, round table.

Резюме:

Ушбу мақолада қорақалпоқ халқининг тарихи, маданияти, урф-одати, миллий маънавияти, бетакрор – миллий анъана ва қадриятлари, дастурлари ва дарсларда қўлланиши мумкин бўлган методикалар ҳақида сўз боради.

Резюме:

В данной статье рассказывается об истории, культуре, традициях, национальной духовности, уникальных национальных традициях и ценностях каракалпакского народа, программах и методах, которые можно использовать на занятиях.

Summary:

This article tells about the history, culture, traditions, national spirituality, unique national traditions and values of the Karakalpak people, programs and methods that can be used in classes.

Қорақалпоқ халқ анъаналари асосида тарбиялаш, ёшларни садоқатли, меҳр-оқибат туйғусини шакллантиришда умумтаълим мактаблари, баркамол авлод марказлари ва ижтимоий тармоқлар орқали уларнинг онгига замонавий ва таъсирчан кучларга эга бўлган инновацион лойиҳаларни кўпайтириш зарур. Бу ўз навбатида келажагимиз ҳар бир ёшнинг имкониятларини миллий қадриятлар асосида юзага чиқаришга имконият яратади.

Қорақалпоғистон телерадиокомпанияларининг ёшларга оид каналларида дўстлик, меҳр-оқибат туйғуларини шакллантиришга оид кўрсатув-

лар ва эшиттиришларнинг мазмун ва савиясини ривожлантириш аҳамиятли саналади.

Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методлари кенг қўлланилмоқда. Ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади.

Анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга турли-туман таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирадиган методлар билан бойитиш таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасининг кўтарилишига олиб келади.

Бунинг учун дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнида фаоллиги доимо рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материални кичик-кичик бўлақларга бўлиб, уларнинг мазмунини ёритишда Ақлий ҳужум методи, кичик гуруҳларда ишлаш, баҳс-мунозара, муаммоли вазият, лойиҳа, ролли ўйинлар каби методларни қўллаш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади.

Олий таълим муассалари да “Оила педагогикаси ва “Халқ анъанаси” модулларини ўқитишда халқ анъаналарини ёшларимизнинг билиш даражасини аниқлаш мақсадида талабалар билан дарс жараёнида мавзуга оид бўлган “Мулоқот тренинг”ини ўтказиш мақсадга мувофиқ.

МУЛОҚОТ ТРЕНИНГИ.

Ушбу тренинг ўқувчи–талабаларда дарс жараёнида мустақил фикрлашга, ўз фикрини эркин ҳолда баён эта олишга ҳамда уларда баҳслашиш маданиятини тарбиялашга қаратилган бўлиб, одатда бундай машғулот талабаларни кичик гуруҳларга бўлган ҳолда ўтказилади.

Ўқитувчи машғулотни бошлашдан аввал талабаларни мулоқот, баҳс-мунозарани ўтказишга қўйилган талаблар, қоидалар билан таништиради.





1-БОСҚИЧ. Тадқиқотчи ишни ўтказиладиган мулоқотнинг мавзусини аниқлашдан бошлайди, масалан, «*Оила тарбиясидаги миллий анъаналар, урф-одат ва маросимларнинг аҳамияти* қандай?». Шу мавзуни ўртага ташлаб талабалардан Шарқ маданияти ва Европа маданияти тарафдорларини аниқлаб олади. Уларни шу тартибда гуруҳларга бўлади.

2-БОСҚИЧ. Ҳар бир гуруҳдаги талабалар ўз мавзулари бўйича керакли материаллар, далиллар, мисоллар, аниқ фикрлар, ўз фикрини тасдиқловчи кўргазмали материаллар, имкони бўлса видеофильм, мақолалар, мутафаккир ва олимларнинг сўзлари ва бошқаларни тайёрлайдилар. Гуруҳдан бир кишини ҳимоя учун танлайдилар, қолганлар эса ўз фикрларини қўшимча қилишлари мумкин. Ўқитувчи гуруҳ талабаларининг тайёргарлик кўриш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда вақт беради.

3-БОСҚИЧ. Гуруҳлар ҳимояга тайёр бўлгач ўқитувчи гуруҳларнинг бирига ҳимоя учун сўз беради (ҳимояга чиқиш ихтиёрий равишда бўлиши мумкин). Гуруҳ вакили гуруҳ номидан сўзга чиқиб уларга берилган мавзуни тайёрланган материаллар, далиллар асосида ҳимоя қилишга киришади. Гуруҳ вакили сўзини тугатгач, гуруҳнинг қолган аъзолари қўшимча фикрлар билдиришлари мумкин.

4-БОСҚИЧ. Машғулотнинг 3-босқичидаги каби бу босқичда ҳам ўқитувчи навбатдаги гуруҳ вакилига ҳимоя учун сўз беради. Иккинчи гуруҳ ҳам биринчи гуруҳ каби ўз мавзуси бўйича ҳимоя қилади. Ҳимоя тугагач, ўқитувчи машғулотнинг кейинги босқичига ўтади. Ҳар иккала ҳимоя вақтида ўқитувчи иложи борича ўз фикр ва мулоҳазасини билдирмасликка, савол бермасликка ҳаракат қилади, ҳеч қайси гуруҳга ён босмаган ҳолда мулоқотни бошқаради, гуруҳ ҳимояси вақтида тартиб сақланишига ва мулоқотни ўтказишга қўйилган талаб, қоидаларнинг тўлиқ бажарилишига эришишга ҳаракат қилади. Бу босқичда, асосан, икки гуруҳ эркин, мустақил фаолият кўрсатишлари керак бўлади.

5-БОСҚИЧ. Гуруҳлар бир-бирларига савол беришни бошлайдилар. Гуруҳлар томонидан бериладиган саволлар улар ҳимояси вақтида айтилган далиллар, мисоллар, фикрларни янада ойдинлаштириш мақсадида, шунингдек, ўз гуруҳларининг фикрларини янада таъкидлаб, исботлаб, қолганларни ҳам шу фикрга қўшилишларига даъват қилиш учун берилиши мумкин. Талабалар эркин ҳолда ўзларининг чиқишлари билан барчага таъсир кўрсатишга, ўз фикрларини маъқуллашга ҳаракат қиладилар. Ўқитувчи бундай ҳолатга шароит, имконият яратади, яъни у баҳс-мунозарани самимийлик билан бошқаради.

6-БОСҚИЧ. Тадқиқотчи ҳар икки томоннинг бир-бирларига саволлари, айтадиган фикрлари, маъқуллайдиган сўзлари тугагач, ҳар икки гуруҳ томонидан айтилган фикрларни умумлаштиради ва ўзининг бу масала ҳақидаги фикр ва мулоҳазасини баён этади ва гуруҳ талабалари томонидан тушган саволларга керакли жавобларни беришга ҳаракат қилади.

Машғулот охирида ўқитувчи ҳар иккала гуруҳнинг машғулот жараёнидаги фаолиятларини таҳлил этиб, уларга миннатдорчилик билдиради ва



машғулоти яқунлайди. Ушбу тренингнинг давомийлиги шароитга қараб белгиланади.

Қорақалпоқ халқ анъаналари воситасида ёшларни маънавий тарбиялаш мавзусида АЙЛАНА СТОЛ методи



Бу метод амалий машғулоти учун қулай. Бунда уқитувчи томонидан қорақалпоқ халқ анъаналари воситасида ёшларни маънавий тарбиялашнинг педагогик асосларига доир бўлган саволлар варақ кичик гуруҳга тақдим этилади. Талабалар ўзларининг исми-шарифлари ва саволга жавобларини ёзиб, варақни ёнидаги талабага узатади. Шу тариқа ёзилган жавоблар йиғиштириб олиниб, талабалар иштирокида нотўғрилари ўчириб чиқилади ва натижалар баҳоланади.

Дарснинг самарали натижа бериши учун таълим методларидан «Ақлий ҳужум» методини қўллаш мумкин. Бунда бирор муаммо бўйича таълим олувчилар томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали маълум бир ечимга келинадиган методдир.

«Ақлий ҳужум» методининг ёзма ва оғзаки шакллари мавжуд. Оғзаки шаклида таълим берувчи томонидан берилган саволга таълим олувчиларнинг ҳар бири ўз фикрини оғзаки билдиради. Таълим олувчилар ўз жавобларини аниқ ва қисқа тарзда баён этадилар. Ёзма шаклида эса берилган саволга таълим олувчилар ўз жавобларини қоғоз карточкаларга қисқа ва барчага кўринарли тарзда ёзадилар. Жавоблар доскага (магнитлар ёрдамида) ёки «пинборд» доскасига (игналар ёрдамида) маҳкамланади. «Ақлий ҳужум» методининг ёзма шаклида жавобларни маълум белгилар бўйича гуруҳлаб чиқиш имконияти мавжуддир. Ушбу метод тўғри ва ижобий қўлланилганда шахсни эркин, ижодий ва ностандарт фикрлашга ўргатади.

Дарс натижаларидан шуни маълум қилиш мумкинки, талабаларда «Қорақалпоқ халқ анъаналари воситасида ёшларни маънавий тарбиялаш»ни билиш, амал қилиш масаласини инновацион усулда фойдаланиш натижалари ҳисобланади.

«Ақлий ҳужум» методидан фойдаланилганда таълим олувчиларнинг барчасини жалб этиш имконияти бўлади, шу жумладан, таълим олувчи-



ларда мулоқот қилиш ва мунозара олиб бориш маданияти шаклланади. Таълим олувчилар ўз фикрини фақат оғзаки эмас, балки ёзма равишда баён этиш маҳорати, мантикий ва тизимли фикр юритиш кўникмаси ривожланади. Билдирилган фикрлар баҳоланмаслиги таълим олувчиларда турли ғоялар шаклланишига олиб келади. Бу метод таълим олувчиларда ижодий тафаккурни ривожлантириш учун хизмат қилади.

Дарс жараёнида қорақалпоқ халқ анъаналари асосида ўқувчи-ёшларни маънавий тарбиялаш технологиясининг амалий компоненти маънавий тушунчалар устида ишлашга доир (тушунчалар таҳлили, сўздан гаплар ва асосациялар тузиш) интерфаол усуллар, маънавият билан алоқадор ноанънавий машғулот (саёҳат, тақдимот, тадқиқот, маъруза-мунозара, семинар-рефлексия) шакллари, ўйинли моделлаштириш (“Сехрли саволлар” матнга асосланган ўйин, интеллектуал) техникаларини шахсий фаолият тажрибаси билан рефлексивлик даражасини кенгайтириш орқали такомиллаштириш мумкин. Хусусан, мавзуга оид масалалар бўйича олий таълим мауассаси талабалари билан “Расмга асосланган” методикалар шакллантирилди.

“РАСМГА АСОСЛАНГАН” МЕТОДИКА



“Расмга асосланган” матн

“Расмга асосланган” матн





“Расмга асосланган” матн

“Расмга асосланган” матн



“Расмга асосланган” матн

Ушбу технология орқали талабаларда фикрий боғлиқлик, мантик, хотиранинг ривожланишига имконият яратади, қандайдир муаммони ҳал қилишда ўз фикрини очик ва эркин ифодалаш маҳоратини шакллантиради. Мазкур технология талаба-ўқувчиларга мустақил равишда билимнинг сифати ва савиясини холис баҳолаш, ўрганилаётган мавзу ҳақида тушунча ва тасаввурларни аниқлаш имконини беради. У айни пайтда турли ғояларни ифодалаш ҳамда улар орасидаги боғлиқликларни аниқлашга имкон яратади.

Бу методикалар ёрдамида талабаларнинг қорақалпоқ халқ анъаналари асосида маънавий тарбиялаш билиш компетенциясини шакллантириш мақсадида техникаларини шахсий фаолият тажрибаси билан рефлексив-



лик даражасини кенгайтириш орқали ривожлантириш мумкин деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

1. Темурова С. Болаларни прогрессив традициялар намуналарида тарбиялаш. Тошкент, 1995, 28-бет.
2. Қарақалпақ фольклори . (Көп томлық). 5-том. Қарақалпақ халық қосықлары хэм салт жырлары. 5-том. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 1980. –С. 487.
3. Абдимуратов П. Қарақалпақ халқының дәстүрлери хэм оның жаслар тәрбиясындағы әҳмийети. – Нөкис: Билим, 1996. – 91 б.
4. Тилегенов А. Халқ достонлари воситасида ўсмирларни маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш («Алпамыс» достони мисолида): Пед.фан.ном. Дис. ... – Т.: ЎзПФТИ, 1997. – 140 б
5. Исмайлов А.С. Ўқувчи ёшларни тарбиялашда миллий анъаналар ва урф-одатларнинг таълим-тарбиявий аҳамияти. “Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқоталар” мавзусидаги республика 23-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари. Тошкент-2020.-186 б.
6. Исмайлов А.С. Қорақалпоқ халқ анъаналари воситасида ёшларни маънавий тарбиялашнинг педагогик асослари. п.ф.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс..... Н., 2022. – 130 б.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING DARS JARAYONIDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Qunnazarov A.Q.

*Nukus davlat pedagogika instituti "Informatika o'qitish metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)*

Tayanch so'zlar: pedagogik dasturiy vositalar, pedagogik texnologiya, elektron darslik tushunchasi, trenajyor dasturlari, multimedia vositalari, Adobe Flash dasturi.

Ключевые слова: педагогические программные средства, педагогические технологии, концепция электронного учебника, программы-тренажеры, мультимедийные инструменты, программа Adobe Flash.

Key words: pedagogical software, pedagogical technologies, the concept of an electronic textbook, training programs, multimedia tools, Adobe Flash program.

Резюме:

Maqolada umumiy o'рта ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani uchun yaratilgan multimedialli elektron o'quv qo'llanmasi va ularni yaratish, undan foydalanish metodikasi, imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Резюме:

В статье рассмотрены мультимедийные электронные учебные пособия, созданные для предмета «Информатика и информационные технологии» в общеобразовательных школах, а также методика их создания и использования, возможности.

Summary:

The multimedia electronic textbook created for the subject "Informatics and Information Technologies" in general secondary education schools and the methodology of its creation and use, as well as its capabilities, are discussed.

Har bir inson shaxsiy jismoniy xususiyatlariga asoslangan holda ma'lumotlarni qabul qiladi, lekin vizual ma'lumotlar eshitish orqali qabul qilingan ma'lumotlarga qaraganda samarali natija berishi shubhasiz. Elektron o'quv resurslaridan foydalangan holda, o'quvchilar tashqi motivatsion omillar ta'siridan qat'iy nazar, o'quv jarayonida faol o'rganishni boshlaydilar.

Ta'limning faol, samarali vositalarini ishlab chiqish, har bir o'qituvchining ijodiy kompetentligidan va unda foydalaniladigan axborot sifati va ilmiy ma'lumotlarni qulay va oson ta'riflash orqali yaratish mumkin. Elektron o'quv



resurslari faqat ma'lumot sifatida emas, balki yangi bilimlarni egallash uchun ishlatilishi mumkin[1].

Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish omillaridan biri bu elektron darsliklardan foydalanishdir. Ko'pgina mualliflar elektron darslik uchun umumiy ta'rifni bayon qilishga harakat qilishgan.

Demushkin A.S. va Zaynutdinova L.K lar elektron ta'lim resurslariga quyidaficha tariflar berishgan. "Elektron darsliklar" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu o'quv kursini yoki uning katta qismini mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatini beradigan dasturiy-uslubiy majmua" dir.

"Elektron darsliklar" – bu ta'lim jarayonining didaktik siklining uzluksizligini va to'liqligini ta'minlaydigan keng qamrovli ta'lim dasturiy tizimi: nazariy materiallarni taqdim etadi, o'quv mashg'ulotlari va bilim darajasini nazorat qiladi, shuningdek, axborot-qidiruv faoliyati, matematik va simulyatsion modellashtirish, kompyuter vizualizatsiyasi va xizmat vazifalari bilan interaktiv teskari aloqa taqdim etadigan dasturiy-uslubiy majmua deb ta'rif beradi[2].

Pedagogik texnologiya esa insonga ta'lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Pedagogik texnologiyani doimiy bir xil holda, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, pedagogik texnologiyani bir qolipga sig'adigan, aniq bir o'zgarmas loyiha deb bo'lmaydi. Chunki har bir auditoriya, har bir guruh uchun tinglovchilarning ma'lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq holda, kerak bo'lsa, guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondashuv va uning texnologiyasi talab etiladi.

Pedagogik va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonida joriy etilishi ta'lim vositalarining yangi avlodi va ta'limning yangi turlari ko'rinishida o'z mohiyatiga ega bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Ta'lim jarayonida foydalanilayotgan an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha tarzda o'quv vositalari deb hisoblangan barcha multimedia tizimlarini o'zida jamlagan kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan o'quv uslubiy elektron mahsulotlar kirib kelmoqda.

Elektron o'quv-metodik majmualar esa zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interaktiv majmuasidan tashkil topadi va ular o'quv materiallarini kompyuter texnologiyalari hamda audio-video vositalar asosida yaratish, tizimlashtirish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatini beruvchi majmuadir[3].

Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars jarayonini sifatli tashkil qilish hamda o'quvchilarni fanga qiziqтира olish, yangi mavzu

bayonini tushuntirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion, pedagogikaning innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda dars o‘tish, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish uchun Multimedia elektronik guideline dasturi asosida dars mashg‘ulotlarining tashkil etilishi samarali natijalarga olib kelishini taklif qilinmoqdamiz.

Biz tomonimizdan yaratilgan Multimedia elektronik guideline multimediyali elektron o‘quv qo‘llanma dars usulida o‘quvchilarda samarali mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashga, uni o‘qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli, ta’lim-tarbiya masalalarini hal qilishning amaliy usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan bir butun jarayonni ifodalaydi. Uning mohiyati inson tomonidan to‘plangan tajriba, bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘shirib kelayotgan yosh avlodga berishdan iborat bo‘lib, maqsadi, mazmuni, usullari, tamoyillari, tashkiliy shakllari va tarkibiy qismlari birgalikda namoyon bo‘ladi.

Bu yaratilgan multimediyali elektron o‘quv qo‘llanma o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi va bilimlarni yaxshi o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Multimediyali elektron o‘quv qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fani uchun yaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo‘llash, kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari, algoritmik tuzilmalar, kompyuterning dasturiy ta’minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish, o‘quvchilarni aqliy rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini, mustaqil ta’lim olish, fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, kreativlikni shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyati, ongli ravishda kasb tanlashga zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda yaqindan yordam beradi. Yo‘qorida keltirilgan fikirlarga tayanib quyidagi misollarni keltirib o‘tmoqchiman.

Chap ustundagi so‘zlarni o‘ng ustundagi jummalarga mos qo‘ying:

uzlukli	axborot xususiyati
ishonchli	
to‘liq	axborot turi
qimmatli	
uzluksiz	



Yechilishi:

Axborotning uchta xususiyati mavjud bo‘lib ular qimmatli, ishonchli, to‘liq turlarga ajraladi. Demak, axborot xususiyati ikkinchi qatorga tushadi.

Axborotning turlari esa ikkita, ular uzlukli va uzluksiz. Demak, axborot turi birinchi qatorga o‘tadi.



Bu rasmda berilgan misolni multimediali elektron o‘quv qullanmada ishlangan ko‘rinishi.

uzlukli	axborot xususiyati
ishonchli	
to‘liq	axborot turi
qimmatli	
uzluksiz	


Chap ustundagi axborot qimmatli, to‘liq va ishonchli bo‘lishi uchun nuqtalar o‘rniga o‘ng ustundagi kerakli so‘zlarni joylashtirib ko‘chiring:

Axborotlar ustida bajariladigan amallar bilan bog‘liq barcha jarayonlar ... deb ataladi.	diskret
	analog
Axborotlar ... va ... turlarga ajratiladi.	axborotli jarayonlar

Yechilishi:

Bu misolda birinchi va ikkinch qatordagi so‘zlar o‘rin almashadilar.

Axborotlar analog va diskret turlarga ajratiladi.	diskret
	analog
Axborotlar ustida bajariladigan amallar bilan bog‘liq barcha jarayonlar axborotli jarayonlar deb ataladi.	axborotli jarayonlar




Bu rasmda berilgan misolni multimediali elektron o'quv qullanmasida ishlangan ko'rinishi.

Berilgan axborotlarni qayta ishlab, nuqtalar o'rniga olingan yangi axborotni joylashtirib ko'chiring:

a) 1, 3, 5, ..., 9;	h) 128, 64, 32, ..., 8;	n) 15 (27) 42
b) 20, 15, ..., 5;	i) 2, 3, 5, 7, ..., 13;	30 (...) 55;
d) 1, 2, 4, ..., 16;	j) i, f, r, a, ..., a;	o) 10 (50) 15
e) 1, 4, 9, ..., 25;	k) 1, 2, 3, 5, ..., ..., 21;	17 (...) 20;
f) q, o, s, y, h, ..., b;	l) 1, 3, 3, 9, ..., ..., 6561;	p) 143 (56) 255
g) 1, 2, 6, ..., 120;	m) e, f, g, h, i, ..., k;	218 (...) 114.

Yechilishi:

Berilgan sonlarga mos sonlarni topish uchun ularda qo'shish, bo'lish, ayirish amallarini bajarish kerak.





Adabiyotlar:

1. Hamidov J.A., Ibragimov Q. Elektron darsliklar yaratishga qo'yiladigan metodik talablar // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2009, №6. –B. 25-30.
2. Zainutdinova L.Kh. Creation and application of electronic textbooks: Monograph. Astrakhan, 2011. – 180 b
3. Ro'zieva D.S. Optikada dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi. Monografiya. – Buxoro, 2020. – 94 b.
4. Allamberganova M.X., Qunnazarov A.Q. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda adobe flash dasturi imkoniyatlari // "Prospects of Development of Science and Education" Conference Proceedings 27 April 2020. 478-480 b.
5. Набиулина Л.М., Абдурахманова Ш.А. Мультимедийные системы и технологии. Учебник. –Т.: Навруз, 2018. –194 с.
6. Muradova F.R. "Informatika" fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2016. №1/4. – B. 186-188.



TALABALARDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Esonturdiyev M.N.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Qaynarova I.V.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Таянч сўзлар: o'z-o'zini rivojlantirish, pedagogik kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy ta'lim.

Ключевые слова: саморазвитие, педагогическая компетентность, профессиональная компетентность, профессиональное образование.

Key words: self-development, pedagogical competence, professional competence, professional education.

Резюме:

Ushbu maqolada ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi O'zbekistonda pedagogik ta'lim paydo bo'lgan vaziyat bilan bog'liq. Maqolada talabalarning pedagogik kompetentsiyasini o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentsiyasini shakllantirish jarayonining asosiy shartlari ko'rib chiqiladi.

Резюме:

Актуальность рассматриваемой в данной статье проблемы связана с ситуацией, в которой возникло педагогическое образование в Узбекистане. В статье рассматриваются условия, необходимые для формирования мотивации к саморазвитию педагогической компетентности студентов. Также рассмотрены основные условия процесса формирования педагогической компетентности будущих учителей.

Summary:

The urgency of the problem considered in this article is related to the situation in which pedagogical education appeared in Uzbekistan. The article examines the conditions necessary for the formation of motivation for self-development of pedagogical competence of students. Also, the main conditions of the process of formation of pedagogical competence of future teachers are considered.


Hozirgi paytda oliy ta'lim rivojlanishi yangi bosqichlarni bosib o'tmoqda. Bu haqiqatdan kelib chiqadi. Xalqaro maydondagi barqarorlik va obro'-e'tibor birinchi

navbatda davlatdagi ta'lim tizimining ishlash sifati va xususan, ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati bilan bog'liq.

Oliy ta'lim tizimiga qo'yiladigan asosiy talab uning jamiyat taraqqiyoti istiqbollari talablariga to'liq mos kelishidir. Bunday sharoitda davlat ta'lim xizmatlari sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi, ishlab chiquvchi va boshqaruvchi sifatida harakat qilishi kerak (White, 2009). Uning asosiy vazifasi ta'limni boshqarish tizimida ma'muriy vertikalni, monitoring tizimini va sifat tizimini shakllantirishdan iborat (Hernon & Dugan, 2004). Bugungi kunda allaqachon rivojlangan ijodiy konstruktiv-konstruktiv va ma'naviy-shaxsiy tajriba bilan hayotga kiradigan bitiruvchiga talab mavjud. Ushbu talablar mutaxassisning raqobatdoshligini shakllantirishga, ijodkorlikni shakllantirishga, ya'ni inson o'z tajribasi qismlarini birlashtira oladigan kabi fazilatlarga yo'naltirilgan kompetensiya yondashuvi g'oyalarga mos keladi va yangi narsani sintez qiladi.

O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, avvalambor, yo'naltirilgan yo'naltirishda ifodalangan. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi maqsadi - tegishli darajadagi va profildagi malakali ishchini tayyorlash; mehnat bozorida raqobatbardosh, vakolatli, mas'uliyatli; o'z kasbidan mohirona foydalangan va shu bilan bog'liq faoliyat sohalariga yo'naltirilgan; doimiy kasbiy o'sishga, ijtimoiy va professional harakatchanlikka tayyor. Zamonaviy ta'lim haqiqati bo'lajak o'qituvchilarning yangi bosqichiga o'tish va pedagogik tayyorgarlikni talab qiladi. Turli tashkilotlar va mualliflar tomonidan asosiy kompetentsiyalar bo'yicha nashrlarning tahlili o'qituvchilarning quyidagi asosiy vakolatlarini ochib beradi: kommunikativ, madaniy, axborot, intellektual va pedagogik. Ularning barchasi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi (Gourier, 2010). Bugungi kunda umumiy va kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish etarli emas. Bo'lajak mutaxassis uchun o'zining kasbiy rivojlanishining sub'ekti bo'lishi kerak. Va natijada, bo'lajak o'qituvchilarga dars berishda pedagogik kompetentsiyaning o'zini o'zi rivojlantirish muammosini hal qilishni tashkil etish muhimdir.

O'qitish usullari. Har bir talaba - bo'lajak o'qituvchi o'zini o'zi rivojlantirish zarurligini tushunishi kerak. Pedagogika universitetning vazifasi bu maqsadni amalga oshirish uchun sharoit yaratishdir. Ko'pincha talabalar o'z-o'zini rivojlantirishni tashkil qilish muammosiga duch kelishadi: chunki bu qaerdan boshlash kerakligi aniq emas yoki tanlangan o'z-o'zini rivojlantirish yo'llari qiyin, qiziqmaydi va qiziqish uyg'otmaydi, tez natija bermaydi. O'z-o'zini rivojlantirish usullarini bilish, kasbiy o'sish uchun o'rtacha kuchli turtki bo'lsa ham, talabalar – bo'lajak o'qituvchilarning ushbu faoliyatini boshlash va qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Ushbu ishning asosiy printsiplari - mavjud barcha imkoniyatlarni malaka oshirish uchun ma'lum manba sifatida ko'rib chiqish, so'ngra ushbu



Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasining o'z-o'zini rivojlantirish asoslari.

1-Shakl. Pedagogik kompetensiyani o'z-o'zini rivojlantirish.

resurslardan qobiliyatlari va malakalarini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Umuman olganda, bu o'z-o'zini rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini o'z-o'zini rivojlantirishni pedagogik universitet talabasining psixologik va pedagogik bilimlarni o'z tashabbusi bilan egallashga, kasbiy qobiliyatlarini, pedagogik qobiliyatlarini va kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarini oshirishga qaratilgan ongli faoliyati deb ta'riflash mumkin (1-Shakl). (Gebre va boshq., 2014; Mirzagitova, 2014).

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini o'z-o'zini rivojlantirishni faollashtirish uchun maxsus usullar, uslublar, texnologiyalar majmuasi zarur. Barchaga eng qulay bo'lgan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1) Pedagogik kompetensiyani o'z-o'zini boshqarish:

- zamonaviy pedagogika, metodika, ta'lim tizimlarini boshqarish, shuningdek ta'lim mazmuniga kiritilgan yangiliklarni baholash. Ushbu baholarni olish uchun bilim testlari, amaliy topshiriqlar va amaliy holatlardan foydalanish mumkin. Olingan hisob-kitoblarga asoslanib, so'nggi vaqt ichida kasbiy vakolatdagi o'zgarishlarning mohiyati to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish muhimdir.
- Shaxsiy professional muhim pedagogik fazilatlarini baholash, masalan, tanqidiylik - o'z-o'zini tanqid qilish, ishonch - ishonchsizlik, qaramlik - mustaqillik. Ushbu fazilatlarini o'ziga xos shaxsiy testlar, anketalar, muhim professional vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini o'z-o'zini tahlil qilish yordamida baholash mumkin. Nafaqat ba'zi bir fazilatlarini o'lchash, balki qaysi taraqqiyotda (ijobiy dinamika) kuzatilayotganini va nimada yo'qligini aniqlash ham muhimdir.
- kompetensiyaning ijobiy dinamikasi va yo'qligining sabablarini aniqlash: bu keyingi sinf uchun o'z ustida ishlash rejalarini aniqlashtirish va konkretlashtirishga imkon beradi.

O'z-o'zini boshqarish vakolati - bu nafaqat introspektsiya yordamida, balki yuqori sifatli vositalar yordamida ham doimiy emas, balki vaqti-vaqti bilan amalga oshirilishi kerak bo'lgan protsedura.

Ijobiy natija talabning shaxsiy kundaligini yuritishi bilan beriladi, unda o'z-o'zini rivojlantirish rejasi va vazifalari, shuningdek erishilgan natijalar qayd etiladi.

2) Ishdagi va o'zidagi o'zgarishlarni inventarizatsiya qilish. Har chorakda yoki kamida olti oyda bir marta o'tkazilishi kerak bo'lgan protsedura. Uning mohiyati, bir tomondan, bajarilgan ishning vazifalari, mazmuni, talablaridagi barcha o'zgarishlarni hisobga olish, tahlil qilish va tizimlashtirishda, ikkinchi tomondan, bu davrda o'z shaxsiyati va pedagogik vakolatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu taxminlar ularning bir-biriga qanchalik mos kelishini aniqlashga imkon beradi. Ushbu protseduraning mohiyati hal qilinayotgan vazifalarga doimiy ravishda o'zgarib turadigan talablarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdir.

3) Boshqalardan o'rganish qobiliyati. Qiziqarli ma'lumotlar, foydali bilimlar, yangi tajribalar bo'lishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda yangi narsalarni topish va o'zlashtirish maqsadlarini yaratish. Motivatsion maqsadlarni boshqarish tadqiqotlarda, konferentsiyalarda, pedagogik ishlarda, ayniqsa o'qitish va rivojlantirishning maxsus uyushtirilgan shakllarida ishlashda ham yuqori darajada rivojlanish samarasini beradi. Boshqalarning yordami bilan o'z-o'zini rivojlantirishning bunday maqsadiga hind falsafasining qadimgi ta'limotlaridan birining quyidagi so'zlari misol bo'la oladi: "Har qanday boshqa odam siz undan foydali narsani o'rganishingiz mumkin bo'lgan o'qituvchidir".

4) Ideal pedagogik portretni modellashtirish. O'zining kasbiy va psixologik xususiyatlarini bir muncha vaqt ichida (masalan, o'tgan hafta) yoki har qanday muhim vazifani hal qilishda namoyon bo'lgan eng yorqin va ijobiy xususiyatlar shaklida yaratish tartibi. Grafik modellardan foydalanish yaxshiroq. Bunday holda, pedagogik portret qisqa og'zaki belgilar bilan sxematik rasmga o'xshaydi. Ushbu protsedura vaqti-vaqti bilan amalga oshirilishi kerak, shu bilan birga talaba – bo'lajak o'qituvchisi boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi va shunga muvofiq uning pedagogik portreti sezilarli darajada farqlanadi.

Ideal modelni tuzgandan so'ng, siz u bilan ishlashingiz kerak. Olingan portret oldingisi bilan taqqoslash uchun foydalidir, siz "kosmetik" o'zgarishlarni belgilashingiz, tuzatishlar kiritishingiz, tasodifiy va doimiy chiziqlarni ta'kidlashingiz mumkin. Pedagogik fazilatlar va malakalarni vizualizatsiya qilish ularni aniqroq tushunishga, ulardan yaxshiroq foydalanishga va boshqarishga imkon beradi.



5) O'qitish motivatsiyasini rivojlantirish. Bu erda quyidagi o'z-o'zini motivatsiya qilish usullari tavsiya etiladi:

- istiqbolli maqsadlarga erishishga intilish;
- Shaxsiy harakatlaringiz uchun asosiy javobgarlikni o'z zimmangizga oling. Inson o'zini tutishining sababini qanchalik ko'p his qilsa, u o'z harakatlarida shunchalik mustaqil va faoliyatga qo'shgan hissasi qanchalik yuqori bo'lsa, shuncha g'ayrat va qoniqish hosil qiladi;
- Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish bilan cheklanib qolmang. Faqatgina professional sohaga yo'naltirilgan insonning bitta "motivatsion yo'nalishi" zamonaviy mutaxassislar uchun qabul qilinishi mumkin emas. Siz dunyoqarashingizni kengaytirishingiz, ijodiy qobiliyatlaringizni rivojlantirishingiz kerak. Shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirish zamonaviy jamiyat uchun ham, uning alohida elementlari uchun, xususan ta'lim tizimi uchun dolzarb muammolardan biridir. Bu, ayniqsa, 21-asrning raqobatbardosh o'qituvchisi uchun to'g'ri keladi.

6) aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lish

Refleksiya - bu o'qituvchining samaradorligini oshirishning universal ichki mexanizmlaridan biri: u qabul qiladigan qarorlar, o'quvchilarning sinfdagi o'zini tutishi, umuman maktabdagi ishi, shuningdek, o'zining rivojlanishi.

Refleksiya - bu inson tomonidan uning istaklari, maqsadlari, intellektual harakatlari, tajribalari va ma'nolarini bilish va o'zini o'zi boshqarish jarayoni.

Aks ettirishning asosiy vazifasi inson tomonidan o'zi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni uning individual elementlari (omillar, maqsadlar, vositalar) va ajralmas butun (faoliyat funktsional qismni tashkil etuvchi ajralmas shakllanish sifatida) to'g'risida to'liqroq va aniqroq tushunishni ta'minlashdir. barcha faoliyat turlari). Ko'zgu natijalari sizning shaxsiy xulq-atvoringizni aniqroq baholashingiz va yaxshiroq qarorlar qabul qilishingizga imkon beradi.

Refleksiya odamda tafakkur va ongning ma'lum darajada rivojlanishi natijasida vujudga keladi. Tashqi ko'rinishi tufayli faoliyat va shaxsning individual tarkibiy qismlari, shu jumladan fikrlash o'z-o'zini bilish ob'ektiga aylanadi: ularning istaklari, maqsadlari haqida, ma'lum bir bayonot yoki hissiy reaksiya, ichki holat haqida fikrlar paydo bo'ladi, natijada shaxs rivojlanadi. Kasbiy faoliyatda shaxsiyat bilan bir xil bo'ladi. Shaxs faoliyatining mazmuni aks ettirish bilan qanchalik ko'p qamrab olinsa, uning rivojlanish samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Ko'zgu inson uchun har qanday faoliyatda katta ahamiyatga ega. Ammo bu murakkab intellektual ishlarda va uning shaxslararo va guruhlarning o'zaro aloqalari bilan ajralib turadigan turlarida alohida rol o'ynaydi. Bularga, shubhasiz,

o'qitish faoliyati kiradi. Shuning uchun o'qituvchi ham intellektual, ham ijtimoiy aks ettirishning yuqori qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchining aks ettirish qobiliyati quyidagi kasbiy faoliyat turlarida to'liq namoyon bo'ladi:

- pedagogik vaziyatni baholashda;
- ta'rifga ko'ra, shakllantirish, maqsadni tanlash;
- pedagogik muammolarni tahlil qilishda, qaror qabul qilishda;
- shaxslararo yoki guruhiy o'zaro aloqalardagi munosabatlar va harakatlarni belgilashda, shuningdek umuman pedagogik xatti-harakatlar strategiyasi va taktikasini tanlashda.

Ko'p hollarda, bir tomondan, pedagogik faoliyatning holati va mazmuni, boshqa tomondan, aql va shaxsiyatning ko'plab ichki fazilatlarini aks ettirish darslariga hissa qo'shmaydi va hatto ularga to'siqlar ham yaratmaydi.

Pedagogik faoliyatda aks ettirishga nima sabab bo'ladi? Birinchidan, aralashuv:

- O'qituvchi nazarida talabalar jamoasining maqsadlari va strategiyalarining etishmasligi;
- xatti-harakatlarning stereotiplari va shakllari;
- O'qitishning obro'li uslubi va usullari va talabalar bilan aloqa qilish;
- Qo'rquv (jazolash, rad etish, maktab ma'muriyati talablarini bajarmaganlik);
- javobgarlikning yo'qligi (to'liq bo'lmagan yoki rasmiy);
- Kasbiy vakolat darajasining pastligi;
- psixologik himoyaning ibtidoiy mexanizmlari;
- aql-idrokni cheklash;
- ongning rivojlanish darajasi etarli emas (o'z-o'zini hurmat qilishning etarli emasligi, farqlanmagan o'z-o'zini hurmat qilish).

Ushbu aralashuvlarni minimallashtirish o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun rivojlanayotgan muhitni yaratish usullaridan biridir. Mumkin bo'lgan muammolarni bilish va bunday qiyinchiliklarning oldini olishni nazorat qilish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyatining kalitidir.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun aks ettirishni rivojlantirish bo'yicha trening sifatida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1) Muhim voqealar, qiyin vaziyatlar va asosiy qarorlardan so'ng harakatlar tahliliga qaytish kerak.

2) Har bir mashg'ulot kuni va natijada ish kuni retrospektiv tahlil bilan yakunlanishi kerak.

3) Siz o'zingizning g'oyalaringizni, boshqa odamlar haqida shakllangan baholarni tekshirishingiz kerak. Ular qanchalik to'g'ri, qaerda aniq emas, nega ular noto'g'ri?



4) o'rtoqlar va hamkasblar bilan pedagogik vaziyatlarni muhokama qilish muammoni tashqi kuzatuvchilar yoki ishtirokchilar ko'zlari bilan ko'rib chiqish uchun foydalidir.

5) Sizga o'xshamaydigan, siz har doim ham tushunmaydigan, ko'pincha boshqa nuqtai nazarga ega bo'lgan odamlar bilan aloqa o'rnatish - bu aks ettirishni faollashtirish va tushunishda muvaffaqiyatga erishish yana bir aks etuvchi pozitsiyani ishlab chiqishdir. Boshqasini tushunishga urinishdan qo'rqmang, bu ular bilan rozi bo'lishni anglatmaydi, ammo bu yaxshiroq echim topish uchun shart yoki hech bo'lmaganda muvofiqlashtirilgan.

3. Natijalar.

Pedagogik kompetentsiyani o'z-o'zini rivojlantirish usullarini umumlashtirish natijasida biz quyidagi qoidalarni shakllantirdik.

Pedagogik kompetensiyani o'z-o'zini rivojlantirish uchun ichki motivatsiyani shakllantirish qoidalari.

Pedagogik universitetda olib borilgan pedagogik ish tajribasi bir qator qoidalarni taklif qildi, ularning bajarilishi talabalar - bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentsiyani o'z-o'zini rivojlantirish uchun ichki motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi navbatda talaba kelajakdagi kasbiy pedagogik faoliyatga qay darajada tayyorligini anglashi zarur. Pedagogik ishning o'ziga xosligi hissiy va shaxsiy ochiqlik kabi xususiyatlarda ifodalanadi; chinakamlik va samimiylilik, his-tuyg'ular va munosabatlarning ifodasi; talabalar bilan birgalikdagi ijodiy faoliyat jarayonida qoniqishga intilish; maksimal darajada ishontirish va ifodalilikka erishish uchun aniq bir shakl bilan maqbul ishlashga psixologik munosabat va boshqalar. Agar o'qituvchi mehnatga va o'quvchilarga bo'lgan muhabbatni birlashtirsa, u ideal o'qituvchidir. O'quvchilar ustozda ustalikni, mavzuni chuqur bilishni va aniq fikrni hamma narsadan ustun qo'yadilar. Faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan ushbu fazilatlarni tushunish va qabul qilishgina talabaga o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ongli ravishda tayyorgarlik ko'rishga imkon berishi mumkin. Pedagogik sohada vujudga keladigan vaziyatlar amaldagi shaxsning pozitsiyasi bilan baholanadi. Harakat yo'nalishini tanlash uning maqsadlariga, qadriyatlar tizimiga, shaxsiy imtiyozlariga bog'liq. Ta'lim jarayonida pedagogik vaziyatlar bilan tanlanish holatlari sifatida tanlanish, ularning predmeti bo'lgan bolaning pozitsiyalari va harakatlarini tahlil qilish, ularning kasbiy ehtiyojlarini shaxsiy o'z-o'zini anglash uchun sharoit yaratadi.

Shuning uchun biz o'zimizni bo'lajak o'qituvchi sifatida tushunish va qabul qilish talabaning kasbiy va pedagogik rivojlanishida muhim omil ekanligini ta'kidlaymiz. Faqat shu asosda o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy va individual talablarning barcha boshqa tarkibiy qismlarini qurish mumkin. Va

bu bizning fikrimizcha bir nechta muhim omillarning bajarilishini talab qiladi (1-jadval).

1-Jadval. Talaba - bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetentsiyasini o'z-o'zini rivojlantirish shartlari.

PEDAGOGIK SALOMATNING O'ZINI RIVOJLANTIRISH UCHUN TALABA – BO'LAJAK O'QITUVCHINING ICHKI MOTIVASIYASI		
Qulay ta'lim muhiti; Pedagogik munosabatlarni uyg'unlashtirish	Qiymat yo'nalishlarini shakllantirish: ijtimoiy, psixologik, kasbiy va pedagogik.	Talaba faoliyatini pedagogik boshqarish rolini kamaytirish.
TALABALARNING MUSTAQILLIGI VA IJODI		

Birinchi, qulay sharoit yaratish va pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari (talabalar, o'qituvchilar, ma'muriyat) o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unligini ta'minlash kerak (Oskolkova va boshq., 2012). Ushbu qoida, avvalambor, ta'lim jarayonining gumanistik yo'nalishi printsiplariga tayanishni nazarda tutadi. O'qituvchi talabani tushunishi va uni o'qituvchi topgani kabi qabul qilishi juda muhimdir. Bu talabaga o'zini, uning ichki imkoniyatlari va istaklarini bilish erkinligini ta'minlash uchun zarurdir. O'qituvchi kelajakdagi kasbiy faoliyatni maqsad qilib, o'quvchilarga erkin ochilish imkoniyatini beradigan o'qitish texnikasi va usullaridan foydalanishi kerak (Vankat, 2002). Bu o'qitishni individualizatsiya qilish bilan bir qatorda ta'lim jarayonining maktabdagi ishning haqiqiy sharoitlariga yaqinlashishi bilan ham mumkin (Umumiy Evropa ...).

Ikkinchi, kasbga mos keladigan qadriyatlarni shakllantirish muhimdir. Qobiliyatning o'sishi qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, shaxsning qadriyat yo'nalishlarini aniqlash, ularni yanada aniqroq tushunishiga yordam berish, qadriyatlar ziddiyatlarini hal qilish va alternativlarni baholash har qanday vakolatlarni rivojlantirish dasturining asosidir (Raven, 2002).

Ta'lim faoliyatining ustuvor qadriyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- Ijtimoiy: pedagogik ishning ahamiyati, o'qituvchining o'quvchilar, otalar va jamiyat oldidagi mas'uliyati, o'qituvchining ijodiy o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytirish;
- Psixologik: hamkasblar va bolalar bilan birgalikdagi ijodkorlik imkoniyati, pedagogik muloqotda o'zini tasdiqlash, bolalarga bo'lgan muhabbat, ijodiy rejalarini o'z-o'zini amalga oshirish imkoniyati, o'z shaxsiyatini ochib berish;
- Kasbiy pedagogik: o'qitish va tarbiyalashning yangi usullari va texnologiyalarini o'zlashtirish imkoniyati, pedagogik mahoratning cheksiz kasbiy o'sishi va o'zini takomillashtirish imkoniyati (Andreev, 2000). Bu omil birinchi navbatda dolzarbroq, chunki aniq qiymat yo'nalishlariga ega bo'lmagan odam konstruktiv g'oyalarni dunyoga tarjima qila olmaydi.



Hozirgi bosqichda rivojlanish yo'llarini tanlashda shubha mavjud bo'lgan, ideallarni izlash bir necha o'n yillar davomida olib borilayotgan jamiyatda o'qituvchi yangi avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak. mehribonlik. va dunyo uchun javobgarlik.

Talabalarni pedagogik kompetensiyani o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirishning navbatdagi qoidasi talabalar faoliyatini pedagogik boshqarish ulushinikamaytirishdir (Felder & Brent, 2005). Pedagogik menejment talabalarning foydali tashabbuslarini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, ularning ehtiyojlarini ular bilan muhokama qilish, foydali tashabbusni rag'batlantirish, ta'lim muhitida mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan (Oskolkova va boshq., 2012). Shunday qilib, pedagogik faoliyat o'quvchilarning tashabbusi va ijodiga asoslangan holda o'qituvchining ta'lim faoliyatidan (u rejalashtiradi, savollar beradi, vazifalar qo'yadi, baholaydi) ta'lim faoliyatiga o'tadigan tarzda tuzilishi kerak. Bu talabalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, talabaga pedagogik kompetensiyani rivojlantirish uchun mustaqil vektorni taqdim etgandagina mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasining o'z-o'zini rivojlantirishni tashkil etishning yana bir muhim qoidasi - bu umuman o'z faoliyati uchun javobgarlik pozitsiyasini shakllantirish va xususan ta'lim. Ta'lim jarayonida shunday sharoitlarni yaratish kerakki, uni amalga oshirish o'zini o'zi rivojlantirish uchun javobgarlik kabi muhim shaxs sifatini shakllantirishga imkon beradi. Zamonaviy ta'lim, avvalo, mustaqillik, ijodiy tashabbus va ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashi kerak, bu bir-birisiz imkonsiz (Cowan, 2012). Ayni paytda mustaqil ijodiy shaxs o'zini o'zi boshqarish asosida qurilgan mustaqil ijodiy faoliyatni shakllantiradi. Bundan tashqari, yanada murakkab va individual ish yanada murakkab va moslashuvchan fikrlash va o'ziga va jamiyatga nisbatan mustaqil munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

O'quvchilardan samarali mustaqillikka, ya'ni o'qituvchi tomonidan tizimli nazorat va rag'batlantirmasdan, sinfda, uyda ko'proq mustaqil ishlash qobiliyatiga, ishning ayrim shakllarini va umuman barcha ta'lim faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga erishish kerak.

Xulosa. O'zbekistondagi pedagogik universitetlarning ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasini shakllantirish omiliga aylanadi: o'rganilayotgan fanlarning mazmuni nafaqat qiziqarli, balki amaliyotga, haqiqatga yo'naltirilgan bo'lsa; faoliyat shakllari va usullari aniq, mantiqiy va maktab amaliyotida oson qo'llanilishi; o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar demokratiya va rivojlanayotgan ta'lim turiga asoslanadi; zamonaviy o'quv faoliyatini tashkil etish va o'quvchilarni rivojlantirish uchun moddiy imkoniyatlar mavjud;



o'quv jarayonining turli sub'ektlari bilan o'zaro aloqalar mavjud. Asosiy o'quv maydonchalarini yaratish, ilmiy seminar va konferentsiyalarni o'tkazish, ilmiy laboratoriyalarni tashkil qilish, talabalar, universitet professor-o'qituvchilari, o'qituvchilari va maktab o'quvchilarining qo'shma suhbatlarini o'tkazish. Shu bilan birga, o'qituvchilar tarkibini tayyorlashda nafaqat tashqi omillar, balki ichki omillar ustida ham ishlash muhimdir. Faqatgina tashqi va ichki sharoitlarning uyg'un kombinatsiyasi bilan eng samarali natijaga erishish mumkin: o'qituvchi, zamonaviy, istiqbolli, o'zgaruvchan sharoitlarga oson moslashuvchan, har bir bolada "quyoshni ko'rishga" qodir.

Natijalar. Zamonaviy maktab o'qituvchisini tayyorlash uchun nafaqat umumiy madaniy va kasbiy kompetentsiyani shakllantirish, balki universitetda o'qish paytida kasbiy pedagogik kompetensiyani o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratish ustida ishlash kerak.

Quyidagi qoidalarga rioya qilingan taqdirda bu mumkin:

- Ta'lim jarayonini faqat bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarining uyg'un munosabatlari doirasida qurish;
- bo'lajak o'qituvchilarda qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga, shuningdek yaratilgan qadriyat pozitsiyalariga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga katta e'tibor bering;
- o'quv jarayonidagi ma'muriy uslubdan voz kechish, o'quvchilarga - bo'lajak o'qituvchilarga ijodiy salohiyatini, shaxsiy tashabbusini ro'yobga chiqarish uchun maksimal erkinlik berish;
- Bo'lajak o'qituvchilarda ularning rivojlanishiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, bu kasbiy rivojlanishning eng muhim omili - muvaffaqiyat.

Адабиётлар:

1. Абу Али ибн Сино. Мен англаган дунё / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 272 б.
2. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: “Фан ва технология”, 2008. – 480 б.
3. Andreyev, V. (2000). Pedagogics: Training course for creative self-development. Kazan, Center of innovative technologies.
4. Cowan, J. (2012). Teaching for quality learning at university—By John Biggs & Catherine Tang. *British Journal of Educational Technology*, 43, E94-E95. http://dx.doi.org/10.1111/j.1467-8535.2012.01317_3.x
5. Felder R., & Brent R. (2005). Understanding Student Differences. *Journal of Engineering Education*, 94(1), 57-72. <http://dx.doi.org/10.1002/j.2168-9830.2005.tb00829.x/pdf>
6. Gebre, E., Saroyan, A., & Bracewell, R. (2014). Students' engagement in technology rich classrooms and its relationship to professors' conceptions of effective teaching. *British Journal of Educational Technology*, 45(1), 63-96. <http://dx.doi.org/10.1111/bjet.12001>



O‘QUVCHILARNING DARSLARNI O‘ZLASHTIRMASLIGIGA NIMA SABAB?

Musurmonov R.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktab menejmenti”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.*

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar, dars, o‘zlashtirmaslik, bilim, ko‘nikma, malaka, individual qiziqish, xorijiy ilg‘or tajriba, fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish, differensial ta‘lim, individual yondashilmaslik.

Ключевые слова: учащиеся, урок, недостаточность усвоения знаний, умений, компетенций, индивидуальный интерес, передовой зарубежный опыт, углубленное преподавание предметов, дифференцированное обучение, отсутствие индивидуального подхода.

Key words: students, lesson, lack of mastery, knowledge, skills, competence, individual interest, foreign best practice, in-depth teaching of subjects.

Резюме:

Maqolada umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtiraolmaslik sabablari va ularning yechimlariga doir ilmiy-pedagogik tavsiyalar berilgan.

Резюме:

В статье даны научно-педагогические рекомендации о причинах неспособности учащихся к освоению предметов и их решениях.

Summary:

The article provides scientific and pedagogical recommendations on the reasons for students' inability to master subjects and their solutions.

Ma‘lumki, qonunchilikda har bir o‘quvchi u qaysi sinfdan o‘qishidan qat’iy nazar barcha fanlardan Davlat ta‘lim standart (DTS) lari talablari darajasidagi bilim, ko‘nikma va malaka (BKM)larni o‘zlashtirishlari shartligi belgilab qo‘yilgan. Ko‘p yillik amaliyot va ilmiy-pedagogik tajribalarimizdan ma‘lumki, ana shu minimal talabni umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining atigi 20-30% bajarib, qolgan o‘quvchilar BKM larni o‘zlashtirishda hamon qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bunday ayanchli ahvolni asosiy sababi nimada ekanligi ko‘pchilikni tashvishga solayotganligi turgan gap.

Gap shundaki, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan individual qiziqish, iqtidor va imkoniyatlari o‘rganilmasdan hamma fanlarni barcha o‘quvchilarga

bir xil talab asosida o'zlashtirilishini talab qilish mumkin emas. Masalan, matematika va aniq fanlarga iqtidori bo'lgan o'quvchilar uchun boshqa fanlarni o'zlashtirishga moyillik pastroq bo'lishi, bu toifadagi o'quvchilar uchun shu fanlarni chuqurlashtirib o'qitishdan ta'lim oluvchilar zerikishmaydi va bir necha soatga orttirilgan o'quv yuklama ham ularga og'irlik qilmaydi.

Shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlarga qiziqadigan o'quvchilar uchun esa matematika va boshqa aniq fanlarga iqtidor past bo'lishi olimlar tomonidan isbotlangan. Bizning ta'lim tizimimizdagi asosiy nuqson ham shundaligi, ko'p yillardan beri ahvolni o'nglash zarurligi to'g'risida munosabat bildirilib kelinayotganligiga qaramasdan mas'ullar tomonidan hamon befarqlik hukm surmoqda. Xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, differensial (tabaqalashtirilgan) ta'limga o'tish zarurati allaqachon yetib kelgan. Afsuski, maktab rahbarlari va ta'limni boshqarish yuqori tashkilotlari mutasaddilari mavjud imkoniyatlardan foydalanish orqali raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash imkoniyatini qo'ldan boy bermoqdalar. Natijada maktab o'quvchilarining BKMLarni o'zlashtirish samaradorlik darajasi xalqaro talablarga javob bermaydi. Buning isboti sifatida o'tgan o'quv yilida o'quvchilar bilimini baholashning xalqaro PISA monitoringi natijalari yoki o'tgan o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun abituriyentlarning yarmidan ko'pi test natijalarining qoniqarsiz baholanganligini keltirish mumkin.

Mulohazalarimizni davom ettirib, darslarni o'zlashtirmaslik – bu o'quv dasturida nazarda tutilgan bilimlarning o'quvchi tomonidan qoniqarli darajada egallanmasligidir. Bu holatni oldini olishda avvalo uning kelib chiqish sabablari aniqlanishi lozim. Bu sabablar ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

Tashqi sabablar birinchi galda ijtimoiy, ya'ni ta'lim jarayonining talab darajasida tashkil etilmaganligi (darslarning qiziqarli o'tilmasligi, o'quvchiga individual yondashilmaslik, yuklamalarning ko'pligi, o'quv faoliyati usullarining yetarli darajada shakllanmaganligi)dir. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablaridan biri esa o'quvchilarning salomatlik darajasi bilan bog'lash mumkin. Chunki u yoki bu kasalliklarga chalingan jismoniy va ruhiy jihatdan nosog'lom bolalar o'quv yuklamalarini o'zlashtira olmasliklari mumkin, bu o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchilar tomonidan albatta, inobatga olinishi zarur.

Ichki sabablarga ko'ra o'quvchi intellektining past darajada rivojlanganligi, o'quvchining ta'limga munosabatining, bilim olishga nisbatan motivatsiyasining shakllanmaganligi, o'quvchida irodaviy sifatlarning sust rivojlanganligi kabilarni kiritish mumkin. Bunga esa aksariyat hollarda kam ahamiyat beriladi. Shu o'rinda K.D. Ushinskiyning: "O'quv jarayoni faqatgina o'quvchining qiziqishlari



inobatga olingan holda tashkil etilsa, irodaning mustahkamlanishiga yordam beradi, chunki ta'limda hamma narsa ham qiziqarli emas, va ko'p narsalarga kuchli iroda orqali erishish mumkin" degan so'zlarni keltirish mumkin.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi ma'lum darajadagi kompetentlikka ega bo'lishi, uning bu kamchiliklarni bartaraf etishdagi faoliyati natijasining samaradorligini belgilaydi. O'quvchilarga individual yondashish o'qituvchidan eng maqbul bo'lgan pedagogik tamoyillarni, innovatsion ta'lim metodi va texnologiyalarini tanlashni talab etadi. Ularni amalga oshirishda esa o'qituvchi o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini bilishi hamda uning muvaffaqiyatli o'qishi uchun halal beradigan omillarni inobatga olishi, darsda loyihalash metodi- pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o'quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarini namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shaklidan foydalanish. Loyihalash asosida oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash. Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llashi kerak.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

- O'quv yilining boshida o'quvchining fanlarning o'zlashtirish darajasini aniqlab olish;
- Darslarda so'rovning turli usullaridan (og'zaki, yozma, individual) foydalanish;
- Muntazam ravishda o'tilgan mavzularni so'rab turish va ularni o'z vaqtida baholash;
- Bolalarga qo'yilgan bahoni izohlash;
- Nazorat ishlari yordamida aniqlangan bilimlardagi yetishmovchilik va bo'shliqlarni bartaraf etish va takroran nazorat ishi o'tkazish;
- Fan o'qituvchilari o'z fani bo'yicha biror bir mavzuni o'quvchi o'zlashtirib olishi uchun real vaqt belgilishi va zaruriy hollarda esa ularga yordam va maslahat berish;
- Fan o'qituvchisi, sinf rahbari o'quvchining ota-onasiga past o'zlashtirishi, dars intizomiga rioya qilmayotganligi to'g'risida xabardor qilish;

- O‘qituvchi o‘quvchining bahosini uning xulqi yomonligi uchun pasaytirmasligi, aksincha, boshqa ta’sir usullarini qo‘llashi.

Maktab psixologi o‘z navbatida o‘quvchining imkoniyatlari va bu imkoniyatlarni optimal tarzda rivojlantirishi uchun o‘z faoliyatini bosqichma bosqich amalga oshirishi lozim. Ya’ni:

- Birinchi bosqichda o‘quvchi haqida dastlabki ma’lumotlarni to‘plash (dars vaqtida va darsdan tashqarida o‘quvchining xulqini kuzatish);
- Ikinchi bosqichda o‘zlashtirmaslik sabablarini aniqlash uchun psixologik tashxis o‘tkazish;
- Uchinchi bosqichda olingan ma’lumotlarni solishtirish va o‘zlashtirmaslik sabablarini aniqlash;
- To‘rtinchi bosqichda esa o‘quv faoliyatini takomillashtirish uchun vositalarni topishga ko‘maklashish.

Sinf rahbari va maktab psixologi o‘quvchining past o‘zlashtirish sabablarini aniqlash va bartaraf etishda hamkorlikda faoliyat yuritishlari o‘z samarasini beradi. O‘quv motivatsiyasini shakllantirish yo‘llarini aniqlash uchun o‘quvchilarning o‘quv predmetiga bo‘lgan munosabatini o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda mutaxassislar tomonidan taklif etilgan va amaliyotda sinab ko‘rilgan mavjud metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Adabiyotlar:

1. Azizxodjaeva H. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2006. -39-45-b.
2. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari. II «Ta’lim myammolari», 1999, 1-2 conlap. -54-57-b.
3. Olimov K.T., Ashypova S.Yu. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. - T.: Fan va texnologiyalar», 2007. -87-b.
4. Turdiev Sh.R., Keldiyorova M.F. ta’lim jarayonini tizimli yondashuv asosida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish// Zamonaviy ta’lim j. 2019, 12(85)
5. Musurmonov R., Musurmonova M. Ta’lim muassasalarini zamonaviy boshqaruv tizimiga qo‘yilgan talablar // Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимландириў ж. Нөкис 5/3-сан 2023.



SAN'AT TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Kurbanova A.T.

O'zDSMI, Axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri, dotsent, (PhD)

Tayanch so'zlar: san'at, madaniyat, kino, raqamli texnologiyalar, innovatsion faoliyat.

Ключевые слова: искусство, культура, кино, цифровые технологии, инновационная деятельность.

Key words: art, culture, cinema, digital technologies, innovation.

Резюме:

Maqolada madaniyat va san'at oliy talim muassasalarida kino san'at ta'limini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, sohada raqamli transformatsiya talabalarning kasbiy yetukligida xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi yoritib berilgan.

Резюме:

В статье поясняется, что использование цифровых технологий в развитии киноискусственного образования в высших учебных заведениях культуры и искусства, цифровая трансформация в сфере является одним из основных инструментов, служащих профессиональной зрелости студентов.

Summary:

The article explains that the use of digital technologies in the development of cinematographic education in higher educational institutions of culture and art, digital transformation in the field is one of the main tools serving the professional maturity of students.

Ma'lumki, madaniyat va san'at sohasida teatr, kino, televideniye, xalq ijodiyotini rivojlantirish borasidagi zamonaviy talablarga, xalqimizning tobora ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash darajasi hamda sifatini takomillashtirish va tubdan oshirish, shuningdek mazkur yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan mavjud moddiy-texnik bazadan yanada samarali foydalanish maqsadida hukumatimizning qator qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy



tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4851-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 112-sonli qarori ijrosini ta‘minlash doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmonlarida barcha sohalarda IT(Axborot texnologiyalari)ni qo‘llash va ulardan kasbiy faoliyatlarida foydalanish, raqamli texnologiyalar va ularning imkoniyatini keng tadbiq qilish masalalari ijrosini ta‘minlash maqsadida san’at ta‘limida ilmiy ishlar ko‘lamini kengaytirish vazifasini qo‘ydi.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi hayotimizning turli jabhalarini, jumladan, ta‘limni ham o‘zgartirdi. Raqamli vositalar va platformalarning sinflarda integratsiyalashuvi ortib borayotganligi sababli, talabalar raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerak. Biroq, raqamli ko‘nikmalarni an’anaviy tarzda o‘rgatish ko‘pincha yuqori natijaga erishish imkoniyati juda kam va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlamaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishida artpedagogikadan foydalanish orqali talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati ochib berilgan. Badiiy ifodani texnologiya bilan birlashtirgan holda, artpedagogika talabalarda raqamli ko‘nikmalar, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun noyob va samarali yondashuvni taklif etadi.

Raqamli vositalar bilan uyg‘unlashgan art pedagogika talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Raqamli san’at asarini yaratish axborotni tahlil qilish, sintez qilish va baholashni talab qiladi. Talabalar g‘oyalarni aqliy hujumi, turli nuqtai nazarlarni o‘rganishlari, tartib va dizayn bo‘yicha qarorlar qabul qilishlari va o‘z ishlarining samaradorligini tanqidiy baholashlari kerak. Ushbu jarayonda ishtirok etish orqali talabalar raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Konstruktiv fikr-mulohazalar va o‘z-o‘zini mulohaza yuritish orqali talabalar o‘z ishlariga xolisona qarashni, yaxshilanishi kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashni va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni o‘rganadilar.

San’at sohasining juda ko‘p turlari mavjud. Bulardan hozirgi kunda eng muammoli va natijador turi kino san’atidir. San’atning yangi turi bo‘lgan kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi fan, texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo‘lgan san’at turlarining erishgan yutuqlari bilan bog‘liqdir.



Kinoning san'at turi sifatida shakllanishiga an'anaviy san'atlar ham juda katta hissa qo'shgan. Kino o'zigacha bo'lgan barcha san'atlar tajribasini o'zlashtirgan holda shakllandi. Bu san'atlarning har biridan o'zining ifoda vositalarini rivojlantirishga yordam beradigan hususiyatlarni olishga intildi.

O'zbek badiiy kinosi shakllanishi endi boshlanib kelayotgan 1927 yilda Fitrat o'zining "San'atning manbai (kelib chiqishi)" nomli maqolasida "kino ham teatr singari oltita ajoyib san'at: raqs, musiqa, adabiyot, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morlikdan kelib chiqqan: yoki boshqacha qilib aytganda: kino-oltita qadimiy ajoyib san'atning samarali mevasidir" (X. Boltaboyev "Fitrat va san'at nazariyasi". Gazetasi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi", 1998 y. 23 x.), deb yozgan edi.

Oradan biroz vaqt o'tgach kino muayyan tajribaga ega bo'ldi, bu tajriba nazariy umumlashmalar qilish imkonini berdi va kino to'g'risida ko'plab asarlar yozgan S. M. Eyzenshteyn ham "kinodagi har bir unurning ildizlari boshqa san'atlarda yotadi", "chunki kinoning o'z-o'zidan vujudga kelish nazariyasi allaqachon o'z umrini yashab bo'lgan", "kinoning hususiyatlarini san'atning bir-biriga yaqin turlaridan qidirish kerak" (Eyzenshteyn. Tanlangan asarlar. T 5, 55,96 bet), deb hulosalar chiqargan.

Kino o'zining shakllanishida bir-biriga yaqin san'atlardan tajribalarni singdirib olganligi bois qisqa vaqt ichida chinakam san'atga aylanishiga, an'anaviy san'atlar bilan bir safga turishga imkon yaratildi.

Kino rivojlangani sari uning har bir muayyan mamlakatdagi badiiy madaniyat tizimi bilan munosabatlari murakkablashib, chuqurlashib o'zaro ijodiy aloqa, o'zaro yordamlashish hususiyatlarini kasb etadi. Kino san'atini rivojlanish unga aloqador komponentlarga bog'liq. Bu komponentlar quyidagilardan iborat.

- Kino va adabiyot
- Kino va teatr
- Kino va tasviriy san'at
- Kino va musiqa

Kino va adabiyot. Kino o'z taraqqiyotining boshlaridanoq adabiyotga murojaat qiladi va adabiy asarlarni ekranlashtiradi. Ekranlashtirish esa kinoga "o'z qaddini tiklab "oyoqqa turib olish" imkoniyatini beradi. Adabiyotning barcha tasvir, ifoda vositalaridan kino hikoya qilish san'atini, inson xarakterini ochib berishni, uning janr boyligini o'ziga meros qilib oldi. Barcha turdagi kinofilmlarda adabiyot ma'lum darajada tadbiiq etilgan.

Kino va teatr. Teatrdan kinoga obraz yaratishda muhim elementlardan hisoblangan dekoratsiya, liboslar san'ati ham, ning ahamiyati kirib kelgan.

Kino hali ovozsiz bo‘lgan dastlabki paytlarda aktyor ijrolari qisman bo‘lsa ham teatrni eslatib turgan. Bu yaqqol ko‘zga tashlanib turuvchi grim, kuchli mimika, ifodali plastikalarda namoyon bo‘lgan.


Kino va tasviriy san‘at. Badiiy kinoda qahramon muhitini, film vaziyatini yaratishda amaliy san‘at muhim rol o‘ynaydi. Film pavilyonlardan tashqariga chiqqanda, ayniqsa film rangli bo‘lganda, peyzaj kadrlari peyzajli rangtasvirini eslatadi. Tasviriy san‘atning barcha turlariga tegishli ifoda vositalari kinoning shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Rangtasvir va grafikadan kino, aniqrog‘i, operator yorug‘lik bilan ishlashni, kadr kompozitsiyasini badiiy jihatdan ifodali qo‘yishni o‘rgatgan.

Kino va musiqa. Musiqa alohida o‘ziga xos ifoda vositalari orqali insonning eng nozik va murakkab his-tuyg‘ularini, turli voqea-hodisalar mohiyati va ma‘nosini eshituvchiga yetkazib berish xususiyatiga ega. Shuning uchun musiqa kinoning ovozsiz davridayoq filmga “kirib kelgan. Tapyorlik, ya’ni pianinoning ekran yonida filmga musiqa bilan jo‘r bo‘lib turish, amaliyotining keng yoyilganligi, film mazmunini emotsional jihatdan boyitishi, qahramonlar his-tuyg‘ularining tushunarli bo‘lishini kuchaytirishi lozim edi.

Film-bu turli san‘atlardan o‘zlashtirib olingan ifoda vositalarining majmui emas, balki ularning sintezidir, ya’ni kinoning o‘ziga xos xususiyatlariga qattiq amal qilgan holda, u yoki bu san‘at turlarining ifoda vositalari bir-birlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishadilar.

Kino san‘atning vujudga kelish jarayonida uning turlari ham rivojlandi. Kinoning turlari bir-biridan filmda gavalangan material bilan, ifoda vositalari bilan, ularda ilgari surilgan maqsadlari bilan farq qiladi. Kino san‘ati turlari quyidagilardan iborat.

Badiiy kino – bu kinoning paydo bo‘lishiga fransuz rejissyori J. Meles asos soldi. Kinoning bu turida zamonaviy voqelik, tarixiy o‘tmish, turli xil fantastikalarning gavalantirilishi va aktyor san‘ati orkali ochib berilishi mumkinligini hayot tasdiqladi. Filmning barcha tarkibiy qismlari (komponentlari) - rejissura, rassom, operator va kompozitorlarning ishi inson



1-rasm. Kino san‘ati turlari



takdirini, uning fe'l-atvorini, u ishtirok etgan voqea va vaziyatlarni ochib berishga bo'ysundiriladi.

Insonlar o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi badiiy kinoda tasvirlashning asosiy obyektidir. Kinoning bu turidagi filmlar to'la metrajli, qisqa metrajli va ko'p seriyali bo'lishi mumkin.

Xujjatli kino – kinoning bu turida tasvirning asosiy materiali, mavzui o'tmishda ro'y bergan faktlar, voqea-hodisalar, zamonaviy voqelikning o'zi bo'lishi mumkin. Barcha ifoda vositalari haqiqiy voqealarning, filmga asos kilib olingan haqiqiy inson taqdirining mohiyatini ochib berishga bo'ysundiriladi. Bu kino san'ati turining asosiy xususiyatlari – to'g'rilik, haqiqiylikdir. Ular obrazlilik bilan filmni yuqori badiiy darajaga ko'tarishi mumkin.

Hujjatli kino ichidan xronikani ya'ni biror voqea, faktni qisqacha izoh bilan beradigan tezkor kinoaxborotni farqlat lozim. Bu filmlarni kinoreportaj deb ham atash mumkin. Kinoxronika bugungi kunda televideniya keng ommalashgan.

Ilmiy-ommabop – kinoning bu turi uchun mavzu ilm-fan, mehnatdagi kishilarning kashfiyoti, ixtirolari, muhim, kiziqarli muammolardan iboratdir. Bu kino turining filmlari orqali ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, farazlar ommalashtiriladi.

Animatsiyali kino – kinoning bu turidagi filmlar har qanday mavzu, muammo, janrlarda bo'lishi mumkin. Bolalar va kattalar uchun mo'ljallangan ertaklar, hozirgi zamonning g'oyat keskin muammolari, masalan, ekologik muammolar, tarixiy o'tmish va hokazolar shular jumlasidandir.

Bu kino turining o'ziga xos hususiyati - uning filmlari badiiy asosga ega bo'lib, ishlanishi chizilgan rasmi, ko'girchoq tarzida bo'lishi mumkin. Zamonaviy animatsiyali kinoda kompyuter grafikasida keng foydalaniladi.

Yuqoridagi kino turlarida hozirgi kunda jadal rivojlanish jarayonida axborot texnologiyalar, va raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ayniqsa san'at ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali jamiyatda o'zgarishlar jarayonini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Kino va axborot texnologiyalari (IT) bir qarashda tabiatan butunlay boshqacha ko'rinadigan ikkita sohadir. Ulardan biri bizni hissiy jihatdan qamrab oladigan va turli olamlarga olib boradigan san'atdir. Boshqasi esa - axborotni yaratish va boshqarish uchun foydalaniladigan bilim va texnik ko'nikmalar to'plami. Ammo zamonaviy dunyoda bu ikki soha birlashib, kino tushunchasini va ishlab chiqarishni o'zgartiradigan ajoyib ittifoqni tashkil etdi.

Jahon tajribasiga ko'ra kino san'atining raqamli transformatsiyasi quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi (1-jadval):



1-jadval

Kino san'atining raqamli transformatsiyasi bosqichlari

Kino san'ati bosqichlari	Transformatsiya jarayoni
Film ishlab chiqarish: Analitikadan vizual effektlargacha	Bugungi kunda kino yaratish jarayoni axborot texnologiyalarisiz amalga oshirilmaydi. Ssenariyni ishlab chiqishdan boshlab, IT potentsial tomoshabinlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, film muvaffaqiyatini bashorat qilish va hatto ishlab chiqarish byudjetini optimallashtirishga yordam beradi. Vizual effektlar (VEF) zamonaviy kino san'atining ajralmas qismi bo'lib, ular kompyuter grafikasi va maxsus dasturiy ta'minotga asoslangan. Hozirgi kunda jahon filmlaridan "Avatar" yoki "Yulduzli urushlar" kabi filmlar IT sanoatining ajoyib yutuqlari tufayli yuzaga keldi.
Tarqatish va marketing: oqim- dan ijtimoiy mediagacha	Internet va raqamli platformalarning rivojlanishi bilan kino butunlay boshqacha tarzda tarqatiladi va targ'ib qilinadi. Netflix va Amazon Prime Video kabi striming platformalari kino bozorining asosiy o'yinchilariga aylandi va tomoshabinlarga filmlar va teleseriallarning ulkan kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini berdi. Kino marketingi ham ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama orqali inqilob qildi. Endi virusli treylerlar va interaktiv reklama kampaniyalarini yaratish odatiy holdir.
Tomoshabinlar ishtiroki: Ijtimoiy tarmoqlar va muxlislar bilan muloqot	Ijtimoiy media rejissyorlarga tomoshabinlar bilan ko'proq bog'lanish imkonini beradi. Tomoshabinlar filmlarni real vaqt rejimida muhokama qilishlari, o'z fikrlari va takliflarini bildirishlari, fan-muxlislar bilan muloqot qilishlari mumkin.
Ma'lumotlarni tahlil qilish va muvaffaqiyatni bashorat qilish	Ma'lumotlarni tahlil qilish kino ishlab chiqarish va marketing strategiyasining ajralmas qismiga aylandi. IT mutaxassislari filmning potentsial muvaffaqiyatini aniqlash, tomoshabinlar reaksiyasini baholash va reklama xarajatlarini optimallashtirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Bu studiyalarga ko'proq asosli qarorlar qabul qilish va foydali loyihalarni yaratish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.



Virtual va dasturiy ta'minot	Virtual va dasturiy ta'minotlar kinematografiya uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Virtual filmlar tomoshabiniga syujetga kirib, uning bir qismiga aylanish imkonini beradi, dasturiy ta'minotlar esa atrofdagi dunyoga interaktiv elementlar qo'shadi. Ushbu texnologiyalar kino chegaralarini kengaytiradi va noyob vizual va hissiy tajribalarni taqdim etadi.
------------------------------	---

Kino va axborot texnologiyalarining simbiozi filmlarni ishlab chiqarish, tarqatish va qabul qilishda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. IT ssenariy yaratishdan tortib marketing kampaniyasigacha kino sanoatining har bir bosqichining ajralmas qismiga aylandi. Bularning barchasi kino ufqlarini kengaytirib, yanada qiziqarli va vizual tarzda ajoyib filmlar yaratish imkonini beradi. Kinoning kelajagi IT sohasidagi hamkorlikka tayanishda davom etadi va bu bizga yanada ajoyib hikoyalar va vizual durdonalarni olib kelishi mumkin.

Bunday katta o'zgarishlar kino san'atida ta'lim oluvchi yoshlarga hamda pedagogik jamoaga mavjud bilimlar bankini kengaytirish, IT bilimini oshirish, o'z ustida ishlash va sohaviy rivojlanish vazifasini yukladi.

San'at ta'limida raqamli transformatsiyani joriy etish quyidagi muammolarni hal etishda yordam beradi:

- zamonaviy ta'limni tashkil etishda bog'lovchi bo'g'in sifatida qo'llash;
- ta'limni boshqarish;
- axborot texnologiyalari sohasini o'rganish va o'qitishning asosiy muhitini yaratish;
- raqamli ta'lim resurslari uchun davlat xizmatlari tizimidagi xizmatlar almashinuvining asosiy kanali.

Adabiyotlar:

1. Ван Юмей, Ян Сяолань, Ху Вэй и др. От цифровой грамотности к цифровым возможностям: концептуальная эволюция, элементы и модель интеграции [J], Журнал дистанционного образования, 2013, 31(3): 24-29.

2. Aziza T. et al. Developing Information and Communicative Competence of Specialists in Art and Culture Sphere //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

3. Tolibovna K. A. Theoretical and practical conditions of development of information and communication competence of future cultural and art figures //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

4. Курбанова А. Т. Бўлажак санъат ва маданият ходимларида ахборот-коммуникатив компетентликини ривожлантиришнинг дастурий таъминоти: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.019> Курбанова Азиза Толибовна Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти доценти, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 10.

5. Tolibovna K. A. Software for the development of it-competence in students. – 2022.



TALABALARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

To'rayev A.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: kompetensiya, innovatsion infratuzilma, kadrlar sifati, bozor talabalari, sifatli kadr, bo'sh vaqt, kasbiy mahorat, tadqiqotchilik kompetensiyasi.

Ключевые слова. компетентность, инновационная инфраструктура, качество кадров, студенты рынка, качественные кадры, свободное время, профессиональные навыки, исследовательская компетентность.

Key words: competence, innovative infrastructure, quality of personnel, market students, quality personnel, free time, professional skills, research competence.

Резюме:

Ushbu maqolamizda oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy rivojlanishida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari, hamda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari tahlil qilingan.

Резюме:

В данной статье проанализированы дидактические вопросы контроля исследовательской компетентности в профессиональном развитии студентов высшей школы, а также педагогические вопросы контроля исследовательской компетентности.

Summary:

In this article, didactic education of monitoring research competence in the professional development of students of higher education articles, as well as pedagogical issues of monitoring research competence have been analyzed.

Kirish. Bugungi shiddatli davrda jamiyat sohalari rivoji asosan sifatli kadrlar miqdoriga bog'liq bo'lib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tanqidiy fikrlaydigan, muammolarni mustaqil anglagan holda samarali hal eta oladigan, kutilmagan kasbiy vaziyatlarda kreativ harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarga talab kun sayin ortib bormoqda. Mazkur jabhada turli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlab beruvchi oliy ta'lim muassasalari zimmasida zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi. Kasbiy muammolarini muvaffaqiyatli hal qila oladigan, keng dunyoqarashga ega sifatli kadrlarni tayyorlashda esa dastlabki vazifalardan biri talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish hisoblanadi.



Bu borada mamlakatimizda keyingi yillarda OTM faoliyatini yanada rivojlantirish masalasida tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo'lajak mutaxassislarning o'z yo'nalishlarida tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi oliy ta'limni rivojlantirishning strategik vazifalari sifatida belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ilmiy tadqiqot ishlari sifatini oshirish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, bu borada tegishli me'yoriy xujjatlarni qabul qilish, talabalarda tanqidiy, ijodiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish kabi strategik rejalarni misol qilishimiz mumkun. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mahalliy tadqiqotchilardan S.N.Allayarova [3] talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda professor-o'qituvchi pedagogik mahoratining ahamiyati, D.Raximova, Sh Samiyevalar talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishning pedagogik shartlari, J.Saydullayev[7] talabalar ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishni pedagogik boshqarish, N.Abdullayeva [2] ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni xususida ilmiy izlanishlar olib borgan.

MDH tadqiqotchilaridan N.M. Boryotko, V.I.Zagvyazinskiy, V.V. Kraevskiy, I.Ya. Lerner, V.A. Slasteninar tomonidan talabalar ilmiy faoliyatining spetsifikatsiyasi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik shakllari va ularning turlari tahlil qilingan. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish masalasi esa bir qator olimlar I.Ya. Lerner, M.I. Maxmutov, A.M. Matyushkin va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Garchi MDH olimlari mazkur mavzuda yetarlicha izlanish olib borgan bo'lsalarda ammo mamlakatimizda talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishning zamonaviy mexanizmlari xususida tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Ushbu mavzu tadqiqot ishlariga muxtoj.

Muhokama. Shu o'rinda talaba uchun tadqiqotchilik faoliyati nechog'lik muhim ekanligiga to'xtalib o'taylik. Tadqiqotchilik faoliyati talabalarni yangi bilimlar hosil qilishga undaydi va tafakkur darajasini rivojlantiradi. Yangi ma'lumotlar shaxsning shaxsiy rivojlanishi, o'z-o'zini, o'zgalarni va olamni anglashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki tadqiqot kompetensiyasi bilim doirasini kengaytirishga, kognitiv qiziqishlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilik kompetensiyasining shakllanishi asosida talaba axborotlarni mustaqil ravishda topish va tahlil qilish, o'z faoliyatini rejalashtirish, o'z harakatlarini kuzatish va baholash ko'nikmlariga ega bo'ladi.

Bo'lg'usi kadrlarga bugungi kunda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning muhimligini bo'lajak mutaxassisning yangi malaka modelida bitiruvchilarga quyidagi talablar belgilanganligi bilan izohlahimiz mumkun:

- bilim va malakani mustaqil egallash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- olingan bilimlarni turli kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish;
- ijtimoiy va professional harakatchanlikga tayyorlik va hokazo.

Mazkur talablar mutaxassislar tayyorlashning o'quv jarayonini tashkil etishda talabalar faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlarining rolini oshirishni belgilaydi. Shu sababli ilmiy-tadqiqotchilikga faoliyatiga yo'naltirish bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning zarur shartiga aylantirilishi lozim. Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilinishi o'qishning dastlabki yillaridayoq amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda, avvalo unga ustozlik qiladigan o'qituvchining tadqiqotchilik tajribasi yuqori darajada bo'lishi lozim. Mutaxassislik doirasidagi yechimini topishi lozim bo'lgan muammolarni anglay olishi, ularni hal qilishga oid maxsus metodikalarni ijodiy qo'llay olishi, yangi ilmiy mulohazalarni chiqara olishi tadqiqotchi-o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida tadqiqotchi professor-o'qituvchining tadqiqot kompetensiyasi ikki tomonlama ahamiyatga ega:

- birinchidan, pedagog ilmiy bilish usullarini faol o'zlashtirgan bo'lishi va ilmiy tadqiqot jarayonining faol sub'ekti bo'lishi;
- ilmiy faoliyatda ilhom bag'ishlovchi motivator va korrektor vazifasini bajarishi.

Ko'zlangan natijaga erishishda o'qituvchining maxsus ilmiy tayyorgarligi, tadqiqotchilik kompetensiyasi yaxshi rivojlangan bo'lishi muhim. Ushbu masala oliy ta'lim muassasalarida o'quv va darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilishning yangi va samarali usullarini ijodiy izlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Zero tadqiqot madaniyati ilmiy va ta'lim faoliyatini samarali tashkil qilish vositasidir. Talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan kasbiy tayyorgarlik jarayonida foydalanishi uning shaxsiyati rivojlanishidan va ta'limga ongli qiziqishidan dalolat beradi. Tadqiqot ko'nikmalari akademik xususiyatga ega bo'lib, keng ko'lamli. Barcha fanlarni o'rganishda va kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali qo'llanishi mumkun. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati talabalarning individual ish shakllaridan biri bo'lib, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismi sifatida quyidagilarga yordam beradi: bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish; shaxsning kognitiv ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va hokazo.

- Tadqiqot ishini bajarishda talaba quyidagi bosqichlardan o'tishi lozim:
- tadqiqot ishi mazmunini belgilash;



- qilinadigan vazifalarni aniqlashtirish;
- qo'yilgan yoki tanlangan vazifani hal qilish uchun tadqiqot ishiga tayyorgarligini o'z-o'zini baholash;
- muammoni hal qilish yo'llari va vositalarini tanlash;
- tadqiqot ishini rejalashtirish;
- tadqiqot ishining oraliq va yakuniy natijalarini o'z-o'zini nazorat qilish natijalari, kamchiliklar va ularning sababalarini bartaraf qilish va hokazo .[4]

Umuman olganda, talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqish uyg'otuvchi va motivatsiya beruvchi eng muhim omil, fanni targ'ib qiluvchi malakali o'qituvchilardir. O'quv dasturi –bu faqat analitik tadqiqot faoliyatini rivojlantiruvchi loyiha. S.Allayarova ilmiy tadqiqot faoliyati muntazam izchillik, tirishqoqlik, ijodkorlikni talab qilishini, ammo afsuski bugungi aksariyat talabalar haqiqiy bilimga ega bo'lishdek oliy maqsad qo'ymasdan, balki mutaxassislik diplomini olishnigina o'zlariga maqsad qilmoqdalar"[2]

Tadqiqotchilik faoliyati talabalarda o'quv jarayoni va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va boshqa turli faoliyat turlarida shakllanadi. N.A.Abdullayeva tadqiqot kompetentligini shakllantirishning asosiy shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:[3]

- ma'ruza , seminar va amaliy mashg'ulotlar;
- munozara, suhbat, trening va ishbilarmonlik o'yinlari;
- referat, hisobot, insho va ma'ruzalar tayyorlash;
- kasbiy vazifalarni hal etish;
- auditoriyalarda turli loyihalar ustida ishlash va natijalarini taqdim etish;
- o'quv tadqiqot va tadqiqot topshiriqlarini;
- o'quv amaliyotida bajariladigan vazifalar;
- auditoriyadan tashqari tadbirlarda turli loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish;
- kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari .

Bugungi kunda talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda quyidagi qarama-qarshiliklar namoyon bo'lmoqda:

- bo'lajak pedagog o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha jamiyatning tobora ortib borayotgan ob'ektiv extiyojlari;
- kadrlar sifatiga talablarning ortib borishi va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga yetarli darajada darajada tayyor emasligi;
- quyi bosqich talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini rivojlantirish zarurati va ushbu faoliyatning ilmiy-uslubiy ta'minlanmaganligi;
- yuqori bosqich talabalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etish bo'yicha talablar va kichik kurslarda ushbu faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish uchun pedogogik shart-sharoitning ta'minlanmaganligi;

– tadqiqot faoliyati sohasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarining yetarli darjada ishlab chiqilmaganligi va hokazo.

Xo'sh, iqtidorli talabalar bo'sh vaqtida ularni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning mohiyati, mazmuni, tuzilishi, pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlari qanday bo'lishi lozim?

Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligi- bu shaxsning ushbu faoliyatga ijobiy motivatsion munosabatining mavjudligi, tadqiqot ko'nikmalari, uslubiy bilimlar tizimi va ularni turli sharoitlarda tadqiqot faoliyatini amalga oshirish tajribasi. **Talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligining ma'lum bir tarkibiy qismlariga quyidagi komponentlar kiradi:**

– **motivatsion** - ta'lim faoliyati uchun ongli motivlarining mavjudligi, tadqiqot faoliyatining ahamiyatini tushunish, tadqiqot faoliyatiga bo'lgan extiyojning mavjudligi;

– **kognitiv** - ilmiy manbalarni kasbiy yondashuv asosida tahlil qilish, pedagogik tadqiqot metodologiyasi va usullarini bilish, ilmiy-tadqiqot mantig'i va tuzilishini tushunish;

– **faoliyatga** asoslangan (pedagogik tadqiqot usullarini qo'llash, uning natijalarini rasmiylashtirish va ilmiy yondashuvlarini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish).

Talaba-yoshalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarni amalga oshirish asosida ta'minlanadi:

– professor-o'qituvchi (ilmiy rahbar) va talaba o'rtasidagi munosabatlarning psixologik-pedagogik –gumanistik yo'nalishi;

– professor-o'qituvchilarning mahoratini doimiy ravishda oshirish zarurati;

– tashkiliy-OTM talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini infratuzilmaviy ta'minlashini yaratish;

– OTMda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun axborot ta'minotini yaratish;

– talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini shakllantirish va uni adolatli amalga oshirish;

– OTM tomonidan talabalar tadqiqot ishlarini nashr etish imkoniyatini ta'minlash;

– ijodiy izlanishga qaratilgan, tadqiqot vazifalari bilan yuqori darajada singdirilgan o'quv jarayonini tashkil qilish;

– OTM doirasida ilmiy-tadqiqot harakteridagi tanlovlarni ko'proq tashkil qilish va hokazo.

Tadqiqot ishimiz davomida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:



– OTM professor-o'qituvchilari faoliyatini baholash reyting tizimiga talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishlaridagi miqdor va sifatii o'zgarishlar va yutuqlari kiritilishi lozim;

– OTM da faol tadqiqotchi professor-o'qituvchilar faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish zarur;

– o'quv jarayonini tashkil qilishda har bir o'qituvchi topshiriqlarni ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda ishlab chiqishi kerak;

– talabalarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilishda turli intellektual musobaqlarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga o'zini -o'zi rivojlantirish, har xil turdagi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga o'rgatish professor -o'qituvchilarning birlamchi pedagogik funksiyalaridan hisoblanadi. Talaba-yoshlarni darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida qiziqishlari asosida ustoz-shogird tizimi asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish ishlari xo'jako'rsinga emas, balki strategik rejalar asosida tizimli tashkil qilinishi va qat'iy nazorat qilinishi lozim. Chunki, bo'lajak mutaxassisda tadqiqot ko'nikmalarining mavjudligi uning yuqori kasbiy mahoratining asosiy sharti hisoblanadi. Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasining erta shakllantirilishi sifatli kadr tayyorlashdagi eng muhim va zaruriy omil hisoblanadi. OTM talabalarida mazkur sifatlarni shakllantirishga o'quv va ilmiy ishlarning barcha shakllari ularning mustaqil ravishda bilim olishini ta'minlashi, o'ziga xos fikrlash qobiliyatini shakllantirishi, mustaqil qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. OTM faoliyatida talabalar bo'sh vaqtlarini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish, oqilona tashkil qilish, darsdan tashqari mustaqil ta'lim shakllarini tanlashda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-Ilova.

2. S.N.Allayarova. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda professor-o'qituvchi pedagogik mahoratining ahamiyati.//Global dunyoda ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamoanaviy trendlari 15 dekabr, 2022 yil.-B.45-50 .

3. N.A.Abdullayeva. Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi-bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida //Academic Research in Educational Sciences Volume3/Issue1/2002.-P.601-612.

4. Sh.A.Xujaqulov .Formation of competence of students on the basis of information technologies]// Special Issue on Application of Science for Sustainable Development to Overcome Covid-19 Pandemic Published by Novateur Publication India's JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, 9 th Aug. 2020.-P.53-59.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA SHAXS IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raxmanova M. Q.
ChDPU professori, p.f.d.(DSc)

Tayanch so'zlar: ijtimoiy faollik, shaxsning individualligi, ijtimoiy kamol topish, faollikning shakllari(biologik, psixik, ijtimoiy)

Ключевые слова: ijtimoiy faollik, shaxsning individualligi, ijtimoiy kamol topish, faollikning shakllari(biologik, psixik, ijtimoiy)

Key words: social activity, individuality of a person, social maturity, forms of activity (biological, psychological, social)

Резюме:

Ushbu maqolada yoshlarimizning uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy faolligini oshirish, shaxs ijtimoiy faolligi ta'lim-tarbiya jarayonida tarkib topib, ijtimoiy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar mazmuni hamda jamiyat mafkurasi mazmuni, g'oyasi, yo'nalishlari uning ijtimoiy hayotga nisbatan yondashuvining mazmuni va darajasi sifatida namoyon bo'lishi haqida aytilgan. Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy faollikni oshirish uning o'ziga xos xususiyatlari va masalalari, echimlari aniqlangan.

Резюме:

В данной статье рассматриваются повышение социальной активности нашей молодежи в системе непрерывного образования, содержание социальных отношений, сложившихся в социальном обществе, а также содержание, идея, направления социальной активности личности в процессе образования и обучения. воспитания, содержания его подхода к общественной жизни и говорят, что оно проявится как уровень. Повышение социальной активности в системе непрерывного образования имеет свои особенности, проблемы и пути решения.

Summary:

In this article, increasing the social activity of our young people in the continuous education system, the content of social relations established in the social society as well as the content, idea, directions of the social activity of the individual in the process of education and upbringing, the content of his approach to social life and it is said that it will appear as a level. Increasing social activity in the continuous education system has its specific features, issues, and solutions.

Bugun jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar va tub islohotlar jarayoni fuqarolik jamiyati institutlari deya ta'riflanadigan nodavlat notijorat



tashkilotlari, jamoat birlashmalaridan ham ijtimoiy faollikni talab etmoqda. Xo'sh, ijtimoiy faollik o'zi nima?

Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo'lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo'shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo'lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o'zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi. Bugun urtdoshlarimizning ijtimoiy faollashayotganini ko'rib turibmiz. Ijtimoiy tushkunlik, o'zgarishlarga, islohotlarga loqaydlik davri o'tdi, yurtdoshlarimizda tashabbusni, yangilikka bo'lgan intilishlarni guvohimiz. "Ijtimoiy faollik" shaxsning alohida sifati tizimi bo'lib, u insonda birdaniga paydo bo'lib shakllanmaydi, balki umri davomida kamol topishining mahsuli hisoblanadi. Ya'ni, faollikning dastlabki asoslari paydo bo'lishida bolalik davri muhim o'rin tutadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini - maktabgacha ta'lim va kichik maktab davri bolalar hayotida shaxs shakllanishining, kelgusida insonning "qiyofasini" belgilaydigan psixik xususiyatlar tarkib topishida o'ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur tizimda bolaning o'ziga va olamga nisbatan xilma-xil munosabatlari shakllanadi. Bola hayotga kirib borishi, ijtimoiy tartib va qoidalarni o'rganishi, faoliyatning xar xil turlarini o'zlashtirishi bilan kamolotga erishib boradi. Kamol topish jarayoni, albatta, atrofdagilar bilan faol munosabat tufayli amalga oshadi. Bola faolliksiz xech narsani bila olmaydi, axloqiy tarbiyalanib, tajribani o'zlashtira olmaydi, hech qanday ishni bajara olmaydi. Shuning uchun uning faolligi maktabda o'quvchilik paytlaridanoq ijtimoiy tuc olishi juda muhimdir.

O'z navbatida shaxs ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda qolgan ta'lim muassasalarining alohida o'rni bor, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchi shaxslarda ijtimoiy faollik sifatlari tarbiyalanadi.

Zero, "Ta'lim - imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan buyuk mezon. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va yutuqlar ko'payishining muhim omili vazifasini o'taydi".

Shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida faollik uning mehnati, o'qishi, ijtimoiy hayotning turli soxalarida sport va boshqa ko'rinishdagi jonli, jadal faoliyati sanaladi. Inson faoliyatidagi g'oyaviy yo'nalganlik, maqsadga intilish faollikning asosiy ko'rinishlaridir. Shaxs faolligi ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida aynan shu jarayonda hamda shaxsning jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar va xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan bildirayotgan munosabati, faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy faollikni oshirish va rivojlanishini tahlil qilish uchun shaxsning ijtimoiy kamol topishi asosiy tushuncha hisoblanadi. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda e'tirof etilishicha, ijti-moiy kamol topish ajdodlarimiz to'plagan ijtimoiy tajribaning bola tomonidan o'zlashtirilishi jarayonida amalga oshadi. Bu o'zlashtirish avval boshdanoq insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro faol munosabati tarikasida amalga osha boshlaydi.

Ijtimoiy kamol topish davomida faollikning hamma shakllari: biologik, psixik, ijtimoiy qirralari asta-sekin tabaqalashadi. Ular nisbatan mustaqilligicha qolsa-da, ayni paytda o'zaro mushtaraklashib boradi. Faollikning biologik shakllari ruhiy faol-likning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Albatta, shaxcda tobora rivojlanib, o'sib boruvchi bu xususiyatlar muayyan foydali maqsadga qaratilsagina, u muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ijtimoiy maqsad kelib chiqadi.

Ijtimoiy maqsad deganda, insonning voqelikka aralashuvi shakli tushuniladi. Ijtimoiy maqsad oqibati ijobiy yoki salbiy xollardan iborat bo'ladi. Masalan, shaxsning xudbinligi, shaxciyatparastligi kabi xususiyatlarini vujudga keltiradigan faoliyat va harakatlarga qo'shilishi ham ijtimoiy maqsad hisoblanadi. Bi-rok, bu hol bizning mafkuramiz, axloqimiz nuqtai nazaridan maqsadning salbiy belgisidir va aksincha, o'quvchilarning jamoatchilik, hushyorlik, diqqat-e'tiborlilik, talabchanlik va xayrixohlikni tarkib toptiradigan faoliyatga qo'shilishlari axloqiy maqsad bo'lib, bunda ijobiy hollar vujudga keladi. Ana shu maksadga erishish esa jamiyat talabiga moc xatti-harakatning asoslarini belgilaydi.

Ijtimoiy maqsadning boshqa muhim xususiyatlari uni bolaga tushuntirish, faoliyat yoki jarayonning natijalariga yo'naltirishdir. Shaxc xilma-xil maqsadlarga qo'shilib ijtimoiy faollik yoki ijtimoiy loqaydlik ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy loqaydlik deganda qo'zg'atuvchilar ta'siriga javoban vujudga keladigan va muayyan vaziyat bilan chegaralanadigan harakatlar, muomala-munosabat usullari hamda turli holatlar tushu-niladi. Ijtimoiy loqaydlik paytlarida shaxs faoliyatning maqsadlarini tor anglaydi, undagi qo'zg'alish vaqtincha cheklanadi.

Ijtimoiy loqaydlikning ko'p uchraydigan ko'rinishi kattalarning nazorati va tazyiqi bilan amalga oshadigan axloqiy harakatlardir. Ba'zan nazorat to'xtatilishi bilanoq harakatlar ham susayib yoki butunlay to'xtab qoladi. Ayrim hollarda istak-xohish, man etilgan narsalarga qizikish sababli tartibsiz va jamiyat ma'qullamaydigan faollik vujudga keladi.



Bolalik yillaridagi ijtimoiy faollik bolaning ijtimoiy vazifalarni bajarishda yoshiga mos faoliyatga qatnashib, o'ziga va o'zgalarga foydasi tegadigan darajada ruhiy faollik ko'rsata bilish qobiliyatidir.

Yoshlikdagi mas'uliyat boshqalar uchun foydali sifatlar tarkib topishini ta'minlaydigan faoliyatda vujudga keladi. Psixologik nuqtai nazardan mas'uliyat muayyan maqsad bilan ijtimoiy vazifa o'rtasida o'zaro kengroq bog'lanish amalga oshgan paytda paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, shaxsning vazifaga munosabati shakllana boshlaganda maqsadning ijtimoiy ma'nosi anglashiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy mas'uliyatlik loqaydlikdan ijtimoiy faollikka o'tishning eng muhim shartidir. Maktab davrida ijtimoiy faollik namoyon bo'lishining umumiy tomonlari mavjud. Lekin ushbu faoliyatning farqli tomonlari ham anchagina.

Ijtimoiy faollikning asosiy shakli mas'uliyat bilan ijro etishdan iborat bo'lib, u qulay sharoitlarda tashabbusga aylanishi mumkin. Ijtimoiy faol shaxs sifatlarining tarkib topishida faoliyat, jumladan, mehnat va ta'lim olish unsurlari, mavjud o'yin faoliyati etakchi o'rin tutadi. Masalan, ishtirokchi o'yinda umumiy talablarga bo'ysunishga o'rganadi. O'yin-harakatlarining mazmunini tushuna boradi. O'yinlar jarayonida tashabbus ko'rsatish qobiliyatini egallaydi.

Shuningdek, bola asta-sekin o'yinning vaziyatlarini, qoidalarini, me'yorlarini anglab, o'ziga va boshqa bolalarga muayyan talablar qo'ya boshlaydi. Mazkur yoshda mehnat faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Faoliyatning boshqa turlari ham, masalan, o'rganish, umumlashtirish, axloqiy harakatlar, estetik faoliyat ham ijtimoiy faollikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan, "inson jamiyatning turli guruxlarida o'z zimmasiga olgan vazifalari, rollari kanchalik rang-barang bo'lmasin, turmushdagi mavqei ko'p ma'no va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lishidan kat'iy nazar, unda inson shaxsiga to'la mos keladigan xaqiqiy tavsif berish imkoniyati saqlanib qoladi. Unga beriladigan tavsif faqat uning o'ynaydigan asosiy rollari, egallagan mavqeyining individualligini namoyon qiluvchi motivlari bilan emas, balki uning ishlab chiqarishga, moddiy boyliklarni o'zlashtirishga nisbatan munosabatini o'rganish orqali aniqlanadi. O'zbekistonda inson shaxsiga beriladigan asosiy tavsif uning gumanistik, mustaqil, huquqiy jamiyat qurish jarayoniga nisbatan hamda bu ijtimoiy jarayonda faol katnashishi kabi muhim mezonlarga asoslanadi".

Uzluksiz ta'lim tizimida shaxs ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

shaxs ijtimoiy faolligi ta'lim-tarbiya jarayonida tarkib topib, uning ijtimoiy hayotga nisbatan yondashuvining mazmuni va darajasi sifatida namoyon bo'ladi;

shaxs ijtimoiy faolligi ijtimoiy-axloqiy talablar asosida tashkil etilayotgan faoliyat darajasi sifatida uning kamol topishida muhim omil rolini bajaradi;

shaxs ijtimoiy faolligi u mansub bo'lgan ijtimoiy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar mazmuni hamda jamiyat mafkurasi mazmuni, g'oyasi, yo'nalishlari hamda qamroviga bog'liq;

shaxs ijtimoiy faolligini oshirish ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar mavjudligi asosida uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etilayotgan ijtimoiy faollikni oshirishga asoslangan faoliyat jarayonida shakllanadi;

shaxs ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotini aniq dasturlar asosida ta'minlashning muhim sharti bo'lib, mazkur jamiyat istiqbolini oldindan ko'ra olish imkonini beradi.

Shaxs ijtimoiy faollashuvining bir qator o'ziga xos omillari mavjud. Xususan, bu omillar:

shaxs faollashuviga ta'sir etuvchi sub'ektlar;

shaxs ijtimoiy faolligining individualligi;

turli jins vakillari ijtimoiy faolligiga xos xususiylik;

shaxsni qamrab olgan ijtimoiy muhit;

-shaxs faolligini oshirishga rag'bat uyg'otuvchi o'quv muassasalari va boshqalardan iboratdir.

Uzluksiz ta'lim tizimida shaxs ijtimoiy faolligini oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

shaxsda ijtimoiy onglilikni qaror toptirish va ijtimoiy onglilik darajasini izchil sur'atda oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy bilimlar targ'ibotini tashkil etuvchi ma'rifiy muhitni yaratish, uning samaradorligini oshirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimi sub'ektlarini ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlardan doimiy va uzluksiz xabardor etib borish;

o'quvchilarga davlatning yoshlarga oid siyosati mazmuni, mohiyati va ahamiyati borasidagi ma'lumotlarni berib borish;

ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish.

Tahlil natijalari va kuzatish davomida o'zlashtirilganlarni umumlashtirib aytish mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimida shaxs ijtimoiy faolligini oshirish o'ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar shaxsning fiziologik, ruhiy, jismoniy holatlarida namoyon bo'ladi va quyidagi tizimda shakllanadi. Xulosa



qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimi shaxs ijtimoiy faolligi tarbiyalanishi, unda jamiyat talablariga xos xususiyatlar va fazilatlarining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. X. Kuroda. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti: Xalqaro konferensiya materiallari. - Toshkent: O'zbekiston, 2012. - B. 19.
2. G'oziev E. Psixologiya: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: O'qituvchi, 2008. - B. 67.
3. Pedagogicheskaya ensiklopediya: V 3-x t. - Moskva: Ensiklopediya, 1996.- 504 s.
4. Egamberdieva T. A. Ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 224 b.
5. Raxmanova M.Q. Based on Modern Innovative Technologies Directions for Improving Educational Efficiency Central asian journal of literature,philosophy and culture,2023. Volume 04,, pp.109-113
6. Muqaddas Khahramonovna Rakhmanova Development of creative skills of students as a problem in the educational cluster environment Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical DevelopmentsPCJPD: Volume 2Issue 5, May 2024, online: ISSN 2956-896X Impakt paktor 9,625 182-190 7. Raxmanova M.Q.Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligini rivojlantirish Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio' 2023 y.№6/3 B.246-252
8. Raxmanova M. Q.Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlannirish jarayonida ijtimoiy va pedagogik omillarning o'zaro aloqadorligi Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio' 2024 y.№2 289-294
9. Raxmanova M. Q Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi Uzlursiz ta'lim 2023 y.Maxsus soni 41-46
10. Raxmanova M. Q Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida talabalarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish masalalari Pedagog respublika ilmiy jurnali 7 – tom 2 – son / 2024 - yil / 15 - fevral 385-391



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA QADRIYATLI YONDASHUV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Ernazarova M.J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: o'qituvchi, pedagogika, qadriyat, tarix, ko'nikma, ma'naviyat, Malaka, bilim, tarbiya, odob-axloq, yondashuv.

Ключевые слова: педагог, педагогика, ценности, история, навыки, духовность, квалификация, знания, воспитание, манеры, подход.

Key words: teacher, pedagogy, values, history, skills, spirituality, qualification, knowledge, upbringing, manners, approach.

Резюме:

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvini shakllantirish, o'qituvchilarda mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etishni shakllantirish borasida so'z yuritilgan.

Резюме:

В статье рассматривается формирование ценностного подхода к профессии у будущих учителей, у педагогов. речь шла о формировании существующих педагогических взглядов, национальных образовательных традиций, ценностей, научном изучении, тщательном анализе и внедрении народной педагогики.

Summary:

In the article, the formation of a valuable approach to the profession in future teachers, in teachers. it was discussed about the formation of existing pedagogical views, national educational traditions, values, scientific study, careful analysis and implementation of folk pedagogy.

Kirish. Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning amaliy salohiyatiga bog'liq. Amaliy salohiyat esa xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan o'z fikriga ega, malakali, bilimli, yuksak axloqli kadrlar hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq amaliy salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelyotgani ayni haqiqat.

Har bir ijtimoiy tuzumda esa insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim–tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda



o'rganishni talab etishi shubxasiz. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarga bevosita pedagogika tarixi yordam beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bizga ma'lumki, pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum va uning kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi. Bu esa tariximizga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotiga tatbiq etish kabi ulug' ishlar amalga oshirilishiga zamin yaratdi. Bugungi kunga kelib o'zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini o'rganmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy – nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir. Tarixan olib qarasaq O'zbek xalqi ta'lim tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yarata olgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura hukm surgan deb ayta olamiz. Bu fikrimizni isboti esa zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralanganligini va bunga asosiy sabablardan biri Iskandar boshchiligidagi Yunon – Makedon qo'shinlari istilosi bo'lsa, yana biri ibn Muslim Qutayba rahbarligida arab istilochilari olib borgan janglar, talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yoqib yuborilganligi desak o'rinli bo'ladi. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pelagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunnig muhim va dolzarb muammosidir. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasi shakllanishi uchun ular milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pelagogikasini ilmiy o'rganishlari, puxta tahlil qila olishi va hayotga tatbiq etishlari uchun pedagogika tarixini chuqur o'rganishlari lozim.

Ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hur fikrlilik bizdan boshlangan. Olmon olimi Xerler. «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda haq edi. Haqiqatan ham shunday, o‘zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. Yuqoridagi fikrlarning o‘zi madaniyat va ma’rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo‘la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarning, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», Sug‘d, Baqtriya, Urxun – Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida dunyoga kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi.

Mutaffakkirlarimiz yaratgan ma’naviy meros esa yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda eng muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zero ta’lim-tarbiya vositasida butun insoniyatning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi hamda insoniylik kabi xislatlari shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Shu boisdan ham ta’lim-tarbiya biz uchun milliy qadriyat hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma’naviy-pedagogik merosdan foydalanish shu bilan bir qatorda ularni yoshlar ongiga singdirish bugungi kun pedagogidan katta mahorat talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir yetuk mutaxassis ta’lim beradigan fanlari turkumini ilmiy – nazariy jihatdan o‘zlashtirishi, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar va qonuniyatlarning mazmun – mohiyatini bilishi lozim. Shu o‘rinda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar ham qadriyatlar hisoblanishini aytib o‘tish darkor. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, milliy qadriyatlar har bir millatning fazilatlarini va tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi mezon hisoblanadi. Mana shunday mezon asosida o‘quvchilarga ta’lim berish, o‘zimizgagina xos bo‘lgan qadriyatlar an’anasi bilan tarbiyalash muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning o‘zini-o‘zi tarbiyalashida esa umumbashariy va milliy qadriyatlardan ta’sirchan vosita sifatida foydalanish alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarni halollik, poklik, vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatish ruhida tarbiyalashda, ularga o‘zliklarini anglatish va o‘zlarini-o‘zlari tarbiyalash ko‘nikmalarini singdirishda milliy, qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Bugungi kun o‘quvchilarini



atrofdagi qamrab olgan gadjetlar olami har tomondan yangi axborotlar bilan ta'minlab turgan bir vaqtda ma'naviyat, qadriyat haqida fikr yuritish o'quvchilarni biroz zeriktirishi mumkin. Bu jarayonda bo'lajak pedagoglar har bir muhim axborotni berish jarayonida ularni o'tmish qadriyatlari bilan tanishtirib borishga erishishlari lozim. Oddiygina to'g'riso'zlik, qat'iyatlilik, mas'uliyat tushunchalarining lug'aviy ma'nosini anglatishning o'ziyoq ba'zi yoshlar e'tiborini tortishi mumkin. Lekin bunday natijaga to'g'ridan to'g'ri erishish qiyin.

Dars jarayonlarida o'quvchilarni mavzular doirasida kundalik hayot bilan bog'liq voqea-xodisalarga e'tiborini orttirishga harakat qilish, atrofdagi inson qadri bilan bog'liq masalalar o'quvchilarni diqqat-e'tiborini tortishi mumkin. Ko'p holatlarda mardlik, to'g'riso'zlik, ishonch, mas'uliyat haqida gapiramiz, ularga mazmunini anglatishimiz bilan bir qatorda unga amal qilmasligimiz o'quvchilarni dunyoqarashlarini o'zgarishiga sabab bo'ladi. Hozirgi davrda yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ham mavjud. Sharqning buyuk mutafakkirlari Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud –az –Zamaxshariy, Abu Nasr al Farobiy, Abu Bakr Muhammad ibn Al Abbos Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onalarning dunyoqarashlari, tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan normalarning oila qadriyatlariga muvofiqligi tamoyili o'z ifodasini topgan. Dunyoga dong'i ketgan qomusiy olimlarning asarlarida berilgan fikrlar zamirida ham insonning tabiat, atrof-muhit jamiyat va inson faoliyati bilan bog'liq voqea hodisalarning rivojlanib borishida qadriyatli yondashuv mohiyatiga e'tibor qaratilgan. A.Navoiy asarlarida sadoqat, to'g'riso'zlik, ishonchni suiste'mol qilmaslik va vafo tuyg'ularini tarannum etilgan bo'lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarida Vatan sog'inchi, mas'uliyat, maqsad sari olg'a intilish kabi tushunchalarni ilgari surgan. Shuningdek, buyuk sarkarda Amir Temurning ma'naviy merosidan bizgacha yetib kelgan "Temur tuzuklari" asarining tub zamirini anglagan har bir voyaga yetayotgan o'quvchi shaxsi uchun ham pedagogik ham psixologik tomondan fikrlar, tarbiyaga yo'naltirilgan g'oyalar va albatta bevosita sarkardaning o'z boshidan o'tkazgan voqealarning tarbiyaviy ahamiyati yoshlarning ma'naviyat va qadriyatni anglash haqidagi tushunchalarini shakllantirish va rivojlanishga juda katta ta'sir qiladi. Yosh avlodga esa yuqoridagi qadriyatlarni anglatish pedagogning mahoratiga bog'liq.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston kelajagi bo'lmish yosh avlodni qadriyatli yondashuv asosida tarbiyalash haqidagi qimmatli manbalar Al Xorazmiy, Abu



Ali Ibn Sino kabi bobolarimizdan qolgan meros asarlarda ham o'z aksini topgan. Abu Ali ibn Sinoning fikricha kishilik jamiyati, muayyan bir mamlakat va xalqni idora qilish, oilaviy munosabatlarni tartibga solish, shaxsning o'z-o'ziga munosabatini ifodalovchi amaliy bilimlar ma'naviyat, odob-axloq haqidagi bilimlardir. Ibn Sino insonlar hamisha o'zini yomon nuqsonlardan ongli ravishda tiyib yurishi kerak deb ta'kidlaydi va bunday salbiy illatlarni alohida ko'rsatib o'tadi: ochko'zlik, zulmkorlik, aldov, rashk, o'ch olish, tuhmat qilish kabilar. Allomaning bu ta'limoti o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashida muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mutafakkirlarning asarlarida yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish ular vositasida o'quvchilarning ob'ektiv dunyoqarashlarini shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Zero, uzluksiz pedagogik jarayonning asosini odob, ezgulik, rostgo'ylik, ishonch, hurmat ko'rsatish ma'naviy-axloqiy tarbiya tashkil etadi. Umumiy holatda, pedagogik jarayonning muhim xususiyatlaridan yana biri o'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar, nazariy bilim va tushunchalar, qoidalar tizimi o'quv jarayoni faoliyatining asosini tashkil etadi. Shunday ekan, ta'lim bosqichining qaysi qismida bo'lmasin, ta'lim shakllarining turlaridan qat'iy nazar, o'quvchilarning ta'lim-tarbiya masalalariga e'tibor qaratish, ularni tarbiyalash qadriyatli munosabatni tashkil etishi va qadriyatli yondashuvdan foydalanishga e'tibor qaratishi, bu bevosita ulardagi ob'ektiv dunyoqarashni shakllanishi va rivojlanishiga asosi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.//
2. X.I.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). –T., “Shaffof”, 2023.
3. G'oziev E. Psixologiya/ Yosh psixologiyasi: -T.: O'qituvchi, 1994. –B.178.
4. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
5. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). -T.: O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati, 2004. –B.53.
6. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida klasterli yondashuv asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish” Ernazarova M.J. “Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў” Илимий-методикалык журнал



БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИНГ БАШОРАТЛАШ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎРНИ

Рустамов Б.Ҳ.

*Чирчиқ давлат педагогика университети
“Менежмент кафедраси” ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: илмий башорат, педагогик жараён, таҳлил, кўникма, интегратив билим, мотивация компоненти, компетенция, ижтимоий-меҳнат компоненти, башоратли компетенция, режалаштириш, алгоритмлаш, информация, билим компоненти, эҳтиёж, меҳнат бозори, ахборот технология.

Ключевые слова: научное прогнозирование, педагогический процесс, анализ, умение, интегративное знание, мотивационный компонент, компетентность, социально-трудовой компонент, прогностическая компетентность, планирование, алгоритм, информация, компонент знаний, потребность, рынок труда, информационные технологии.

Key words: scientific prediction, pedagogical process, analysis, skill, integrative knowledge, motivation component, competence, socio-labor component, predictive competence, planning, algorithm, information, knowledge component, need, labor market, information technology.

Резюме:

Мақолада бўлажак педагогларнинг башоратлаш кўникмаларни шакллантиришнинг ўрни ҳамда шарт-шароитлари тўғрисида фикр юритилиб, тавсиялар берилган.

Резюме:

В статье рассмотрены роль и условия формирования прогностических способностей будущих педагогов и даны рекомендации.

Summary:

In the article, the role and conditions of formation of predictive skills of future pedagogues are considered and recommendations are given.

Мамлакатимизда амалга оширилиётган фан-техника тараққиёти ва жамиятдаги ўзгаришлар, замонавий таълим тизимининг юқори даражада янгилашиш босқичида бўлажак ўқитувчиларни башоратлаш кўникмаларини шакллантириш ҳамда инновацион касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнига ўзига хос талаблар қўймоқда. Бўлажак педагогларни башоратлаш кўникмаларни шакллантириш бўйича инновацион касбий фаолиятга тайёрлашнинг янгиланган талаблари моҳияти: инновацион касбий фаолиятга



тайёрлашга шароит яратиш, тез ўзгарувчан меҳнат мазмуни ва узлуксиз янгиланиб борадиган билимлар зарурати билан боғлиқ.

Ҳозирги тез ўзгарувчан вақтда замон талаби педагоглар олдида шундай вазифа кўядики, уларда нафақат олинган касбий билим ва ортирилган амалиётдан ташкил топган тайёргарлик бўлиши, балки танқидий фикрлаш, мустақил қарор қабул қилиш, ноаниқлик шароитида тез ҳаракат қилиш, самарадорли натижаларни кўрсатиш ва касбий вазифаларга ностандарт ечимларни топишга тайёр бўлган кўникмаларга эга мутахассислар бўлиб ривожланишлари зарур. Бу кўникмаларнинг тўплами эса “касбий компетентлик”ни ташкил қилади.

Касбий компетентлик мутахассис томонидан алоҳида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди. Шунингдек, компетенция мутахассислик билимларини доимо бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганишни, муҳим ижтимоий талабларни англай олишни, янги маълумотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллаш билишни тақозо этади.

Демак, агар илгари мутахассиснинг малакаси у томонидан маълум билим ва кўникмаларни эгаллашни назарда тутган бўлса, энди “компетентлик” тушунчасининг мазмуни янги ижтимоий эҳтиёжлар асосида шахснинг универсал қобилиятларини мақсадли ривожлантиришни ўз ичига олади, шу қаторда шахснинг прогнозлаш қобилияти алоҳида аҳамиятга эга.

Шундай қилиб, илмий башорат қилиш кўникмаларини шакллантириш – бу махсус ташкил этилган, ҳаракатга етакловчи қобилиятларнинг мақсадли ривожланишларининг жараёни бўлиб, педагогик воқелик объеклари ёки субъектларининг илмий ривожланишидаги эҳтимолий тенденцияларига асосланади. Маълумки, таълим натижаси ўқув жараёнининг иккита етакчи таркибий қисмларининг нисбатига боғлиқ: билимларни эгаллаш (бизнинг ҳолатимизда - илмий башорат асосларини ўзлаштириш) ва таълим олувчиларини ривожланиши (фикрлаш жараёнларини ривожлантириш).

Илмий башоратни асослари келтирилганлиги сабабли, прогнозлаш қобилиятини шакллантирувчи яна бир омил - таҳлил қилиш, мантиқий ва танқидий фикрлаш жараёнларига эътибор қаратиш лозим.

Таҳлил қилиш: Бу асосий элементлар ва мунтазамликларни аниқлаш учун маълумотларни таҳлил қилиш ва тушуниш жараёни. Аналитик кўникмалар ҳодисаларнинг чуқур алоқалари ва мантиғини кўришга имкон



беради, бу эса ўз навбатида асосланган қарорларни қабул қилишга ва келгуси мақсадларни аниқлашга ёрдам беради.

Педагогик вазифани ҳал қилишдан олдин ўқитувчи мақсадни белгилаши, муаммони ҳал қилиш йўллари ва воситаларини белгилаши, самарали педагогик воситаларни танлаши, сўнгра кузатувлар, таҳлиллар натижасида бажарилган ишларни умумлаштириши ва олинган натижаларни ҳисобга олган ҳолда янги мақсадларни белгилаши керак.

Танқидий фикрлаш: Бу маълумотни баҳолаш, ўз нуқтаи назарни билдириш ва баёнотларни исботлаш қобилияти. Ушбу кўникма мустақил равишда таҳлил қилиш, мумкин бўлган қарама-қаршилиқларни аниқлаш ва шахсий тўғрилиқ мезонини шакллантиришни имконини беради.

Ҳозирги вақтда профессионал таълим тизимини модернизация қилиш зарурати билан боғлиқ ҳолда олий таълим муассасаларида мутахассисларни тайёрлаш тизимини ривожлантиришга компетенцияларга асосланган ёндашув фаол ривожланмоқда, унинг асосий мақсади эса амалий йўналишни мустаҳкамлашдир. Амалиётга йўналтирилган таълимнинг асосий мақсади эса замонавий жамиятда талаб қилинадиган – талабаларнинг билиш фаолияти, ижодий фаоллиги, мустақиллиги, ташаббусини ривожлантиришдир.

Мантиқий фикрлаш: Бу фактлар ва ғоялар ўртасида мантиқий алоқаларни ўрнатиш қобилияти. Ушбу кўникманинг ривожланиши билимларни тизимлаштиришга, хулосалар чиқаришга ва оқибатларини башорат қилишга ёрдам беради. Мантиқий фикрлашнинг хулосаси асосида самарали қарорлар қабул қилиш ва оптимал стратегияларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Педагогик магистратура талабаларининг башоратли компонентларининг таркибий тизими 3 та элементлардан иборат:

1) билим компоненти (самарали педагогик жараённинг ажралмас қисми сифатида прогнозлаш тўғрисидаги билимлар тўплами);

2) фаолият компоненти (башорат қилиш кўникмалари тўплами, прогнозлашдаги касбий ва амалий тажриба);

3) мотивация компоненти (башоратли компетенция мазмунига тўлақонли қараш, аҳамиятини тушуниш ва башоратли компетенцияни шакллантиришга тайёрлик). Ҳар бир компонентга изоҳ берилиб ўтилса:

Билим компоненти прогнозлаш соҳасидаги билимлар тўпламининг самарали педагогик фаолиятдаги ажралмас қисми сифатида намоён бўлади. Ўқув-билиш компетентлигини такомиллаштириш мезонлари сифатида қуйидаги кўникмаларга эга бўлиш лозим: мақсад қўйиш ва унинг имко-



ниятларини ташкил этиш, ўз мақсадини тушунтириш кўникмаси; билиш вазибаларини шакллантириш ва фаразларни киритиш; ўзининг ўқув-билиш фаолиятини таҳлил қилиш; мустақил равишда билимлар олиш; ўз ўқув-билиш фаолиятида рефлексия (акс таъсир)ни амалга ошириш; ўзларининг ўқув-билиш фаолиятида ўзи-ўзига баҳо бериш; ўз тадқиқотларининг натижаларини оғзаки ва ёзма равишда тақдим этиш.

Ижтимоий-меҳнат компоненти - илмий асосланган прогнозлар асосида касбий фаолиятни режалаштириш; фаол ўқув ва когнитив фаолият жараёнида янги башоратлаш тажрибасини шакллантириш; педагогик фаолиятда прогнозлашдан фойдаланиш тўғрисида хабардорлик.

Қийматли мазмун ва мотивация компоненти - Мотивация шахс фаоллиги, хулқи ва фаолиятини тартибга солувчи муҳим омил сифатида барча инсонларда қизиқиш уйғотади. Шу маънода мотивация психологияси меҳнат объекти бўлиб инсон турадиган (шифокор, педагог, менежер ва бошқарувчилар каби) социоэкономик тип касб вакиллари учун алоҳида аҳамият касб этади. Прогнозлашдаги мотивация компоненти кундалик педагогик амалиётда прогнозлашни ўзлаштириш ва ундан фойдаланиш зарурати кўринишида келади.

Бундан ташқари яна бир неча кенг тарқалган компетенция турларида батафсил тўхталиниб ўтилса:

Шахсий ўзини-ўзи такомиллаштириш компетенцияси - жисмоний, руҳий ва интеллектуал ўзини ривожлантириш, ҳиссий ҳис-туйғуларни бошқариш ва ўзини ўзи кўллаб-қувватлаш йўлларини ўрганишга қаратилган. У ўз фаолиятини доимий равишда ўз билимлари, замонавий инсон учун керак бўлган шахсий фазилатларни ривожлантириш, психологик саводхонлик, фикрлаш маданияти ва хулқ-атворини ифодалашда намоён бўлган ўз манфаатлари ва қобилиятлари билан фаолият услубларини бошқаради.

Коммуникатив компетенцияси - талаб қилинадиган тилларни билиш, бошқалар билан мулоқотда бўлиш усуллари, узокдаги одамлар ва воқеалар, жамоавий иш қобилиятлари, жамоада турли ижтимоий ролларга эгалик қилишни ўз ичига олади. Талабалар ўзларини кўрсатишлари, хат ёзишлари, анкета, ариза, савол беришлари, муҳокамалар ўтказишлари ва ҳоказо.

Прогнозлаштириш ва режалаштиришнинг ҳозирги босқичи асосан ХХ асрдан то ҳозирги кунларгача даврни қамраб олиб, бу даврларда прогнозлаш жараёнини алгоритмлаш, унинг информацион базасини ошириш, ахборот технологиялардан кенг фойдаланила бошланди, унинг натижа-



ларини ишончлилигининг ошиши, прогноз жараёнига таъсир қилувчи омилларни баҳолашнинг чуқурлашуви билан изоҳланади.

Самарали таълимдаги прогнозлашнинг кейинги омиллари муҳим ўрин тутади:

Янги технологияларга мослашиш: Прогнозлаш ўқитувчиларга доимий ўзгарувчан технологик талабларга мослашишга имкон беради. Келажакдаги тенденцияларни билиш янги таълим технологияларини бирлаштиришга ёрдам беради, бу эса янада самарали ўрганишга олиб келади.

Талабаларнинг яқунловчи билим ва малакаларини таълим жараёнида турли мезонлар ҳамда ёндашувларга таяниб аниқлаш, бу жараёнларда ахборот технологияларини қўллаш натижасида уларнинг дидактик талабларга мослигини ҳақиқийлигини назорат қилиш мумкин. Унда педагогик ташхис талабалар билим, малака ва кўникмаларини шаклланиш даражасини аниқлашни, назорат қилишни, баҳолашни, йиғиш ва статистик маълумотларнинг таҳлили ҳамда келгусида бу жараён ривожини башорат қилишни ўз ичига олади.

Шахсий эҳтиёжларни ҳисобга олиш: Илмий башорат қилиш ҳар бир талабанинг эҳтиёжларини таҳлил қилишни ўз ичига олади, бу шахсийлаштирилган таълим дастурларини яратишга имкон беради. Бу эса ўз навбатида вақт ва ресурслардан самарали фойдаланишга ёрдам беради, ҳамда талабаларнинг мотивациясини ва қизиқишларини оширади.

Меҳнат бозорининг таълим талабларини олдиндан билиш: Таълим соҳасида прогнозлаш ўқув дастурларини меҳнат бозори талабларига мослаштиришга имкон беради. Бу битирувчиларга нафақат назарий, балки амалий кўникмаларни ўргатишга ва рақобатбардош кадрларни тайёрлашга кўмак беради.

Ўқув жараёнини оптималлаштириш: Келажакдаги ўзгаришларни билиш ўқув жараёнларини оптималлаштиришга, муаммоларнинг олдини олишга ва ўқитишнинг самарали усулларини йўлга қўйишга имкон беради.

Ўқитиш жараёнида ташхисий текширишлар маълум даражада самарали методикани танлашга ёрдам бериши билан муҳим саналади. Билимларни назорат қилишда, унинг башорат этувчи вазифаси, таълим-тарбиявий жараён ҳақида, унинг келажаги, яъни олдиндан кўра билиш мумкин бўлган ҳолати тўғрисидаги ахборотни олиш учун хизмат қилади. Ўқув жараёнининг ҳар босқичида ўқув материалининг маълум бўлаги бўйича мўлжалланган аниқ билим, малака ва кўникмалар етарлича шаклланиши ёхуд шаклланимаганлиги башоратини текшириш имконини беради Механизм —



бирор нарсанинг ўзаро боғлиқ бўлган ва яхлитликни ташкил этувчи қисмлари.

Илмий башорат шакллантиришнинг механизми бир бирини тўлдириб турувчи 2 та жараёнларини ўз ичига олиши лозим - ўрганиш ва ривожланиш:

1) информацион блок - ахборот-прогноزلаш учун асос бўла оладиган билимларни ўзлаштиришга қаратилган (масалан, талабаларнинг шахсиятини ривожлантириш тўғрисидаги билимлар), ассоциатив таълим механизмлари орқали амалга оширилади;

2) фаолият блоки - операцион таркибий қисмларини ўзлаштиришга қаратилган технологик фаолият, алгоритм механизмлари асосида амалга оширилади;

3) интеллектуал-ижодий блок - фаолиятни муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган фикрлаш жараёнларининг фазилатларини мақсадли ривожлантиришга қаратилган бўлиб, ижодий механизмларга асосланади.

Айтиб ўтилган блокларнинг шаклланиш механизмлари бўлажак ўқитувчи ва талаба ўртасидаги таълим мақсадлари, мазмуни ва воситалари билан бирликда ўзаро таъсир қилиш усулларида акс этади.

Тажрибалар кўрсатадики, юқоридаги тавсияларга амал қилиш орқали бўлажак педагогларнинг башоратлаш кўникмаларни шакллантиришнинг ўрни ҳамда имкониятларини амалга оширишда таълим ва тарбия самарадорлигига эришиш мумкин бўлади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 14-августдаги “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3907-сонли қарори.

2. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2017 й.

3. Муҳамедов Ғ.И. Педагогик таълим инновацион кластери: эҳтиёж, зарурат, натижа // “Халқ сўзи” 2019 йил

4. Rasulov A.N., Pedagogik menejment. darslik.T.”Osiyo tur” 2024. 122-138-b

5. Rasulov A.N., Xurramov K.M. “O’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi nizolarni oldini olishning pedagogik shart-sharoitlari” //Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў Илмий-методикалық журнал № 4/1 2021 -Б.31-36.

6. Абдуқуддусов О. А. Интегратив ёндашув – чуқур билим, яхши фазилатларни шакллантириш омилли //Халқ таълими. – Т., 2000. – № 3. –Б. 121-123



TA'LIMDA INNOVATSION KLASTERNI AMALGA OSHIRISHNING AFZALLIKLARI

Rasulov A.N.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Menejment kafedrası"
dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)*

Таянч сўзлар: innovatsiya, innovatsion klaster, ishlab chiqarish, spategiya, klaster, pedagogik boshqaruv, ta'lim sifatini, ta'lim-tarbiya, pedagogik innovatsiyalar, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, integratsiyalashuv jarayonlar, metodologiya, metod, ta'lim samaradorligi, resurslar.

Ключевые слова: инновации, инновационный кластер, производство, стратегия, кластер, педагогический менеджмент, качество образования, образование, педагогические инновации, инновационный процесс, инновационная деятельность, интеграционные процессы, методология, метод, эффективность, ресурсы.

Key words: innovation, innovation cluster, production, strategy, cluster, pedagogical management, quality of education, education, pedagogical innovations, innovative process, innovative activity, integration processes, methodology, method, ta efficiency, resources.

Резюме:

Maqolada ta'limda innovatsion klasterni amalga oshirishning afzalliklari hamda imkoniyatlari to'g'risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Резюме:

В статье рассматриваются преимущества и возможности внедрения инновационного кластера в образовании и даются рекомендации.

Summary:

The article discusses the advantages and possibilities of implementing an innovative cluster in education and gives recommendations.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Innovatsiya –bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak". Muayyan natijalarga erishish, maqsadlarni aniq belgilash, sifat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish uchun aniq harakat dasturini taklif qilish ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy fazilatlarini qo'llab-quvvatlaydi va ularning pedagogik hamda metodik mahoratini oshirishlariga rag'bat uyg'otadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish yo'lida ko'plab olimlarimiz pedagogika sohasiga o'z e'tiborlarini qaratmoqdalar. Bu o'rinda olimlarimiz pedagogik sohaga innovatsion jarayonlarni olib kirmoqdalar.

Chirchiq davlat pedagogika universitetining asosiy strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri modeli" uzluksiz ta'limni rivojlantirishda hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq yangilik sifatida ushbu jarayonni boshidan kechirmoqda. Shu munosabat bilan pedagogik ta'limga klaster modelini tatbiq etish g'oyasi muallifi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor G'ofurjon Muhamedov bilan pedagogik ta'lim innovatsion klasterining afzalliklari to'grisida aytib utgan.

Ta'lim klasteri o'zida nafaqat ta'lim turlari o'rtasidagi, balki fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta'limni boshqarish, ta'lim vositalari va shakllari bilan bog'liq sohalarni ham jamlaydi. Klaster yondashuvi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalari kabi yo'nalishlarda xususiy metodologik xarakter kasb etadi. Bu esa muammoning yechimiga nisbatan deduktiv (umumiylikdan xususiylikka kelish) usulda yondashish maqsadga muvofiq ekanligini tushuntirib utadi.

Zamonaviy adabiyotlarda pedagogik klaster tushunchasi ham mavjud. Bu tushuncha quyidagilarni bildiradi:

- ▶ ta'lim samaradorligini ko'tarish maqsadida qiziquvchi tomonlar harakatining birlashuv shakli;
- ▶ jamoani psixologik o'rganish metodi;
- ▶ pedagogik boshqaruvni optimallashtirish metodi;
- ▶ o'quv dasturlarini loyihalash metodi;
- ▶ o'qitish metodi;
- ▶ ta'lim sifatini baholash metodi;
- ▶ pedagogik metod, ya'ni tafakkur variativligini rivojlantiradi, o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, voqea, hodisa) yuzasidan har tomonlama aloqa o'rnatish qobiliyati kabilar. Klaster yondashuvga murojaat qilishga zaruriyat – klasterning kasbiy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, qiziquvchi tomonlar harakatini birlashtirish xususiyatiga ega tashkillashtirish shakli sifatida ustuvorlikka egaligidadir.



Pedagogik ta'lim innovatsion klasterini muvofaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

– “Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri” mavzusi muhokamasiga ilmiy jamoatchilikning e'tibopini tortish;

– pedagogik ta'limni klasterlashtirishning strategik yo'nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqish;

– mavjud meyoriy – huquqiy hujjatlarga pedagogik ta'limni klasterlashtirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

– ta'lim klasterlari borasida ilg'or xorijiy tajribalarni ijodiy o'zlashtirish;

– pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini amaliyotga tatbiq etishning mexanizmlarini ishlab chiqish. Ushbu muammolarni echish pedagogik ta'lim tizimida o'zaro integratsiyani ta'minlash va samaradorlikni oshirishga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qiladi.

Ta'lim tizimiga nisbatan bu kabi innovatsion yondashuv, agar u haqiqiy rivojlanish jarayonining mantig'iga mos keladigan bo'lsa, albatta, samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarining boshqaruv tuzilmasida mavjud muammolarga nisbatan munosib innovatsion yondashuvlar joriy qilinsa, mavjud vaziyatni oldindan baholay olish, hodisalarning rivojlanishini to'g'ri taxmin qilish, o'z vaqtida choralar ko'rish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga tuzatishlar kiritish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ta'lim tizimi klasteri bu kabi muammolarning echimiga nisbatan to'g'ri yondashuvni qaror toptiradi. Zero, klasterli integratsiya jarayonlari moddiy, moliyaviy, texnologik, informasion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha resurslarni jalb qilganligi bilan ham eng kuchlisi, deb e'tirof etiladi. Klaster moslashuvchan tarzda o'z tuzilmalari uchun boshqaruv tizimini qurish, o'zaro ishonchni ta'minlash uchun haqiqiy rivojlanishni oldindan aytish (prognozlash) imkonini beradi.

Ta'lim tizimining tarkibiy qismlarida sifat o'zgarishlari bo'lishi, mazmunli faoliyat, umumiy va maxsus boshqaruv funksiyalari, dasturlari, texnologiyalari va usullari, ishtirokchilarning kadrlar salohiyatini rivojlantirishi bilan bog'liq jarayonlar klaster muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Pedagogik ta'limni klasterlashtirish bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ularda samaradorlikka erishish uchun bizdan mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashtirish, hamkorlik ko'p tomonlama manfaat keltirishini anglashlariga imkon yaratish, klasterni rivojlantirishning puxta o'ylangan strategiyasini, loyihani muvaffaqiyatli boshqarishning usul va yo'llarini ishlab chiqish, qatnashchilar o'rtasida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratish zarur bo'ladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida biz pedagogik ta'lim klasterining quyidagi tamoyillarini taklif qilamiz:

- ▶ tabiiy aloqadorlik, klaster sub`ektlari o`rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiyligi, ya`ni bog`liqlik maslasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan ob`ektivligi;
- ▶ uzviylik, klaster sub`ektlarining o`zaro bog`liqlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo`g`inning o`zining aniq vazifalariga ega ekanligi;
- ▶ izchillik, klaster sub`ektlarining vertikal yagona chiziqda joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilinishi;
- ▶ vorisiylik, klasterning avlodlar almashinuvidagi roli, t`yutorlik faoliyati, pedagogik ta`limni klasterlashtirish natijasida sub`ektlarning malakali pedagog xodimlarga bo`lgan ehtiyojining muntazam qondirilishiga erishish;
- ▶ zamonaviylik, sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg`or xorijiy tajribalarni o`zlashtirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish;
- ▶ yo`naltirilganlik, klaster doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo`naltirilganligi, kutilayotgan natijalarning oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligi;
- ▶ maqsadning mushtarakligi, klaster sub`ektlarining xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektdagi yagona maqsad atrofida birlashuvi;
- ▶ manfaatlarning xususiyliigi, pedagogik ta'lim klasteri modelida har bir sub`ektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo`lishi, sub`ektlarining xususiy manfaatlari pirovardida umumiy manfaat uchun xizmat qilishi;
- ▶ o`zaro nazorat, klaster modeli doirasida birlashgan ta'lim sub`ektlarining o`zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir sub`ektning manfaatdor ekanligi, ma'lum sub`ektida yo`l qo`yilgan xato yoki kamchilik boshqa sub`ektlarning faoliyat samaradorligiga ta'sir ko`rsatishi, sub`ektlar faoliyatini o`zaro baholash tizimining yo`lga qo`yilishi.

Yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqqan holda pedagogik ta'lim klasterini yaratishda bir nechta muhim yo`nalishlarni belgilab olish mumkin bo`ladi. Ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, klaster sub`ektlari o`rtasida umumiy maqsadning mavjudligi; ikkinchidan, sub`ektlarning birgalikdagi faoliyatining huquqiy asosga egaligi;



uchinchidan, klaster doirasida birlashgan sub`ektlar o`rtasidagi o`zaro manfa-atli munosabatlar tizimi;

to`rtinchidan, boshqaruv mexanizmini muvofiqlashtirilganligi; beshinchidan, sub`ektlar tomonidan amalga oshirilaётgan ishlarning umumiy maqsaddan chekinilmasligi;

oltinchidan, sub`ektlar o`rtasida o`zaro nazorat tamoyiliga amal qilish. Pedagogik ta`lim klasteri tizimda mavjud muammolarni, o`z navbatida, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Klasterda ishlarning holati haqida ma`lumotlarning juda ob`ektiv bo`lishi muhim ahamiyatga ega. Klaster yordamida hukumat, ta`limni nazorat qiluvchi davlat idoralari klaster amal qiladigan mintaqadagi ta`limni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan tajriba va tadqiqot natijalarini samarali qo`llashlari mumkin bo`ladi. Ta`limga nisbatan klaster yondashuvi boshqaruv organlariga tizim ichida samarali o`zaro ta`sir o`tkazish uchun muayyan vositalar bilan ta`minlash, muammolarni yaxshiroq tushunish, mintaqada rivojlanishning ilmiy asoslarini rejalashtirish imkonini beradi.

Tajribalar ko`rsatadiki, yuqoridagi tavsiyalarga amal qilish orqali ta`limda innovatsion klasterni amalga oshirishda ta`lim va tarbiya samaradorligiga erishish mumkin bo`ladi.

Adabiyotlar:

1. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical yeduction cluster: content and form. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 252.
2. Usarov J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2019. – T. 15. – №. 1. – С. 272-274.
3. Rasulov A.N. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida zamonaviy ta`lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o`qitishning zarurligi. //“Xalq ta`limi” 2022 - №2. -Б. 10-12.
4. Rasulov A.N. Zamonaviy ta`lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fanini o`qitish metodikasini takomillashtirish. //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Илмий-методикалық журнал. Нөкис, 2022 - №2/1.-Б. 65-68.
5. Po`latov Sh.P. Ta`lim menejmenti yoxud ta`lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv./ Т.: “Yosh kuch”.2022 y.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

ИСЛАМСКАЯ КУЛЬТУРА: ОТ ФИЛОСОФСКИХ И ИСТОРИЧЕСКИХ ПОНИМАНИЙ К ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СУТИ

Кадыров К.Б.

*доктор педагогических наук, профессор университета
University of Management and Future technologies*

Таянч сўзлар: ислом маданияти, фалсафа, тарих, психологик моҳият, эркин жараён, феномен, зарурлик, тарбия, исломнинг ижтимоий мотиви, психологик таҳлил.

Ключевые слова: исламская культура, философия, история, психологическая сущность, свободный процесс, явление, необходимость, образование, социальный мотив ислама, психологический анализ.

Key words: islamic culture, philosophy, history, psychological essence, free process, phenomenon, necessity, education, social motive of Islam, psychological analysis.

Резюме:

Мазкур мақолада ислом маданияти фалсафий ва тарихий тушунчаларининг психологик моҳияти ҳақида фикр юритилган.

Резюме:

В данной статье рассматривается психологическая природа философско-исторических концепций исламской культуры.

Summary:

This article examines the psychological nature of philosophical and historical concepts of Islamic culture.

Сущность исламской культуры определяется в ее безусловной роли доминанты в социальной общности Востока. Казалось бы, внутренний мир человека определен, и является гранью объективности его интересов, переживаний и отношений.

Но в результате поиска своей природы и мира человеческой субъективности возникает третий мир, вписанных в природу распределения социальных импульсов в роли осознания природы своим характером, бытом, интуицией, манерами воспитания.



Возникает некая необходимость изучения различия социального мотива ислама, предпосылки превращения её в культуру как «феномена» и как свободного процесса определения выбора человеком.

«В целом, соглашаясь с наиболее традиционным делением культуры на два комплекса – материальный и духовный мы, тем не менее считаем, что для подробного изучения проблемы места религии в культуре необходимо более детальное рассмотрение самой системы культуры» [1,79].

Здесь природная граница исламской культуры достаточно очевидна (общие стихии - природы и человека), фиксация данной границы (стимул - не удовлетворенный дух человеческой натуры), разделяющую черта в обращении к богу (выбор – конфессиональная адаптация или грубо говоря «профессиональная пригодность» к ней), активные поиски покоя души (мера во всем – внутренний и внешний порядок своего «Я»).

«Еще одной причиной, на наш взгляд является приверженность различных социальных слоев к исламской традиции и законом мусульманского права. Там, где гражданское право не срабатывает, в действие вступает мусульманское право – шариат. Примером может послужить ситуация, сложившаяся в восточных территориях Пакистана или провинциях Верхнего Египта.

На этом фоне ярко проявляется тенденция политизации мусульманской религии, пик которой приходится на 80-90-е годы XX столетия. Этому способствует совокупность внутренних и внешних факторов» [2,20].

Если же предпринимаются попытки обосновать мотивы, по которым следует поддерживать соблюдение тех или иных норм шариата, то, как правило, ограничиваются лишь констатацией: такова воля Аллаха, этими нормами пользовались наши отцы и деды, так следует делать и нам, потому что это народный обычай.

Не только на арабском Востоке, но и на арабском Западе, в арабской Испании, называемой Андалузией, развивались блестяще наука, философия, литература и искусство под покровительством халифов Омейядов из Кордовы, а затем их преемников, эмиров - властителей мелких государств. Кордова, столица «испанских» Омейядов, прославилась как центр утонченной культуры, не уступавший Багдаду Аббасидов. Наряду с Кордовой известны были также другие центры высокой культуры: Севилья, Толедо, Громада. Ученые из мусульманских стран Востока, где наука и философия уже с XII в. начали клониться к упадку, а также ученые из Италии, Франции и Англии прибывали в эти центры культуры для изучения таких светских наук, как астрономия, медицина, география и другие естественнонаучные

дисциплины. В этом случае арабо-мусульманская культура рассматривается как промежуточная между культурами Востока и Запада. [3]

Возникает вопрос: чем же обусловлен расцвет научных знаний именно в мусульманской культуре? Немалую роль в этом сыграли следующие факторы. Прежде всего следует учитывать, что в основе ислама лежала забота о людях, об их быте, а различные научные дисциплины оказывали здесь существенную помощь. Точные науки, математика и астрономия, а также медицина и фармакология были весьма полезны для развития цивилизации, ибо повышали уровень жизни населения, и любая наука не угрожала идеологии ислама. Все это привело к развитию научных дисциплин без особых препятствий, к достижению ими высокого уровня.

Несмотря на то, что сегодня во всем мире отмечается интерес к религии ислама и увеличивается число ее сторонников, существует необходимость правильно объяснять истинную сущность ислама и пропагандировать благородные идеи исламской культуры в целях повышения уровня духовности народа.

Вклад арабо-мусульманской культуры в сокровищницу мировой культуры весьма значителен. О достижениях арабской науки в мировом масштабе уже говорилось выше. Существующее свыше тысячи лет, от Испании до Индии, искусство ислама играет в искусстве мира важную роль, особенно произведения художественного ремесла и ткани. Запад использовал его в качестве образца, перенимая мотивы из мусульманской Испании; в архитектуре Сицилии и Венеции, в тканях из Лукки и Флоренции видно сильное влияние искусства ислама. В XVII в. на Западе возникла мода на культуру и украшения мусульманского Востока. Поэзия поэтов-жизнелюбцев средневековья - Низами, Хафиза, Джами, Омара Хайяма, Руми и многих других - вдохновляла европейских и американских поэтов на создание шедевров мировой поэзии. Действенность арабо-мусульманской культуры проявляется в наше время в феномене сильного противостояния мира ислама вестернизации, идущей из круга западных культур.

Ислам настолько трансформировал социально-культурную структуру этих стран, что при всей их отдаленности от арабов и специфичности их традиционной культуры они восприняли огромное количество элементов арабской культуры.

Известно, что принципы материальной и духовной жизни не отрицают, а дополняют друг друга. Каждый человек и общество, мечтающие добиться высокого уровня развития, могут достичь высоких результатов только



при условии построения и развития своей жизни на такой диалектической и гармоничной основе.

Диалектической основой же ислама является Коран. Как отмечает Е.А.Резван «его содержание составили проповеди человека, который большую часть своей жизни был язычником и в своей полемике с язычеством и язычниками точно запечатлел многие элементы социальной психологии и религиозного сознания языческого мира. Этой своей стороной Коран принадлежал уходящему родовому строю» [4,44].

Коран по своей сути пережил времена и мнения, при том, как отрицательные, так и положительные. Полемика о воспитательной роли, значении Корана продолжают и сегодня.

Глубоко анализируя сущность исламской культуры, останавливаясь не только на её положительных сторонах, но и отмечая её сложность и многоаспектность, необходимо признать, разнообразие жизни и жизненных укладов важнее во всем, то, что в сознании и мышлении разных народов, естественно, сохраняются разнообразные точки зрения на окружающую действительность и в связи с этим формируются различные взгляды на жизнь.

Однако несложное понимание сути психологических знаний о религии очень расплывчаты, и как следствие, во многом отличаются от понимания научной интерпретации исламской культуры. Но, бывает и так, житейское понимание сути религии, базирующихся на первичных психологических знаниях, оказываются недостаточными в объяснении религиозной картины мира. Поэтому, необходимо продолжать искать факты научного психологического анализа проявлений исламской культуры в целом или в обобщенном виде.

Литература:

1. Абдуллаханов П.Дж. Ислам в системе культуры среднеазиатских народов (методологический аспект исследования проблемы) // Дисс... канд. филос. наук. Ташкент, 1992. – 148 с.
2. Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте // Дисс... канд. полит. наук. Ташкент, 2000. – 197 с.
3. Налимов В.В. В поисках иных смыслов. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993.- 280 с.
4. Резван Е.А. Коран и доисламская культура (проблема методики изучения) // Ислам: Религия. Общество. Государство. ред. Грязневич П.А. и Прозоров С.М. - М.: Наука, 1984.



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

TALABALARNI NAZARIY MEKANIKAGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Eshbayeva Z.N.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kredit-modul, ta'lim tizimi, nazariy mexanika, kasbiy kompetentlik, muhandis, metodika, texnologiya, ta'lim natijalari.

Ключевые слова: знание, навык, умение, компетентция, компетентность, компетентностный подход, кредит-модуль, образовательная система, теоретическая механика, профессиональная компетентность, инженер, методология, технология, образовательные результаты.

Key words: knowledge, skill, ability, competency, competence, competency-based approach, credit module, educational system, theoretical mechanics, professional competence, engineer, methodology, technology, educational results.

Резюме:

Ushbu maqolada talabalarni kompetentligini rivojlantirishga doir olib borilgan olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan hamda talabalarni nazariy mexanikaga oid kompetentligini rivojlantirish muammolari, ularni bartaraf etishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Резюме:

В данной статье рассматриваются исследования ученых в области компетентности и представлены проблемы развития компетентности студентов по теоретической механике, предложения и рекомендации по их устранению.

Summary:

This article examines the research of scientists in the field of competence and presents the problems of developing students' competence in theoretical mechanics, proposals and recommendations for eliminating them.

Bugungi rivojlanayotgan zamonaviy davrda muhandis mutaxassis kadrlar kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Faol va qiziquvchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining kasbiy maqsadlarini aniq anglaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor muhandislarni kompetentligini rivojlantirish masalasi muhim jihatlaridan biri ekanligini targ'ib qilish taqozo etilmoqda.

Bugungi kunda texnikaning rivojlanishi va uni yangilanishi tufayli kompetentli muhandis mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojlar paydo bo'lmoqda.



Kompetentli mutaxassislarni tayyorlash uchun dastlab oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlari uchun asos fundament bo'lgan "Nazariy mexanika" fanini o'qitishni hamda talabalarning ushbu fanga oid kompetentligini rivojlantirishni shakl, usul va vositalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ushbu masala yuzasidan, ya'ni dasturiy vositalar asosida talabalarning dasturlash kompetentligini rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalanib talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, virtual ta'lim muhitida talabalarning axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, elektron ta'lim vositalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, talabalarning kimyoviy texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar mamlakatimizda, X.A.Umarov, Sh.U.Usmonqulov, A.N.Ubaydulloyev, U.J.Hasanov, M.O.Xoldorova, B.A.Jurayeva, M.O.Xoliqova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida talabalarni informatikaga oid kompetentligini rivojlantirish, bo'lajak pedagoglarni oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida raqamli texnologiyaga oid kompetentligini rivojlantirish, bo'lajak boshqaruvchilar uchun matematika o'qitish metodikasini takomillashtirish, informatika o'qituvchilarini kognitiv mustaqil shakllanish jarayonini multimedia vositalari orqali tayyorlash metodikasi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha N.D.Berman, V.N.Mezinov, V.V.Loginova, N.Yakimchuk kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan [9,10].

Ushbu keltirilgan olimlarning ishlarida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning informatika fanlari doirasida kasbiy kompetentligini shakllantirish, "Texnologiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, umumta'lim maktab o'quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikalari masalalariga qaratilgan. Ammo, nazariy mexanika fani o'qitish metodikasi va talabalarni fanga oid kompetentligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilmagan.

Iymanı kámillik adamnıń óz betinshe pikir júritiw hám bir pikirge keliwi bolıp, bunda maǵlıwmat qabil etiwshi maǵlıwmat qabil etip ǵana qalmaq oǵan óz pikiri, kóz-qarası hám juwmaqların kiritedi. Iymanı kámillik bul aqlıy tásir, uqtırıw bolsa emocional tásir etken. Iymanı kámillik ázelden xalqımız ármanı, ruwxıylıqtıń bir bólegi bolıp kelgen. Bul ideya ullı oyshıllar Abu Nasr Farabiy, Áliysher Nawayı sıyaqlı danıshpanlardıń shıǵarmalarında óz sáwleleniwın tapqan. Pedagogikalıq qarım-qatnas—bul pedagogikalıq tásirdeń ajıralmas sıpatı. Bul oqıtıwshi hám oqıwshınıń tálim-tárbiya procesinde professional qarım-qatnası bolıp onda maǵlıwmat almasadı hám oqıwshılardıǵa oqıw tárbiyası tásirin ótkeredi. Bunda eki tárepleme qarım-qatnas júzege keliwi kerek. Onıń tiykarı sıpatında óz-ara húrmet hám isenim xızmet etedi. Pedagog oqıwshılar menen qarım-qatnasqa kirisiwi procesinde olardan húrmet kútedi. Oqıwshılar da oqıtıwshıdan húrmet hám isenimdi talap etedi. Bul pedagogikalıq tásirde nátiyjeli jol bolıp, tájriybeli pedagoglar balanı óz-ózin húrmetlewge tiykarlangán halda múnásibetlerdi shólkemlestiredi hám usı arqalı bekkem óz-ara múnásibetlerdi ámelge asıradı. Joqarıda aytıp ótilgenindey, qarım-qatnas mádeniyatında sóylew mádeniyatı birinshi orında turadı. Sebebi hár qanday adam qarım-qatnas islep atırǵanda bir-biri menen sáwbetlesiw arqalı bul proceske erise aladı. Qarım-qatnas jasawdıń tuwrı rawajlanıwında shańaraqtıń, ata-ananıń keyin bolsa máhálle, jámiyettiń ornı bólek esaplanadı. Sebebi, bala jas waqtınnan baslap ata-ana menen qarım-qatnas jasay basladı. Ata-ana arqalı sóyley basladı. Mine, usı waqıttan baslap tárbiyanıń bul túrin durıs shólkemlestire alsaq, ol shaxs keleshekte kámil insan bolıp jetilsedi.

Ádebiyatlar:

1. Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent, 2007.33-bet
2. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. T.:, 1972.58-bet
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, T.:1992.126-132 betler.
4. Rustamov A. "So'z xususida so'z" T.: 2010.65-bet.
5. Апресян Г. Ораторское искусство. М.: 1978.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Narimbetova Z.A.

*“Boshlang'ich ta'limda matematika va tabiiy fanlar kafedrası”
Chirchiq davlat pedogogika universiteti dotsent v.b*

Tayanch so'zlar: taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, bilish, mashq, guruh, sinflarga ajratish.

Ключевые слова: сравнение, классификация, обобщение, анализ, вывод, знание, упражнение, группа, классификация.

Key words: comparison, classification, generalization, analysis, conclusion, knowledge, exercise, group, classification.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga fikrlashga o'rgatiladigan topshiriqlarning ahamiyati va zarurati keltirib o'tilgan. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi bilan birgalikda muammolarga tanqidiy yondashishni o'rgatish usullari berilgan.

Резюме:

В данной статье подчеркивается важность и необходимость задач, которые учат учащихся логически и критически мыслить на уроках начальной школы. Приведены методы обучения критическому подходу к проблемам вместе с логическим мышлением учащихся.

Summary:

In this article, the importance and necessity of tasks that teach students to think logically and critically in elementary school classes are highlighted. Methods are provided to teach students to think critically and approach problems in combination with logical thinking.

Yosh o'quvchilarda mantiqiy tushunchalarni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim qismidir. Zamonaviy maktablarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga, ularning o'ziga xosligi, mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirishga yordam berishdir. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda maktabning asosiy roli bolalarni birinchi tanlov sifatida berilgan tanlovlardan xulosa chiqarishga o'rgatishdir. Ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p hollarda o'quvchilarning bilish qiziqishlarini shakllantirishga bog'liq.



Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos.Bu fanni yaxshi bilgan bola aqilli,keng tafakkurli bo’lib o’sadi,istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”[1].

Boshlang’ich sinflrdayoq bolalar mantiqiy operatsiyalar elementlarini (taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqalar) o’rganishlari kerak. Shunday ekan, boshlang’ich sinf o’qituvchisi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu bolalarga xulosalar tuzish, bir-biri bilan mantiqiy bog’liq bo’lgan dalillar, bayonotlar keltirish, xulosalar chiqarish, o’z mulohazalarini asoslash, mustaqil fikrlash mantiqini rivojlantirishdir , pirovardida mustaqil ravishda bilim oladi. Matematika bu katta darajada amalga oshirilishi mumkin bo’lgan fandır[2]. Ko’pgina tadqiqotchilar E.V. Veselovskaya, E.E. Ostanina, A.A. Stolyar, L.M. Fridman kichik yoshdagi maktab o’quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo’yicha maqsadli ishlar tizimli bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, psixologlarning tadqiqotlari kichik maktab o’quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayonining samaradorligi maxsus rivojlantiruvchi ishlarni olib borish uslubiga bog’liq degan xulosaga kelishga imkon beradi. Ushbu mualliflarning asarlari shuni isbotlaydiki, to’g’ri tashkil etilgan o’qitish natijasida boshlang’ich maktab o’quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini, xususan, o’z xulosalarini umumlashtirish, tasniflash va asoslash qobiliyatini juda tez egallaydilar.

Tafakkurni rivojlantirish, aqliy operatsiyalarni, fikrlash qobiliyatini takomillashtirish bevosita ta’lim usullariga bog’liq. Boshlang’ich maktab o’quvchilarining o’quv materialini muvaffaqiyatli o’zlashtirishining zaruriy sharti mantiqiy fikrlash, vizual yordamsiz xulosalar chiqarish va ma’lum qoidalarga muvofiq hukmlarni solishtirish qobiliyatidir[4].

Matematika darslarida 1-sinfдан boshlab bolalarning bilish imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus topshiriq va topshiriqlar kiritiladi. Rivojlantiruvchi xarakterdagi qo’shimcha vazifalar qo’llaniladi, bilimlarni yangi sharoitlarda qo’llashni talab qiladigan mantiqiy xarakterdagi vazifalar va bolalarda tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantiradigan turli xil texnikalardan foydalanish amaliyotida qo’llaniladi.

Darslarda qiziqarli topshiriqlar va hazil masalalari, sonli, geometrik boshqotirmalar, sehrli kvadratlar, matematik boshqotirmalar, krossvordlar, turli interfaol mashqlardan foydalaning - bularning barchasi boshlang’ich maktab o’quvchilarining bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Bunday matematika darslarida o’quvchilarning qiziqishi katta, faol, zavq bilan ishlaydi. Shuning uchun o’qituvchining vazifasi bolalarning yangi, nostandart narsalarga moyilligi, berilgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilish istagi yanada rivojlanishi



mumkin bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishdir. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun matematika darslarida quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

I. Ob'ektlarning xususiyatlarini tasniflash

1. 37 soni qanday raqamlardan iborat?
2. Sonlar qanday raqamlar bilan boshlanadi: 14, 18, 25, 46, 37, 56?
3. 2, 24, 241 sonlarining alomatlarini ko'rsating.
4. Uchburchak, kvadrat, beshburchakning xususiyatlarini ayting.
10. Nima uchun bu figura uchburchak deb ataladi?

II. Berilgan belgilar bo'yicha ob'ektlarni tanib olish

1. Qaysi ob'ekt bir vaqtning o'zida quyidagi xususiyatlarga ega:

a) 4 ta tomon va 4 ta burchakka ega;

б) 3 ta tomon va 3 ta burchakka ega.

2. Shaklning nechta uchi bor, u nechta kesmadan iborat? Bu shakl qanday deb ataladi?

3. Tushurib qoldirilgan raqamlarni to'ldiring:

a) 5, 15, ..., 35, 45;

б) 34, 44, 54, ..., ..., 84;

в) 12, 22, ..., 42, 52, ..., 72;

г) 6, 12, 18, ..., 30, 36, ..., v.k.

4. Misollarda qanday raqamlar etishmayapti?

a) $15+5 \times 2=25$

б) $15+5 \times 4=35$

в) $15+5x \dots = \dots$

г) $15 \times 5x \dots = \dots$

д) $15+5x \dots = \dots$

III. Ob'ektlarning muhim xususiyatlarini aniqlash qobiliyatini shakllantirish

1. Uchburchak (burchaklar, tomonlar, chizmalar, fanera, karton, maydon)

Javob: (Burchaklar, tomonlar).

2. Kub (burchaklar, chizilgan, tosh, yon)

Javob: (burchaklar, yon tomonlar)

IV. Ikki yoki undan ortiq narsalarni solishtirish

1. Raqamlar qanday o'xshash?

a) 7 va 71 б) 77 va 17 в) 31 va 38 г) 24 va 624 д) 3 va 13 е) 84 va 754

2. Uchburchak va to'rtburchak o'rtasidagi farq nima?

3. Quyidagi raqamlarda umumiy xususiyatlarni toping:

a) 5 va 15 б) 12 va 21 в) 20 va 10 г) 333 va 444 д) 8 va 18 е) 536 va 36

V. Ob'ektlar va hodisalarning tasnifi.

Doiralar berilgan: katta va kichik, qora va oq. Ular 2 guruhga bo'linadi:

Doiralar nimaga asoslanib bo'linadi:



a) rangiga ko'ra b) o'lchamiga ko'ra;

Doiralar berilgan: katta va kichik, qora va oq. Ular 2 guruhga bo'linadi:
Doiralar nimaga asoslanib bo'linadi:

a) rangiga ko'ra b) o'lchamiga ko'ra; s) rangi va o'lchamiga ko'ra

VI. Ob'ektlarni berilgan asosga ko'ra sinflarga bo'lish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

1. Quyidagi raqamlarni 2 guruhga ajrating:

2,13,3,43,6,55,18,7,9,31

bir xonali sonlar _____

ikki xonali sonlar _____

2. Raqamlar guruhlarini bir so'z bilan nomlang:

a) 2,4,6,8 — bu _____

b) 1,3,5,7,9 — bu _____

VII. Matematik jumboqlar, boshqotirmalar.

VIII. Mantiqiy masalalar.

1. To'rtta 2 raqami hamda to'rtta arifmetik amal, qavslar yordamida 0; 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10 sonlarini hosil qilish mumkinmi?

2. Kichkina qutida 4 paket, kattasida esa 9 paket sharbat bor. Oshxona navbatchisi qutilarni ochmasdan 24 dan kichik bo'lmagan ixtiyoriy sondagi sharbat paketlarini ajratib bera olishini aytdi. U xaqmi?

3. To'rtta ketma-ket kelgan butun sonlar to'rt xonali sonning minglar, yuzlar, o'nlar, birlar xonasi raqami. Agar bu sonning raqamlari teskari tartibda yozilsa, berilgan son qancha ortadi?

4. Ali va Vali quyidagicha o'yin o'ynamoqda: Dorskaga 2007 soni yozilgan. Har bir yurishda hosil bo'lgan sondan dastlabki sonning noldan farqli biror raqami ayiriladi. Yurishidan so'ng dorskada nol soni qoldirgan o'yinchi yutadi. Bu o'yinda kim yutadi?

5. Bir qurbaqa 30 m quduqdan kunduz 3 metr yuqoriga kechalari 2 metr pastga harakat etsa, quduqdan necha kunda chiqadi?

6. Bir kuni ikki matematik uchrashib qolibdi. Hol ahvol so'rashgach birinchi matematik do'stidan so'radi: - Hozir necha yoshdasiz? Ikkinchi matematik javob berdi: - Men tug'ilganda otam 25 yoshda edilar, hozir otam va mening yoshimizni qo'shsak 89 bo'ladi.

7. Kechadan oldin Anvar 17 yosh edi. Keyingi yilda u 20 yoshga kiradi. Bunday bo'lishi mumkinmi qanday qilib?

8. Yon daftar muqovasi bilan 200 so'm turadi. Agar yon daftar muqovasidan 100 so'm qimmat tursa, yon daftarning o'zi qancha turadi?

9. Otda ketayotgan Kenja botirga dashtda bo'rilar galasi hujum qildi. Kenja botir ikkita bo'ri yonidan o'tayotganda, bu bo'rilar unga tashlandilar. Kenja botir



bo'rilarga chap berdi, bo'rilar esa bir-biri bilan to'qnashib, yarador bo'lishdi. Shu chap berish usulini qo'llab, Kenja botir barcha bo'rilarni yarador qildi. Galada 23 ta bo'ri bo'lgan bo'lishi mumkinmi?

10. Birinchi uyumda 5 ta tosh, ikkinchisida 7 ta tosh bor. Ikkita o'yinchi navbat bilan tosh olishadi. Bitta uyumdan bitta yoki har bitta uyumdan bittadan tosh olish mumkin. Ohirgi toshni kim olsa, shu o'yinchi yutadi. O'yinda kim yutadi?

Bu kabi mantiqiy tafakkurni o'stiruvchi masala va misollarni yechishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari qulay va oson bo'lgan metod va usullardan foydalanishlari kerak. Usullarni tanlashda yechadigan misol yoki masalamrga tanlagan metod yo usul mos tushishiga va bu metod va usul orqali bola yechayotgan misol va masalani qay darajada tushinishiga e'tibor berishlari kerak. Umumiy o'rta ta'lim milliy o'quv dasturi metodologiyasining asosiy vazifalari sirasida o'zining "men"ligi, intellektual salohiyati, ma'naviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda 21-asr ko'nikmalarini tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topishni o'quvchilarda shakllantirish" belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o'stirish bugungi kunning dolzarb muammosi. Mantiqiy tafakkurni o'stiruvchi misol va masalalar esa ilk maktabga qadam qo'ygan yildanoq o'rgatilyapti va darsliklarimizda ham bu kabi misol va masalalarning kiritilishiga kuchli e'tibor berilyapti.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.
2. Abdullayeva B.S., Boboqulov O'. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishning psixologik tafakkurini rivojlantirish" / "Pedagogik ta'lim" jur., - TDPU, 2004, 4-son, 27-28 betlar.
3. Qo'chqorov A., Ismailov Sh. Mantiqiy masalalar // Toshkent, 2008
4. Бакина Т. И учеба, и игра; математик. Издательство: Академия, 2014.
5. Фаязова Д.Т. Условия формирования профессиональных компетенций Scientific Impulse 1 (8), 565-570 2023
6. K. Ostanov, U.B Navruzov, B.E Boboyev. Ba'zi matematik masalalarni yechishda klassik tengsizliklardan foydalanish usullari // Academy, 55-57b. 2022y.
7. Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini Tashxis etishda timss hamda pisa xalqaro Baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi. Муғаллим ҳам ўзлик-сиз билимлендириў. 1/3-сан . 95-99-betlar. Нөкис .2023.
8. Musurmonova M. ,Pardaboyeva R. Boshlang'ich sinfda matematikadan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari // Образование наука и инновационные идеи в мире. № – 18 Часть–2_ Апрель–2023.
9. Формирование математической грамотности учащихся начальных классов путём интеграции.
10. З.А. Наримбетова. Формирование математической грамотности учащихся начальных классов путём интеграции / Web of Teachers: Inderscience Research, ISSN (E): 2938-379X, Volume 2, Issue 03, March 2024. 63-66 b.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA TURLI YOSH GURUHLARIDA INTELLEKTUAL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Ergalieva J.A.

*Aziniyoz nomidagi NDPI «Maktabgacha ta'lim»
kafedrası oqituvchisi*

Tayanch so'zlar: aqliy, tahlil qilish, fikr yuritish, mulohaza qilish, yodda saqlash, qiziqish.

Ключевые слова: мыслить, анализировать, думать, рассуждать, иметь в виду, интерес.

Key words: think, analyze, consider, reason, keep in mind, interest.

Резюме:

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual rivojlanishida ta'lim jarayonining, bolaning aqliy salohiyatini rivojlantirish fikrlash ko'nikmalarini va tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan. Turli yosh guruh bolalarida intellektual ko'nikmalarni rivojlantirish muhokama qilinadi.

Резюме:

В статье основное внимание уделяется образовательному процессу интеллектуального развития дошкольников, развитию умственного потенциала ребенка, формированию умений и навыков мышления. Обсуждается развитие интеллектуальных способностей у детей разных возрастных групп.

Summary:

The article focuses on the educational process of intellectual development of preschoolers, the development of the child's mental potential, the formation of thinking skills and abilities. The development of intellectual abilities in children of different age groups is discussed.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual rivojlanishida ta'lim jarayonining, bolaning aqliy salohiyatini rivojlantirish, fikrlash ko'nikmalarini va tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda bolalarning aqliy qobiliyatlari va qiziqishlari turli yosh guruhlarida turli xil darajada bo'ladi va ta'lim jarayonini har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirish zarur hisoblanadi.

Bolalarda intellektual ko'nikmalari muammolarini tahlil qilishi, aqliy vazifalarni bajarishi, fikr yuritishi, mulohaza qilishi va yodda saqlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ko'nikmalar maktabgacha yoshdagi bolalarda



turli xil mashqlar va ta'limiy faoliyatlar, o'yinlar orqali shakllanip boradi. Turli yosh guruhlari bolalarining rivojlanish tezligi har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun bu jarayonda individual yondashuvni talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir guruh bolalarining ehtiyojlari va imkoniyatlari turli darajada bo'ladi:

Kichik yosh guruhi (3 - 4 yosh) bo'lib - bu yoshda bolalarning asosiy intellektual rivojlanishi hissiy taassurotlar va o'yinlar orqali amalga oshiriladi. 3-4 yoshli kichik guruhi bolalarining diqqat va xotira qobiliyatlari asosan rivojlanish bosqichida bo'lib bunda bolalar ranga, shaklga va buyumlarning o'zaro munosabatiga e'tibor qarata boshlaydi. Shuningdek, bu yoshda rivojlantiruvchi o'yinlardan, qurish-yasash o'yinlaridan va ranglar bilan mashqlarolib borishda bolaning aqliy salohiyatini oshirishga yordam beradi va bunda oddiy mantiqiy tuzilmalarni tushunishlari ham mumkin bo'ladi.

O'rta yosh guruhi 4-5 yoshli bolalari bo'lib, bu yoshda allaqachon yodda saqlash qobiliyatini ancha rivojlantirgan bo'ladi. Ular mantiqiy aloqalarni tushunishni boshlaydilar, masalan, ob'ektlarni turkumlarga ajratishni, o'xshashlik va farqlarni topish mashqlarini bajarishga qobil bo'ladilar. Matematika, gaplar tuzish, qisqa hikoyalarni aytib berish yoki hal qilish orqali bolaning fikrlash qobiliyatini shakllantirish mumkin. Bu bosqichda intellektual o'yinlar, boshqotirmalar va savol-javoblar bolalarning tafakkurini oshirishga xizmat qiladi.

Katta yosh guruhi 5-6 yoshli bolalar bo'lib, bu yoshda bolalar murakkabroq mantiqiy tuzilmalarni tushunishni boshlaydi. Ular matematik tushunchalarni, vaqtincha bo'lgan hodisalarni tushunishga qodir bo'ladi. Shuningdek, uzoq vaqt mobaynida bolalar diqqatini bir faoliyatga qaratgan holda ishlay oladilar. Katta yoshdagi bolalarda aqliy jarayonlar, masalan, muqobil variantlarni tahlil qilishlari, sabab va oqibat aloqalarini tushunishga undovchi vazifalar juda foydali bo'ladi. Ushbu yoshda ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'yinlar, kitob o'qish va turli ma'naviy mashqlar bolalarning intellektual rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Rivojlantiruvchi o'yinlarda bolalar mantiqiy qatorlarni to'ldirish, logik o'yinlar, pazllar va qurish o'yinlari bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mul'timedia texnologiyalarida bolalar uchun mo'ljallangan mul'timediya vositalarida tasvirlar, videolar orqali tushunchalarni vizual tarzda o'rganish bolalarning xotirasi va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.



Kreativ mashqlarda bola rassomlik, musiqa, qug'irchoq o'yinlari kabi ijodiy faoliyat bolalarda fikrlash doiralarini kengaytirishga yordam beradi.

Savol-javobda bolalarga savol berish orqali ularning mulohaza qilish qobiliyatini oshirish va turli aqliy jarayonlarga e'tibor qaratish muhimdir.

Har bir bolaga individual yondashuv bolalarning intellektual rivojlanishida individual qobiliyatlarini hisobga olish zarur. Har bir bola har xil tezlikda rivojlanadi, shu sababli ta'lim jarayonini moslashtirish lozim. Bolaning qiziqishlari va qobiliyatlariga ko'ra mashg'ulotlarni tanlash va u bilan ishlash intellektual rivojlanish jarayonini samaraliroq qiladi.

Tayarlov guruhida 6-7 yoshli bolalari bo'lib, bu yoshda bolalar maktabga tayyorgarlik ko'rishlari va asosiy ijtimoiy, aqliy va intellektual ko'nikmalarni shakllantirishlari zarur. Intellektual ko'nikmalarning rivojlanishi bolada fikrlash, yodda saqlash, tahlil qilish, muammolarni yechishda va yangicha g'oyalarni qabul qilish qobiliyatini oshirishga qaratiladi.

Tayarlov guruhi bolalarining intellektual rivojlanishida - aqliy faoliyati yuqori darajaga ko'tariladi. Ular juda ko'p axborotni qabul qiladi va qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bolalar maktabga tayyorgarlik jarayonida turli hil mashqlar va o'quv jarayonlari orqali bilim olishga tayyor bo'la boshlaydi. Intellektual rivojlanishda bolalar mantiqiy bog'liqliklarni tushunishga o'rganadi, masalan, ularda sabab va oqibat aloqalarini tushunish qobiliyati shakllanadi. Xotirani rivojlantirish orqali yodlash qobiliyati ancha rivojlangan bo'lib. Bolalar qiyinroq matnlar va faktlarni yodda saqlashga qodir bo'ladi. Bolalar tahlil qilish orqali turli vazifalar va muammolarni tahlil qiladi, to'g'ri va noto'g'ri qarorlar o'rtasidagi farqni tushunishni o'rganadi. Tasavvur va ijodkorlikda esa bolalarning tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi, bu o'z ornida ularga yangicha yechimlarni va g'oyalarni yaratish imkonini beradi.

Tayarlov guruhi bolalarining intellektual rivojlanishi maktabga tayyorgarlik jarayonining bir qismi bo'lib, quyidagi vazifalardan iborat:

Matematik tushunchalarda bolalar raqamlar bilan ishlashi, qiymat va miqdor tushunchalari, qator va jadvallar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish.

Til va nutqni rivojlantirishda nutqiy va yozuv qobiliyatlarini shakllantirish, bu esa bolalarda maktabda yozishda, o'qishda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.

Bolalarda diqqatni jamlash orqali uzoq muddatli diqqatni bir faoliyatga jamlashni o'rganishlari, chunki bu maktab darslarida samarali ishtirok etishlari uchun zarur hisoblanadi.

Mulohaza va tahlil qobiliyatida muammolarni tahlil qilishda, ularga to'g'ri yechim topish qobiliyati oshirishlari zarur.



Tayarlov guruhi bolalarining intellektual rivojlanishini ta'minlash uchun turli xil ta'limiy o'yinlardan, metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, matematik o'yinlar va boshqotirmalar orqali bolalarda mantiqiy va matematik fikrlashni rivojlantirish uchun turli matematik o'yinlar va vazifalarni bajarishlari mumkin. Bu o'z ornida raqamlar bilan hisoblashni o'rganadi, mantiqiy qatorlarni to'ldirish kabi mashqlarni amalga oshiradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun topshiriq va topishmoqlar mashqlari orqali bolalar mantiqiy aloqalarni topish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilishi va solishtirish, ob'ektlarni tasniflash, ularning umumiy xususiyatlarini aniqlash, umumlashtirishni o'rganadi. Boshqotirmalar intellektual - o'yinlarning juda mashhur turi bo'lib, bolalar va kattalar uchun mos keladi. Qiziqarli mantiqiy topshiriqlar, murakkab topishmoqlar, fikrlashni rivojlantirish uchun mustaqil mashqlar (anagrammalar, turli krossvordlar, Skrabble, Sudoku va boshqalar) va har xil turdagi ko'plab simulyatorlar (mantiqiy ramka, rubik kubik, mantiqiy ilon va boshqalar) mavjud. Diqqat va fikrlashni rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ongini, fikrlashini va e'tiborini ko'chaytirish imkonini beradi.

Bolalar o'qish va hikoya qilishlari uchun qiziqarli, yodda qolarli hikoyalarni o'qish, ularga savollar berishda bolalarning tafakkurini rivojlantiradi, tasavvurini kengaytiradi. Har bir hikoyadagi personajlar va voqealarning bog'liqligini tushunishda bolalarning tahlil qilish qobiliyati shakllanadi.

Bolalarni turli muammolarni yechishga yo'naltiruvchi o'yinlar orqali ularda muammolarga turli yechimlarni topish qobiliyati rivojlanip, bu jarayonda bolalarga savol-javob yo'li bilan turli yechimlarni topishga yordam berish mumkin. Rassomlik, qo'lda yasash va tasviriy san'at, kreativ faoliyat orqali bolalar o'z tasavvurlarini rivojlantirishlari va yangi g'oyalar yaratishlari mumkin. Bu ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Tayarlov guruhi bolalari maktabga tayyorgarlik jarayonida intellektual ko'nikmalarni shakllantirib, ular maktabda yaxshi natijalarga erishishlari uchun mustahkam asos yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ularning kelgusidagi ta'lim olish jarayoni uchun mustahkam asos yaratadi. Bolalarning yosh guruhlariga ko'ra individual yondashuv va turli o'yinlar, mashg'ulotlar orqali bolalarda aqliy qobiliyatlari rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida qiziqarli va rivojlantiruvchi faoliyatlardan foydalanish bolalarning fikrlash salohiyatini oshirishga yordam beradi. Tayarlov guruhi bolalarining intellektual rivojlanishi ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zarur bo'lgan asosiy jarayondir. Turli xil o'yinlar, mashqlar va ta'limiy faoliyatlar



orqali bolalarning fikrlashi, yodlashi, mantiqiy va matematik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 сентябрдаги “Мақтабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3955-сон қарори.
2. Sh.Sodikova. Maktabgacha pedagogika (Darslik)(To'ldirilgan qayta nashr). - T., 2017.
3. A.Бекимбетова, Ж.Ергалиева. Development of intellectual and cognitive skills in preschool children through improvement of pedagogical potential- European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) 28.09.2021-йил
4. J.A.Ergalieva “Мақтабгача yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi” Zamanagóy mektepke shekemgi tálim: tájriybe, mashqalalar,rawajlanıw keleshegi» atamasındađı Xalıqaralıq ilimiy-ámeliykonferenciya materialları toplamı. Nókis-2024-j.
5. G.R To`xtasinova, T.I. O`rmonova, «Bolalar bog`chasida intellektual psixologik o`yinlar» T.:2005(4-5)
6. Волков, С.В. Умственное воспитание дошкольника [Текст]/С.В. Волков // Дошкольное образование. 2016- №12- С. 9-12.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA VA UNI O'QITISH METODIKASIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLAR XUSUSYATLARI

Tursunov I.G.

CHDPU fizika-matematika fanlari doktori, professor

Narimbetova Z.A.

CHDPU pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Tayanch so'zlar: boshlang'ich, ta'lim, matematika, o'qitish, mazmum, laboratoriya, o'rganish, qiziqish, talaba, o'rganish.

Ключевые слова: начальное, образование, математика, преподавание, содержание, лабораторная работа, обучение, интерес, ученик, обучение.

Key words: elementary, education, mathematics, teaching, content, laboratory, learning, interest, student, learning.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda matematika va uni o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari ishlarining amaliy ahamiyati, xususiyatlari yoritib berilgan.

Резюме:

В данной статье освещены практическое значение и особенности лабораторной учебной работы по математике и методике ее преподавания в начальной школе.

Summary:

This article highlights the practical significance and features of laboratory educational work in mathematics and the methods of its teaching in primary school.

Boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy bilim berish va ularni metodik qurollantirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli oliy pedagogic ta'lim jarayonida ishbu fan bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy bilim berish mutaxassislik fanlari tarkibiga kiradi. Bunda bu fan bo'yicha o'quv materiallarining tirlil shakillaridan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini kuchaytiradi. Shu ma'noda ana shunday muxim o'quv materiallaridan biri laboratoriya mashg'ulotlari vositasida amalga oshiriladigan qo'shimcha ta'lim jarayonidir. Bu o'rinda



ana shu laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari taxliliga etiboringizni tortamiz.

Laboratoriya mashg'ulotlari – bu ta'lim muassasalarinig maxsus texnik vositalari bilan jihozlangan xonalarda ta'lim oluvchilarning maxsus topshiriqlarni mustaqil bajaruvchi qo'shimch ta'lim turidir. Shu jihatdan laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yidagi xususiyatlar xos:

- 1) laboratoriya mashgulotlari maxsus jixozlar vositasida amalga oshiriladi;
- 2) laboratoriya mashgulotlari topshiriqlari talabalar tomonidan individual yoki guruh bo'lib bajariladi;
- 3) laboratoriya mashgulotlari asosiy o'quv mashg'ulotlari maavzularini kengaytirgan yoki chuqurlashtirgan tarzda qo'shimcha bilim va malakalarni beradi.

Shu jixatdan boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitosh metodikasi "fani boyicha labiratoriya mashg'ulotlari bo'lajak bo'shlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini kuchaytiradi. Laboratoriya mashg'ulotlari electron doskalar, komputorlar, ta'lim planshetlari, tajriba o'tkazish uskunalari, hisoblash texnikalari, nusxa ko'paytirish jihozlari kabi maxsus o'quv-texnik vositalar asosida amalga oshiriladi. Buning natijasida talabalar zamonaviy texnikalardan foydalangan holda kasbiy bilim va ko'nikmasini chuqurlashtiradi hamda zamonaviy o'quv -texnik vositalar bilan ishlash malakalarini o'zlashitiradi.

Boshlang'ich ta'limda" Matematika va uni o'qitosh metodikasi "fani boyicha laboratoriya mashg'ulotlari bo'lajak bo'shlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan individual yoki jamoa bo'li bajarish xususiyatiga tayanadi. Shu sababli mazkur fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari topshiriqlari qo'yidagi ikki shaklda taqdim etiladi:

- a) har bir talabaga individual laboratoriya topshirig'i beriladi;
- b) talabalar 3-4 nafardan iborat guruhlariga bo'linib laboratoriya topshiriqlari beriladi.

Har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi indivudal berilgan laboratoriya topshirig'ini mustaqil bajaradi. Buning natijasida talabada mistaqil bilib, mustaqil fikrlash va mustaqil harakat qilish ko'nikmalari kuchayadi. Talabalar laboratoriya topshiriqlarini guruh bo'lib bajarishda jamo'a bo'lib ishlash ko'nikmasini o'zlashtiradi. Chunki jamoa bo'lib ishlash jarayonida talabalar bir-birlaridan bilmaganlarini o'rganadi, o'zaro yordamlashadi va guruhning laboratoriya topshirig'ini sifatli bararish uchun birgalikda xarakat qiladi. Shu sababli laboratoriya mashg'ulotlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida



individual va jamoa bo'lib ishlash kasbiy ko'nikmalarini tarkib toptirishning muhim matamatik-pedagogik omilidir.

Laboratoriya mashg'ulotlariga xos bo'lgan yana bir xususiyat mutaxassislik fanlari bo'yicha mavzularni chuqurlashtirilgan o'zlashtirishdan iborat. Bunda asosiy masala laboratoriya mashg'ulotlarining amaliyotga y'onaltirilganligidir. aynan amaliy harakatlar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy bilim - konikmalarini tajriba-sinovdan o'tkazadi. Shu sababli tajribali matamatik-pedagog olimlar laboratoriya mashg'ulotlarining bunday amaliy imkoniyatlarida oqilona foydalanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz iliy pedagogik ta'lim muassassalarida laboratoriya mashg'ulotlarini yangicha yondashular asosida yolga qo'ish dolzarb bo'lib turganligini takidlab o'tish lozim.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani boyicha laboratoriya mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlar va imkoniyatlarga ega.

Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalarni qiziqtirish. Boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani boyicha laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun muhim tadbirlarni amalga oshirishga e'tibor berish lozim. Ana shunday tadbirlardan biri talabalarni qiziqtirishdir. Unga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur fan bo'icha laboratoriya mashg'ulotlariga qiziqtirilishi va yunaltirilishi kerak. Buning uchun quydagilarga amal qilish kerak:

- 1) talabalarga tushuntirish berish
- 2) talabalar bilan suhbat o'tkazish
- 3) talabalarni yunaltirish.

Boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani nazariy va amaliy mashg'ulotlari jarayonida talabalarga ushbu fan laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni tushuntirib o'tilishi kerak. Unda talabalarda bu fanga bo'lgan qiziqish uyg'otilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun mazkur fanning nazariy va amaliy mashg'ulotlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan muloqot shaklida o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada talabalarda bu fanning laboratoriya mashg'ulotlariga nisbatan qiziqish tarkib topadi.

Boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani boyicha laboratoriya mashg'ulotlariga talabalarni qiziqtirish yullaridan biri ular bilan suhbatdir. Unga ko'ra, talabalar bilan jamoaviy yoki har bir talaba bilan laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni, uni o'tkazish shakillari va



uning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligida tutga o'rni masalalari bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning laboratoriya mashg'ulotlariga doir har bir savoliga batafsil javo beriladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida laboratoriya mashg'ulotlariga bo'lgan yuksak darajadagi qiziqish paydo bo'ladi.

Laboratoriya mashg'ulotlariga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qiziqishini tarkib toptirish yunalishlaridan biri ularni yunaltirishdir. Unga ko'ra, talabalar boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fanining har bir mavzulari bo'yicha tashkil etiladigan laboratoriya mashg'ulotlari o'quv materiallari bilan dastlabki tarzda umumiy tanishtiriladi. Bunda ushbu fanning modullari o'quv materiallari qisqacha tushuntirib o'tiladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari modular o'quv materiallari kesimida laboratoriya mashg'ulotlariga yunaltiriladi. Misol uchun, fan tarkibidagi Geometriya o'quv materiallariga yunaltirilgan talaba o'quv fanining shu modul bo'yicha o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlarida faol ishtirok etadi va ularda chuqurlashgan geometrik kasbiy bilim hamda ko'nikmalar tarkib topadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlariga talabalarni qiziqitirish mixim shkillarga ega. Bu shakillardan oqilona foydalanish bilan laboratoriya mashg'ulotlariga talabalarning qiziqishlari amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur masalaga asosiy etiborni qaratish laboratoriya mashg'ulotlarini tashkiliy jihatdan to'g'ri yulga qo'yish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalar qobiliyatlarini rivojlantirish. Boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning matematik qobiliyatini rivojlantirish muhim xususiyatlaridan biridir. Shu jihatdan laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning qobiliyatini rivojlantirish ishini tashkil qilish uchun qo'yidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) talabalar qobiliyatini aniqlash;
- 2) talabalar qobiliyatini rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish;
- 3) talabalar qobiliyatining rivojlanishini kuzatib borish.

Talabalarning matematik qobiliyati – bu ularning matematik bilim, ko'nikma va matematik masalalarni yechishga bo'lgan tabiiy layyohatlari majmuidir. Shu jihatdan talabalarni laboratoriya mashg'ulotlariga yunaltirish uchun avvalo ularning matematik qobiliyati darajasini aniqlab olish kerak bo'ladi. Amaliy



mashg'ulotlarga bo'lgan talabalarning qobiliyatlarini aniqlashda maxsus testga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bunday testda quydagi masalalar bo'yicha savollar aks etishi kerak:

- a) talabani matematika va uning tarmoqlariga bo'lgan qiziqishini aniqlash;
- b) talabani matematik bilimi darajasini aniqlash;
- v) talabani vaqtdan foydalanish ko'nikmasini aniqlash
- w) talabani matematik masalaga va tioshiriqlarni echish ko'nikmasini aniqlash.

Bunday aniqlash natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik qobiliyatini rivojlantirish rejasi ishlab chiqiladi. Rejada amaliy mashg'ulotlar mavzulari o'z ifodasini topadi.

Boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qoliliyatini rivojlantirish tadbirlari amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar har bir talabaga uyga vazifa sifatida individual topshiriqlar berish, amaliy mashg'ulotlarga doir adabiyotlarni o'qish va murakkab matematik masalalarni echishni mashq qilish vositasida amalga oshiriladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari matematik qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Talabalar qobiliyatining rivojlanishini kuzatib borish jarayoni amaliy mashg'ulotlar vaqtida amalga oshiriladi. Bunda ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotkari jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatini kuzatib boorish muhimdir. Bunda har bir talabani murakkab masala va topshiriqlarni bajarishiga etibor beriladi. Agar talaba murakkab masala va topshiriqlarni tez, oson va to'g'ri echsa unda qobiliyat rivojlanib borayotganligini namoyon bo'ladi. Bordi-yu bunday vaziyatda talaba murakkablikka duch kelsa, o'qituvch tomonidan unga maslahat beriladi. Shu tariqa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik qobiliyati laboratoriya jarayonida rivojlantirilib boriladi.

Etibor berilsa, laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinig qobiliyatini rivojlantirish o'ziga xos metodikaga asoslanadi.

Shunday qilib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchikarini boshlang'ich ta'limda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlariga jabqilish va bu mashg'ulotlarning mazmuni o'ziga hoz xususiyatlrge egadir. Unda ushbu fan xususiyatlari, talabalarni laboratoriya mashg'ulotlariga qiziqtirish va ularning matematik qoliliyatini laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida rivojlantirish muhim o'rin titadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:



1. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlar xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalarni qiziqtirish nimalarga asoslanadi?

3. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalar qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi nimalardan iborat?

4. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalar qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini konspekt qiling va o'zlashtiring.

Adabiyotlar:

- 1." O'zbekiston-2030" strategiyasi.//www.ziyounet.uz.
2. Ayupov Sh. Mamlakatimizda Matematika fanining yangi tarixi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021 yil 18 iyun soni
3. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari//Toshkent, 2001. – 113bet.
4. Habibullayev R.A. O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish// Toshkent: O'qituvchi, 2010. 247-bet.
5. Turdiboyev D.X. Geometriyada o'quv mashg'ulotlarini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib loyihalash //Informatika va energetika muammolari jurnali. Toshkent, 2011.
6. Narimbetova Z.A.Математика оқыту методикасы-оқулық//Тошкент. "Olmaliq kitob business"-2024.368 бет.
7. Narimbetova Z.A. Matematika o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyasi bo'icha uslubiy ko'rsatma // Toshkent.2020. "GOLD-PRINT" . 46 bet.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING 7 USULI

Xalilova Z.Z.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: tanqidiy fikrlash, qobiliyat, o'quvchilar, boshlang'ich sinf, o'qituvchilar, nuqtai nazar, rag'batlantirish, loyiha.

Ключевые слова: критическое мышление, способности, учащиеся, начальный класс, учителя, перспектива, мотивация, проект.

Key words: critical thinking, ability, students, primary class, teachers, perspective, motivation, project.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishning usullari keltirilgan. Bu o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga, o'zini-o'zi tarbiyalashga, o'zini-o'zi nazorat qilishga va o'zini-o'zi to'g'irlashga undaydi.

Резюме:

В данной статье представлены методы обучения критическому мышлению учащихся начальных классов. Это поощряет учащихся к самоконтролю, самодисциплине, самоконтролю и самокоррекции.

Summary:

This article presents methods of teaching critical thinking to students in primary education. It encourages students to self-manage, self-discipline, self-control and self-correction.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish barcha yoshdagi o'quvchilar uchun muhimdir. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari boshlang'ich ta'limning tobora muhim elementi hisoblanadi, lekin ularni o'rgatish ko'pincha boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qiyin bo'lishi mumkin. Tanqidiy fikrlash nimadan boshlab, uni har kungi darslarga qanday kiritish kerakligigacha, biz quyida ushbu fundamental intellektual mahoratning muhim jihatlarini ko'rib chiqamiz. [1]

Tanqidiy fikrlash nima? Tanqidiy fikrlash bu o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini-o'zi tarbiyalaydigan, o'zini-o'zi nazorat qiladigan va o'zini-o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Tanqidiy fikrlash yodlashdan tashqariga chiqadi va o'quvchilarni tushunchalarni bog'lashga, muammolarni hal qilishga, ijodiy fikrlashga hamda bilimlarni yangi usullarda qo'llashga undaydi.



Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari faqat matematika kabi fanga taalluqli degan afsonalarga qaramay, haqiqat shundaki, bilimlarni baholash va qo'llashga asoslangan bu ko'nikmalar nafaqat barcha uchun balki, kundalik hayotda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Boshlang'ich ta'lim uchun tanqidiy fikrlash mashqlari:

► Savollar bering.

Savollar berish, ayniqsa ochiq savollar, boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rganganlarini qo'llash va oldingi bilimlarga asoslanish uchun o'zgarish beradi. Shuningdek, ularga muammoni hal qilish va oyoqqa turib o'ylash imkonini beradi va o'quvchilarga tengdoshlari oldida o'zini namoyon qilish imkoniyatini berish orqali o'zini - o'zi hurmat qilishni oshiradi.

► Qaror qabul qilishni rag'batlantirish.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatishning katta qismi bilimlarni qo'llash va yechimlarini baholash bilan bog'liq bo'lganligi sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchilari imkon qadar qaror qabul qilishni rag'batlantirishlari kerak. Bu o'quvchilarga o'rganganlarini turli vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi, turli yechimlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqadi, so'ngra qaysi g'oyalar yaxshiroq ishlashini hal qiladi.

► Guruhlarda ishlash.

Guruh loyihalari va munozaralar boshlang'ich maktab o'qituvchilari uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantirishning yana bir ajoyib usulidir. Hamkorlikda o'rganish nafaqat o'quvchilarni sinfdoshlarining fikrlash jarayoniga ochib beradi, balki muammoga yondashishning yagona to'g'ri yo'li ekanligini ko'rsatib, ularning fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi.

► Turli nuqtai nazarlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun eng yaxshi tanqidiy fikrlash mashqlaridan ba'zilar konsepsiyasini turli nuqtai nazardan o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu taktika nafaqat fikrni shakllantirishdan oldin fikrni turli nuqtai nazardan baholash kerakligini belgilabgina qolmay, balki o'quvchilarga boshqalarni tinglash va ulardan o'rganish jarayonida o'z nuqtai nazarlarini baham ko'rish imkoniyatini beradi.

► Turli fikrlarni bog'lash.

Turli fikrlarni bog'lash turli g'oyalarni bog'lash tanqidiy fikrlashga o'rgatishning kalitidir. Misol uchun, boshlang'ich maktab o'qituvchilari o'quvchilardan ishlash uchun avtobusga borishi kerak bo'lgan odamni taniydilarmi yoki yo'qligini so'rashi mumkin va agar shunday bo'lsa, bu odam uchun poyezdlar jadvali bo'lishi nega muhimligini so'rashi mumkin. Shunga o'xshash savollar bolalarga turli vaziyatlarni (masalan, kechikkan avtobuslar)



va potensial yechimlarni (o'rniga poyezdda borish) ko'rib chiqishga yordam beradi, ularga oldingi bilim va yangi kontekslarda qo'llashga yordam beradi.

► Ijodkorlikni ilhomlantirish.

Boshlang'ich maktabda tanqidiy fikrlashni o'rgatish uchun tasavvur asosiy hisoblanadi. O'qituvchilar o'quvchilar uchun yangi narsalarni yaratish uchun ma'lumotlardan foydalanishning yangi usullarini izlashlari kerak. Badiiy loyihalar buni amalga oshirishning ajoyib usuli. O'quvchilar shuningdek, istagancha ixtirolar qurishlari, hikoya yoki she'r yozishlari, o'yin yaratishlari qo'shiq kuylashlari mumkin.

► Aql bo'roni.

Boshlang'ich ta'limda azaliy an'ana bo'lgan "miya mashqi" ajoyib o'rganish vositasidir. Bu shuningdek, tanqidiy fikrlash uchun ajoyib mashqdir, ayniqsa vizual elementlar bilan birgalikda original fikrlash va sinfdagi muhokamalarni jonlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. T., TDPU, 2002.
2. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M, To'uchieva S.M., «Yosh va pedagogik psixologiya». T. TDPU, 2004 .
3. Радугина А.А. Педагогика и психология. М., 2007.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Питер, 2007.



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MATEMATIKA O'QITISHDA KOMPYUTER VOSITALARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI HAQIDA

Jurayev O.T.

Farg'ona davlat universiteti Matematika kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: matematika fanidan kompyuter o'qitish vositalari, metodik texnikalar, talabalarni kompyuter o'qitish vositalaridan foydalanishga tayyorlash vositalari va shakllari, uslubiy topshiriqlar turlari.

Ключевые слова: компьютерные средства обучения математике, методические приемы, средства и формы подготовки студентов к использованию компьютерных средств обучения, виды методических задач.

Key words: computer training tools in teaching mathematics, methodical techniques, means and forms of training students to use computer-assisted learning, types of methodical problems.

Резюме:

Maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich maktab o'quvchilariga matematika o'qitishda kompyuter vositalaridan foydalanishga tayyorlash muammosiga bag'ishlangan bo'lib, uning yechimini muallif Matematikani o'qitishda kompyuter yordamini tashkil etish integratsiyalashgan maxsus kursini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'radi.

Резюме:

Статья посвящена проблеме подготовки будущих учителей начальных классов к использованию компьютерных средств при обучении математике младших школьников, решение которой автор видит в разработке и реализации интегрированного спецкурса «Организация компьютерной поддержки при обучении математике в начальной школе».

Summary:

The article deals with the problem of training future primary school teachers to use computer tools in teaching mathematics to primary school children. The solution of this problem the author sees in the development and implementation of an integrated study course "Organization of computer support for teaching mathematics in primary school".

O'quv jarayonida kompyuter vositalaridan foydalanishni belgilovchi boshlang'ich umumiy ta'limning yangi standartlariga o'tish munosabati bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uslubiy faoliyati sifatiga yangi talablar qo'yilmoqda. O'zbekistonda ta'limini modernizatsiya qilishning maqsadli dasturini amalga oshirish tufayli boshlang'ich maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun moddiy baza yaratish



yo'lga qo'yildi. Ammo, boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitish amaliyotini tahlil qilish va boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatadiki, matematikani o'qitishda kompyuter vositalarining katta arsenali hali etarli darajada talabga ega emas.

Boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalarini o'rganish zamonaviy umumta'limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Boshlang'ich maktabda informatika fanini o'rganish maqsadlari:

– Dunyoning axborot manzarasi va axborot jarayonlari haqidagi tasavvurlarning boshlanishini tashkil etuvchi bilimlarni o'zlashtirish, informatika fanining asosiy kursida asosiy nazariy tushunchalarni idrok etishga hamda algoritmik va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga hissa qo'shish;

– O'quv faoliyatida va kundalik hayotda axborot bilan ishlashning amaliy quroli sifatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish malakasini egallash;

– Ta'lim muammolarini hal qilishda va kundalik hayotda atrofdagi dunyoning axborot oqimlarida harakat qilish va aniq va tushunarli ko'rsatmalarni qo'llash uchun boshlang'ich qobiliyatlarni rivojlantirish;

– Axborot-kommunikatsiya faoliyatiga, axborot bilan ishlashning axloqiy me'yorlariga qiziqish uyg'otish; texnik qurilmalarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash[1-3].

Kurs mazmuni quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

– Boshlang'ich maktab uchun informatika va axborot texnologiyalari asosiy kursi bo'yicha asosiy nazariy tushunchalarni idrok etishga yordam beradigan boshlang'ich bilimlarni shakllantirish uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ularning tegishli fanlar bo'yicha bilim darajasiga mos ravishda material tanlash va moslashtirish. sinf va fanlararo integratsiya;

– optimal yoshda mantiqiy va algoritmik fikrlashni shakllantirish, bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

– maktab o'quvchilarini o'qitishga individual va shaxsiy yondashish;

– Darsda yakka va jamoaviy ish jarayonida izlanish, muammoli, tadqiqot va reproduktiv faoliyat turlarini o'zlashtirish, o'yin orqali qo'shimcha rag'batlantirish;

– Kompyuterda ishlashda sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilish. Ushbu muammoni hal qilish esa ikki yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi yo'nalish "Matematika o'qitish metodikasi" kursining mazmunini "Boshlang'ich maktab matematika kurslarini o'rganishda kompyuterdan foydalanish" qo'shimcha moduli bilan kengaytirishni nazarda tutadi. Bizning fikrimizcha, bunday modulni uslubiy kursga kiritish maqsadga muvofiq emas, chunki:



1) modulni o'rganish uchun mualliflar tomonidan taklif qilingan vaqt (6–12 auditoriya soati); boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika o'qitishning o'ziga xos shartlariga adekvat bo'lgan kompyuter vositalarini loyihalashda talabalarning amaliy tajribaga ega bo'lishlari etarli emas; 2) uslubiy kursni o'rganishga ajratilgan auditoriya soatlarining kamayishi talabalarning metodik va matematik tayyorgarligi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[4-5]

Ikkinchi yo'nalishning amalga oshirilishini “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda kompyuter yordamini tashkil etish” integratsiyalashgan maxsus kursini ishlab chiqishda ko'ramiz, uning maqsadi boshlang'ich maktab o'quvchilariga matematikani o'qitish jarayonida kompyuter vositalaridan foydalanish tajribasini rivojlantirishdan iborat.

Maxsus kurs mazmunini tanlash va maxsus kurs doirasida talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1) Boshlang'ich umumiy ta'limni axborotlashtirish nazariyasini kichik maktab o'quvchilariga matematika o'qitish amaliyotida progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish vositasi, kichik maktab o'quvchilarini o'qitish amaliyotini manba, maqsad va mezon sifatida ko'rib chiqadigan nazariya va amaliyot o'rtasidagi munosabatlar printsipi;

2) kichik maktab o'quvchilariga matematikani o'rgatishda o'quvchilarda kompyuterni qo'llab-quvvatlashni loyihalashning umumiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berish printsipi. Bu tamoyil talabalarning metodik kursda o'zlashtiradigan didaktik ko'nikmalar majmuasi birinchi navbatda darsga yo'naltirilganligiga asoslanadi, bu esa talabalarning matematika darsining shartlari sifatida kichik maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qaratilgan loyihalash faoliyatining umumiy usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi;

3) axborot texnologiyalari sohasidagi va matematik, psixologik, pedagogik bilimlar maxsus kursi mazmunidagi integratsiya tamoyili. Ushbu integratsiyaning murakkab mexanizmi shundan iboratki, matematikani o'qitishda kompyuter vositalaridan foydalanish sohasidagi g'oyalari, qoidalar, texnologiyalar, tavsiyalar, uslublar, o'quv harakatlarining turlari ko'rinishida taqdim etilgan uslubiy bilimlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: matematika tushunchalar mazmuni, xususiyatlar, harakat usullari; ta'lim va tarbiya jarayonining qonuniyatlari; boshlang'ich sinf o'quvchisi rivojlanishining psixologik xususiyatlari va ularning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, matematik ma'lumotlarni qayta ishlash va taqdim etish usullari;

4) kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining matematika darsida maqsadlari, mazmuni, o'quv faoliyatini tashkil etish va samarali muloqotiga mos keladigan raqamli ta'lim resurslarini ongli ravishda tanlashga qaratilgan uslubiy fikrlashni



rivojlantirish printsipli. Bu tamoyil aqliy operatsiyalardan foydalanishni, tanlash holatlarini, dizaynni, aloqalarni aniqlashni va bog'liqliklarni o'rnatishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematika darslarida kompyuter vositalaridan foydalanishga bosqichlarga mos ravishda tayyorlash maqsadga muvofiqdir. [6]

1. Analitik bosqich. Ushbu bosqichda talabalar boshlang'ich maktab uchun ishlab chiquvchilar tomonidan taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslarini (RTR) tahlil qilishni o'rganadilar; boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika o'qitish texnologiyasiga, darsning maqsad va mazmuniga, darsda o'quv faoliyatini tashkil etish bosqichlariga muvofiq holda markaziy o'quv markazini ongli ravishda tanlash; matematikani o'qitishning o'ziga xos shartlariga muvofiq RTRni ongli ravishda tanlash va o'zgartirish.

2. Konstruktiv bosqich o'quvchilarda o'z raqamli ta'lim resurslarini metodik va matematik faoliyatda rivojlantirish va ulardan foydalanish, matematika darsining turli bosqichlarini an'anaviy vositalar bilan birgalikda kompyuter yordamida ta'minlash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

3. Loyihalash bosqichi. Ushbu bosqichda talabalar kichik maktab o'quvchilariga matematikani o'qitish jarayoni uchun kompyuter yordamini mustaqil ravishda qurish uchun loyihalash ko'nikmalarini (analitik va konstruktiv) to'liq rivojlantiradilar.

Maxsus kurs doirasida talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish bosqichlariga muvofiq quyidagilar keng qo'llaniladi:

- boshlang'ich maktab o'quvchilariga matematika o'qitishning o'ziga xos shartlariga muvofiq kompyuter vositalarini taqqoslash, tanlash, o'zgartirish va loyihalash usullariga asoslangan uslubiy texnikalar;
- o'qitishning ideal vositalari (ramzlar tizimi, video yozuvlar, integratsiyalangan MS Office paketi, raqamli ta'lim resurslarining yagona o'quv to'plami, matematik ob'ektlar va matematik munosabatlarni vizualizatsiya qilish algoritmlari);
- o'qitish vositalari (kompyuter laboratoriyasi, matematika darsliklari va an'anaviy ko'rgazmali qurollar; didaktik umumsinf va individual materiallar, o'qitishning texnik vositalari).

Talabalarni tayyorlashning zamonaviy talablari ularning o'quv faoliyatini tashkil etishning interfaol shakllaridan foydalanishni talab qiladi. Bunday darslarni tashkil etishda dialog, polilog, simulyatsiya, ishbilarmon o'yinlar, loyihalardan keng foydalanish zarur. O'qitishning tashkiliy shakllari sifatida ma'ruza va laboratoriya ishlari, shuningdek, talabalarning mustaqil va tadqiqot faoliyatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematika o'qitishda kompyuter vositalaridan foydalanishga tayyorlashning asosiy vositalari o'quvchilarni o'qitish jarayonida motivatsion, birlashtiruvchi, o'rgatish, rivojlantiruvchi, amaliyotga yo'naltirilgan va nazorat qiluvchi funktsiyalarni bajaradigan uslubiy vazifalardir. Ular talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning maqsadlari, mazmuni, uslubiy texnikasi, vositalari va shakllarini aks ettiradi.

Yu.S.Zayats [7] tomonidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik-matematik faoliyatga tayyorlash amaliyotida ishlab chiqilgan va eksperimental sinovdan o'tgan uslubiy masalalar tizimiga to'xtalib, biz analitik va konstruktiv masalalarning turlarini, yechish jarayonida ishlab chiqdik boshlang'ich maktab o'quvchilariga matematikani o'rgatishda talabalar kompyuter yordamini loyihalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Biz o'quv va uslubiy vazifalarning quyidagi turlarini aniqladik:

1) tahliliy vazifalar: matematikani o'qitish uchun kompyuter vositalariga yo'naltirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish maqsadida muayyan o'quv sharoitlariga loyihalash vositalari va usullari arsenali yo'naltirish;

2) konstruktiv vazifalar: maqsadni belgilashni o'rgatish, kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'quv vazifalarini va ularni hal qilish ketma-ketligini aniqlash; kichik maktab o'quvchilari uchun ijobiy motivatsiya yaratish uchun RTRni ongli ravishda tanlashga o'rgatish; kompyuter vositasidan foydalangan holda matematik tushunchalar va harakat usullarini joriy qilishni tashkil etish; talabalarning matematik bilimlarni o'zlashtirishda kompyuter vositalarini tanlash; sinfda samarali muloqotni tashkil etish uchun RTR tanlash, o'zgartirish va loyihalashni; kichik maktab o'quvchilarining matematika mazmunini o'zlashtirish monitoringini avtomatlashtirish usullarini o'rgatish.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda kompyuterdan foydalanishni tashkil etish" maxsus kursi doirasida kichik sinf o'quvchilariga matematika o'qitishda kompyuter vositalaridan foydalanishga tayyorlash o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda va amaliy tajriba orttirishda katta imkoniyatlar ochadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematik bilimlarni o'zlashtirishlarida kompyuter vositalaridan foydalangan holda RTRdan foydalanish keng Imkoniyatlar taqdim etadi.

Adabiyotlar:

1. M. Djumayev. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son .2024 / 148-165 b. <http://uzpfti.uz/uz2/fizika,matematika,informatika.htm>, E-mail: fizmat_jurnali@inbox.uz



2. Djumayev M.I Ta'lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxphti.uz 1(5)2024 163-168 <http://buxphti.uz>

3. Djumayev M. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son .2024 / 148-165 b. <http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika,informatika.htm>, E-mail: fizmat_jurnali@inbox.uz

4. M.I. Dzhumaev Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172>

5. Djumayev M.I Ta'lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxphti.uz 1(5)2024 163-168 <http://buxphti.uz>

6. Цифровые образовательные ресурсы в школе: методика использования. Начальная школа: сборник учебно-методических материалов для педагогических вузов / Отв. ред. Н.П. Безрукова. – М.: Университетская книга, 2008. – 160 с.

7. Заяц Ю.С. Методическая задача как средство формирования проектировочных умений у студентов факультета начальных классов в процессе методико-математической подготовки: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – М., 2005. – 20 с.



BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA VATANGA E`TIQOD, VATANPARVARLIK TUYG`ULARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Qo`shmurodova A.

*SHDPI "Ta`lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi" mutaxassisligi
2-bosqich magistranti*

Tayanch so`zlar: Vatan, Vatanga e`tiqod, vatanparvarlik, tarbiya, xalq og`zaki ijodi, sinfdan tashqari ishlar, ekskursiya, immunitet.

Ключевые слова: Родина, вера в родину, патриотизм, образование, фольклор, внеклассные мероприятия, экскурсия, иммунитет.

Key words: Homeland, faith in the Motherland, patriotism, education, folklore, extracurricular activities, excursion, immunity.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida vatanparvarlik, Vatanga e`tiqod tuyg`ularini rivojlantiruvchi usullar, vositalar hamda yo`nalishlar tahlil etilgan.

Резюме:

В данной статье анализируются методы, средства и направления, развивающие у учащихся младших классов чувство патриотизма и веры в Родину.

Summary:

This article analyzes methods, tools and directions that developed feelings of patriotism and faith in the motherland in elementary school students.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar natijasida ko`plab sohalar, jumladan: iqtisodiyot, tibbiyot, ta`lim sohalarida juda katta o`zgarishlar ro`y bermoqda. Bu islohotlar yildan-yilga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu bilan birga o`quvchi yoshlar ongining o`zgarishi va dunyodagi barcha o`zining tengdoshlari bilan teng muloqot qila olishi hamda jahon talablariga mos, sifatli ta`lim olishlari uchun ta`lim tizimi tubdan o`zgartirildi. Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, o`zligini anglagan, milliy g`urur va iftixorga ega bo`lgan, Vatanga e`tiqodi yuqori bo`lgan yoshlarni tarbiyalash zaruratga aylandi.

“O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”da Vatan tushunchasiga shunday ta`rif keltiriladi: Vatan – kishilarning tug`ilib o`sgan joyi, yurti, mamlakati,



tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlarini majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. Vatan tuyg'usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, uning insonda mavjud psixologik his-tuyg'u ekanligiga alohida e'tibor qaratsak. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, yoshlarni Vatanga e'tiqodli qilib tarbiyalash pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekanligi – bu insoniyat uchun yer kurrasining o'ziga makon etgani bo'lsa; millatning paydo bo'lishi va qaysi millat qayerni Vatan deb bilishi esa bilish faoliyatining xususiy yo'lini belgilaydi. E'tiqod inson ma'naviyatining yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, uning poydevorini bolalikdan boshlab yaratish, sog'lom e'tiqodli insonlarni tarbiyalash bilan barobardir.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da e'tiqodga shunday ta'rif keltirilgan: “E'tiqod” - arabcha so'z bo'lib, qattiq ishonch, mahkam ushlangan maslak, dunyoqarash: biror kimsaga yoki narsaga bo'lgan ishonch, e'tiqod, unga bog'langan umid; Xudoga, yoki umuman biror g'ayritabiiy kuchga ishonish; imon, din ma'nolarini anglatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqod tushunchasini shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu tushunchalar xalqimizning o'tmish tarixi va bugungi kunda amalga oshirayotgan olamshumul ishlarining o'ziga xos talqinini boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongiga ularning o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazish orqaligina shakllanishi mumkin. Bunda biz ajdodlarimiz merosidan, xalq og'zaki ijodi namunalaridan hamda bugungi kundagi O'zbekiston yoshlarining yutuqlaridan namunalar keltirib o'quvchilarga vatanparvarlikni o'rgatishimiz mumkin. Har bir o'quvchiga ajdodlarimizning Vatanimiz oldidagi xizmatlari, O'zbekistonni mustaqil bir davlat qilish yo'lidagi ishlar, hattoki Vatan uchun jonidan ham voz kechgan qahramonlar haqida ma'lumot berish o'quvchilarning vatanparvarlik nima ekanligi haqidagi tushunchalarini kengaytirish imkonini beradi.

Dars – ta'lim va tarbiya ishlarining markaziy qismi hisoblanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish bilan birga, ularni milliy qadriyatlarimiz haqida tushunchaga ega bo'lishida, milliy qadriyatlarda aks etgan axloqiy sifatlarni o'quvchilarda hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Darsga mas'ul shaxs sifatida o'qituvchi darsdan ko'zlangan



maqsadga erishmog'i ya'ni, o'quvchilarga kerakli bilim, ko'nikma, malakalar bilan birga uning tarbiyaviy maqsadini ham ro'yobga chiqarishi lozim. Har bir o'quvchiga o'zini mustaqil shaxs ekanligi, shaxsiy fikri borligini tushuntirishi hamda, o'quvchilarning shaxs sifatida hurmat qilinishini ta'minlashdan boshlash kerak. O'zini hurmat qilgan inson hamma narsani o'ziga munosibii tanlaydi va maqbul ishlarni bajaradi. O'zini anglagan yoshlar mas'uliyat aynan o'zlarida ekanligini, uyda ota-ona, maktabda o'qituvchi aytgani yoki topshiriq bergani uchun emas o'zlari uchun tozalikka, ekologiyaga, tartibga, kiyinish, ovqatlanish va boshqalarga e'tiborli bo'lishni boshlashadi. Ana shunda ular o'zlari yashayotgan uy, ko'cha, mahalla, shahar hamda Vatanlari kimningdir xizmatlari evaziga emas, o'zlarinig harakatlari orqali rivojlanishi, gullashini anglab yetadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlikni shakllantrishda Tarbiya darsligi dasturga kiritilgan bo'lib, mavzulari o'quvchilar uchun juda tushunarli va ularning hayotiy tajribalariga mos keladi. Darslikda vatanparvarlik g'oyasi ilgari surilgan. Bundan tashqari, Ona tili va o'qish savodxonligi darsligining ham vatanparvarlikka bag'ishlangan mavzulari nihoyatda ko'p.

Bundan tashqari o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda yana sinfdan tashqari ishlar ham katta yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Mustaqillik bayrami, 2- sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8- mart, Navro'z bayrami, Gullar, Mehrjon, Hosil bayramlari kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqod tushunchasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi bizga vatanparlik tushunchasini shakllantirishimiz uchun juda muhim manba hisoblanadi. Chunki, maqollar, ertaklar, topishmoqlar, qo'shiqlar, yallalar, dostonlarda asosan Vatan tasviri, yurt tinchligi hamda mehnatsevarlik g'oyalari ilgari surilgan. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllaridan biri bo'lgan ekskursiya ham juda katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tarixiy obidalarga, muzeylarga uyushtiriladigan sayohatlar ularda katta tasavvurlar uyg'otadi, kitobda o'qigan narsalarini jonli ko'rganday bo'lishadi. Bu ularda mavhum tushunchani anglashlarida ko'makchi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlikni shakllantirishimiz uchun uzliksiz, tizimli ta'lim va tarbiya jarayonini olib borishimiz lozim. Juda tezkor axborot almashinuv zamonida



shu axborotlardan to`g`ri va oqilona foydalan oladigan, mustaqil fikrli, immunitetga ega bo`lgan yosh avlodni tarbiyalash, bizning asosiy vazifamizdir. Iqtisodiy rivojlanish sari katta odimlar bosib borayotgan O`zbekiston uchun bu nihoyatda muhim sanaladi.

Adabiyotlar:

1. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, O`zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005
2. “O`zbek tilining izohli lug`ati”, “O`zbekiston nashriyoti”, Toshkent - 2021
3. R.Mavlonova, O.To`rayeva, K.Xoliqberdiyev Pedagogika, “O`qituvchi” nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2013
4. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent - 2010
5. N.Ismatova va boshqalar 2-sinf uchun Tarbiya darsligi. T: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.



МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА АТРОФ-ОЛАМ БИЛАН ТАНИШТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Мамажоновна Х.Ш.

Қўқон давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: атроф муҳит, қонуният, экскурсия, интеграция, мотивация, методология.

Ключевые слова: окружающая среда, законность, экскурсия, интеграция, мотив, методология.

Key works: environment mukhit, law, excursion, integration, motvation, methodology.

Резюме:

Мактабгача ёшдаги болаларга атроф муҳит билан таништириш, атроф муҳитда содир бўлаётган жараёнларга болажонларни муносабатлари, уларга бўлган кизиқишларини ортириш ва атроф оламда содир бўлаётган воқеа ва ҳодисаларга муносабатларини шакллантириш методикаси ёритилган. Мактабгача бўлган болаларга атроф оламга бўлган қарашларини ўргатишда уларга эҳтиёткорона ва оқилона бўлиш каби омиллар келтирилган.

Резюме:

Освещены методы приобщения дошкольников к окружающей среде, повышения их интереса к процессам, происходящим в окружающей среде, и формирования их отношения к событиям и явлениям, происходящим в окружающей среде. Такие факторы, как осторожность и рациональность, упоминаются при обучении дошкольников их взглядам на окружающий мир.

Summary:

The methodology for introducing children of preschool age to the environment mukhit, the relationship of children to the processes taking place in the environment mukhit, the order of their interest in them and the formation of their relationship to what is happening in the surrounding world and to the host is covered. In teaching preschool children their views on the world around them, factors such as being ethical and rational are cited.

Мамлакатимизда сўнги йилларда олиб борилаётган ислохатлар, айниқса мактабгача таълим муассасаларига бўлган муносабатларни кенг қўламда тарғиб қилишини юртимизда ҳар бир фуқаро ҳис қилиб келмоқда. Республикамизда мактабгача таълим муассасаларига бўлган эътибор кундан кунга кучайиб бормоқда. Айниқса, мактабгача таълим муассасаларида “Илк қадам” дастурини жорий этилиши ёш болаларимизни нутқини, ақлини, зехнини ва дунё қарашларини шакллантиришда муҳим



туртки вазифасини ўтайди. Шунингдек, бу дастур мактабгача ёшдаги болажонларни чуқур уйловчи, таълим- тарбия жараёнида замонавий технологиялар ва кўргазмали қуроллар билан ишлаш технологияларини ҳам ривожлантиришга ёрдам беради.

Мактабгача ёшдаги болаларимизга таълим тарбия бериш жараёнида болажонларимизни мустақил фикрлайдиган, маънавий қадриятларимизни эозлайдиган, табиатни ва табиий бойликларни асрайдиган, ватанимизга бўлган меҳр-мухаббатларини юксалишига ҳисса қушишимиз керак бўлади. Бу борада халқимизда шундай буюк мақол бор “ Нимани эксанг шуни ўрасан”. Ушбу мақолни болажонларга тарғиб қиладиган бўлсак, уларни одобига, атроф – оламга бўлган ижобий ёки салбий муносабатлар албатта уларнинг ота – онасидан, маҳалласидан ёки боғчадаги таълим тарбияси натижасида маълум миқдорда шаклланади. Шунинг учун ҳам биз болажонларга таълим тарбия бериш чоғимизда эҳтиёткорона бўлишимиз талаб этилади.

Атроф олам ҳақидаги билимлар мактабгача таълим муассасаларидаги болаларга 5-6 ёшдан аста секин 6-7 ёшгача мураккаблашиб боради, бу босқичда болаларни алоҳида предмет ва атроф оламдаги ҳодисалар билан таништириш етарли эмас, уларга сабабий- оқибатларнинг алоқадорлиги, олам ва унинг тузилиши ҳақида батафсил маълумот бериш лозим. В.Логонова ва И.Бабаевларнинг фикрича: “6-7 ёшдаги болаларда “Инсон-табиат-жамият” тизимининг алоқадорлиги ва қонуниятларини тасаввур қилиш жараёни ҳосил бўлади. Мавжуд ва мавжуд бўлмаган табиий объектларни белгилари асосида дифференциация (табақалаштириш) жараёни кечади. Ўзаро муносабатлар тушунтирилади ижтимоий муносабат ва табиат оламининг ўзгаришлари қонуниятлари, элементар алоқалари ўргатилади”. Натижада боғча тарбияланувчи болалар атроф олам ва борлиқдаги предмет, ҳодисалар, жараёнлар ва уларнинг сабаб ҳамда оқибатларини чуқур англайдилар. Мактабгача таълим тарбияланувчи болаларга дидактика хусусида фикр юритилганда Ф. Фребель, М. Монтессори, Л. Венге, А.Усова ва бошқалар томонидан илгари сурилган тамойилларнинг бугунги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмаганлиги кўзга ташланади.

Таълим тарбия беришда биз болажонларга турли таълим методологияларидан фойдаланишимиз мумкин. Масалан, болажонларни атроф муҳит билан таништиришда “Видео экскурсия ” технологиясидан ҳам бемалол фойдалана олишимиз мумкин. Чунки бугунги кунда барча мактабгача бўлган таълим муассасаларида замонавий теливизорлар билан таъминланган.



“ Видио экскурсия ” давомида тарбиячи болажонларга турфа олам дастуридан ҳам бемалол фойдаланишлари мумкин. Бунинг учун тарбиячи:

1. Атроф олам тўғрисида видеороликларни болажонларга намойиш этади. Масалан ўсимликлар. Болажонларга ўсимликларни қандай ўсиши, ривожланиши, мевалар тугиши, меваларини пишиши, сўнгра, куз фасли келганида барглари сарғайиб қуриб қолиши, ёки тўкилиши ҳақида маълумот берилади. Видио ролик орқали болажонларимиз ўз кўзлари билан ҳар бир ўсимлик олами ривожланиши учун куёш нури, ёруғлик, намлик, тупроқ керак бўлишини кўриб боришади. Шунингдек, ўсимликлар инсонлар ҳаёти давомида қандай муҳим аҳамият касб этиши ҳам кўрсатилиб борилади. Ўсимликлар инсон ҳаётида муҳим рол ўйнашини такидлаб ўтишлари зарур бўлади.

2. Видиоролик давомида тарбиячи болажонларга тушинмаган жойларини тушинтириб, изоҳлаб боришлари керак.

3. Видеоролик тугаганидан сўнг тарбиячи тарбияланувчи болажонлар билан савол-жавоб олиб боришлари керак. Масалан тарбиячи тарбияланувчи болажонларга:

1. Ўсимлик деганда нимани тушинасиз?
2. Ўсимликлар ўсиши ва ривожланиши учун нималар керак?
3. Сиз қандай ўсимликларни биласиз?
4. Гуллар деганида нимани тушинасиз?
5. Хона ўсимликларичи?
6. Уйингизда қандай ўсимликлар бор? Каби саволлар бериб борилади.

1. Савол-жавоб тугаганидан сўнгра тарбиячи болажонларга хоҳласа расмлар ҳам чиздириб кўришлари мумкин.

2. Болалар ихтиёрий равишда (трафаретли минора, минора ичига донлар терилади, расм чизади, бўййди, мозаика йиғади, пластилин ва аппликация) тайёрлайди.

3. Бугунги кунда мактабгача таълим ёшдаги болаларни ҳаёт хавфсизлиги фаолияти билан таништириш ҳам долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Болалар билан турли мавзуларда суҳбатлашиш, хавфсизлик дақиқаларини ўтказиш мумкин. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги қоидалари билан таништиришда ижтимоий-ахлоқий тарбияга эътибор қаратилиши тавсия этилади. Бироқ ҳозирги кунда кўргазмали куруллар етарлича эмас. Шу боисдан қисқа серияли (олов ёқмаслик, гугурт ўйнамаслик, электр токига яқинлашмаслик, ўтқир тиғли буюмларни ушламаслик, баланд биноларга чиқмаслик, кўп қаватли уйларда деразадан узокда бўлиш) болаларнинг ёш хусусиятига мос расм ва плакатлар намойиш этилади.



4. Тадқиқотимизда мактабгача 5-7 ёшдаги болаларни атроф олам билан таништириш компонентлари тизимлаштирилди.



Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки мактабгача ёшдаги барча болажонларни табиатни севишга ва уни ардоқлашга ундашимиз зарур. Зеро табиатни севган болажонлар уни эҳтиёт қилишади, ардоқлашади. Табиат ва атроф муҳит туғрисидаги барча тасавурга эга болажонлар димо интилувчан, қизиқувчан болажонларга айланишади. Уларга бу жараёнда таълим тарбия беришда ўзбек халқимизнинг мақолларидан, ривоятларидан ҳам фойдалансак мақсадига мувофиқ бўлар эди.

Адабиётлар:

1. Хурвалиева Т.Л. Мактабгача ёшдаги болаларни атроф олам билан таништиришнинг самарали йўллари. Academic research in educational sciences scientific journal volume 1, issue 3, 2020.- PP.931-936.
2. Хурвалиева Т.Л. Педагогическое творчество - как фактор качество образования// Сборник материалов XI Международной научной конференции студентов и молодых ученых «Наука и образование-2017» – Астана, 2017– С. 4543-4545.



3. Абдужалилов С. "Бувайда тумани ер ресурсларидан фойдаланишнинг геоэкологик асослари." Экономика и социум 1-2 (104) (2023): 330-335.
4. Qo'ziboyeva, Ozodxon, and Zubayda Sherbayeva. "Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri." Farg'ona davlat universiteti 1 (2024): 6-6.
5. Ozodxon, Qo'ziboyeva, and Umida Isakova. "Landshaftlar dinamikasi va rivojlanishni tadqiq etishning ilmiy-amaliy masalalari." UzMU xabarlari 3.3.1 (2024): 257-260.
6. Ozodxon, Qo'ziboyeva, and Umida Isakova. "Landshaftlar dinamikasi va rivojlanishni tadqiq etishning ilmiy-amaliy masalalari." UzMU xabarlari 3.3.1 (2024): 257-260.
7. Азимжонова, Ш. "Фарғона водийси табиий ресурслардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг географик асослари." Экономика и социум 1-2 (104) (2023): 336-341.
8. Ozodxon, Qo'ziboyeva, and Umida Isakova. "Landshaftlar dinamikasi va rivojlanishni tadqiq etishning ilmiy-amaliy masalalari." UzMU xabarlari 3.3.1 (2024): 257-260.
9. Qo'ziboyeva, O. "Sobirova N. Farg'ona vodiysi landshaftlarining rivojlanish tendensiyasini o'rganilish tarixi." Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi.-Samarqand (2021): 74-77.
10. Кўзибоева, Озодхон. "Наргиза Хомидова Фарғона водийсини табиий географик жихатдан районлаштириши." О'ЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ХАВАРЛАРИ 3.1 (2022).
11. Муминов, Дониёр. "Развитие географических основ для оптимизации геоэкологических ситуации юго-западной Ферганы." О'ЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ХАВАРЛАРИ 3.1 (2023).
11. Mahmudovna, K. O., Gulomovich, M. D., Oripovna, A. K., & Dilshoda, Y. (2022). geoeological Basis of south Fergana nature protection and rational use of natural resources. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(8).



МАКТАБГАЧА ҒШДАГИ БОЛАЛАРДА КРЕАТИВ ҒНДАШУВ АСОСИДА ИННОВАЦИОН ФИКРЛАШ КУНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Қодирова Д.

Қўқон давлат педагогика институту

Таянч сўзлар: креативлик, креатив ғндашув, тафаккур, касбий компетентлик, потенциал креативлик, педагогик креативлик, креатив қобилиятлар, креатив компетентлик.

Ключевые слова: креативность, творческий подход, созерцание, профессиональная компетентность, потенциальная креативность, педагогическое творчество, творческие способности, творческая компетентность.

Key words: creativity, creative approach, contemplation, professional competence, potential creativity, pedagogical creativity, creative abilities, creative competence.

Резюме:

Мактабгача болаларда креатив ғндашув асосида инновацион фикрлаш, ғш болалар тафаккурини ривожлантириш, мактабгача таълим тизимини болпалар ривожига қўшган ҳиссалари ғритилган. Мактабгача ғшдаги болаларда табиатга бўлган қизиқишларини ривожлантириш, табиат ходисалари билан таништиришнинг инновацион методлари ишлаб чиқилган.

Резюме:

На основе творческого подхода к детям дошкольного возраста, инновационного мышления, развития мышления у детей младшего возраста освещается вклад системы дошкольного образования в развитие болpas. У детей дошкольного возраста разработаны инновационные методы развития интереса к природе, ознакомления с животными природы.

Summary:

On the basis of a creative approach in preschool children, innovative thinking, the development of thinking in young children, the contribution of the preschool education system to the development of болpas are highlighted. In preschool children, innovative methods of developing their interest in nature, introducing nature animals have been developed.

Республикамизда таълим тизимини такомиллаштириш, жумладан мактабгача бўлган ғш болаларни кериативлик потенциалини юксалтириш юзасидан кенг миқёсли чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилмоқда. Мактабгача болаларда кераатив ғндашиш асосида таълим –тарбия жараёнини модернизация қилишнинг устивор йўналишлари ва тамойиллари ишлаб чиқилган.



Бу борада Республикамизда ПҚ-2707-сон “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2017 йил 9 сентябрдаги ПҚ-3261-сон “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги, 2018 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3955-сонли “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги, 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари, Мактабгача таълим вазирининг 2019 йил 30 августдаги 155-сон “Давлат мактабгача таълим ташкилотлари педагогларининг иш ҳужжатларини тасдиқлаш тўғрисида”-ги буйруғида белгилаб берилган мактабгача таълим тизимини фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳалари билан интеграциялашувини таъминлаш бугунги куннинг долзарб муаммоси сифатида қаралиши мактабгача соҳа йўналишида фаолият юритаётган мутахассисларнинг педагогик маҳорати ва креатив қобилиятларига нисбатан талабларнинг ортиб бораётганлигини кўрсатади. Бундай талабларнинг юзага келиши илғор хорижий тажрибани кенг жорий этган ҳолда ўқув-услубий жараёнга инновацияларни жорий этиш, тарбиячиларнинг креатив потенциалини ривожлантириш ва педагогик компетентлик билан қуроллантириш муҳим педагогик аҳамият касб этади.

Мактабгача ёшдаги бўлган болаларда таълим соҳасида олиб борилаётган кенг қамровли ишлар натижасида бир қатор ҳужжатлар, таълим сифати ва самарадорлигини ошириш бўйича меърий-ҳуқуқий базани яратиш имконини берди.

Шу муносабат билан мактабгача таълим муассасаларида “Илк қадам” ўқув дастури ишлаб чиқилди. Мазкур дастур асосида ёш болаларни замонавий таълим ва инновацион технологиялар, таълим - тарбия соҳасидаги ўзгаришларни узлуксиз таълим тизимининг энг қуйи бўғини мактабгача таълим тизимидан бошлаш, ҳар томонлама соғлом ва баркамол бола шахсини тарбиялаш ва мактабга тайёрлаш, соғлом генофондни, етук кадрларни тарбиялашда ғоят муҳим вазифалар сифатида кўрсатиб ўтилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги қароридан мактабгача таълимда ёш ўқувчиларда ёшларидан келиб чиқиб



фанларни ривожлантирувчи муҳитнинг инновацион технологиялари ва модулларини ишлаб чиқиш, мактабгача ва умумий бошланғич таълим изчиллигининг мазмун ва процессуал компонентларини оптималлаштириш, мактабгача ёшдаги болаларнинг бадиий-эстетик ва мусиқий тарбия ҳамда таълим даражасини ошириш, эрта ёшдан бошлаб STEAM ўқитиш асосларини жорий этиш муҳим вазифа сифатида кўрсатиб ўтилди. STEAM асосида мактаб ўқувчиларига таълим тарбия беришда асосан табиат ва атроф муҳит, информатика, биология, кимё, физика, математика фанлари билан уйғун тарзда ривожлантириш ишлари олиб борилмоқда. Болаларни тарбиялашда илғор хорижий давлатлар тажрибасида инновацион дастурларни ишлаб чиқиш ва уларни ҳаётга тадбиқ қилиш асосий вазифамиз ҳисобланади.

Мактабгача бўлган ёш болаларни тарбиялашда аввало табиат билан таништириш ва табиий муҳитни асраб авайлаш муҳим аҳамият касб этади. Табиат билан таништиришда аввало ўқувчиларга атроф-муҳит ва атроф муҳитда бўлаётган жараёнларга ўз муносабатларини билдириш тўғрисидаги маълумотларга эътиборларини қаратишлари керак. Масалан: ҳозир куз фасли. Бу жараёнда ёш болаларга биз қуйидаги саволлар билан мурожат қиламиз.

- атрофимизда қандай жараёнлар содир бўлмоқда?
- дарахтлар барги сарғаймоқда.
- ҳарорат нима бўляпти совуққотяпсизларми?
- ҳа эрталаб, кечқурун совуққотяпмиз.
- меваларимиздачи ўзгаришлар борми?
- ҳа меваларимиз росса пишди, ширин бўлиб пишди.
- сиз қандай кийимлар кийяпсиз?
- биз асосан иссиқроқ кийимлар кийиб юрибмиз.

Бу саволлар натижасида ўқувчиларимиз атроф муҳитга, табиатга бўлган қизиқишлари орқали кузатувчанлиги ҳам ортиб боради.

Креатив ёндашув асосида мактабгача ёшдаги болалар нутқини ўстириш ва тафакқурини ривожлантиришда илмий-назарий ва амалий жиҳатдан қуйидаги вазифаларни амалга оширишга эришиш мақсадга мувофиқдир: -замонавий педагогик технологиялар ва услубларни инобатга олган ҳолда мактабгача таълим муассасаларига педагог кадрларни таълим жараёнига креатив ёндашувларига эришиш, ўқув режа ва дастурларини тақомиллаштириш; - катта ва мактабга тайёрлов гуруҳи болаларининг нутқ ва тафакқурини Шарқ мутафаккирларининг илмий меросига асосланган видео тасвирлар воситасида шакллантириш; - мактабгача таълим сифа-



тини ошириш, мактабгача таълим муассасаларида болаларни мактабга сифатли тайёрлашни тубдан яхшилаш, таълим-тарбия жараёнига жаҳон амалиётида кенг қўлланиладиган замонавий таълим дастурлари ва технологияларини жорий этиш; - мактабгача таълим муассасасининг кўргаз-мали-ривожлантирувчи муҳити мазмуни маданий-тарихий қадриятлар: миллий ва минтақавий анъаналар; табиат, иқлимдан келиб чиқувчи миллий хусусиятларини англаб олишга бўлган эҳтиёжни таркиб топтириш; - болаларни ўз билими, ўз кучи, ўз садоқатини аямасдан Ватани равнақи учун ҳисса қўша олишга тайёрлаш; - мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларини Ватанига фидоий, жасур, соғлом, билимли ва ҳар томонлама етук, юқори ахлоқли пок инсон бўлишга йўллаш; - глобаллашув ва техноген цивилизация шароитида болаларни ахборот хавфсизлиги талабларини англаб етишга йўллаш, ижодкорлик фазилатларини таркиб топтириш; - ватанпарварлик, инсонпарварлик, меҳнатсеварлик каби хислатларни таркиб топтириш; - болаларнинг нутқ ва тафаккурини шакллантиришда “Ўзлуксиз таълимоила ва маҳалла”нинг роли муҳимлигини ҳисобга олиш зарур.

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги ПҚ-2707-сон “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

2017 йил 9 сентябрдаги ПҚ-3261-сон “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. 2018 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3955-сонли “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори.

Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. – М.: «Педагогика», 1977. –С. 222.

Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1990. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустақил фикрлаш. – Т.: «Шарк», 2000.

Нишоновна З.Т. Мустақил ижодий фикрлаш. – Т.: «Фан», 2004



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ISH SINFI O‘QITUVCHILARINING DISKURSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Dauletmuratova A.

Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktranti

Tayanch so‘zlar: diskursiv kompetensiya, dialogik replika, nutq ko‘nikmalari, kommunikativ matn, nutqiy muloqot, mulohaza.

Ключевые слова: дискурсивная компетентность, диалогическое повторение, речевые навыки, коммуникативный текст, речевое общение, рассуждение

Key words: discursive competence, dialogic repetition, speech skills, communicative text, speech communication, reasoning.

Резюме:

Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning diskursiv kompetensiyasini rivojlantirishda haqida va ushbu soxada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan.

Резюме:

В этой статье рассказывается о педагогике в развитии дискурсивной компетентности студентов высших учебных заведений и анализируются научные исследования, проведенные в этой области.

Summary:

This article describes pedagogy in the development of discursive competence of students of higher educational institutions and analyzes scientific research conducted in this field.

Jahon amaliyotida axborot kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiyoti mamlakatlarning har tomonlama raqobatdoshligini oshirishi, katta oqimdagi axborotlarni to‘plashi va umumlashtirishi, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Discours lotinchadan “discursus” – “chapga va o‘ngga yugurish, harakat, aylanma harakat, suhbat, gaplashuv” – nutq, til faoliyati jarayoni, internet tizimi orqali gapirish uslublari sanalishi ma’lum.

Tadqiqotchilar diskursiv kompetensiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha O.I.Kucherenko, N.P.Golovinalar, professional nutq qobiliyatini shakllantirish



bo'yicha E.V.Musnitskaya, talabalarining nutq ko'nikmalari bo'yicha A.I.Ivanchenkolar tomonidan tadqiq etilgan.

Jahon tadqiqotlarida diskurs tahlil muammolarini tadqiq etishga Z.Klemensevich, U.Mukarovskiy, O.Essen, N.YU.Shvedova, M.L. Mixlina T.G.Vinokur olimlar diskurs xususiyatini o'rgangan bo'lsa-da pedagogik ta'limda maktab sinfxonasidagi diskurs holati va uning baholasha muammolari tadqiq etilmagan.

Tadqiqotchilardan S.Boymirzaeva, L.Raupova, B.O'rinboev, A.H.Hazratqulov va G.Toirova kabi olimlar diskurs, kommunikativ matn, nutqiy muloqot tushunchalari bilan bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Tadqiqotchi G.Bekimbetova diskursiv kompetensiya (og'zaki yoki yozma nutqni rivojlantirish, gaplarni tuzish qobiliyati kiradi. Buning uchun turli sintaktik va semantik vositalardan foydalanish, boshqa insonning fikrlarini, xabarlarini tushinish qobiliyati) deya hisoblaydi.

Talabalarga teran bilim, shu bilan birga, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodiy va yondashuv ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat beradi. Shu jumladan, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ijodiy energiyani ochib berishi bilan yetakchi bo'lib, bu talabalarning faolligini oshirishga va hamma uchun o'quv natijalarini yaxshilashga olib keldi

S.N.Mitina bo'lajak o'qituvchining nutq qobiliyatini shakllantirish muammosini tadqiq qilishda shaxsiy kommunikativ mahoratdan tashqari, tahlil qilinadigan tushunchaga tilshunoslikning asosiy tushunchalarini bilishni ham kiritadi.

Amerikalik tadqiqotchi Z.Xarrisning «Diskurs tahlil» nomli maqolasida ushbu atama ilk bor muomalaga kiritilgan. Bugungi ilmiy jamoatchiligimizda "dialog" atamasiga "diskurs" tushunchasini yaqinroq tutish odat tusiga aylangan. Ammo, diskurs atamasi so'zlashuv nutqidagi mavjud yuqori hajmli fraza, shu boisdan, u mavjud frazalar bilan o'zaro aloqadorlik haqidagi yo'nalish hisoblanadi. Aksincha, diskursiv tahlil natijasida til birligi bo'lgan gapning yangi o'ziga xos lingvistik qirralari sifatida ham o'rganilgan.

L.Raupovanning 2010 yilda nashr qilingan "Dialogik nutqning diskursiv talqini" nomli monografiyasi dialogik nutqda ifoda planiga ko'chadigan mazmun va shakllarni diskurs sifatida namoyon etilishini sohaga qiziquvchilarga taqdim sifatida qabul qilish mumkin

E.V.Soyfer tomonidan berilganligini kuzatdik: "Nutq kompetentsiyasi, boshqacha aytganda, diskursiv, turli xil nutq turlarini yaratish va tushunish qobiliyati bilan bog'liq". Bundan tashqari, diskurs "muloqotning ishtirokchilari (va ularning xususiyatlari), shuningdek, xabarni ishlab chiqarish va idrok etish



jarayoni to‘g‘risida tushuncha beradigan ijtimoiy kontekstni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa" sifatida tushuniladi.

Diskurslarda ya‘ni nutq kompetentsiyasida muayyan shaxs to‘plangan sub‘ektiv mazmuni amalga oshiradi, tahlil qiladi va refleks natijalarini tarjima qiladi, o‘zini va shaxsiy tajribasini tartibga soladi. Shu boisdan nutq kompetentsiyasi ayrim manbalarda “diskursiv kompetentsiya” deb ham ataladi. Biznincha diskursiv kompetentsiyaning asosi nutq kompetentsiya hosoblanadi. Bu bo‘yicha L.I.Kirilina nutq kompetentligini maqsad, soha, muloqot vaziyatiga mos nutq xulq-atvorining o‘z dasturlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui qamrab olishini ta‘kidlagan holda, nutq kompetentsiyasining shakllanishidagi quyidagi lisoniy omillarni ajratib ko‘rsatadi:

a) nutq tilshunosligining asosiy tushunchalari – uslublar, nutq turlari, tavsifning tuzilishi, mulohaza, rivoyat, matndagi so‘zlar va jumalarni bog‘lash usullarini bilish;

b) matnni tahlil qilish mahorati va malakasi;


v) muloqot ko‘nikmalari – adresat va uslubni hisobga olgan holda muloqotning turli sohalari va vaziyatlariga nisbatan nutqiy muloqot ko‘nikma va malakalari.

N.N.Romanova va A.V.Filippovanning qayd etishicha, nutq mahorati tushunchasida, "ushbu tilda nutqning erkin amaliy muloqot, ham dialog shaklida, ham monolog shaklida to‘g‘ri, ravon va dinamik gapira olishimiz, eshitiladigan va o‘qiladigan nutqni yaxshi tushunishimiz, shu jumladan, har qanday funksional uslubda nutqni ishlab chiqarish va tushuna olish lozim. Nutq kompetentsiyasi til kompetentsiya, nutqning keng amaliyoti, turli janrdagi o‘qish adabiyotlarining katta hajmi bilan bog‘liq va kommunikativ kompetentsiyani aniqlaydi.

Diskurs haqida professor V.I.Tolstix odam «o‘zining hayotdagi o‘rni va qobiliyatining qay darajada ekanligini to‘la anglab etishi uchun dialogik diskursga ehtiyoj sezadi. Xuddi mana shu ehtiyoj shaxsning aniq bir xarakter, aniq bir tip sifatida shakllanishiga yordam beradi»deya ta‘kidlab o‘tgan.

Birmingem universiteti professorlari Sinclair va Coulthard (matn davomida – Sinklear, Kaulfardlarning diskurs o‘qituvchi-o‘quvchi so‘zlashuvi modeli sifatida qarab universitetda maktab darslaridagi so‘zlashuv diskursni tahlil qilib, dastlabki tadqiqot sifatida maktab sinfxonalarida diskurs strukturasi o‘rganildi.

Bizning nazarimizda, nutq kompetentsiyasining xarakterli mohiyati diskurs xususiyatga egali va o‘rganuvchilarning verbal (og‘zaki) xatti-harakati sifatlarini aks ettirishligidan iborat. Nutq kompetentsiyasi bir vaqtning o‘zida professional faoliyatda ichki tajriba uchun aks ettirish va ishga tushirish me-



xanizmi sifatida xizmat qiladi. Insonning kontseptual va hissiy tajribasi, asosan, belgi, ishora kommunikatsiyalari orqali namoyon bo'ladi, uzatiladi va qabul qilinadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda nutqni idrok etish, nutq faoliyatining mantiqiy va ekspressiv shakllari, sheriklariga ta'siri va boshqa jarayonlarda namoyon bo'ladi.

Biz pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning

diskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda quyidagi xususiyatlarini belgilash maqsad qilindi. (1-rasm)

Demak, biz talabalarning diskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda qo'yidagi takliflarni berish mumkin:

a) pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda talabaning nutq kompetentligini shakllantirish jarayoni samaraliroq bo'lsin;

b) nutq kompetentligini muvaffaqiyatli shakllantirish nafaqat nutq faoliyatiga oid maxsus fanlarini o'rganishda, masalan, "O'qituvchi nutq madaniyati" fani kabi, balki o'quv rejasiga muvofiq talabalar tomonidan o'rganiladigan barcha boshqa fanlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak;

v) kelajakdagi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligidagi har qanday akademik intizom talabalarning nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Xullas, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasiga doir mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. Diskursiv kompetentsiya nutq-fikrlash faoliyati, lug'at boyligi, intellektual va salohiyati, kompetentli milliy kadr darajasiga etkazishga lisoniy omil sifatida xizmat qiladi.

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining niyatlari, fikr-mulohazalari, ichki kechinmalarini muayyan maqsadlarda ifodalash uchun faqat o'zigagina xos va mos nutq qobiliyatidan samarali foydalanishi, talabalarning kommunikativ qobiliyatining buyuk siyмосi.



3. Diskursiv kompetensiya mazmun-mohiyatiga ko'ra, muayyan bilimni egallash, axborotni olish va uzatish, kommunikativ aloqa va rag'batlantiruvchi (motivatsiya) vazifalarni bajaradi. B vazifalar o'zaro bir-biri bilan bog'liqlikda bo'ladi, muayyan nutqiy jarayonda esa biri ikkinchisiga o'tishi ham mumkin.

Adabiyotlar:

1. Klemensiewicz Z. Zarus ksladni polskiej, Warszawa, 1957
2. Mucarousky U. Dialog a monolog w "Lesty filologicke", Praha, 1940. - № 6.
3. Essen O. Grundzuge der hochdeutschen Satzintonation, Hamburg
4. Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи: Автореф. дисс ... д-ра филол.наук. - М.: 1958.
5. Михлина М.Л. Из наблюдений над синтаксисом диалогической речи: Автореф. дисс ... канд. филол.наук. - Л.: 1955.
6. Винокур Т.Г. О некоторых синтаксических особенностях диалогической речи в современном русском языке. :Автореф. дисс ... канд. филол.наук. - М.: 1953.
7. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фан. д-ри дис. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 21; Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипрекатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи. Филол. фан. док-ри. ... дис. – Тошкент, 2012. – Б. 53.
8. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент, 1974.
9. Ҳазраткулов А.Ҳ. Диалогик нутқ синтаксисининг баъзи хусусиятлари (диалогик бирлик ҳақида методологик кўргазма). – Қарши, 1978. – Б. 36; Тоирова Г. Нутқий мулоқотнинг лисоний вербал ва лисоний новербал воситалари хусусида (саломлашиш мисолида) // БухДУ илмий ахбороти, 2018. – № 1. – Б. 67-74.
10. Bekimbetova G.R. Diskursiv kompetensiya asosida talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2023, -№9. –В.83-85. (13.00.00; №31).
11. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. М., МГУ, 1998, с. 142.
12. Митина С.Н. Проектирование в формировании речевой компетенции будущего учителя // Высшая школа. 2004. № 5. С. 32-35.
13. Harris Z.S. Analyse du discours // Languages, 1969. – №13. – P. 8-45
14. Dubois J., Giacomo M. et al. Dictionnaires de linguistique. – Paris: Larousse, 1973. – 516 p
15. Раупова Л. "Диалогик нутқнинг дискурсив талқини". - Т.: 2010.
16. Сойфер Э.В. Создание и восприятие дискурса в условиях управляемого общения на иностранном языке // Казанская лингвистическая школа: традиции и современность. Казань, 2003. С.70-75
17. Жуманазаров Умид Умирзакович. Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш. педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация. Жиззах – 2021.25-б
18. Кирилина Л. И. Современные технологии обучения русскому языку как средство повышения качества образования в условиях модернизации и профессиональная компетентность учителя // Современные наукоемкие технологии. 2005. № 6. С. 82-88
19. Романова Н. Н., Филиппов А. В. Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. М., 2010. С. 174.
20. Толстих В.И.С чего начинается личность: сборник. -М., 1984. - С.99.
21. Sinclair, J. McH., and R. M. Coulthard. 1975. Towards an Analysis of Discourse. -Oxford: Oxford University Press. - 265 p.



BOSHLANG'ISH SINFI O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY- AMALIY AHAMIYATI

Saburov D.

Ajiniyoz nomidagi NDPI o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tanqidiy fikrlash, o'quvchilar, ertaklar, xalq og'izaki ijodi, muommolar echimi, metodlar, baholash, yaxshilik, yamonlik, ayuorlik.

Ключевые слова: критическое мышление, учащиеся, сказки, фольклор, решение задач, методы, оценка, хорошо, плохо, хитро.

Key words: critical thinking, students, fairy tales, folklore, problem solving, methods, evaluation, good, bad, cunning.

Резюме:

Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinfi o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mavzusi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyatini o'rganadi. Ushbu mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar o'quvchilarga ertaklar, xalq qissalari, maqollar, hikmatlar kabi xalq og'zaki ijodi namunalari tanqidiy tahlil qilishni o'rgatish, ularning mantiqiy fikrlash va argumentatsiya qobiliyatlarini oshirishni maqsad qilgan.

Резюме:

Тема формирования навыков критического мышления учащихся начальных классов посредством народного творчества изучает значение народного творчества в развитии умений учащихся. Исследования, проводимые по этой теме, направлены на то, чтобы научить учащихся критически анализировать образцы народного творчества, такие как сказки, народные сказки, пословицы, поговорки, а также улучшить их навыки логического мышления и аргументации.

Summary:

The topic of formation of critical thinking skills of elementary school students through folk art studies the importance of folk art in the development of students' thinking skills. The researches conducted on this topic aim to teach students to critically analyze examples of folk art such as fairy tales, folk tales, proverbs, proverbs, and to improve their logical thinking and argumentation skills.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab



chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko‘nikmalar, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e‘tibor qaratish kerakligi va “...darsliklar quruq ma‘lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganishi” zarurligini ta’kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o‘qituvchilar majburiyatlari haqida “...bugun darsliklar o‘zgaryapti. Shunga yarasha o‘qituvchilar ham o‘zgarishi kerak”, - degan fikrlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik va ilmiy-metodik ta‘minotini mustahkamlash, ularni o‘qitishda didaktik imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilishni yanada kuchaytiradi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

“Tanqidiy fikrlash” tushunchasi XX asr o‘rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo‘lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko‘ra har bir tirik organizm muammolarni “hal qiluvchi” vazifasini bajargan. Atrofdagi ma‘lumotlar dunyo tirik organizmning ma‘nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi.

Tanqidiy fikrlash - fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarini tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu kontsepsiya murakkab va turli xil ta’riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, holis tahlil va faktlarini tekshirish.

Tanqidiy fikrlash masalasi bo‘yicha ish olib borgan xorijiy va MDH davlatlaridan V.S.Bibler, B.Burshteyn, A.V.Brushlinskiy, M.Vertgeymer, D.V.Vil’keev, Dj. Gilford, N.G.Dayri, A.Z.Zak, G.I.Ibragimov, A.A.Ivin, Z.I.Kalmikova, F.Klike, I.Ya.Lerner, A.N.Luk, A.M.Matyushkin, M.IMaxmutov, S.O.Rubinsheyn, B.M.Teplov, O.K.Tixomirov, I.Frolov, V.S.Shubinskiy E.D.Bono, J.Daniya, M.Lipman, D.Halpern, D.Klouzlar tadqiq etgan.

A.E.Petrovlarning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, bunda inson o‘z tafakkurini va uning to‘g‘riligini o‘rganadi. A.Veretennikova tanqidiy fikrlashni belgilashda, uni baholashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va jarayonlar tizimi sifatida taqdim qiladi. Rivojlanuvchi ta’lim konsyepiyasiga tayangan holda A.V.Korjuyev,




V.A.Popkovlar ta'lim berishni faqat ma'lumot olishga tenglashtirish mumkin emas, degan fikrni bildiradi.

Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini- o'zi tarbiyalaydigan, o'zini- o'zi nazorat qiladigan va o'zini- o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qa'tiy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.


Egocentrizm lotincha men va markaz degan ma'noni anglatadi. Shaxsning o'z qiziqish doirasiga bog'lanib qolishi, boshqa odamlarga narsalarga nisbatan o'zining dastlabki bilishiga oid qarashi yoki fikrini o'zgartira olmasligi, hatto o'z tajribasiga qarama- qarshi axborotlarga moslasha bilmasligidan iborat hislati. Egocentrizm negizida insonning o'z nuqtai nazariga qarama- qarshi qarashlar mavjud bo'lishi mumkinligini tan olmasligi, tushuna bilmasligi hodisasi yotadi. Shaxsda o'ziga haddan ziyod ishonch ustuvorligi tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o'ziniki bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi .

Bu muammolarni hal qilish uchun ta'lim metodikasini takomillashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va xalq og'zaki ijodini o'quv dasturiga samarali kiritish zarur bo'ladi.

Agar ma'lumot tanqidiy fikrlash mezonlarga mos bo'lmasa, u o'z tarbiyaviy ma'nosini yo'qotadi. Ular qo'yidagi mezonlarda amalga oshiriladi. (1-rasm)



Shuningdek, N.I.Merzshkinaning dissertatsiyasida ba'zi yomon hodisalar avvaliga “yaxshi” deb qabul qilinadi, yaxshi hodisalarga esa avvaliga “yomon” deb qaraladi. Demak, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi. (2-rasm)



Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: «O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalar gina, ularda tanqidiy fikrlash paydo boladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ish nuqtasi hisoplangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bulgan eng muhim savol bu hodisa qanday muommoni bujudga keltirishni anglatadigan savoldir. Faqat gina muayan muommo bilan kurashib, o'quvshi haqiyqattan ham fikrlaydi».

Tanqidiy fikrlash asosida o'quvchilarda baholash, bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Tanqidiy usullarni ko'rib chiqishda quyidagilarni alohida takidlash mumkin:

- √ O'quvchining o'qituvchi va hamkorlar bilan konstruktiv hamkorlar tuzishga intilishi;
- √ O'zgalar fikriga tayanmagan holda o'z fikrini bayon eta olishi. Yani ma'lumotlarni bilishga intilishi;
- √ Qo'yilgan vazifalarni no an'anaviy usullar bilan yechishi;
- √ Etkazilayotgan ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish, u yoki bu hodisalarni sabablarini aniqlash.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi:

1. Boshlang'ich sin o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mazmunini ochib berish;



2. O'quv jarayonida xalq og'zaki ijodi misolida boshlag'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash darajasini baholash mezonlarini aniqlash; va ularning pedagogik usullari rivojlantirish;

3. Xalq og'zaki ijodi misolida o'quvchilarining tanqidiy tafakkurini samarali shakllantirish bo'yicha ish tizimini nazariy jihatdan asoslash va ularni eksperimental ravishda sinab ko'rish;

4. Olingan natijalarni hisobga olgan holda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning maqbul modeli variantini ishlab chiqish, asoslash va amaliyotga joriy etish;

5. Pedagogik jarayonda o'quvchilar ongining tanqidiyligi va o'zini tanqid qilishining roli va o'rnini tushunishga qaratiladi.

Xalq og'zaki ijodining boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli juda muhimdir. Biroq, bu jarayonda bir nechta muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodining o'quv dasturiga qanday integratsiya qilinishi va uning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq belgilash muhimdir. O'quvchilarga qanday materiallar taqdim etilishi, ularni qanday tanqidiy yondashuv bilan ishlashlari kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar mavjud bo'lishi zarur.

2. O'qituvchilarning xalq og'zaki ijodini tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ishlatish uchun kerakli bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak. Ba'zi o'qituvchilar ushbu materiallardan qanday foydalanishni bilmasliklari mumkin, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Har bir bolada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyati va qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. O'quvchilarning turli yosh guruhlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

4. Xalq og'zaki ijodining zamonaviy pedagogik maqsadlarga mos ravishda tayyorlangan materiallari yetishmasligi mumkin. O'quvchilarga qanday tarzda va qaysi darajada fikr yuritishni o'rgatadigan, ular uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan materiallarni yaratish zarur.

5. Xalq og'zaki ijodining madaniy kontekstini to'g'ri tushunmaslik va bu bilan bog'liq axloqiy qadriyatlarni hisobga olmaslik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.


Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari Koraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 1-, 37-, Chimboy tumani 16-, 38-, Xo'jayli tumani 3-, 10-, Qorao'zyak tumani 33-sonli maktablarida amalga oshiriladi.



Tadqiqotning ishonchli amala oshirishda biz 3-sinflar uchun darslikning 80-betida Aziza Ahmedovaning "Qish ertagi" nomli ertagini oquvchilarga aytib berdik va oquvchilar ertakning video lavhasini tomasha qilishadi.

Ertakning mazmunidan kelib chiqib oquvchilar bir necha savollarga negativ va pozitiv jihatdan javoblar berildi.

1. Ayyor so'zini ma'nosini kim qanday tushinadi?
2. Qaysi qahramonlar ayyor?
3. Ayyorlik bu yaxshi hislatmi?
4. Insonlar tulkilarga oxshab ayyorlik qilsa boladimi?
5. Qizilishton tulkilarning gaplarini tipratikanga etkazib kelgani yaxshimi yamonmi?
6. Tipratikon quyonlarni qutqarish maqsadida tulkilarni aldagani yaxshimi, yamonmi? Kabi soroqlarga javoblar berishdi.



Xalq og'zaki ijodi, jumladan ertaklar, rivoyatlar va xalq hikoyalari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ijodiy materiallar o'quvchilarga tafakkur va mantiqiy tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Misol uchun, ertaklar va rivoyatlar orqali o'quvchilar turli qahramonlarning qarorlarini va ularning oqibatlarini baholash, muammo yechish va qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganadilar. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi o'quvchilarga madaniy merosni tanishtiradi, ular bilan axloqiy qadriyatlar va hayotiy tajribalarni ulashadi. Bunday materiallar orqali bolalar turli ijtimoiy vaziyatlarga tanqidiy yondashish, o'z fikrlarini mustaqil va asosli tarzda bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.



Biz tadqiqot ishimiz jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv vazifalari tizimini qurishda qo'yidagi xulosa va takliflarga keldik:

a) fikrlash madaniyati va tanqidiy fikrlash madaniyatini ongli ravishda rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni ko'paytirish;

b) o'quvchilarga dars jarayonida qarama-qarshiliklar, xatolar va kamchiliklarni bilish va ochib berishga yordam berish;

c) konstruktiv tanqidni to'g'ri qabul qilishga va unga ishbilarmonlik bilan javob berishga o'rgatish;

d) faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish zarur.

e) o'quv materialining mazmuniga, dars jihozlariga, o'qitishning individual xususiyatlariga, o'quvchilarning bilim darajasi va o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga qarab qo'llanish kerak.

f) o'quvchilarning tanqidiy fikrlash fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlash zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodini ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirish, madaniy merosni saqlash va ularni axloqiy qadriyatlarga tayyorlashda samarali usul bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida
2. uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060.
3. Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития: пособие для учителя. – СПб; Альянс «Дельта», 2003.
4. 3., „Piaget's Stages of Cognitive Development“. 9-may 2019-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 3-aprel 2018-yil.
5. Дьюди ДЖ. Индивидуализация обучение школьников –Чикаго, 1991-с-19
6. 4-sinflar uchun darslik A.Avloniyning "Yaxshilik erda qolmas" 123 bet



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Altibayeva G.M.

Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish.

Ключевые слова: планирование, организация, деятельность, возможность, частные категории, организация.

Key words: planning, organization, activity, opportunity, private categories, organization.

Резюме:

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish tizimini takomillashtirish yo‘llari. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlari usul va metodlari va innovatsion ta‘lim texnologiyalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish ijtimoiy- muammo sifatida haqida yozilgan.

Резюме:

В данной статье речь идет о путях совершенствования системы формирования интеллектуальных способностей детей дошкольного возраста. Написаны методы и способы формирования интеллектуальных способностей дошкольников с помощью инновационных образовательных технологий, а также формирование интеллектуальных способностей дошкольников с помощью инновационных образовательных технологий как социальная проблема.

Summary:

This article is written about methods and methods of forming the intellectual ability of preschool children with the help of innovative technologies and the formation of intellectual ability of preschool children with the help of innovative technologies as a social problem.

Kirish. Bola shaxsini rivojlanishida tasviriy faoliyat yetakchi rol o‘ynaydi. Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. San‘at markazida bolalarning tasviriy faoliyati tashkil etiladi. Tasviriy faoliyat bolalarni qiziqarli faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda inson hayotidagi barcha voqea va hodisalarni ifodalash, o‘zaro muloqatga kirishish va ijobiy munosabatlarni shakllanish imkonini beradi.



Bolaning intellektual qobiliyati, ma'naviy dunyoqarashi va hissiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Til va nutq" markazida narsa-buyum nomi bilan rasmlar, turli vositalar orqali tanishsa, "Qurilish va konstruksiyalash" markazida uning tuzilishi, tashqi belgilarini o'rganadi. "Ilm-fan va tabiat" markazida ushbu buyumlar, uning ahamiyati va zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'zaro muloqat jarayonida anglaydi, kuzatuv, tahliliy suhbat, audio va videovositalar orqali tushinib yetadi. "Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish" markazida bolalar turli rollarni ijro etish orqali aqliy faoliyati va intellektual qobiliyati rivojlanadi. Mazkur yondashuv guruhdagi bolalarni bir vaqtning o'zida turli faoliyat bilan band qilish, faoliyat mazmunini o'rganilayotgan mavzuga yo'naltirish jarayonlari integratsiyalangan mashg'ulotni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Bunda tarbiyachidan faollik, intellektuallik va moslashuvchanlik bilan yondashish talab etiladi. Bir markazdagi bolalarning qo'lga kiritgan yutug'i, ikkinchi markazdagi faoliyat uchun imkoniyat yaratadi. Ya'ni bola oldin o'zlashtirgan ma'lumot zamirida keyingi qadamlarni amalga oshiradi. Bolalar faoliyatini bu tarzda tashkil etish konsentrik yondashuv hisoblanadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, bolalar asta-sekin tarbiyachi ko'rsatgan usullardangina foydalanadi. Shuning uchun bolaning ilk yoshidan unga harakatlarni amaliy namoyish qilish lozim. Ta'lim jarayonida bolalarning ishi tahlil qilinadi va to'ldiriladi yoki bola uchun qiziqarli bo'lgan harakat namuna sifatida ko'rsatiladi, taqqoslanadi (rasmlar, qurish yasash, loy va plastilin bilan) bolalarga namuna alohida bir stolda joylanadi.

Tajribaning ko'rsatishicha, bolalar juda chuqur o'ylaydi, qiziqish bilan o'z ishini namunaga taqqoslaydi, hech ham xato qilmaydi, xatto mayda elementlargacha fahmlaydi. Ushbu jarayonlar bolalarda mustaqil samarali refleksiv faoliyatning rivojlanishiga amaliy yordam beradi. Pedagogik jarayonlarni amalga oshirishda tarbiyachilar bolalarga qulay sharoit va o'z kuchiga ishonch hissini ta'minlashi lozim. Tarbiyachi bolalarning o'zlashtirish darajasi, ularning intellektual pozitsiyasini rivojlantiradi va mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratadi. Tarbiyachi ta'lim jarayonida o'zaro ta'sir (hamkorlik) va insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogik munosabatlarni amalga oshiradi. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lgan muloqot quyidagi shakllarda uyushtiriladi:

- pedagogik jarayonni loyihalash;
- tarbiyalanuvchilar guruhi bilan muloqotga kirishish;
- rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqot jarayonini boshqarishni tashkil etish;
- faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muloqot tizimining andozasini yaratish;



– tarbiyalanuvchilar bilan bevosita muloqotni tashkil etish kabilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o‘zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular sust-ijobiy, barqaror hamda beqaror bo‘ladi.

Ta’limiy omillarni yaratishga mo‘ljallangan innovatsion texnologiyalar tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarga muloqot asosida ta’sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. Ayrim metodlar yoki muloqot turlari bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirishda alohida samaradorlikka ega. Ular ishontirish, isbotlangan natijalarga asoslanish, bevosita va bilvosita ta’sir, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zaro ta’sir metodlari.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari maktabgacha ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tasavvur etish imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim jarayoni ta’lim texnologiyasining asosi ta’lim maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, vositalari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilar o‘zida mujassamlashtirgan tizimdir. Ular o‘zaro aloqadorlikda maktabgacha ta’lim jarayonining mohiyatini belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim jarayoni quyidagilarga muvofiq tarzda tashkil etiladi:

1. Bolalardagi intellektual qobiliyat, kognitivlik, kommunikativlik, ijtimoiy-lashish va rivojlanish kabi ehtiyojlarning vujudga kelishi;
2. Kognitivlikka bo‘lgan qiziqshning uyg‘onishi;
3. Tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar mazmunini belgilash;
4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida intellektual qobiliyatni shakllantirish omillarining mavjudligi kabilar.

Amaliyotda oqlangan har qanday innovatsion texnologiya tarbiyalanuvchi shaxsini faollashtirishga va intellektualligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Bunda tarbiyalanuvchi ta’lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta’lim-tarbiya jaranida erkinlikka intilishi, mustaqilligi, shaxsiy fikrlarning mutloq o‘ziga xosligi, o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyojining mavjudligi kabilarni hisobga olgan holda, unga uning o‘ziga xosligini ta’kidlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini berish va buning uchun qulay pedagogik sharoit yaratish lozim. Chunki, har qanday tarbiyalanuvchi o‘ziga xosligini namoyon qilishga intiladi. Bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirishga insonlar hati-xarakati va kattalar mehnati haqida tushunchalar berish orqali erishiladi.” Mening oilam”, “Mening sevimli bog‘cham”, “Men sevgan yurt”, “Mening ona Vatanim”, “Bizning milliy armiya”, “Vatanim bayrog‘i” mavzulari bolalarni intellektual-hissiy rivojlantiradi va va shu orqali bolalarga aqliy tarbiya beriladi. Atrof olam bilan tanishtirish orqali bolalarga aqliy tarbiya ham beriladi. Aqliy tarbiya bilish faoliyati bilan



birga zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Natijada, o'quv-tarbiyaviy faoliyat bolalarda intellektual tasavvurlarni shakllantiradi. Ularda insonlar, atrof olam, (o'simliklar va hayvonlar), predmetlarga (insonning turmush tarzi, hayvon va o'simliklarning hamda, suv, havo va tuproqning zarurligi) qiziqishni rivojlantiradi; uy-ro'zg'or buyumlari (kiyimlar, poyabzal, idish-tovoq, mebel) ularning belgi va vazifalari bilan tanishtiradi; o'zi haqida ilk tasavvurlarni shakllantiradi; bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rniga ega bo'lishi "Men va tengdoshim", "Mening o'rtog'im", "Mening obod mahallam", oila a'zolari (ona, ota, buvi va buva, aka-uka, opa-singillar) bilan munosabatlarga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsiga faoliyatli yondashuv texnologik tizimning konsepsiyasini ifodalab, bunda tarbiyalanuvchi shaxsining erkinlikka intilishi, bir butunligi, mustaqil bilim olishi, o'zligini namoyon etishi va faolligi ta'minlanadi

Demak, tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik imkoniyatlarni inobatga olish zarur sanaladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan o'quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar, o'zaro mashg'ulot kuzatishlar, turli kechalari, ilmiy-amaliy uchrashuvlar, masofadan o'qitish shuningdek, turli to'garaklar, fasllar bilan bog'liq tadbirlar, turli mavzularda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy kechalar, davra suhbatlari hamda soha vakillari bilan uchrashuvlar uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash.

2. Tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etish.

3. Turli mavzular bo'yicha tashkil etiladigan seminar trening jarayonlarida tarbiyachilar innovatsion yondashuv asosida tarbiyalanuvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirishga kreativ yondashishi, o'z ustida muntazam ishlashi, mustaqil ta'lim va ma'lumotlar olish ehtiyojlarini boyitib borish;

4. O'rganiladigan mavzularni o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi va izchilligi hamda ketma-ketligi asosida rejalashtirish.

5. Tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratish.

6. Tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish.

Ushbu jarayonda tarbiyalanuvchi shaxsining intellektual qobiliyati jadal rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirishi ta'minlanadi.

Agar tarbiyalanuvchi mashg'ulotlar mazmun-mohiyatini anglay olmasa, kerakli ma'lumotga ega bo'lmasa yetarlicha rivojlanmay qoladi. Shunday qilib, mashg'ulotlar mazmun-mohiyati tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishining asosiy birligi hisoblanadi. Shaxsning intellektual qobiliyatlarini o'rganishga G.Eyzenk,



S.K.Annamuratova, L.S.Vygotskiy, R.Sternberg va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, V.N.Drujinin shaxsning intellektual qobiliyatlari muammosini operativ yondashuv doirasida, ya'ni intellektning G-omilli modellarida ko'rib chiqadi.

Fransuz olimi J.Piaje intellekt va aqliy faoliyat tushunchalarini ajratib, intellektni "yangi sharoitlarga aqliy moslashish" deb talqin qilishni taklif qildi.

Tadqiqotchilar o'z g'oyasini amaliyotda sinab ko'rish maqsadida shogirdi T.Simon bilan hamkorlikda bolalar intellektning rivojlanish darajasini o'lchash uchun psixologik aqliy testlar ishlab chiqdilar. Ushbu konsepsiyaga asoslangan holda Bine shunday masalalarni tanladiki, bunda bolaning ilgari bilimlari va ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatlari sezilarli darajada kamaytirildi. A.Bining maqtovg'a sazovar jihatlaridan biri shuki, u har bir yosh davri uchun shunday testlar seriyasini tuzishi kerakki, toki uning yechilishi faqat shu davrga ta'lluqli bo'lsin deya yosh davrlari hususiyatlariga alohida to'xtalib o'tish zarurati haqida fikrlar bildirdi.

V.D.Shadrikov intellektga ma'naviyat bilan ma'naviy qobiliyatlarning birgalikdagi komponent tarzida qaraydi. Bunga muvofiq bu funksiya o'rab turgan voqelikni oddiy baholash emas, balki insonning ma'naviy jihatlarini bilan solishtirishi va shaxsning ichki o'zgarishlarini belgilovchi sotsial muhit bilan o'zaro ta'sirlashuvini muvofiqlashtiradi.

Gilford o'zining kubik yordamida tafakkur o'lchamlaridan operatsiyalar bilish funksiyasi, xotira, divergent va konvergint tafakkur, baholash, mazmun: obrazli, belgili, semantik, xulqiy, natija: elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim, sistema, o'zgartirish, islohat: qo'llash, tadbiiq qilish kelib chiqqan holda 120 ta o'ziga qobiliyat turlarini ajratib berishga harakat qiladi.

Bugungi kunda MTT trbiyalanuvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ham mavjud bo'lib bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, intellektual faoliyatlilikni ifodalovchi turli rolli o'yinlar, treninglar, bahs munozaralarni tashkil qilish va hokazolardir. Intellektual qobiliyatini shakllantirishda ayniqsa treninglarning o'rni beqiyosdir. Sababi trening o'tkazish jarayonida tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyati o'sadi, nutqi ravon bo'ladi, tafakkuri rivojlanadi, muloqotga tez kirisha oladigan bo'ladi. Shu sababli treninglarni verbal va noverbal ko'rinishda tashkil etish mumkin.

Treningni noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hokozolar) ko'rinishda tashkil qilgan tarbiyachi gapirayotganida har bir qatnashuvchini ko'z ostida tutishi, hammaga bir xil e'tibor berishi va guruhdagi ba'zi tarbiyalanuvchilarga xayrixoh bo'lib qolmasligi lozim. Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qilishi (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qochishi,



shuningdek, guruhga o'zi ko'rinmaydigan joydan turib gapirishi) kerak bo'ladi. qatnashuvchilarning bosh qimirlatishi, tabassumi va xatti-harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga, xohishi borligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Treningni verbal ko'rinishda tashkil etilsa, tarbiyachi savollarni shunday tuzishi kerakki, asosan qatnashuvchilar gapirsin. Bunda tarbiyachiga ochiq savollar yordam beradi: "Siz bu haqda nima deysiz", "Nimaga", "Qanday...", "Agar..." va qokazolar. Agar qatnashuvchi "Ha", "yo'q" deb javob bersa, "Nimaga shunday gapiryapsiz" deb so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari boshqa qatnashuvchilardan ham so'rash kerak tasdiqlangan fikrlarga qo'shiladimi?

Tarbiyachi trening o'tkazish jarayonida o'z ovozinging ohangiga e'tibor berishi, sekin va aniq gapirishi kerak bo'ladi. qatnashuvchilarni ko'proq gapirishga undash kerak. Ularda mazkur texnologiya Tarbiyachi o'zining va qatnashuvchilarning so'zga chiqishi vaqtini hisoblashi lozim bo'ladi. Hamma savollarga faqat o'zi javob bermasligi, qatnashuvchilar bir-birlarining savollariga javob berishi mumkinligini unutmasligi lozim. Bahs natijalarini xulosa qilishda har bir mashg'ulot qatnashchisining muhokama qilinayotgan muammoni mohiyatini to'g'ri tushunayotganini aniqlab, keyin umumiy xulosa chiqarish kerak. Agar tarbiyachining shaxsiy tajribasi mazkur baxsga mos kelsa, qatnashuvchilar fikrlarini mustahkamlab "Bu menga o'tgan yilgi voqeani eslatadi" – deyishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bunday pedagogik holat yoki munosabat mazkur jarayonni pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishni va ularni keng qo'llashni taqazo etadi.

MTTda ta'lim tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish ta'limning yangi usullari va shakllarini amaliyotga qo'llash va shu orqali intellektual qobiliyati shakllangan, ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchini va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish ularning oila va qalbiga mustaqillik va milliy istiqloq g'oyasini singdirish, zamonaviy bilim ko'nikma va malakalari bilan qurolangani nazarda tutadi.

Mazkur vazifalarni bajarilishi va muvoffaqiyatli hal etishishi, avvalo ta'lim tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalaridan keng qo'lashda foydalanishni taqozo etmoqda.

Yangi munosabatlarda o'ziga xos jihatlari an'anaviy ta'lim shaklidan tubdan farq qilib tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyati, mustaqilligi, bilimlarni chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishini ortirish imkoniyatlarni chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.



Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bunday pedagogik holat yoki munosabat mazkur jarayoni innovatsion texnologiyalar orqali tashkil etishni va ulardan keng qo'llashni taqozo etadi.

Xulosa. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

– Pedagogik texnologiya (PT)-shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillik davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, tarbiyachi faoliyati yangilanadi, tarbiyalanuvchining intellektual qobiliyati, uning tafakkuri, dunyoqarashi mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi shakllanib boradi.

Barron va Volshava tajribalar shu narsalarni ko'rsatadiki murakkab chizmalar va rasmlar yaratilishi shaxsning ijobiy xususiyatlari bilan uning intellektual imkoniyatlari o'zaro uzviy bog'liqdir. Nuqtaning tezligi surati hukmning beixtiyorligi va mustaqilligi qiziqishlarining kengligi va oqilligi kabilar.

Olimlardan J.Kettell, D.Golland, M.Makkennon, S.Madli, kabilarning intellektni o'lchab beruvchi, mezon vazifasini o'tovchi testlarini boshqarishda sinaluvchilarning shaxsiy fikr hamda mulohazalarni o'rganish hech qachon foydadan holi emasdir. Koliforniya ta'lim muassasasida olib borilgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yetarlicha ijodkor bo'lgan insonlar sezilarli darajada intellektual ustunlikka ega bo'lishlari shart emas, chunki ularning intellektual darajasi o'z – o'zidan yetarlicha yuqoridir. Ijodkor shaxsning ritmik xususiyatlari mohiyatlari shundaki, u bolaning rostgo'yiligi tasavvur qilish, ko'rsatkichi ajablanishi taajublanishi bilan etuk amaliy turmushlar tajribisiga ega bo'lgan tajriba ishidagi kishining bilish mahoratini o'ziga birlashtira olishga qodir bo'lishi.

Adabiyotlar:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.–T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.
2. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi» / monografiya // Toshkent, Real print. – 2017. 160 b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: RTM, 2004.-B.104.
4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). - T.: "Fan va texnologiya", 2008, 160 bet.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БАЙРАМ ЕРТАЛИКЛАРИНИ ТАШКИЛ ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI

Jumasheva G.
p.f.d., professor,
Daniyarova Sh.
1-kurs magistr
Xaytimetova Sh.
2-kurs talabasi

Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, bayram ertaliklarini tashkil etish, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ertaklar, tarbiya, ta'lim.

Ключевые слова: дошкольное образовательное организация, организация праздничных утренников, духовно-нравственное воспитание, сказки, воспитание, образование.

Key words: organization of pre-school education, organization of holiday mornings, spiritual and moral education, fairy tales, upbringing, education.

Резюме:

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram ertaliklarini tashkil etishning muhim shartlari aniqlangan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram ertaklarini sahnalashtirishga qaratilgan tayyorgarlik jarayonining asosiy bosqichlarini tahlil qilish, ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol insonni voyaga etkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ular ongiga singdirish vatarbiyalashning nazariy asoslari masalalari ko'rib chiqiladi, yosh avlod shaxsining ma'naviy rivojlanishi tushunchasining mohiyati ochib beriladi. Maqola ma'naviyat va axloqni tarbiyalashga qiziqish ko'rsatish, yosh avlod o'rtasida axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish muammosini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu o'z xalqi madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratdi.

Резюме:

В статье рассматриваются вопросы теоретических основ обучения детей логическому мышлению на основе сказок народной педагогики, воспитания духовно-нравственного совершенного человека, внедрения в их сознание национальных и общечеловеческих ценностей и воспитания, раскрывается сущность понятия духовного развития личности подрастающего поколения. Статья посвящена проблеме проявления интереса к воспитанию духовности и нравственности, повышению эффективности нравственного воспитания подрастающего поколения, что дало возможность познакомиться с культурой своего народа.

Summary:

In the article, the important conditions for the organization of holiday fairy tales in preschool educational organizations are defined, the main stages of the preparation process aimed at staging holiday fairy tales in preschool educational organizations are analyzed, the moral and moral



development of a mature person, national and universal values are inculcated in their minds, and the theoretical aspects of education issues of the foundations are considered, the essence of the concept of spiritual development of the personality of the young generation is revealed. The article is devoted to the study of the problem of showing interest in the education of spirituality and morality, increasing the effectiveness of moral education among the young generation, which created an opportunity to get acquainted with the culture of their people.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram ertaliklari bola hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy estetik didini tarbiyalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlantirishda musiqiy bayramlarning o'rni nihoyat katta. Shunday ekan, bayram ertaliklari bola tarbiyasida hayotiy muammolarni bartaraf etish, axloqiy tarbiya berish, ma'naviyatsizlikka qarshi turish, bolalarda faol aqliy faoliyatga intilish va ehtiyojni uyg'otishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ertaliklar va bayramlar yurtimizning muhim voqealari bilan bog'liq tarzda tashkil etiladi. Bolajonlarimiz turli xil bayramlarga bag'ishlangan ertaliklarda mamlakatimizning muhim sanalari va bayramlari bilan tanishib va taassurotlarga ega bo'ladilar. Bunday ertaliklarda musiqa katta ahamiyatga ega. Zero, ertaliklarda bolalar qo'shiq kuylaydilar, raqsga tushadilar, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro etadilar. Bayram ertaliklar uchun ataylab ssenariylar yoziladi. Ssenariylar mavzusi bayram ruhiga yaqin bo'lishi, turli xil she'rlar, kuy va qo'shiqlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Demak, bayram ertaliklaridagi ssenariy xilma-xil bo'lmog'i lozim. Tanlanadigan ssenariyning mazmuni bayram mazmuni bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Bayramlardan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hayrlashuv kechalari ham tashkil etiladi. Bunda asosan, tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari ishtirok etib, ular Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hayrlashib maktabga yo'llanma oladilar. Bayram ertaliklaridagi ssenariy musiqiy fon ostida namoyish etiladi. Shuning uchun musiqa rahbari va tarbiyachi har bir, hodisa va jarayonlar uchun mos bo'lgan musiqa namunalari tanlashi o'ta muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari kecha o'tkaziladigan zallarni ham bayram kayfiyatiga mos jihozlash zarur. Musiqa mashg'ulotlarida va tarbiyachi tomonidan o'rganilgan qo'shiq, raqs, o'yin va muhim sanalar o'tkaziladigan ertaliklarda ijro etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda asosan sanalarga bag'ishlangan ertaliklarga rejali ravishda tayyorgarlik ko'rib boriladi: Yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini maktabga kuzatish bayram ertaliklari. Mazkur bayram ertaliklarini bolalar sabrsizlik bilan kutadilar.



Bayram kuni bolalar uchun eng quvonchli onlarga aylanishi ko'proq ertalik ssenariysidagi ashula, musiqa, raqs, o'yin va musiqali jarayonlar ssenariyning puxta tayyorlanishiga bog'liq. Mazkur ssenariy maktabgacha ta'lim tashkilotidagi barcha guruh bolalarining bir jamoa bo'lib birlashishlariga katta yordam beradi. Ertalikda ota-onalar ham qatnashishlari sababli bolalar ular oldida o'z chiqishlarini a'lo darajada ijro etishga intiladilar. Umuman, ertaliklar musiqa tarbiyasining maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bilan birgalikda bayramdan bayramgacha olib borgan umumiy faoliyatining yakuni va hisoboti sifatida katta ahamiyatga egadir. Musiqa mashg'ulotlari va tarbiyachi tomonidan o'rganilgan va o'rganilgan qo'shiq, raqs, o'yin va atoqli sanalarga o'tkaziladigan ertaliklarda ijro etiladi.

Maktabgacha yoshda hissiy sezgirlikning rivojlanishi asosan hissiy baholashga asoslangan bolalarda musiqaga ijobiy munosabatning paydo bo'lishiga olib keladi. Tafakkur va tasavvur jarayonlari vositasida yuzaga keladigan hissiy-baholash munosabati asta-sekin takomillashib boraveradi, bu esa bolaning musiqiy-estetik ongini shakllantirilishining namoyon bo'lishida namoyon bo'ladi. Musiqa san'atining yuksak badiiy asarlarini idrok etishda intonatsiya tajribasini to'plash va hissiy ta'sirchanlikni rivojlantirish bolalar musiqa madaniyatini shakllantirishning zarur shartidir. Tajribalarning bu qimmatli natijasi, o'z navbatida, bolalarda musiqaga ijobiy hissiy va baholash munosabatini shakllantirish uchun asosdir.

Bolaning his-tuyg'ularini, qiziqishlarini, tafakkurini, tasavvurini, didini rivojlantirib, biz uning musiqiy-estetik ongini va umuman musiqa madaniyatining asoslarini shakllantiramiz. Musiqiy madaniyatni keyingi egallash uchun maktabgacha yoshdagi davr nihoyatda muhimdir. Aynan bolalikda go'zallik me'yorlari shakllanadi, bu bolalarning musiqiy va umumiy rivojlanishi ko'p jihatdan bog'liqdir.

Respublikamiz olimlari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotida bayram ertaliklarini tashkil etish bo'yicha qator ishlar amalgaga oshirilgan: Jumladan, B.Boltayev va J.A. Xodjayevlar tomonidan "Maktabgachaga ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi" nomli darslikda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya mashg'ulotlari, bayram tadbirlarini rejalashtirish keng tahlil qilingan.

Bola turli davr va uslubdagi jahon musiqa klassikasi durdonalarini hamda xalq musiqasini idrok etish tajribasini qanchalik erta to'plash imkoniyatiga ega bo'lsa, uning his-tuyg'ulari qanchalik boy bo'lsa, uning rivojlanishi shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Bolaning estetik ongini musiqa yordamida boyitib borilsa, bu uning ma'naviy kamolotini faollashtiradi. Xuddi shunday musiqa ta'limi nazariyasi va metodologiyasida va qo'shiq yozish, musiqiy-ritmik



ijodkorlik, bolalar cholg'u asboblarida musiqa chalish shaklini olgan ijodiy faoliyatda farqlanadi. Bolalarning musiqiy faoliyati musiqani idrok etish kabi musiqiy faoliyatning barcha boshqa turlarida namoyon bo'ladigan musiqiy va o'quv faoliyati bilan ifodalanadi. Har qanday faoliyatda muayyan harakatlarning rivojlanishiga asoslanib, bola aqliy jihatdan rivojlanadi, ya'ni. uning tafakkuri, tasavvuri, idroki, xotirasi va boshqalar rivojlanadi.

Musiqiy madaniyat asoslarini rivojlantirish natijasida bolada boshlang'ich qadriyat yo'nalishlari - hayot va san'atdagi go'zallikni qadrlash qobiliyati shakllanadi. Bolalarning musiqani ijodiy idrok etishi ularning umumiy intellektual va hissiy rivojlanishiga yordam beradi. Bunday rivojlanish bolalarda haqiqiy hayotda namoyon bo'ladigan insoniy tuyg'ularni tushunishlarini kengaytiradi.

O'tmish va hozirgi xalq kuylari, mumtoz musiqa merosini tinglagan bola avlodlarning bebaho madaniy tajribasini o'rganadi. Musiqiy san'at asarlarini idrok etish insonni asta-sekin o'zi uchun muhim bo'lgan fikrlar, his-tuyg'ular va mazmunni aniqlashga yo'naltiradi. Musiqaga hayotda hissiy sezgirlikning rivojlanishi, mehribonlik, boshqa odamga hamdardlik ko'rsatish kabi shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda musiqa alohida, o'ziga xos o'rin tutadi. Bu san'atning ushbu turining o'ziga xos xususiyatlari va maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq. B.M.Teplov musiqani "inson qalbining ko'zgusi", "hissiy ong", "Inson hissiyotlari modeli", u insonning dunyoga, unda sodir bo'layotgan hamma narsaga va shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatini va bizning munosabatimiz, siz bilganingizdek, bizning his-tuyg'ularimizni aks ettiradi degan xulosaga keladi. Demak, his-tuyg'ular musiqaning asosiy mazmuni bo'lib, u insonning hissiy sohasini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir.

San'atning ko'plab turlari orasida estetik-badiiy tarbiyada, har tomonlama barkamol bola shaxsini shakllantirishning butun tizimida musiqa haqli ravishda alohida o'rin tutadi. Hissiy soha maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining yetakchi sohasidir. U bolaning shaxsiyatini shakllantirishda, uning yuqori aqliy vazifalarini, shuningdek, umuman xatti-harakatlarini tartibga solishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolaning hissiy sohasining to'liq shakllanishigina bolaning shaxsiy uyg'unlikka erishishiga imkon beradi, Aytish joizki, maktabgacha yoshda bolaning o'zi hissiyotlarga boydir, shuning uchun uning yuqori badiiy musiqa bilan uyg'unlashuvining ahamiyatini yuqori baholash mumkin. Musiqa, shuningdek, kognitiv va axloqiy sohalarni shakllantirishga yordam beradi. Biroq farzandlarimiz jamiyatining o'ziga xos sharoitlarida



yashab, kamol topmoqda. Hamma joyda yangraydigan va ommaviy axborot vositalari tomonidan rivojlantiriladigan zamonaviy pop, rok musiqasi (biz xohlaymizmi yoki yo'qmi)ni bizning bolalarimiz ularni tinglashmoqda. Uning shamanistik ritmlari, o'ta yuqori chastotalari, chidab bo'lmas baland ovozi ongni chetlab o'tib, ong ostiga tushadi va shu bilan bolaning hissiy holatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning ruhi, aqli va shaxsiyatini buzadi. Klassik musiqa palitrasi boy, tili moslashuvchan va rang-barangdir. So'zga bo'ysunmagan, o'z ifodasini topmagan har bir narsa bunday musiqada aks etadi. U tabiatning buyuk uyg'unligini ayniqsa yorqin kuylaydi.

Musiqa san'ati hissiy tajribani kengaytirish va boyitish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Musiqa intonatsiyalar boyligini kristalllashtiradi, inson tuyg'ulari va kechinmalarining turli tuslarini ifodalaydi. Musiqa insonni eng chuqur qamrab oladi va uning hissiy borligini tartibga soladi, u bilan muloqotda bola o'zining hissiy faolligi va ijodiy tashabbusi uchun osongina yo'l topadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatining hissiy sohasi faoliyati uning muvaffaqiyatli musiqiy va ijodiy rivojlanishining shartidir. Bu hissiy faoliyat bolaga musiqiy qobiliyatlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi, hissiy aloqa vositasiga aylanadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqaga hissiy sezgirlikni rivojlantirishning muhim shartidir. Bola shaxsini shakllantirish jarayoni haqidagi zamonaviy qarashlar nafaqat yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga, balki shaxsiy madaniyatning asosini tashkil etuvchi shaxsning muayyan qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirishga tayanish bilan tavsiflanadi. Agar bilimlarni uzatish, asosan, shaxsning intellektiga murojaat qilishni talab qilsa, unda qadriyat yo'nalishlarining rivojlanishi, birinchi navbatda, insonning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ulariga ta'sir qilish bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida o'zgarishlarga yordam beradi. uning e'tiqodiga bo'lgan qadriyat munosabati.

Taniqli rus olimi, psixolog G.S. Tarasovning ta'kidlashicha, yuksak san'at, xususan, musiqa klassikasi bolalarning aqliy rivojlanishi uchun eng kerakli qo'llanma bo'lib, "ko'plab hayotiy vazifalarni bajaradi ... va hal qilishga chaqiriladi ... eng muhimi - bolalarga singdirish. insoniyatning ma'naviy madaniyatiga ichki daxldorlik hissi, musiqa olamida bolalarning hayotiy pozitsiyasini tarbiyalash. G'ayratli hissiy muhitda bolalarning qarashlari va pozitsiyalari shakllanadi, ijtimoiy aloqalar shakllanadi. Bolalarning axloqiy va estetik didini rivojlantirishda musiqaning ta'siri katta. Musiqa, boshqa san'at kabi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu bolaning go'zallik dunyosi bilan eng maqbul tanishish davri. Musiqiy rivojlanish umumiy rivojlanishga o'zgarimas



ta'sir ko'rsatadi: hissiy soha shakllanadi, fikrlash yaxshilanadi, musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqqa madaniyatini shakllantirish maktabgacha yoshdan boshlanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. B.Boltayev, J.A.Xodjayev. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. -T.: O'qituvchi, 2015.
3. Методика музыкального воспитания в детском саду / Под ред. Н.А.Ветлугиной. М.: Просвещение, 1989.
4. Тарасов Г. С. Учебно-творческая деятельность студентаисполнителя // Вопросы психологи. 1983. № 3
5. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей: учебное пособие. –М.: "Планета музыки".2020. -488стр.



МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ИЖОДИЙ ТАДҚИҚОТЧИЛИК МАЛАКАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Генжемуратов Б.О.

*Нукус инновация институти, Мактабгача ва бошлангич
таълим кафедраси ўқитувчиси*

Жуманиязова Д.Е.

1-курс магистри

Хайтиметова Ш.Ф.

2-курс талабаси Ажинияз номидаги НДПИ

Tayanich so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha katta yosh, tadqiqotchilik malakalarini o'stirish, mashg'ulot, maktabgacha ta'lim tashqiloti, muammo, tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish, bolalar, ijodiy.

Ключевые слова: дошкольное образование, старший дошкольный возраст, развитие навыков исследовательской деятельности, дошкольное образовательное организация, проблема, методика формирования навыков исследовательской деятельности, дети, творчество.

Key words: preschool education, preschool age, development of research skills, training, preschool education environment, problem, formation of research skills, children, creativity.

Резюме:

Maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy tadqiqotchilik malakalarini shakllantirishning nazariy asoslari va metodik jihatlari tadqiq qilishga bag'ishlangan. Unda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy tadqiqotchilik malakalarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari ochib berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta gurux bolalarda ijodiy tadqiqotchilik malakalarini o'stirish metodik muammo sifatida tavsiflangan.

Резюме:

Статья посвящена проблеме осуществление теоретических основ и методической оснащенности в совершенствований у детей старшего дошкольного возраста навыков творческой исследовательской деятельности. Здесь раскрывается теоретико-практические основы формирования у детей старшего дошкольного возраста навыков творческой исследовательской деятельности. Разработаны проблемы методики развития навыков творческой исследовательской деятельности детей в дошкольных образовательных организациях.

Summary:

The article is devoted to the research of the theoretical foundations and methodological aspects of the formation of creative research skills in children of preschool age. It reveals the theoretical and practical foundations of the formation of creative research skills in children of preschool age. Developing creative research skills in a large group of children in pre-school educational organizations is described as a methodological problem.



Мактабгача ёш - бу инсон ҳаётидаги озига хос давр. Бу атрофдаги ҳақиқатни озлаштиришга алоҳида сезгирлик билан тавсифланади; мактабгача ёшдаги боланинг фаолияти - тадқиқот, когнитив, тадқиқот. Катта қизиқиш билан болалар турли хил тадқиқот ишларида қатнашадилар, қизиқиш ва тажриба отказиш истагини корсатадилар. Демак, изланиш фаолияти, А.И.Савенков таъкидлаганидек, боланинг табиий ҳолати бўлиб, у изланиш хулқ-атворини келтириб чиқаради ва боланинг ақлий ривожланишининг дастлаб ўзини-ўзи ривожлантириш жараёни сифатида ривожланиши учун шароит яратади.

Боланинг тадқиқот коникмаларини ривожлантириш муаммоси қадим замонлардан бери олимларнинг эътиборини тортган. Болани илмий-тадқиқот фаолиятига тайёрлаш, мактабгача ёшдаги болаларнинг тадқиқот коникмаларини ривожлантиришнинг самарали воситаларини топиш замонавий таълимнинг энг муҳим вазифаларига айланиб бормоқда ва шу билан бирга назариядаги ва айниқса мактабгача таълим амалиётидаги энг долзарб муаммолардан бирига айланиб бормоқда.

Мактабгача ёшдаги болалик даврида тадқиқот коникмаларини шакллантириш болада тадқиқотчи, "олим" позициясини ривожлантириш учун асос яратади. С.Л.Рубинштейннинг таъкидлашича, мактабгача ёшдаги болаларнинг тадқиқот фаолияти жараёнида ривожланиши, шаклланиши, нима болса, шундай болиши мутлақо табиийдир. А.И.Савенков таъкидлаганидек, боланинг янги нарсаларни оз тадқиқоти - кузатиш, тажрибалар отказиш, улар асосида оз мулоҳазалари ва хулосаларини чиқариш орқали тушуниш табиийроқ ва шунинг учун ҳам кимдир томонидан аллақачон олинган билимларни олишдан кора осонроқдир. Бунда олимлар нафақат мактабгача ёшдаги болалар билан илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил этишнинг муҳимлигини, балки унинг зарурлигини ҳам таъкидлайдилар.

Мактабгача ёшдаги болаларда тадқиқот коникмаларини шакллантириш хусусиятлари когнитив жараёнлар (идрок, хотира, фикрлаш, тасаввур) ҳар қандай инсон фаолиятининг ажралмас қисми сифатида киради ва унинг у ёки бу самарадорлигини таъминлайди. Когнитив жараёнлар инсонга келгуси фаолиятнинг мақсадлари, режалари ва мазмунини олдиндан режалаштиришга, ушбу фаолиятнинг боришини, унинг ҳаракатлари ва хатти-ҳаракатларини онгида ойнашга, оз ҳаракатларининг натижаларини олдиндан коришга ва уларни амалга оширилаётганда бошқаришга имкон беради. Инсоннинг умумий қобилиятлари ҳақида гапирганда, улар ривожланиш даражаси ва унинг когнитив жараёнларининг характерли хусусиятларини ҳам назарда тутати, чунки бу жараёнлар инсонда қанчалик яхши



«O'ylab top» o'yini 3-4 va undan yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq, chunki bu o'yin samarali natija berishi uchun o'quvchilar ko'p so'z bilishlari kerak bo'ladi. Mazkur o'yinda ma'lum bir kasbga oid so'zlar olinib, boshlovchi biron kasb egasiga taqlid qilib harakat qiladi, o'yin ishtirokchilari bu harakat qaysi kasbga oid so'zni ifodalashini topishlari kerak. Bekitilgan so'z kartochkaga yozilgan bo'lib, so'zni to'g'ri topgan o'quvchiga ko'rsatiladi. O'yinda javobni to'g'ri topgan o'quvchilar g'olib bo'ladi. «So'nggi axborot» o'yinini 3-sinfdan boshlab, har darsning boshlanish bosqichida o'tkazib turish yaxshi natija beradi. O'quvchilar hafta davomida o'zlari eshitgan, ko'rgan yangiliklari xususida so'zlab beradilar. Bu ish turi o'quvchilar bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga, so'z so'rash, so'zga chiqish, bir birining fikrini davom ettirish, o'zini xuddi suxandonlar, jurnalistlar kabi tutish odobini o'rganishga yordam beradi. Bu o'yin o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, yangiliklarni o'zbek tilida eshitish, ularni birinchi bo'lib so'zlab berishga intilish, chiroyli va bexato gapirishni o'rgatishga sabab bo'ladi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har qanday didaktik o'yinlar, interaktiv metodlar dars jarayonining qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchi va o'qituvchilar orasidagi munosabatlarni yaxshilaydi. Yuqorida keltirilgan metodlar boshlang'ich sinflar o'zbek tili darslarida qo'llanilganda kutilgan natijalarni beradi, o'quvchilarning faolligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi, mavzuning xotirada saqlanib qolishini ta'minlab motivatsiya berib boradi.

Adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi -T: 1998/. /Boshlang'ish ta'lim jurnali №6 son. 12-128-b.
2. Yuldoshev. J. Ta'limimiz istiqloq yo'lida .- T.: Sharq, 1996. 223b.



ME'MORLIK OBIDALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA VATAN TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA TAYANILADIGAN MEZONLAR

Botirova N.R.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: me'morlik, o'quvchi, mezon, tuyg'u, vosita, vatan, obida, xalq, pedagogika, ta'lim, g'urur, g'oya, jarayon, bilim.

Ключевые слова: архитектура, студент, критерий, чувство, средство, родина, памятник, народ, педагогика, образование, гордость, идея, процесс, знание.

Key words: architecture, student, criterion, feeling, tool, homeland, monument, people, pedagogy, education, pride, idea, process, knowledge.

Резюме:

Mazkur maqola me'morlik obidalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirishda tayaniladigan mezonlarga bag'ishlangan bo'lib, unda maktab ta'limida milliy tariximizni o'quvchilarga o'qitishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan me'moriy obidalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda unga qo'yiladigan mezonlar borasida fikr yuritilgan.

Резюме:

Данная статья посвящена критериям, используемым при развитии чувства Родины у студентов через памятники архитектуры.

Summary:

This article is devoted to the criteria used in the development of the sense of homeland in students through architectural monuments. the criteria to be applied to it are considered.

Mustaqil O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi va "Qadrlar tayyorlash milliy dasturi" xalqimiz ming yillar davomida yaratgan, asrab – avaylab kelayotgan bilim xazinalariga, boy qadimiy merosimizga asoslanadi. Chunki, ota-bobolarimiz hayot tajribalari natijasida yaratilgan o'git va pandnomalarida, dunyoviy bilimlarida vatanni asrash, ulug'lash kabi insonparvarlik g'oyalari mavjudki, ular nafaqat bugungi kundagi, balki kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Shu bilan birga o'tmish madaniy merosimizni o'rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o'tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Shuningdek,

sobiq Sovet tuzumi davrida xalqning bir qadar unitilgan, insonparvarlikka yo‘g‘rilgan qadriyatlari va ularning afzalliklarini o‘rganish bugungi kun taqozo qiladigan asosiy masalalardan biriga aylandi. O‘quvchilarda vatan tuyg‘usini rivojlantirishning pedagogik asoslarini vujudga keltirish yo‘lida ilmiy tadqiqotlarni olib borish bugungi davr talabidir. Shaxsning eng qadirlangan tuyg‘ularidan biri, uning vatanga bo‘lgan tuyg‘usidir. Biz o‘quvchilarda Vatan tuyg‘usini rivojlantirish to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin “vatan”, “vatanparvarlik” tushunchalarining mazmuni, mohiyati haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy- ma’rifiy o‘zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan fuqorolarda vatan tuyg‘usini shakllantirish, ularda vatan tuyg‘usini tarkib toptirishga intilishning zamirida vatan kelajagi uchun munosib vorislar tayyorlash maqsadi yotadi [1]. Shu sababli yosh avlodga o‘zi tug‘ilib o‘sgan shahar, qishloq, mavze, mahalla bilan faxrlanish tuyg‘usini tarkib toptirishda tarixiy me’moriy obidalarni o‘rganish yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega.


Vatan tuyg‘usi—bu xavoiy gap emas, ajdodlar bilan shunchaki faxrlanish emas – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatning fidoyi fuqorosi bo‘lmoqlikka intilish tuyg‘usidir [2; 24-6.]. Vatanni qalban chuqur his qilish uchun ham xalqning vatanparvarlik namunalari ko‘rsatish uchun ham xalq hur, vatan mustaqil bo‘lishi shartdir. Bugun shu mustaqillik qo‘limizda ekan, uni e‘zozlashimiz, qadriga yetishimiz kerak. Mana shu tuyg‘ular, fazilatlar va ezgu harakatlar bugungi kun uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir. O‘quvchilarda bu tuyg‘uni tarbiyalashda vatan tarixining ajralmas qismi tarixiy- me’moriy obidalar muhim manba vazifasini o‘taydi.

Vatan tuyg‘usi - bu aziz vatanimizi peshona teri bilan obod etgan, lekin nomlari tarix sahifalarida qolmagan oddiy kishilarimizning fidokorona va yaratuvchan mehnatini mudom yodda tutishdir. Vatan tuyg‘usi– bu o‘z aql–idroki bilan jaxon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘nlab qomusiy mutaffakkirlarimiz Muso al Xorazmiy, Axmad al Farg‘oniy, Abu Nasr al Forobiy va boshqalarni yodga olishdir [3].

Demak vatan, vatanparvarlik, vatan tuyg‘usi tushunchalari biri–biri bilan o‘zaro aloqadorlikda, chambarchas bog‘langan holda kishilar faoliyati jarayonida o‘zligini namoyon etadi va biri ikkinchisini to‘ldirib boradi. Vatansiz vatanparvarlikni, vatanparvarliksiz esa vatanga bo‘lgan tuyg‘uni tasavvur etib bo‘lmaydi.



Me'morlik obidatalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirishda tayaniladigan mezonlar



Vatan, vatanparvarlik haqidagi manbalarni o'rganib chiqib me'morlik obidatalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini shakllantirishda quyidagicha me'zonlarga tayanish mumkin.

Ushbu mezonlarga tayangan holda me'morlik obidatalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini shakllantirish uchun turtki bo'ladigan tarixiy obidalarni o'rganish muhimdir.

Vatanparvarlik yuksak tuyg'u, vatan va millat oldidagi ma'suliyat, yuksak burchni anglatadi. Ajdodlardan avlodlarga

o'tib kelayotgan "Vatanni sevmoq– iymondandir",– degan hadis zamirida ham aslida huddi shunday mazmun mujassam.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob-o'g'itlar, pand-nasihatlar, diniy-falsafiy kitoblarda ham vatanparvarlikga keng o'rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar tufayli bu manbalarni o'rganishga va ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbqiq etishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh me'moriy obidalar, ularning tarixi, ular haqidagi xalq og'zaki ijodi ya'ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda inson mehnati ulug'lanadi. Aslida vatan tuyg'usi har birimizning qonimizda bor. Qayerda bo'lmaylik avvalo vatan sog'inchidan o'rtanamiz. Bu haqida ulug' mutafakkirlarimiz asarlarida ham ko'plab fikr-mulohazalar, vatan taraqqiyoti uchun qilgan ezgu ishlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'zbek millatini dunyoga tanitgan bobomiz Amir Temurdir. U nafaqat millatni dunyoga mashhur qildi, vatanning sarhadlarini kengaytirib ilm-ma'rifatni rivojlantirdi, ajoyib va go'zal bog'u rog'lar, tog'dek yuksak minora, obidalar barpo etdi. O'z millati qadriyatlarini ulug'ladi, ularning qadriga yetadi.

Qadriyatlar inson onggi va faoliyatining, shu bilan birga jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Qadriyatlar o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarida o'z ifodasini topgan. Vaqt va davr talablari o'zgartirgan sari qadriyatlarining mazmuni ham o'zgarib boradi.



Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarda vatan tuyg‘usini rivojlantirishda va ularni vatanparvar qilib tarbiyalashda «O‘zbekiston tarixi» va «Jahon tarixi» darsliklari alohida ahamiyatga ega. Ushbu darsliklar yordamida o‘quvchilar o‘zbek xalqi tarixi, mashhur alomalari, davlatimizning madaniy hayoti. Xalqlarning turmish tarzi, milliy qadriyatlari haqida bosqichma-bosqich ma’lumotga ega bo‘lib boradilar.

Adabiyotlar:

1. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан тўйғуси.- Т.: Ўзбекистон,- 2006.- 153 б
2. Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари.- Т.: Фан, 1994-133 б
3. Эркаев. А. Маънавият- миллат нишони.- Т.: Маънавият, 2009.- 188 б.



XALQ QO'SHIQLARIDA YORITILGAN MAVZULARNING DISKURSIV TALQINI

Ismailov J.J.

*O'zbekiston Davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti*

O'zbek va chet tillari kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: qo'shiq matni, diskursiv talqin, xalq qo'shiqlari, xalq va adabiy, xalqning madaniyati va tarixi, shaxs nutqi, mafkura, xalq qo'shiqlari realistik va ko'pincha ona yurtni tasvirlaydi, buyuk mutafakkirlar.

Ключевые слова: лирика, дискурсивная интерпретация, народные песни, народно-литературные, культура и история народа, личная речь, идеология, народные песни реалистичны и часто описывают Родину, великих мыслителей.

Key words: lyrics, discursive interpretation, folk songs, folk literature, culture and history of the people, personal speech, ideology, folk songs are realistic and often describe the Motherland, great thinkers.

Резюме:

Maqolada xalq qo'shiqlari va uning paydo bo'lishi, xalq orasida kuylanayotgan qo'shiqlarning tasnifoti, mazmun mohiyatiga ko'ra turlari, xalq qo'shiqlaridagi mavzu ko'lamining ahamiyati atroflicha tahlil etilgan.

Резюме:

В статье подробно анализируются народные песни и их возникновение, классификация песен, исполняемых в народе, типы по существу содержания, а также значение масштаба темы в народных песнях.

Summary:

The article analyzes in detail folk songs and their origin, classification of songs performed by the people, types by the essence of the content, as well as the significance of the scale of the theme in folk songs.

Qo'shiqlar ikki turga bo'linadi: xalq va adabiy. Musiqiy-poetik makonning shakllanishida xalq qo'shiqlarining o'rni juda katta. Xalq qo'shiqlari realistik va ko'pincha ona yurtni tasvirlaydi. Xalq qo'shiqlarining mazmuni keng va hissiy: qo'shiqlar his-tuyg'u va lirik tuyg'u orqali bizga inson haqida, uning tarixiy taqdiri, o'z mamlakatida bor bo'lgan hamma narsa va uning mamlakati qanday yashashi haqida hikoya qiladi. Qo'shiqlar orqali ma'lum xalqning madaniyati



va tarixining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, kishilarning tarixiy hayoti tasavvur qila boshlash mumkin. Shaxs nutqida o'zi mansub bo'lgan guruhning munosabatlari mavjudligidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, qo'shiq nutqiga mafkuraviy hodisa sifatida qarash kerak. Mafkuradan mahrum bo'lgan jamiyatlarda qo'shiq asosan uning a'zolari ruhiyatining ongsiz tuzilmalarining mazmuni bilan bog'liq holda jamiyat dunyoqarashini ifodalaydi. 20-asrning eng buyuk mutafakkirlaridan biri Evgen Rozenstok-Xyussi millatning salomatligi, uning ruhiy hayotining gigienasi to'rtta barqaror tendensiyaga bog'liq deb hisobladi: "biz ma'lum bir narsani qanday tasvirlaymiz; biz qanday qo'shiq aytamiz va shu bilan quvonamiz; qanday qilib buyruqlarni tinglaymiz va shu bilan o'zgaramiz va qanday qilib minnatdorchilik bildiramiz va shu bilan haqiqatni abadiylashtiramiz.

Har qanday matn muallifi ortidagi ijtimoiy guruhning fikrlash va xatti-harakatlari kodlarini olib yuradi. Shu boisdan ham qo'shiqda ma'lum og'zaki kodlar, boshqacha aytganda, qo'shiq ortidagi mafkuraning ongli va ongsiz ritorik ifodasi ham bor, deb taxmin qilish o'rinlidir. Ochiq mafkuralashtirilgan va san'at davlat qaramog'ida bo'lgan jamiyatlarda qo'shiq o'zining qadriyat yo'nalishlarini ifoda etmay qolmaydi, lekin u buni o'ziga xos shaklda amalga oshiradi: u o'zgaga, begonaga qarshi kurashga qaratilgan mafkurani o'zida aks ettiradi. Muayyan mafkurani ongli ravishda e'tirof etuvchi, ko'rsatma xarakteriga ega jamiyatlar bu nutqning umumiy funksiyalarini bajarmay qolmaydi.

Xalq qo'shiqlari xalqning umumiy mulkidir. Ular mashhur, hayratlanarli va muomalada bo'lgan madaniy mahsulotlar bo'lgani uchun ularning tarqalishi juda tabiiy. Savdo karvonlari, sargardon oshiqlar, askarlar, urushlar va hijratlar xalq qo'shiqlarini tashishni ta'minlaydi. So'nggi yillarda radio, televizor va lenta kabi texnik vositalar xalq qo'shiqlarining tarqalishni tezlashtirdi. Tarqalishi davrida xalq qo'shiqlarining so'z va ohanglarida birmuncha o'zgarishlar bo'ladi. Xalq qo'shiqlarining rang-barangligining asosiy sababi xalq iste'dodidir. Xalq qo'shiqlarining o'zgarishi ham og'zaki, ham ohangli bo'lishi mumkin. So'zlar turli xil ohanglar bilan kuylanganligi sababli, turli xil so'zlar kuyga o'rnatilishi mumkin. Shuning uchun ham bir xil xalq qo'shig'ining turli hududlarda o'zgarishlarini ko'rish mumkin.

Qo'shiq matni vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. "Muayyan shaxsning mulki bo'lgan xalq qo'shig'i bir muncha vaqt o'tgach, xalqning umumiy mulkiga, so'ngra xalq adabiyoti mahsuliga aylanadi" Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi o'rganilganda shunga amin bo'ldikki, jamiyatni o'ylantirayotgan masalalarning qayta ishlanishi, kuyning ta'sirchanligi, xalq qo'shiqlarining badiiy tuzilishining yuksakligi kabi omillar xalq qo'shiqlarining umrini uzaytiradi. Xalq qo'shiqlari



hech qachon debyutdagidek o‘z borligini saqlab qololmaydi. Xalq qo‘shiq-lari vaqt o‘tishi va odamdan odamga o‘tish davrida yangi tuyg‘ular bilan oziqlanib, o‘zini yangilaydi.

Jamiyat ruhida chuqur iz qoldirgan qahramonlar, afsonaviy ishqlar, buyuk ofatlar xalq qo‘shiq-lari mavzusiga aylanadi. Ularning so‘zlari va ohanglari juda kuchli. Boshqa xalq qo‘shiq-lari esa o‘yin kayfiyatiga o‘tish orqali davomiylikka erishadilar. Qishloq va shaharlardagi tadbirlarda aytiladigan xalq qo‘shiq-larining tarqalish kuchi past. U katta jamoalarning e‘tiborini tortmaydi, u tor doirada qoladi. Ularning umri ham qisqa. Asosiy mazmuni inson bo‘lgan xalq qo‘shiq-lari tirik mavjudotlar kabi tug‘iladi, yashaydi va unutiladi. Xalq qo‘shiq-larining qachon va qayerda paydo bo‘lganligini aniqlash juda qiyin. Mamlakatning istalgan joyida aytiladigan xalq qo‘shig‘i qayerdadir tug‘ilgani aniq. Bir muncha vaqt o‘tgach, u mamlakatning turli hududlariga tarqaladi. Xalq qo‘shiq-laridagi joy va shaxs nomlari xalq qo‘shig‘ining tug‘ilgan joyini aniqlash uchun yetarli emas. Negaki, xalq qo‘shig‘i ko‘tarilayotganda har borgan joyini o‘zgartirib, asl shaklini o‘zgartiradi

Xalq qo‘shiq-larini kuylashning aniq vaqti yo‘q. Xalq qo‘shiq-larini doim kuylash mumkin. Odamlar qishki tunlarda, o‘zaro yordam uchun bir joyga yig‘ilishdi; yozda ish, dehqonchilik, hosil yig‘ishsa, o‘yin-kulgi va mehnatni yengillashtirish maqsadida xalq qo‘shiq-larini kuylashadi. Uy majlislarida xalq qo‘shiq-lari ajralmas o‘yin-kulgi vositasiga aylanadi. Umuman, xalq qo‘shiq-larini go‘zal ovoz sohibi ham, qiziquvchan ham aytadi. Xalq qo‘shiq-lari urf-odat-larni tinglash orqali keksalardan o‘rganiladi. Qo‘shiq aytilayotganda tinglovchilar qo‘shiqning mavzusiga va uning aytilishining sababiga qarab mos munosabatda bo‘lishadi. Qo‘shiq qayg‘uli bo‘lsa tinglovchi g‘amgin, quvnoq bo‘lsa quvnoq.

Qishloqda aytiladigan xalq qo‘shiq-lari, qishloq xususiyatlari, qishloq madaniyati; shaharda kuylangan xalq qo‘shiq-larida shahar hayoti, shahar madaniyati aks etgan. Zero, aholi punktlarining xususiyatlari xalq qo‘shiq-larida ham o‘z ifodasini topadi, albatta. Qishloq xalq qo‘shiq-larida dard, quvonch, sog‘inch, umid va tuyg‘ular soddaroq aks etgani ko‘rinadi.

Xalq qo‘shiq-lari kuylanadigan muhitlar quyidagilar:

- Bayramlar
- Nikoh marosimlari
- Ish faoliyati davomida (xamir o‘rash, bulg‘or tayyorlash, tomat pastasi tayyorlash, non tayyorlash, ekin ekish, ketmon vaqti, o‘rim-yig‘im va xirmon vaqti va hokazo)
- Yomg‘ir yog‘dirish marosimlari



- Teatrlashtirilgan spektakllar

Xalq qo'shiqlari odamlarni kuldurish, ko'ngil ochish, mehnatni yengil qilish, tarbiya, urf-odat, an'analarni yetkazish, hamjihatlikni oshirish, his-tuyg'ularni ifodalash, dard va qayg'ularni aytib, yengillashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xalqning badiiy qudratini, milliy masalalarni xalq qo'shiqlarida ko'rishimiz mumkin. Qo'shiq mavzusi bo'lgan voqeaga baho berish uchun xalq qo'shig'ining hikoyasini bilish kerak. Xalq qo'shiqlarida xalq ijtimoiy hayotining izlarini ko'ramiz. Xalq qo'shiqlarining asosiy mavzusi musofir mavzusidir. O'z uyini, viloyatini tashlab ketgan insonning tuyg'ulari aks etgan musofir xalq qo'shiqlarida goh ayol, goh erkak tuyg'ulari birinchi o'ringa chiqqanini ko'ramiz.

Xalq qo'shiqlaridagi mavzular asosan ayollarga asoslangan. Ayol o'zining yonayotgan o'zligi bilan kuylagan xalq qo'shiqlarida o'zining ichki dunyosi, qarashlarini ko'proq ta'kidlagan. Jamiyat yig'ini o'z zimmasiga olgan holda aytadigan nolalarida u nutq mahorati, vaziyatni tahlil qilish qobiliyati bilan juda yaqqol namoyon bo'ladi. U kuylayotgan beshiklarda hayotdan umidlari haqida gapiradigan, beshikdayoq bolaning kelajagiga yo'naltira boshlagan dono va ijodkor shaxsni namoyon etadi. Ijtimoiy mavzudagi xalq qo'shiqlarida ijtimoiy muammolar ko'proq muhokama qilinadi. Muhabbat va muhabbat qo'shiqlarida o'ziga xos tuyg'ular sodda va real iliqlik bilan ifodalanadi.

Xalq qo'shiqlari sodda tilda yaratilgan. Xalq qo'shiqlarining mavzulari orasida muhabbat tuyg'ulari, kundalik voqealardan ta'sirlanish, urushlardagi qahramonlik va boshqalar kiradi. Xalq adabiyoti va xalq musiqasi asosan xalq qo'shiqlarida birikadi. Chunki xalq o'z sevgisini, mehrini, quvonchini, tashvishini, mardligini, qayg'usini, umidini, bir so'z bilan aytganda, umrining katta qismini xalq qo'shiqlari orqali ifodalab kelgan. Xalq qo'shiqlari insonning boshidan kechirgan voqealar, ularning jamiyatdagi izlari, aks-sadolari, odamlarning muhabbat, sog'inch, vatansizlik kabi mushtarak tuyg'ulari, milliy xislatlari hamda mardlik, qahramonlik kabi tarixiy voqealarni aks ettiruvchi madaniy boylikdir. Xalq qo'shiqlari ba'zan tarixni yoritib turadi, ijtimoiy tarix manbai hisoblanadi. Biroq, bu tarixiy hujjat emas. Tarixga bag'ishlangan xalq qo'shiqlarida jamiyatning o'y va tuyg'ulari, dardu quvonchlari o'rin oladi.

Xalq qo'shiqlarining tasnifi. Xalq qo'shiqlarini ijrochilari, kuylari, mavzulari va tuzilishiga ko'ra tasniflash mumkin. Ular kuylangan hududlarga ko'ra ham nomlanadi. Bizning to'rt xil nuqtai nazardan tasniflagan xalq qo'shiqlarini tasniflash borasidagi qarashlarimiz quyidagicha:

I. Qo'shiqchilarga ko'ra xalq qo'shiqlari:

- Asl xalq qo'shiqlari



- Oshiq va sozandalar kuylagan xalq qo'shiqlari

II. Kuylariga ko'ra xalq qo'shiqlari:

- Tarzli xalq qo'shiqlari
- Tartibsiz xalq qo'shiqlari

III. Mavzu bo'yicha xalq qo'shiqlari

- bir voqea va qahramon haqidagi xalq qo'shiqlari
- yigit va qiz haqidagi xalq qo'shiqlari
- dushman haqidagi xalq qo'shiqlari
- nola (qo'shiq aytuvchisining ma'lum bir qiyin vaziyatga tushib qolgach yaratganga qilgan nolasi)

Ayrim manbaalarga ko'ra xalq qo'shiqlarini mavzulariga ko'ra quyidagi 11 guruhga bo'lishimiz mumkin:

- Lirik xalq qo'shiqlari
- Kulgili odamlar yoki hodisalarni masxara qilishga qaratilgan xalq qo'shiqlari
- Voqealar qo'shiqlari
- Tantanali va mavsumiy qo'shiqlar
- To'y qo'shiqlari
- iymon va mazhab xalq qo'shiqlari
- Ishbilarmonlik va kasbiy xalq qo'shiqlari
- Tabiat haqida xalq qo'shiqlari
- O'yin xalq qo'shiqlari
- Beshinchi kuy shaklidagi xalq qo'shiqlari
- Marsiya shaklidagi xalq qo'shiqlari

Dialektologiya sohasidagi izlanishlar natijasida “musiqiy tilshunoslik” atamasiga e'tibor qaratgan musiqashunoslar lingvistik-musiqiy qonuniyatlarga bog'liq holda mavjud bo'lgan va an'anaviy aloqalar o'qi bo'yicha tuzilishi mumkin bo'lgan lingvistik musiqiy xususiyatlar o'rtasida uzviy o'tishni ta'minlay oladilar.

Insonlar muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun boshqa individlar bilan til topishib, predmet va tushunchalarni belgilar bilan timsollashtirgan, har bir belgiga mos keladigan tovushni aniqlagan va bu tovushlarni ma'lum bir shaklda hosil qilish orqali nutqiy til hosil qilgan. Ovozi bilan til qonunlariga muvofiq muloqot qiladigan inson o'z muloqotini yanada estetik shaklga aylantirish uchun mo'ljallangan va o'z ovozi og'zaki nutqdan farqli tarzda ishlatib, ikkinchi muloqot tizimini – musiqi tilini yaratgan. Har bir tilda tushuncha va predmetlarni bildiruvchi belgilar har xil bo'lib, bu belgilarga mos keladigan inson ovozlari ham har xil bo'ladi. Har bir jamiyat o'z musiqasida

og'zaki tildan o'zagi sifatida foydalangan, o'z musiqasida qo'llash uchun ikkinchi til yaratish zaruratini yo'q deb hisoblagan, an'anaviy tarzda o'z musiqalarida qo'llaydigan inson ovozi shaklini ochiq yoki yashirin kelishuvlar bilan aniqlagan va ijro etgan.

Til-musiqqa munosabati o'qida an'anaviy munosabat bilan ma'lum adabiy-musiqiy qoliplar yaratib ijro etilayotgan xalq qo'shiqlarini boshqa musiqqa janrlaridan ajratib turadigan eng muhim omil shundaki, fonetik-morfologiya-lug'at mezonlari rasmiy yozma hujjatlarga muvofiq o'zgartiriladi. Translitteratsiya belgilari bilan transkripsiya qilinadi. Qo'shiq so'zi sifatida qo'llanilgan matnlar musiqqa naqshlariga mos uslubda chalinishi va kuylanishi dialektolog va musiqashunoslar tomonidan tasdiqlangan. Og'zaki-badiiy ijro turi sifatida belgilangan xalq qo'shiqlari tarkibida mavjud bo'lgan etnolingvistik xususiyatlar ijtimoiy konsensus sohasi sifatida shaxs va jamiyat hayoti nazorati ostida mavjud bo'lib qoladi. Og'zaki-badiiy ijro turi sifatida belgilangan xalq qo'shiqlari tarkibida mavjud bo'lgan musiqiy lingvistik xususiyatlar etnomusiqashunoslikdagi lingvistik yondashuvlardir. Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarga erishishda muhim ko'priklardan biri sifatida qabul qilingan mahalliy madaniyatshunoslikning ahamiyati musiqaning ijtimoiy-madaniy ta'sirini anglash bilan bir necha bor ko'tarildi.

Adabiyotlar:

1. Rozenstok-Hussi. Nutq va haqiqat. – M.: Labirint, : 84. 1995
2. Marcuse H. L'uomo a una dimensione. – Torino : 205-206 1967 yil.
3. Albayrak; Nurettin (1993), "Mani" Maddesi, İslam Ansiklopedisi, C.12, s. 571-572, MEB Yayınları., İstanbul.
4. Stoun, RM, (2008). Etnomuzikologiya nazariyasi. Pearson Press, Nyu-Jersi, 51-53



ИНСАН ДЕНЕСИНДЕГИ БИОГЕН ЭЛЕМЕНТЛЕРДИ ҮЙРЕНИЎДИҢ АҲМИЙЕТИ

Тлеуниязова А.А.

*Қарақалпақстан Республикасы Мектепке шекемги ҳәм мектеп
билимлендириў министрлигиниң Педагог кадрлар потенциалын
арттырыўды муўапықластырыў секторы*

Таянч сўзлар: биоген элемент, инсон танаси, кимёвий элементлар, органик ва анорганик моддалар, синтез, бирикма, токсинлар, метаболизм, организм.

Ключевые слова: биогенный элемент, организм человека, химические элементы, органические и неорганические вещества, синтез, соединение, токсины, обмен веществ, организм.

Key words: biogenic element, human body, chemical elements, organic and inorganic substances, synthesis, compound, toxins, metabolism, organism.

Резюме:

Ушбу мақолада инсон танасидаги биоген элементларни ўрганишнинг аҳамияти, унинг инсон организми ривожланишидаги тутган ўрни ва уларнинг кимёвий таркиби, топографияси хартомонлама ўрганилган.

Резюме:

В данной статье подробно изучено значение изучения биогенных элементов в организме человека, их роль в развитии организма человека, их химический состав и топография.

Summary:


This article examines in detail the importance of studying biogenic elements in the human body, their role in the development of the human body, their chemical composition and topography.

Ҳазирги ўақытта инсан организмниң химиялық қурамы ҳәм химиялық топографиясы жеткиликли дәрежеде үйренилген болсада, саламат турмыс тәризине киши мектеп жасынан баслап, системалы түрде саламатлық мәдениятты толық қәлиплестириўди жолға қойыў, халықтың кең қатламы арасында тиришилик процессинде қатнасуғын химиялық биоген элементлердиң аҳмийетин үзликсиз түсиндирип барыў дәўир талабына айланбақта.

Инсан денеси турақлы түрде көплеген муғдардағы хәр қыйлы химиялық бирикпелерди ислеп шығарады. Синтезленген бирикпелердин бир бөлеги энергия дереги яки қурылыс материалы сыпатында жумсалады

хәм организмнің өсип рауажланыуын, көбейиуи менен жасауын тәмийнлесе, қалған бөлеги шығындылар, токсинлер тағы басқда метаболизмнің ақырғы өнімлери сыпатында организмнен шығарып жибериледи. Метаболизм процессинде органикалық хәм анорганикалық затлар қатнасады, бул затларды пайда етиуши химиялық элементлер - **биоген элементлер** деп аталады.

Химиялық көз-қарастан барлық тири организмлер қурамында органикалық затлардың тийкарын углерод, водород, кислород, азот хәм басқа биоген элементлер бар болып, олардан 20 элементи кең тарқалған. Химиялық элементлердің организмдеги муғдары жер жүзиндеги элементлердің тарқалыуы менен салыстырғанда тиршиликтің пайда болыуы, биологиялық системада мәлим элементлердің таңлап топланыу қәсийетине ийе екенлиги көринеди. Углерод, азот, фосфор элементлери жер қабығындағы муғдарына салыстырғанда дерлик 100-200 есе көбирек. Элементлерден: С, N, O, H, P хәм стронций организмде тоқымалардың тийкарын қурайды. Сондай-ақ жүдә аз муғдарда ушырасатуғын хлор, иод, фтор, натрий, калий, кальций, магний, темир, мыс, марганец, цинк, молибден, кобальт усаған элементлердіңде организм ушын әхмийетли. Бул элементлер организмде органик бирикпелер, минерал дузлар сыпатында топланады. Хәр бир организмнің тийкарғы массасын суу қурайды, клетка 80% суудан ибарат. Орташа дене салмағы 70кг болған инсан денесиндеги құрғақ затлардың тийкарғы компонентлери: белок, липид, углеводлар, нуклеин кислоталары хәм минераль дузлардан ибарат (1-сүүрет).



1-сүүрет. Адам денесиндеги құрғақ затлардың тийкарғы компонентлеринің салыстырмалы муғдары (%)



Бул салыстырмалы бөлиниў организмнің түрине, жасына хәм аўқатланыўына қарап өзгерип турады. Өсимлик денесиндеги қурғақ затлар тийкарынан, углеводлар хәм углевод туўындыларынан ибарат болып, белок екінши дәрежели бирикпе есапланады.

Тири жанзатларда ушырасатуғын химиялық элементлерди тийкарынан төрт группаға ажыратыў мүкин:

1. **Макробиогенли элементлер:** кислород, углерод, азот, водород; олардың муғдары организмде 1% хәм оннан жоқары болады.

2. **Олигобиогенли элементлер;** олардың муғдары 0,1 ден 1% ке шекем болып, оларға: кальций, хлор, фосфор, калий, күкирт, магний, темир элементлери киреди.

3. **Микробиогенли элементлер;** олардың муғдары 0,01%тен кем болып, оларға: цинк, марганец, кобальт, мис, бром, йод, молибден киреди.

4. **Ультрамикробиогенли элементлер;** олардың организмдеги муғдары 0,000001% тен аспайды, оларға: литий, кремний, кадмий, селен, титан, ванадий, хром, никель, гүмис, алтынлар киреди.

Ультрамикробиогенли элементлердиң тиршилик процессиндеги биологиялық жақтан әхмийети толық анықланбаған. Қоршаған орталықтың патасланыўы айырым химиялық элементлердиң организмде аккумуляцияға алып келиўи мүкин. Организмнің тийкарғы бөлегин кислород, углерод, водород, азот хәм фосфор қурайды. Бул элементлер организм метаболизминде жетекши орынды ийелейди. Фосфор хәм күкирт атомлари және қосымша энергетик ўазыйпаныда атқарады. Төмендеги сүўретте инсан организмине кириўши тийкарғы химиялық элементлер диаграммасы келтирилген (2-сүўрет).

Өсимлик хәм хайўанлар организмлери қурамында Д.И.Менделеев дәўирлик кестесиндеги элементлердиң 70 түри анықланған. Кестедеги элементлерден кислород, углерод, водород, азот, кальций, фосфор, калий, күкирт, хлор, натрий, магний, цинк, темир, мыс, йод, молибден, кобальт хәм селенлер клетка қурамында бәрхама ушырасады, олар фермент, гормон, витаминлар синтези ушын зәрүр есапланады. Муғдары жағынан химиялық элементлер түрли организмде хәр қыйлы болады.

Инсан организминдеги биоген элементлер хәрқыйлы биологиялық функцияларды орынлаўға қатнасады, олардың организмдеги муғдарының жетиспеўшилиги ямаса артып кетиўи инсан саламатлығына тәсир етеди хәмде кеселликлердиң раўажланыўына алып келеди. Организмдеги 200ден аслам ферментлер металлар тәсиринде активлеседи. Инсан организминде 70 түрли биоген элементлер табылған болсада, солардың ишин-

де 14 элементи алмасын-байтуғын; кобальт, темир, хром, мыс, никель, марганец, молибден, цинк, қалайы, ванадийлер әхмийетли элементлер есапланады.

Көпшилик микроэлементлер организмге өсимликлер, теңиз өнімлери арқалы келип түседі. Жабайы өсимликлерге бул элементлер топыпақ


курамынан, жердің терең қатламларынан тамыры арқалы сорылып, жапырақларында, гүлінде, пақал хәм мийуелерінде азықлық зат сыпатында топланады. Инсанлар болса бул топланған биоген элементлерди таяр халында минераллар сыпатында қабыл етеміз.

Хәрбир инсан өзиниң денсаулығын сақлау үшін денесине зәрүр болған азықлық биоген элементлерди сыпатлы аұқатлар, таза суу хәм хауа менен жетерли муғдарда тәмийнлеуді үйрениуи шәрт.

Бүгинги күнде балалық дәуиринен баслап кеселленбеген инсанды ушыратыу қыйын. Бул жағдай көплеген биотик хәм абиотик факторларға байланыслы: қоршаған орталықтың экологиялық жақтан патасланыуы, суусызлық, топырақтың шорланыуы, инсанлардың турмыс тәрзи, надурис аұқатланыуы, генетикалық т.б. өз шешимин табыуда превентив медицина тийкарларын күнделикли турмысқа енгизиу арқалы ерте мектеп дәуиринен баслап кеселликти емлеуді емес, оның алдын алыуға үйретип барсақ мақсетке мууапық болады. Бул үшін киши мектеп жасындағы оқыушыларды оқытыуда биоген элементлердің әхмийетин түсиндирип барыу үшін төмендеги тәжирийбени қолланыуға итибар қаратыуымыз керек.

1. «Таза хауа – тәнге дауа» шынығыуы. Бунда оқытыушы класстың айнасын ашып, таза хауа киргизеди, 1 минут дауаында мурын арқалы терең дем алыу/ауыздан әстен дем шығарыу шынығыуын ислетеди.

- Таза хауаның курамындағы кислородтың әхмийетин барлық тири жанзатлар үшін зәрүр екенин оқыушыларға айтады.



2-сүрәт. Адам денесин кураушы тийкарғы химиялық элементлердің диаграммасы



- Адамлар, хайуанлар, қуслар, өсімликлер, насекомалар хауадағы кислород пенен дем алады, ал балықлар хәм теңиз хайуанлары сууда ериген кислород пенен дем алады деп түсіндиреди.

2. «Қайнатылған сууда хауа қалмағаны ушын ол көп уақытта қайнайды, ал краннан алынған таза суудың ишинде хауа болғаны ушын ол тез қайнайды» деген тәжирийбелерди оқыушы хәр күни көрип, билседе әхмийет бермеген қубылыслардың илимий мәнислерин аңлап баслайды.

Бундай тәжирийбени оқытушы класста сабақты баслаудан алдын қолланыу арқалы оқыушылардың дыққатын жәмлеуге, активлестириуге, ең тийкаргысы оқыушының саламатлығын тәмийнлеуге және инсан өмири ушын зәрүр болған таза хауаның қурамындағы кислород элементиниң әхмийетин билиуге, илимий жақтан анализлеуге көнликпе пайда етеди. Таза хауадан дем алыу арқалы хәрқыйлы жүкпалы кеселлерге шалынбайтуғынын түсиниуге методикалық жақтан имкәният туудырады.

Усы тийкарында оқыушыларға билим беріу менен бирге оқыту процессиниң нәтийжелилигин асыруда онын формасына емес, бәлким онын қолланып атырған методларына байланысly.

Бүгинги күнде дүнья билимлендириу системасында оқытудың лекция, семинар, әмелий шынығыулар, өз бетинше жұмыс, курс жұмысын тайярлау сыяқлы оқытудың дәстүрий түрлери менен бир қатарда оқытудың инновацион технологияларыдан кең пайдаланылмақта. Олардан оқыу процессинде пайдаланыу ушын қолланылатуғын технологиялар;

- Жеке адамға бағдарланған технологиялар,
- Ойынлы технологиялар,
- Машқалалы оқыту технологиясы,
- Кейс стади технологиясы,
- Шеберлик сабақлар технологиясы,
- Басқару технологиясы,
- Өз бетинше тәлим технологиясы,
- Тренинг технологиясы хәм басқада технологиялар да оқыу әмелия-

тында пайдаланып келмекте. Бул жоқарыда көрсетилген технологиялар жәрдеминде оқыушы-жаслардың билим, тәжрийбе хәм көнликпелери, оқыушылардың дәретиушилик қәбилетлери инабатқа алынады, бунда хәр бир тәлим технологиялары оқытудың интерактив методларидан, ахборот коммуникация қуралларынан пайдаланыуы арқалы оқытушының педагогикалық шеберлиги талап етиледі.

Бүгинги темамызда инсан денесиндеги биоген элементлерди үйрениудің тийкаргы әхмийетин ашып беріу ушын биз жеке адамға бағдарланған

оқытыў технологияларынан пайдаланыўымыз мүмкин. Бунда оқытыў процесси орайында оқыўшы болады. Оқыўшының интеллектуал имканиятлары, қәбилетлери ҳәм тәжрийбелери бир мақсетке қаратылады оларды бирлестирип натийжели жуўмақ шығарыўға өз мақсетине ерисиўге үйретеди. Жеке адамға бағдарланған оқытыў технологиясының мақсети - билим алыўшыларды ҳәр тәреплеме раўажландырыў, оның еркинлиги ҳәм дәретиўшилигин өсириўден ибарат.

Әдебиятлар:

1. А.В. Бгатов. Биогенная классификация химических элементов. Журнал "Философия науки", №2(6), 1999г
2. Авцын А.П., Жаворонков А.А. и др. Микроэлементы человека. -М.: Медицина, 1991. – 496 с.
3. Гвоздырева, Е. М. Развитие интереса учащихся к изучению организма человека. – М. : Педагогика, 1971. – 145 с.
4. Н..А. Тюкавкина, Ю.И.Бауков. Биоорганическая химия. 3-е издание. Москва. 2004
5. Тўрақулов Ё.Х. Биокимё. Тошкент. «Ўзбекистон», 1996.
6. Валихонов М.Н.. Биокимё. Тошкент. Университет, 2009
7. К.Отениязов, М.Қ.Алланиязова. Биохимия. Нөкис. - 2002, 70 бет.
8. Ш.Б.Иргашев. Валеология превентив тиббиётнинг асоси. Тошкент. 2023
9. А.А.Тілеуниязова.7-сынып оқулығындағы «Тірі ағзалардағы химиялық элементтер және олардың маңызы» тақырыпты беккемдеу./Мат-лы международной научной конференции студентов и молодых ученых «Фараби әлемі».-Алматы. КазНУ, 2024, с.351
10. Мусурманова О. Педагогик технологиялар-таълим самарадорлиги омили. Тошкент 2020,
11. Бекимбетова А.А, Алауатдинов С.И, Сагиндикова Н.Ж «Семинар сабақларды оқытыўда инновациялық технологиялардан пайдаланыў» Нөкис Қарақалпақстан - 2013



XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMASI VA MALAKASINING O‘RNI VA ROLI

Abdurahimova F.Yo‘.

*Respublika Oila va xotin- qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender”
ilmiy-tadqiqot instituti “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash
va oila psixologiyasi” bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Tayanch so‘zlar: xotin-qizlar, tadbirkorlik, ta’lim-tarbiya, erkak va ayol, ehtiyojmand xotin-qizlar, himoyaga muhtoj, yolg‘iz ayol, mahalla fuqarolar yig‘ini, insonparvarlik, farzand, normativ-huquqiy hujjatlar.

Ключевые слова: женщины и девушки, предпринимательство, образование, мужчина и женщина, нуждающиеся женщины, нуждающаяся в защите, одинокая женщина, общественное собрание, гуманизм, ребенок, юридические документы.

Key words: women and girls, entrepreneurship, education, man and woman, needy women, need protection, single woman, community assembly, humanitarianism, child, legal documents.

Резюме:

Ushbu maqolada xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimida tadbirkorlik ko‘nikmasi va malakasining o‘rni va roli masalasi yoritilgan.

Резюме:

В данной статье описывается место и роль предпринимательских навыков и квалификации в системе поддержки женщин.

Summary:

This article describes the place and role of entrepreneurial skills and qualifications in the women's support system.

Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar xalqlar madaniy hayotidagi asrlar davomida qaror topgan nikoh munosabatlarning degradatsiyaga uchrayotgani bilan xarakterlanmoqda. Nikoh va oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglamasdan, ularni yo‘qotishga, insoniyat erkinligiga putur yetkazuvchi sarqit sifatida baholovchi nigilistik qatlamlar shakllanmoqda. Bunday qarashlar G‘arb-u Sharq xalqlari hayotiga birdek kirib bormoqda. Shu bois oila-nikoh munosabatlarning axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish, transformatsiyasiga sabab bo‘luvchi konseptual asoslarini aniqlash

va insoniyatning progressiv taraqqiyotidagi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda. Ma'lumki, oila jamiyatning eng ko'hna va muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Bugun jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida ayollar sabab bo'layotgan yaratuvchanlik va yangilanishlar ortib bormoqda. Shu bilan birga, u yuksak minbarlarda turib, dunyo afkor ommasini tinchlikni saqlashga chorlayotgan siyosatchi, uzoqni ko'ra oladigan, yetti o'lchab bir kesuvchi tadbirkor, insoniyat taqdirini hal etishga qodir, o'tkir aql-idrok egalarini dunyoga keltirayotgan mehribon va mushtipar onadir.

Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda. Bu sa'y-harakatlar ayollarning jamiyat hayotida faolligi orqali o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko'ra, ayollar quyidagi ijtimoiy ta'tillarni olish huquqiga egadirlar: homiladorlik va tug'ish, ularni rivojlantirish, o'qish bilan bog'liq ta'tillar. Bularidan tashqari, ayollar uchun mamlakatimiz tomonidan qator imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlar xotin-qizlarimizni turli sohalarda faoliyat olib borishlariga keng imkoniyat yaratmoqda.

Ayollarimiz tashkilotlarda faoliyat olib borish bilan birga oilasi, farzandlarining ta'lim-tarbiyasi bilan ham to'liq shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish kerak. Qadriyatlarimizga ko'ra, oila boshlig' bo'lgan erkakni ayol ayoldek kutib olishi va kechki ovqatni bir dasturxon atrofida jamlanishi ham ayolga quvonch bag'ishlaydi. Bu esa farzandlarga namuna va ma'naviy tarbiya hamdir. Xalqimiz ayollarini "uy bekasi", "xonadon farishtasi" deb ulug'lashi ham bejiz emas. Shuningdek, barcha davlat tashkilotlari xodimlariga maktabdagi ota-onalar majlisiga borishi uchun sharoit yaratib berilishi lozim. Ya'ni xodim farzandining ota-onalar majlisi uchun ruxsat berishi bilan oiladagi ma'naviy tarbiyaga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekistonda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan bo'lib, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" xamda "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" ning mahsus yo'nalishlarida tizimli ishlar olib borilmoqda. Unga muvofiq, respublikada xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim va kasbiy ko'nikmalarini oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish gender tenglikni ta'minlash siyosatini izchil davom ettirish, ular



tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali bandligini ta‘minlash, ayniqsa, xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotinqizlarning muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yolg‘iz ayollarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda, ayniqsa, ijtimoiy himoya masalasida ehtiyojmand yolg‘iz ayollarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Ehtiyojmand hotin-qizlar, himoyaga muhtoj, yolg‘iz ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish, ilg‘or tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan aniq amaliy ishlarni tizimli amalga oshirish lozim. Yolg‘iz ayollarning oilalarini mustahkamlash, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish hamda jamiyatda konsensus muhitini rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Mahallalardagi “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mas‘ul tashkilotlar, sektorlar tomonidan yolg‘iz ayollarning muammolari o‘z vaqtida hal etilishi ustidan jamoat nazoratini kuchaytirish talab etiladi. Joylarda og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yolg‘iz ayollarga, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogironligi bo‘lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj yolg‘iz ayollarga uy-joylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish bilan birgalikda, yolg‘iz ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mehnat va o‘qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish ishlari olib borilmoqda. Yolg‘iz ayollarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha

bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan ma‘qullangan dasturlar asosida tashkil etilgan o‘quv kurslari qo‘llab-quvvatlashga muhtojligi bor yolg‘iz ayollarimizning tadbirkorligini

rivojlantirishda ularga bu borada tushunchalar berib kelmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining “Ishga marhamat” monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari yoki nodavlat ta’lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlarini amalga oshirgan holda yolg‘iz ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochib berilmoqda. Mamlakatda ehtiyojmand yolg‘iz ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand yolg‘iz ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlar tizimli davom ettirilmoqda.

Xususan, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 69-70-maqsadida xotin-qizlarning, shuningdek, ehtiyojmand yolg‘iz ayollarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yolg‘iz ayollarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ko‘makka ehtiyoji bor yolg‘iz ayollar o‘rtasida tadbirkorlik va biznes ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish masalalarini ko‘plab xorijiy mamlakatlar tajribasida ko‘rish mumkin.

Ehtiyojmand yolg‘iz ayollarda tadbirkorlikni rivojlantirish ularni kelgusida farovon va to‘kin hayotning milliy tafakkur va turmush tarzida ijobiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lishi, urfodat, an‘ana va qadriyatlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Urf-odat, an‘ana va qadriyatlar ijtimoiy me‘yorlar sifatida, jumladan, milliy, diniy, umuminsoniy, shuningdek, odob qoidalari, madaniyat normalari, kishilar hayotida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning aksar qismini tartibga soladi.

Ayollar tadbirkorligi turmush tarzimizda urf-odat, an‘ana va qadriyatlar milliy va mahalliy shakllarda namoyon bo‘ladi.

Ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularni kasb-hunarga o‘rgatishning birlamchi omili sifatida shaxsning tafakkur tarzini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Yolg‘iz ayollarning tafakkur tarzi, bilimlari jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko‘nikma va malakalarini qaror toptirish esa avvalo, jamiyat ma’naviy muhitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, demografik muammolarning yechimini beradi, albatta. Bu hodisa MFY (Mahalla fuqarolar yig‘ini) mas’ullari, ayniqsa, xotin-qizlar faolidan o‘z



hududida istiqomat qilayotgan yolg'iz onalar bilan ish olib borishda, ularning dunyoqarashi bilan muntazam ma'rifiy profilaktika ishini taqozo etsa, ularni mehnatga jalb etish orqali halol rizq topib, farzandlari va o'zini moddiy ta'minlashi uchun kasb-korga ega qilish, shuningdek, uning ijtimoiy nazorati va ijtimoiylashuvi borasidagi harakatlarni o'ta noziklik va ehtiyotkorlik bilan tashkillashtirish borasida doimiy ravishda izlanish va rivojlanishni taqozo etadi.

MFYda faoliyat olib borayotgan mas'ullar, avvalo, xotin-qizlar faoli xalqimizning azaliy milliy tafakkuri "Harakat – harakatda barakat" kabi milliy xotirasidan ajralmaydigan, o'ziga munosib turmush tarzini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Yolg'iz ayollarning jamiyatda tutgan o'rni, tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishi, ularning faolligini ta'minlashda o'zbek oilalarining ajralmas qismi hisoblangan an'anaviy turmush tarzi aqidalaridan oqilona foydalanmog'i darkor. Jumladan, "Yaxshi xotin ishlik bo'lar, Yomon xotin – tishlik", "O'quvi bor ulg'ayar, Uquvi yo'q sarg'ayar", "Ilmsizga ishonch yo'q, Hunarsizga quvonch yo'q", "Bekorhining hunari – g'iybat", "Betashvish bosh qayda, Mehnatsiz osh qayda", "Dangasaga bulut soyasi ham yuk", "Dangasaning ishi bitmas, Yoz kelsa ham qishi bitmas", "Ishchan tilagi – tong ota qolsa, Erinchak tilagi – kun bota qolsa", "Epchil xotin qor qalab, qozon qaynatar", "So'zlay-so'zlay gapchil bo'larsan, Ishlay-ishlay epchil bo'larsan", "Yaxshi xotin yo'q narsangni bor etar, Yomon xotin keng uyingni tor etar", "Chaqqon chora topar, Beparvo – bahona", "Zehn qo'ysang bilimga, Ilm tomar dilingga", "Birovning bergani – ko'rgulik, Mehnatning bergani – to'ygulik" kabi milliy maqollar orqali yolg'iz ayollarni faollikka, bilim olishga, mehnat qilishga, ilmga intiluvchanlikka, maqsad sari sabr-qanoat, toqat va chidam bilan kurashga farovon va to'kinlikka chorlashi kerak bo'ladi.

MFYda faoliyat olib borayotgan mas'ullar, avvalo, xotin-qizlar faoli o'z hududida yolg'iz ayollarni faollikdan og'diruvchi maishiy to'siqlarni, shuningdek, ularni ishbilarmonlik, tadbirkorlikdan cheklash, ularni bu faoliyatdan cheklovchi zo'raonliklarni, ularni passiv qabul qilish kayfiyatidagi mikromuhitni bartaraf etishlari kerak bo'ladi. Chunki bugungi kunda jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa, yolg'iz ayollarga, ularning ijtimoiy faolligiga nisbatan jamoatchilik munosabatini shakllantirmoqda. Biz MFYda faoliyat olib borayotgan mas'ullar, avvalo, xotin-qizlar faoliga yolg'iz ayollar bilan ishlashda R.Likertning "Jamlangan baholar" shkalasidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu shkala asosida sotsial munosabatlarni, jumladan, yolg'iz ayollarning jamiyatga, oilaga, siyosatga va hokazolarga nisbatan qarashlari, fikr-mulohazalarini, munosabatlarini baholash mumkin. R.Likertning ta'kidlashicha, ayollarning farzandga, yoshlarning

qariyalarga munosabatini baholashda to'g'ridan to'g'ri berilgan savollardan foydalanib bo'lmaydi, chunki respondent salbiy fikrlarini oshkora, bemalol bildira olmaydi. Bu holat uning dunyoqarashida alamzadalikni kuchaytirib borishi alaloqibat uni eshituvchi "kuchlar"ning domiga ilinishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham savollar zahirida yashirin holatlar bo'lishiga alohida e'tibor berishilishiga erishish kerak bo'ladi.

Yolg'iz ayollar munosabatini baholashni o'rganish maqsadida mazkur shkaladan foydalanib, ijobiy (+) va salbiy (-) fikrlarni ajratish imkoniyati tug'iladi. Ijobiy ma'nodagi savolga 5 ball maksimal bahoni, salbiy savolga esa 1 ball minimal baholash mumkin. Shkala bo'yicha jami minimal ball 10 ballga, jami maksimal ball 50 ballga teng. Yaxshi natijalarga erishishimiz, avvalo, tuzilgan savollarning sifati, fikrlarning ketma-ketligi, uzviyligiga, oddiydan murakkabga, mazmunning aniqligi, mohiyatning yashirinligiga va albatta, ballarni to'g'ri qo'llashga bog'liqdir. R.Likert indeksdan foydalanish bo'yicha quyidagi ko'rsatmalarni ishlab chiqqan:

1. Indeksning alohida obyekt, jumladan, respondentlar va alohida obyektlar guruhi bilan belgilanishini ajrata olish.

2. Indeksni ishlab chiqish jarayonini baholash yoki shkalalashtirish.

3. Matematik usullardan foydalanish.

4. Indeks tahlili esa indeksni ishlab chiqish, ularni qo'llash, mantiqiy, individual, guruhli va tarkibiy indeksni ajrata olishni anglatadi. Indeks fanda muhim rol o'ynaydi, chunki u taqqoslash vositasi sifatida xizmat ko'rsatadi. Zero, mutaxassis uchun taqqoslash muhim hisoblanadi. Vaholonki, yolg'iz ayollarga munosabat, ularning oila va jamiyat hayotidagi o'rni, tadbirkorlik, ijtimoiy faollik borasidagi qarashlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Mana shunday fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini yuksaltirish, ularning intilish va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitini oshirish bu ayollarimizni e'zozlash bilan birga kelajak avlodni barkamol etib voyaga yetkazish uchun qilingan buyuk ishlardan biri bo'ladi. Bu muhim vazifaga davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'z loyihalari orqali ayollarimizning turmush tarziga yengillik kiritishga hissasini qo'shib kelmoqda. Ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularni kasb-hunarga o'rgatishning birlamchi omili sifatida shaxsning tafakkur tarzini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Yolg'iz ayollarning tafakkur tarzi, bilimlari jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko'nikma va malakalarini qaror toptirish esa avvalo, jamiyat ma'naviy muhitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy,



axloqiy, demografik muammolarning yechimini beradi, albatta. Zero, ayollar ma'naviyat, go'zallik, nafosat, ezgulik, mehr-muhabbat tarqatuvchi, oila va jamiyatda barqarorlikning munosib himoyachisi hamda charog'bonidir.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг файзи ва кўрки // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 464.
2. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 119.
3. Mustafayeva N.A. Ma'rifatli ayol – millat tarbiyachisi // Milliy qadriyat va urfodatlarni saqlashda ayollarning o'rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Т.: 2018. – В.267.
4. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. *Science and innovation*, 2(B1), 49-59.
5. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 223-231.
6. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 223-231.
7. Мусурманова, А. (2019). Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. *Проблемы педагогики*, (1 (40)), 5-7.
8. Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. *Проблемы педагогики*, (1 (33)), 5-7.
9. Мусурманова, О., Палуанова, Х., Рискулова, К., & Курбаниязова, З. (2019). Педагогик атама-лар луғати: ўзбек, рус, инглиз тилларида. Т.:“TURON_IQBOL.2019.



FOLKLOR NUTQINING MAQSADI

Ismailov J.J.

*O'zbekiston Davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti*

O'zbek va chet tillari kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: folklor, nutq, xalq donologi, xalq og'zaki ijodi, xalq og'zaki ijodiga tegishli asarlarning kognitiv va diskurs tahlili, kommunikativ vaziyat.

Ключевые слова: фольклор, речь, фольклор, фольклор, когнитивно-дискурсивный анализ фольклорных произведений, коммуникативная ситуация.

Key words: folklore, speech, folklore, folklore, cognitive-discursive analysis of folklore works, communicative situation.

Резюме:

Mazkur maqolada folklor asarlarining ahamiyati, nutqiy jarayondagi voqeanishi, xalq og'zaki ijodi asarlarining tarbiyaviy ahamiyati, xalq og'zaki ijodiga tegishli asarlarning kognitiv va diskurs tahlili o'z ifodasini topgan.

Резюме:

В данной статье выражается значение фольклорных произведений, их появление в речевом процессе, воспитательная ценность произведений фольклора, а также когнитивный и дискурсивный анализ произведений, связанных с фольклором.

Summary:

This article expresses the meaning of folklore works, their appearance in the speech process, the educational value of folklore works, as well as the cognitive and discursive analysis of works related to folklore.

“Folklor” inglizcha so‘z bo‘lib, “xalq donoligi” degan ma‘noni anglatadi. Biroq sivilizatsiyalashgan mamlakatlarda “folklor” keng ma‘noda tushuniladi. Unga xalq musiqasi, xalq o‘yinlari, xalq she‘riyati, xalq teatri, xalq adabiyoti, xalq hunarmandchiligi, xurofot va marosimlar, an‘ana va e‘tiqodlar kiradi. Shuning uchun ham o‘sha mamlakatlarda “folklor” so‘zi bilan bir qatorda “etnografiya” so‘zi ham ko‘p qo‘llaniladi va ularning fani “etnologiya” deb ataladi. Ba‘zi mamlakatlarda esa “folklor” atamasi faqat xalq og‘zaki ijodiga, to‘g‘rirog‘i, og‘zaki tug‘ilgan va og‘zaki ijro etilgan xalq ijodiga nisbatan qo‘llaniladi. U kognitiv va estetik funksiyalarni bajaradi. Xalq og‘zaki ijodidan tarbiyaviy



maqsadlarda ham foydalaniladi. Shu bilan birga, folklor ham utilitar (amaliy) funktsiyaga ega, ya'ni ma'lum bir vaziyatda maishiy ehtiyojlarni qondiradi. Folklorning eng muhim vazifasi estetik va madaniydir. (Albatta, kerak bo'lganda, u ham mafkuraviy rol o'ynaydi) Foydali-tarbiyaviy maqsadli folklor asarlarining badiiy sifati estetik-ijtimoiy vazifaga ega bo'lgan asarlarning poetik darajasidan past bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ko'p davrlar, bir necha davrlar, turli jamiyatlar mahsulidir, shuning uchun u ko'p qatlamli, ko'p bosqichli va ko'p ma'noli, serqirradir. Qadim zamonlarda paydo bo'lgan xurofot va marosimlar, diniy tushuncha va afsonalar, bir tomondan, xalq og'zaki ijodi bo'lib, chunki ular o'sha davr kishilari tomonidan amalga oshirilgan og'zaki hikoya va marosimlardir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ular, ikkinchi tomondan, o'sha davr jamiyatining madaniyati edi, chunki o'sha davr odamlari tomonidan amalga oshirilgan marosim va afsonalar ham o'sha jamiyat uchun madaniy rol o'ynagan. Uchinchi tomondan, turli xurofotlar, urf-odatlar, diniy e'tiqod va afsonalar birinchi jamoa odamlarining dunyosini bilish jarayonida shakllangan ma'naviyat edi. Axir ular o'sha qadim zamon odamlarining dunyoqarashi edi. Xalq og'zaki ijodining san'at sifatidagi asosiy belgilari quyidagilardan iborat: romantik usul va tiplashtirish, integrasiya jarayoni, personajlarni tasvirlash yo'llari, umumiylik va formulaning yonma-yon mavjudligi, improvizatsiyaning o'ziga xosligi, barqaror kompozitsiya va asar uslubining o'ziga xosligi, folklor zamon va makon; ijtimoiy utopiya va boshqalar. Bular xalq og'zaki ijodini so'z san'atiga aylantirib, adabiyotga yaqinlashtirsa, ayrim xususiyatlar ularni ajratib turadi. Masalan, xalq og'zaki ijodining mahalliy xalq tushunchalari, tushunchalari, urf-odatlari, xalq og'zaki ijodi ongi va tafakkuri bilan bog'liqligi, individual tilning yo'qligi, individual portretning yo'qligi, harakatlarning bir yoqlama va darhol bajarilishi, xarakterning mo'jizaviy tarzda tug'ilishi va o'sishi, uning o'zlashtirishi kabi favqulodda sifatlar adabiyotga xos emas. Lekin bu folklorning san'at ekanligini inkor etmaydi. Bundan tashqari, folklorda voqelik, tarix tasviri, tasavvur va voqelik munosabatlarining turlicha o'zaro bog'lanishi, shuningdek, folklor asarlarini ijro etish maqsadi va uslubi, tomoshabinning folklor ijodiga munosabati, undagi harakatlar – bular ham xalq og'zaki ijodining badiiy asar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi nazariyasi eng avvalo uning turli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari hamda kognitiv, tarbiyaviy va estetik vazifalar va maqsadlardan kelib chiqadigan muammolarni ko'rib chiqadi. Folklor an'anasi – mavjud ijodiy uslubning davomi, adabiy an'ana esa avvalgi tajribaning takror ishlab chiqarishidir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodida an'ana o'tmish tajribasini o'zgartirmasdan qabul qilish va davom ettirish, adabiyotdagi an'ana esa o'tmishni qayta qurish emas, balki uni o'zgartirish orqali rivojlantirishdir. Har bir

xalq og‘zaki ijodi an‘anaga asoslangan, xalq orasida keng tarqalgan, variantlari bilan og‘zaki, muallifsiz asardir. Adabiy asar esa muallifning o‘ziga xos imzosi, o‘ziga xos uslubiga ega bo‘lgan, muqobili bo‘lmagan muallif matnidir. Folklor nutqini tasvirlash muammosi bugungi kunga qadar hal etilmagan. Zamonaviy tadqiqotlarda "folklor nutqi" tushunchasi tez-tez uchraydi, uning to‘liq tavsifi hali ham mavjud emas. Ammo bir qator individual kuzatishlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha nutqning pragmatik tavsifi bilan bog‘liq. Tilshunoslikda folklor nutqining kognitiv-diskursiv tavsifiga oid ishlar olib borilmoqda. Folklor nutqi o‘ziga xos shakllanish bo‘lib, u inson faoliyatining turli sohalariga xizmat qiluvchi bir qator barqaror kommunikativ vaziyatlarda amalga oshiriladi. Umumiy bilimlarni uzatish orqali u jamiyat hayotini barqarorlashtiradi, stereotipik vaziyatlarda xatti-harakatlarning individual variantlarini taklif qiladi. Folklor nutqida kommunikatorlar bitta ijtimoiy hamjamiyatning vakillari sifatida harakat qilishadi, shu bilan birga jamoada bir qancha jins, maqom, kasbiy jihatdan aniqlangan guruhlar mavjud va ularning har bir kommunikativ vaziyat tomonidan belgilangan rolni bajaradi. Folklor nutqini tavsiflash uchun uning mavjud bo‘lish shartlari katta ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyat ongli ravishda folklorga milliy g‘oyalar manbai sifatida murojaat qiladi, folklori saqlash va targ‘ib qilish kerak bo‘lgan madaniy merosning tarkibiy qismi sifatida tushunadi. Bunda gap XXI asr madaniy kontekstini shakllantirishda ko‘zga ko‘rinmas, ammo faol ishtirok etuvchi o‘tmish folklori haqida bormoqda. Folklor yashovchan, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida bugungi kunda ham mavjud bo‘lib, nafaqat "madaniy meros", balki haqiqiy madaniyatning bir qismidir. Milliy chegaralardan xoli yangi siyosiy va iqtisodiy tizimlarni yaratishga qaratilgan globallashuv jarayonlari ijtimoiy identifikatsiya birinchi o‘ringa chiqadigan jamiyat shakllanishiga olib keladi. Ijtimoiy guruhlarning har biri o‘ziga xos qadriyatlar tizimiga, dunyo tasviriga ega bo‘lib, folklor muhim o‘rin tutadigan madaniyatning o‘ziga xos versiyasini yaratadi.

Folklor ijtimoiy guruh hayotini tartibga solishda ishtirok etadi, bu jamiyatda qabul qilingan jamoaviy fikrlash va turmush tarzini aks ettiradi. Folklor nutqining maqsadi hayotni barqarorlashtiradigan va shaxsning ijtimoiylashuvida ishtirok etadigan jamoaviy bilimlarni uzatishdir. Nutqning kommunikativ strategiyalari uning kommunikativ maqsadlari bilan mos keladi. Zero, u maqsadlarga erishish vositasidir. Kommunikativ strategiya deganda biz muloqotchining rejasiga, niyatiga muvofiq nutq xatti-harakatlarini tashkil etish usulini tushunamiz. Keng ma‘noda kommunikativ strategiya deganda "ma‘ruzachining amaliy maqsadlari bilan belgilanadigan nutqning super vazifasi tushuniladi" Folklor nutqining asosiy kommunikativ strategiyalari bilimlarni taqdim etish va tushuntirish, ushbu



bilimlarni baholashdir. Xususiy kommunikativ strategiyalar, qoida tariqasida, janr va vaziyatga qarab belgilanadi.

Folklor nutqi jamoa faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi, ularning har birida folklorning turli shakllari qo'llaniladi. Kundalik, ijtimoiy va kommunikativ sharoitlar ma'lum bir turdagi folklor matnlarining paydo bo'lishi, takrorlanishi uchun qulaydir. Muayyan kommunikativ vaziyatda janrlarni tanlash ham muloqot qiluvchilarning vazifalari, ham janr imkoniyatlari bilan belgilanadi. Folklor nutqi ishtirokchilari o'rtasidagi maqom-rol munosabatlari murojaat pozitsiyasining variantiga bog'liq. Bir jamiyatga mansub, umumiy bilimga ega bo'lgan muloqotchilar har bir kommunikativ vaziyatda o'zlarining ijtimoiy mavqeiga ko'ra turli xil rollarni bajaradilar. Yagona turmush tarzi bilan birlashgan, umumiy qonunlarga bo'ysunadigan (ijtimoiydan axloqiygacha) har qanday ijtimoiy guruh umumiy folklor bilimiga ega. Ijtimoiy maqom, jins va yosh parametrlariga, bilimga ega bo'lishiga qarab murojaat qiluvchining alohida turlari ajratiladi. Bir tomondan, folklor an'anasi matnlar sonini ko'paytirishga emas, balki ularni variant shakllarda bo'lsa-da saqlab qolishga qaratilgan.

Folklor matnlarining qabul qiluvchilari jamiyat a'zolaridir. Adresat, janrga qarab, miqdoriy jihatdan farq qilishi mumkin. Albatta, matn tinglovchining yoshi, jinsi va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda adresat tomonidan boshqariladi. Lirik qo'shiqni ijro etayotganda tinglovchining "vazifasi" so'zlovchi (ijrochi) boshdan kechirayotgan hissiy holatni ham boshdan kechirishdir. Topishmoqni taxmin qilganda, tinglovchi ham zavqlanishi, madaniyat va uning kodlari haqidagi bilimini sinab ko'rishi ham bor gap.

Kognitiv xususiyatlar. Folklor nutqi jamoaviy ong, jamiyatning qadriyat yo'nalishlarini aks ettiradi. Uning maqsadi jamiyatning madaniy va ijtimoiy o'zini o'zi anglashini ifodalovchi, uning ehtiyojlarini aks ettiruvchi, jamiyat hayotini barqarorlashtiruvchi jamoaviy bilimlarni yetkazishdir. Folklor nutqining qadriyatlariga bilimning an'anaviy tabiati, shaxsni jamiyatdan ajratmaslik, dunyo modelining idealligi, me'yoriy kontekst, estetik va axloqiy belgilar kiradi. Folklor nutqida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan bu qadriyat yo'nalishlari matnlar tuzilishining xususiyatlarini, tildan foydalanish xususiyatlarini belgilaydi.

Folklor nutqini nutqiy fikrlash jarayoni sifatida to'liq tavsiflash folklor guruhining dunyosini tushunishni belgilaydigan folklor tushunchalarini tavsifisiz mumkin emas. Folklor tushunchasi umumiy madaniy tushunchaning bir varianti bo'lib, mazmunining barqarorligi bilan boshqa diskursiv variantlardan farq qiladi. Bizning tushunchamizga ko'ra, folklor tushunchasi kognitiv birlik sifatida folklor guruhi uchun ahamiyatli bo'lgan ekstralingvistik hodisalar haqidagi yaxlit bilimni ifodalaydi. Folklor tushunchasi - folklor nutqi ta'sirida shakllangan

madaniy ahamiyatga ega ma'nolar, g'oyalar yig'indisidir. Uning mazmuni, bir tomondan, folklor jamiyati uchun nima muhim va dolzarbligini aks ettiradi, ikkinchi tomondan, uning mazmuni folklor nutqining mazmunini belgilaydi.

Folklor diskursining asosiy xususiyatlari sifatida tadqiqotchilar:

- semantika
- assotsiativlik
- paradigmaticlik
- semantik tarqoqlik
- idiomatiklik
- vokativlik (an'anaviy ma'nolarni aktuallashtirish qobiliyati)
- izofunksionallik (madaniyatning boshqa belgilari bilan sinonimiyasi) ning haddan tashqari umumlashirilishini qayd etishgan.

Folklor matnini lingvistik tadqiq etish adabiyot va til uchun foydalidir. Xalq og'zaki ijodi asarini to'g'ri o'qish va tushunish tilda saqlanib qolgan buyuk ma'naviy qadriyatni, milliy kod tashuvchi rolini anglash va namoyon etishga, shuningdek, nutq madaniyatni oshirishga, o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Buning uchun, avvalo, lingvistik tahlil zarur, chunki matnning tili, lingvistik tuzilishi asarni o'quvchi tomondan o'qishda qiyinchilik tug'diradi. Matndagi lingvistik belgilar, pirovardida, janr xarakterini aniqlash uchun asos bo'ladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida afsona va rivoyatlarni xalq nasrining alohida janri sifatida qaraymiz. Tarixiy nasl-nasab, tarixiy fakt asosida afsona janri yuzaga keladi. Zamon o'zgargan sari rivoyat ham gapiruvchi va tinglovchining tushunchasiga qarab o'zgaradi. Urug' va qabilalarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar unchalik batafsil emas va asosiy tarixiy faktlarga asoslanib yozilgan. Afsonada hayotda sodir bo'lgan voqealar, taniqli joy va suvlarning nomlari haqida hikoya qilinadi. Rivoyatda aytilgan voqea esa haqiqat sifatida qabul qilinadi. Unda lirik qo'shiqning janridagidek zeb-ziynat yoki mubolag'a mutlaqo yo'q. Obyektiv nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, tabiiyki, afsona va rivoyatlarda fantaziya bor. Lekin u lirik qo'shiqning lardagidek tasvirlanmagan. Afsonaviy hikoyaning mazmuni haqiqatga yaqin bo'lgani uchun unda joy yoki yilning fasli nomi tilga olinadi. Voqea esa uchinchi shaxsda va o'tgan zamonda aytiladi. Hikoya qanchalik erta aytilsa, afsonadan ko'ra lirik qo'shiqning ka shunchalik yaqinroq bo'ladi. Tarixiy afsonalar mamlakatning ko'p asrlik hayotini, sodir bo'lgan muhim voqealarni qamrab oladi. Tarixiy afsonalarda bir vaqtning o'zida sodir bo'lgan voqeaning asosiy o'zagi saqlanib qolgan, hikoya qilingan voqea esa unchalik go'zal emas. Tarixiy afsonalar ichida eng yaxshi saqlanib qolganlari qadimgi O'rta Osiyo va fors podshohlari va mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash



hikoyalariidir. Xalq nasrining lirik qo‘shiqning larga mansub bo‘lmagan janrlari voqelikka qo‘shilib, xalq og‘zaki ijodida turli niyatlarni amalga oshiradi. Bunday holda, hikoyachi tinglovchining shaxsiy tashvishini baham ko‘rishga harakat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi asarlarini lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilganda uning lug‘aviy qatlamidagi til birliklari va rivoyatning stilistik ma‘nosini yuzaga keltiruvchi bezak vositalarining qo‘llanish o‘ziga xosliklarini bayon etish zarur.

Tarixiy dostonlar real voqea va shaxslar haqida bo‘lgani uchun bu asarlar real tarixiy vaziyatlarni, o‘sha davr xalq tilining lug‘at boyligini aniqlash imkonini beradi. Boshqacha aytganda, tarixiy dostonlarda xalqning boy tarixiy materiali bilan birga o‘sha davrning lug‘aviy fondi ham o‘rin olgan. Bu kabi dostonlarda xalq hayotining turli qirralari o‘z aksini topgan. Bu she‘rlarda o‘tmish izlari bor. Binobarin, asarlar orqali tarixiy ma‘lumotlar bilan bir qatorda lingvistik ma‘lumotlar va badiiy usullarni ham ajratib ko‘rsatish mumkin.

Tarixiy dostonlar leksikasi. Tarixiy dostonlar tuzilishi, mavzusi, badiiy uslublari jihatidan xalq adabiyotining boshqa namunalaridan farq qiladi. Xalq og‘zaki ijodi tiliga xos bo‘lgan tayyor she‘riy qo‘llanishlar juda kam, ammo tarixiy dostonlar tilida harbiy lug‘at ustunlik qiladi. Harbiy lug‘atning qo‘shiqlar tilida tez-tez uchrab turishi o‘sha davrning jangovar davrlari bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Ayrim hollarda folklor tilidagi an‘anaviy qo‘llanishlar tarkibiy jihatdan to‘ldirilishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Chunki tarixiy dostonlar xalq ijodiyoti bilan ham chambarchas bog‘liq. Xalq og‘zaki ijodi an‘analari qanchalik kuchli bo‘lmasin, har bir davr doston mazmuniga o‘ziga xos o‘zgarishlarni olib kelishi muqarrar. Tarixiy dostonlar tilida xon va uning qahramonlari qiyofasi tashqi dushmanlar bilan kurash asosida namoyon bo‘lib, ularning xulq-atvori, o‘ziga xos xarakteri barqaror epik tuzilmalar orqali namoyon bo‘ladi. Bu dostonlarning oldingi qahramonlik dostonlaridan bir qancha farqlari bor. Avvalo, bu asarlar voqealar izi unchalik sovuq bo‘lmagan paytda paydo bo‘lgan; ikkinchidan, shuning uchun ham ular haqiqatga yaqinroq; uchinchidan, bu kabi matnlarda mubolag‘a kamroq, afsonaviy yoki fantastik xususiyatlar deyarli yo‘q; to‘rtinchidan, tarixiy dostonlarda qahramonlarning o‘ziga xos xulq-atvori o‘z aksini topgan, ya‘ni qahramonlar avvalgidek ulug‘lanmaydi. Tarixiy dostonlarni qahramonlar dostonlaridan ajratib turuvchi xususiyatlarga ega bo‘lsada, ular ham folklor unsurlari ustun bo‘lgan dostonlar qatoriga kiradi. Tarixiy dostonlar boy leksik qatlamga, katta stilistik salohiyatga ega madaniy merosdir. Shuning uchun uni tadqiq etish va farqlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. **Ishq dostonlarining lingvistik-janr xususiyatlari.** Xalq eposining mohiyatini, uning milliy xususiyatlarini tan olish va bilish uchun asarning butun

badiiy tizimini, jumladan, she'riyat sir-asrorlariga to'la til ifodasini o'rganish zarur. Bu ehtiyoj sevgi qissalarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishda ham yuzaga keladi. Ishqiy dostonlarda dunyoning folklor qiyofasi tushunchalarning kognitiv-semantik mazmunida namoyon bo'ladi. Sevgi dostonlarida madaniy ("go'zallik", "kuch", "boyluk", "do'stlik", "sevgi" va boshqalar), metafizik ("Yaratuvchi", "o'lim", "hayot" va boshqalar) va hissiy ("baxt", "qayg'u", "sog'inch" va boshqalar) birliklar keladi. Ular orasida "muhabbat" tushunchasi tuzilish va ma'no sohasi jihatidan eng murakkab madaniy tushunchalardan biri bo'lib, dunyoning folklor qiyofasini etnos konseptual qiyofasining muhim qismi sifatida belgilashga asos bo'ladi. Ishq dostonlarining asosiy mavzusi "ikki yoshning muhabbati, sevgi uchun kurashi, yo'lda duch kelgan to'siqlar". Madaniy tushunchaning bir turi sifatida sevgi universal hodisadir. Biroq, turli xalqlar uchun umumiy bo'lgan yoki bir millat yoki xalqqa xos bo'lgan assotsiativ tasvirlar va sevgi timsollari mavjud. Masalan, oqqush, kaptar, yurak, uzuk barcha xalqlarga xos timsollar bo'lsa, kapalak – yapon va xitoy xalqlari uchun shunday timsol vositasi hisoblanadi. Sevgi dostonlarida "vaqt"ning semantik maydoni. Xalq og'zaki ijodi makonidagi "zamon" semantik sohasining tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, eng avvalo, adabiy tildagi "zamon" sohasi bilan xalq og'zaki ijodi tili o'rtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi. Dostondagi til ma'lumotlarini tahlil qilish chog'ida zamon sohasi leksemalarining yana bir qancha mikromaydonlarga bo'linishi aniqlandi. Masalan, kun leksemasining mikromaydonchasi: bir kuni, yoshligimda, uch kunda, umrimda va hokazo; yil leksemasining mikromaydonchasi: o'n yil, necha yil, o'n yil va hokazo. Folklor matnlari so'z turkumlarining qo'llanishi va ma'nosida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu jihatdan farq qiluvchi so'z turkumlaridan biri sifatlardir. Xalq og'zaki ijodi matnlaridagi sifat va sifatlarining semantik yuklamasi ularning semantik tarkibidagi komponentlar (semalar) bilan belgilanadi. Sifatlar ko'pincha og'zaki adabiyot janrlarida, jumladan, lirik-epik matnlarda qo'llaniladi va juda muhim semantik xususiyatga ega. Shu bilan birga, u xalq og'zaki ijodida dunyo qiyofasini yaratishda alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Jakupov Z.A. Pretsedent matnlarida milliy falsafa (Ptsedent matnlari manbasi: Xalq ijodiyoti asarlari) / Abdixanova B., Jambayeva Z., Syzdykova G., Yespekova L., Seitova S., Adylbekova E., Ahmuldinova A. // *Opcion* . - 2018 yil - 34-son (85). - p. 868-883.
2. Сердюк М.А. Категория лица и ее художественные функции в русской народной лирической песне: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2002.
3. Борисова И.Н. Категория цели и аспекты текстового анализа // *Жанры речи* 3. Саратов: Изд-во ГосУНЦ «Колледж», 1999. С. 85–101
4. Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. СПб., 1994



TEXNIKA YO‘NALISHI TALABALARI KASBIY TAYYORGARLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI MAZMUNI

Eshnazarov D.A.

*TTYSI, "mehnat muhofazasi va ekologiya" kafedrasi kata
o'qituvchisi, PHD*

Tayanch so'zlar: ta'lim, innovatsiyalar, ta'limga innovatsion usullarni joriy etish sohasidagi tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar, o'qitish usullari.

Ключевые слова: образование, инновации, исследования в области внедрения инновационных методов обучения, инновационные подходы, методы обучения.

Key words: education, innovation, research in the field of implementation of innovative teaching methods, innovative approaches, teaching methods.

Резюме:

Ushbu maqola OTM texnika yo‘nalishi talabalarida ta'limning innovatsion usullari va innovatsion g'oyalarni qo'llashni yoritilgan. Xorijiy davlatlar, MDH davlatlari, shuningdek, O‘zbekistonda innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish sohasidagi nazariy shartlar tahlil etilgan. Texnologiya va mehnat bozori talablaridagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ta'limga bir qator yangi yondashuvlar tavsiya etilgan.

Резюме:

Эта статья посвящена применению инновационных методов обучения и инновационных идей у студентов технического направления вуза. Проанализированы теоретические условия в сфере внедрения инновационных методов обучения в зарубежных странах, странах СНГ, а также в Узбекистане. Предложен ряд новых подходов к образованию, отражающих изменения в технологиях и требованиях рынка труда.

Summary:

This article is devoted to the use of innovative teaching methods and innovative ideas among students of the technical direction of the university. Theoretical conditions in the field of introducing innovative teaching methods in foreign countries, CIS countries, as well as in Uzbekistan were analyzed. A number of new approaches to education have been proposed, reflecting changes in technology and labor market requirements.

Ta'lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga asosiy ko'rsatkichi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Keskin rivojlanayotgan jamiyatda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta'limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, texnika ta'limi tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ushbu tizimining ham mazmuni va shakllarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hamda texnika taraqqiyotlarining jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'limga innovatsion yondashuv jamiyat hayotining barcha jabhalarini yangilashning eng muhim manbai hisoblanadi.

Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari" hamda Yevropa Ittifoqining "Yevropa oliy ta'lim makoni" konsepsiyalari mazmunida "Kompetentlikka asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish" oliy ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Jahon sanoat tarmoqlarini tizimli ravishda modernizasiya qilinishi va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali maxsulotning raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Misol uchun, o'z vaqtida sifatli maxsulotni eksport qilish orqali Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Gongkong va Xitoy kabi davlatlar iqtisodiy o'sishga erishgan. Yuqorida nomi qayd etilgan davlatlarning iqtisodiy qudratining asl mohiyati ta'lim tizimidagi tub islohatlar bo'lib, ayni damda O'zbeaistonda ham ta'lim tizimida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida ta'lim islohotlari jadallashib borayotgan bir vaqtda zamonaviy ilmiy va dunyoviy bilimlarga ega bo'lgan, dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish, ularga mavjud ilmiy bilimlarning asoslarini yetkazishda kompetensiyaviy yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Jumladan, 2024 yil « 2 » fevral O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning № PK-54 qaroriga asosan ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chukurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-qo'vvatlash maqsadida:

- ta'lim soxdsidagi kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim tashkilotlarida uquv jarayonlari va xizmatlar kursatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini xalkdro standartlar darajasiga olib chiqish, islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida davlat muassasasi shaklida **"Ta'lim sohasidagi loyixdlar markazi" loyiha ofisi** (keyingi urinlarda -



Loyiha ofisi) tashkil etilgan bo'lib mazkur markazdao'qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish; pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish kabi masalalar ko'zda tutilgan.[4.].

2024 yil« 2 » fevral O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning № PK-54 qaroridan kelib chiqqan xolda,texnika soxdsiga oid ta'lim yunalishlarining **xalkdro akkreditatsiyadan o'tkazilishini ta'minlishi;**

1. Muhandislik-texnika yunalishidagi oliy ta'lim muassasalarida:

kadrlar tayyorlash yunalishlari va qabul parametrlarining soha tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlariga muvofiqlashtirilganligi, moddiy-texnik baza (zamonaviy laboratoriyalar va asbob-uskunalarining mavjudligi) holatini yaxshilash, amaldagi o'quv dasturlarining ishlab chiqarish texnologiyalari va ish beruvchilarning talablariga muvofiqlashtirish, talabalarning soxadagi ishlab-chiqarish tashkilotlarida amaliy bilim olishini, professor-o'qituvchilarning bilim darajasi va o'quv adabiyotlarining amaliyotga yo'naltirilganligini o'rganish .[4.].

Mazkur pedagogik muammolarni yechimi esa O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mazmunida quyidacha belgilab berilgan:

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovasiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlarni samarali yo'lga qo'yish, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtirokiga yetarli darajaga ahamiyat berish;

ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasini mehnat bozorining zamonaviy talablariga moslashtirish;

innovation faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi kuchaytirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integrasiyasini ta'minlash;

mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini

shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish.

Mamlakatimizda "Uchinchi Renessans" poydevori qurilayotgan, ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilayotgan hamda ta'lim tizimi tubdan modernizasiya qilinayotgan bir davrda ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limdagi innovatsion faoliyat va innovatsion yonndashuv ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o'z ichiga oladi. Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Ta'limda innovatsion texnologiya va innovatsion yondasuvlar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak.

Yuqoridagi tahlilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda texnika yo'nalishi ta'limida har bir kichik operatsiyalar va jarayonlarga oid talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy kompetensiya hamda kasbiy amaliy tajribalarlarni rivojlantirish jarayoni mazmunini texnika yo'nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmi mazmunining o'zaro mutanosibliigi ta'minlash - jahon standartiga mos etuk kadrlarni shakllantirish garovi ekanligini ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan asoslashdan iboratdir.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son va 2022-yil 8 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarga texnika fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liq izlanishlar yuzasidan dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilmoqda.

Jumladan, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning integrativ texnologiyalari mazmuni (Massachusetts University (AQSh) ishlab chiqilgan; idrok qilishning vizual va audio vositalari orqali ta’lim oluvchilarning kasbiy shakllanishiga maqsadli kompleks ta’sir ko‘rsatish metodikasi (Institute named after Frica Bauer, Germaniya) ishlab chiqilgan; o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari asosida texnika fanlari bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish tizimi (National Advice on pedagogical technology, Angliya) yaratilgan; elektron qurilmalar bazasida elektron ta’lim resurslarini yaratish va amaliyotga joriy etish mexanizmi (Seoul Cyber University, Janubiy Koreya) ishlab chiqilgan. Bunday tadqiqotlarda o‘qitish jarayonida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari asosida bo‘lajak mutaxassislarga kasbiy ta’lim berish, mutaxassislarning texnika sohalari bo‘yicha kompetentligining shakllanishi va rivojlanishiga e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda jahonda ta’limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda texnika fanlarini o‘qitishning didaktik vositalarini takomillashtirish orqali texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda. Xususan, o‘qitishning zamonaviy didaktik mazmunini takomillashtirish va qo‘llash bo‘yicha kontseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanib ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; o‘qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar

asosida takomillashtirish; zamonaviy o'qitish vositalarining ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqish; o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo'lajak texnika sohasi mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirish; o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta'minotini yaratish kabilardan iborat.

AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda olib borilgan zamonaviy ta'lim sohani rivojlantirishning ajralmas bir qismi ekanligi T.M. Amabile, J.A.Braus, Michael Cole kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Ushbu manbalarda zamonaviy ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratib, texnika fanlari insonni yashash muhitini yaxshilashga xizmat qilishi, zamonaviy bilimlardan foydalanish, uning taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir etishi o'rganilgan. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish va unga alohida e'tibor berish turli hududlarda turlicha kechishi A.Cropley, D.Cropley, P.Feinsinger, N.E.Stamp, J.M.Priest, J.A.Braus, D.Wood kabi tadqiqotchilarning ishlarida berilgan.

Mazkur tadqiqot ishi yuzasidan mamlakatimizda ushbu sohada bir qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan, jumladan X.T.Axmadxo'jayev, S.D.Boltaboyev, G'.J.Jabborov, G.I.Miroshnichenko, F.X.Raximov, M.T.Xodjiyev va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

MDH olimlaridan D.I.Kalashnikov, A.Marshall, I.B. Merkin, B.B. Paltsev, A.B Torxova, kabi olimlar mazkur muammoning ayrim jihatlari yuzasidan ilmiy izlanishlar bajarishgan.

Xorijiy olimlar tomonidan Tretyak V.P, Tyaglo A.V., П.Г. АЛЬТБАЧ, К.А. Кхоон, kabi olimlar ilmiy fikrlar bildirishgan.

Ammo mazkur tadqiqot ishi alohida dissertatsiya muammosi sifatida o'z tamoyiliga yetishini taqozo qilmoqda. Shunga ko'ra, texnika fanlarini o'qitish bo'yicha kasbiy tayyorgarlikni paxta - to'qimachilik klasterlari asosida innovatsion rivojlantirishni ta'minlovchi texnologik tizimni ishlab chiqish va uni oliy ta'lim amaliyotida qo'llashga ehtiyoj sezilmoqda.

Mazkur ilmiy muammo texnika yo'nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning metodik asoslariga oid tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib quyidagi **vazifalarni o'z ichiga oladi:**

texnika yo'nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning metodik asoslari bo'yicha turli nazariya va kontseptsiyalarni tahlil qilish hamda iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sirini pedagogik muammo sifatida o'rganish;



texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning metodik asoslari va unga ta‘sir etuvchi omillarini aniqlashtirish;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning metodik asoslarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha ko‘p variantli modelni ishlab chiqish;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mexanizmlarini mazmunini takomillashtirish;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni tajriba sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning metodik asoslari bo‘yicha turli nazariya va kontsepsiyalarni tahlil qilish hamda texnik va texnologik hodisa va jarayonlarga ta‘sirini umumijtimoiy muhitni modellashtirishning umumiydan yagonalikka va yagonalikdan chegaraviy umumiylikkacha yo‘naltiriltiruvchi falsafiy zanjirida individual o‘qitish maqsadiga o‘tishni adaptiv didaktikani ta‘minlash asosida takomillashtirilgan, texnik va texnologik hodisa va jarayonlarga ta‘sirini pedagogik imkoniyatlari o‘rganiladi;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish sharoitida oliy ta‘lim muassasasi talabalariga sifatli ta‘lim bilan taminlashda asosiy ta‘sir etuvchi omillardan biri sifatida zamonaviy raqamli texnologiyalarning yangicha usullarini joriy etiladi;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning 2030 yilgacha bo‘lgan ko‘p variantli model va prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish sharoitida oliy ta‘lim muassasasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish orqali sifatli ta‘lim ta‘sirini o‘rganish mexanizmlari takomillashtiriladi;

texnika yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishda oliy ta‘lim muassasalarida texnika fanlarini o‘qitish orqali talabalarining ish jarayoniga kirishib ketish qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari yaxlit ta‘lim makonini vizual yaratish, yaxlit jarayonini kasbiy yo‘nalganlikda tashkil etish, boshqarish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash hamda tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik va



predmetli-didaktik shart-sharoitlarni jadal integratsiyada ta'minlash asosida takomillashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotda talabalar faoliyatini innovatsion boshqarishda yosh mehnat resurslarining raqobatbardoshligini o'rganishga doir nazariy yondashuvlardan kelib chiqib unga nisbatan quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: yosh mehnat resurslarining raqobatbardoshligiyoshlarning muayyan mehnat bozori doirasida ish beruvchilarning mehnatga bo'lgan ehtiyojini xodimlarning boshqa toifalariga qaraganda yaxshiroq qondirish qobiliyatini belgilab beruvchi xususiyatlar yig'indisini o'zida namoyon etadi va ushbu xususiyatlar muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida ishtirok etishning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning № PK-54 qarori 2024 yil « 2 » fevral
2. Атажонов С.Б. Модернизация обучения специальных дисциплин в технических вузах на основе физических явлений (на примере бакалавриата направления “Мехатроника и робототехника”)// автореферат на соискание доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. Наманган, 2023 г.
3. Puentedura, R. (2014). SAMR: A Model for Understanding the Integration of Technology. Available at: <http://www.hippasus.com/trpweblog/>
4. OECD (2015). Students, Computers and Learning: Making the Connection. OECD Publishing. 11.
5. Reiser, R. A., & Dempsey, J. V. (2018). Trends and Issues in Instructional Design and Technology.
6. Xojjiyev M.T., Raximov B.X., Eshnazarov D.A. “Development of professional competence of future specialists” Journal of Physical Education and Sport: October 07,2021.
7. Xodjiev M.T. Eshnazarov D.A. “Oliy ta'lim muassasalari texnika yo'nalishi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari” Guliston Davlat Universiteti axborotnomasi, Gumanitar-ijtimoiy fanlar seriyasi, 2020 №3.
7. Eshnazarov D.A “Validity development of professional competence of future specialists of the university of technical direction” PalArch's Journal of Archeology of EguptG'Eguptoloju 17(20) (2020), Indonesia.
8. Eshnazarov Dilshod Azamatovich. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnika yo'nalishi mutaxassislari kasbiy kompetensiyalarini modulli yondashuv asosida rivojlantirish (Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlari fanini o'qitish misolida)13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnika fanlari) Ped. F. F. D. (PhD) diss.



ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА МЕЖДУНАРОДНЫХ СМЕШАННЫХ ПЕРЕВОЗОК: ТЕРМИНОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ

Жанабаева Ш.М.

Студентка 4-курса

факультета «Международного право»

Университета мировой экономики и дипломати Ташкент

Tayanch so'zlar: xalqaro multimodal tashish, huquqiy tabiati, terminologiyasi, tasnifi, multimodal tashish, intermodal tashish, 1980 yil Jeneva konventsiyasi, tashuvchining javobgarligi, huquqiy tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi.

Ключевые слова: международные смешанные перевозки, правовая природа, терминология, классификация, мультимодальные перевозки, интермодальные перевозки, Женевская конвенция 1980 года, ответственность перевозчика, правовое регулирование, законодательство Республики Узбекистан.

Key words: international multimodal transport, legal nature, terminology, classification, multimodal transport, intermodal transport, Geneva Convention of 1980, carrier liability, legal regulation, legislation of the Republic of Uzbekistan.

Резюме:

Maqola xalqaro multimodal tashishning huquqiy tabiatiga bag'ishlangan bo'lib, yuklarni bir shartnoma asosida bir nechta transport turlaridan foydalangan holda tashish sifatida belgilanadi. Multimodal, intermodal va estrodiol transport kabi asosiy atamalar va ularning farqlari tahlil qilinadi. Huquqiy tartibga solishdagi kamchiliklarni aniqlash va terminologiyani unifikatsiya qilish zaruriyatini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro konventsiyalar, jumladan, 1980-yildagi Jeneva konventsiyasi qayta ko'rib chiqiladi. Ushbu tushunchalarni aniq tushunish huquqni yanada samarali qo'llash va xalqaro transport huquqi ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Резюме:

Статья посвящена правовой природе международных смешанных перевозок, определяемых как транспортировка грузов с использованием нескольких видов транспорта на основе единого договора. Анализируются ключевые термины, такие как мультимодальные, интермодальные и комбинированные перевозки, а также их различия. Рассматривается законодательство Республики Узбекистан и международные конвенции, включая Женевскую конвенцию 1980 года, для выявления недостатков в правовом регулировании и необходимости унификации терминологии. Точное понимание этих понятий способствует более эффективному праву применению и улучшению взаимодействия между участниками международной транспортной права.

Summary:

This article focuses on the legal nature of international mixed mode transportation, defined as the carriage of goods using multiple modes of transport based on a single contract. Key terms such as multimodal, intermodal, and combined transport are analyzed, along with their distinctions. The legislation of the Republic of Uzbekistan and international conventions, including the 1980 Geneva Convention, are examined to identify deficiencies in legal regulation and the need for unification of terminology. A precise understanding of these concepts contributes to more effective law enforcement and enhances interaction among participants in international transport law.

В соответствии с описанием Е. Б. Леановича и С. А. Кирилюка, международная смешанная перевозка характеризуется транспортировкой грузов в международном сообщении с использованием двух или нескольких видов транспорта на основании единого договора, заключенного между грузовладельцем и лицом, организующим такую перевозку и принимающим на себя ответственность за ее осуществление. При смешанных перевозках каждому виду транспорта присущи определенные особенности, что делает организацию четко отлаженной работы и взаимодействия между соперевозчиками исключительно важной. В этом контексте следует отметить, что международные смешанные перевозки выделяются и подробно регламентируются Женевской конвенцией 1980 года о международных смешанных перевозках грузов, что способствует более глубокому пониманию отношений сторон в процессе осуществления таких перевозок.

Для того, чтобы классифицировать международные перевозки, было введено понятие международных смешанных перевозок, что также используются, как мультимодальные, комбинированные и интермодальные перевозки. Эти термины между собой немного похожие. Но другие авторы определяют эти понятия по-разному. Например, К. И. Плужников утверждает, что основное отличие интермодальной перевозки от прямой смешанной состоит в организации первой единым оператором смешанной перевозки. А в соответствии с утверждением А.В.Зырянов и З.В. Нохрина, в международной практике отсутствует единство в разграничении понятий, синонимичных смешанному сообщению.

В законодательстве Республики Узбекистан понятие смешанных перевозок закреплено в Законе «О транспорте», где оно определяется как «перевозка пассажиров, багажа, грузобагажа, грузов, почтовых и курьерских отправок разными видами транспорта по единому перевозочному документу, оформленному на весь путь следования». Не смотря на то, что норма акцентирует важность использования единого перевозочного документа при смене видов транспорта, анализ статьи 713 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, касающейся сотрудничества между транс-



портными организациями при осуществлении смешанных перевозок, выявляет ряд пробелов в правовом регулировании этого вида перевозок. Так, статья устанавливает, что перевозка различными видами транспорта осуществляется по одному документу, регулируясь законодательством о прямой комбинированной (смешанной) перевозке. Однако, эта норма не полностью охватывает особенности правового регулирования комбинированных перевозок.

В рамках изучения темы статьи в странах Европейского Союза и Содружества Независимых Государств важным аспектом является понимание терминологии и определений, используемых для описания данного вида перевозок. Согласно статье 1 Конвенции ООН «О международной смешанной перевозках грузов», "международная смешанная перевозка" означает перевозку грузов по меньшей мере двумя разными видами транспорта на основании договора смешанной перевозки из места в одной стране, где грузы поступают в ведение оператора смешанной перевозки, до обусловленного места доставки в другой стране. Операции по вывозу и доставке грузов, осуществляемые во исполнение договора перевозки только одним видом транспорта, как определено в таком договоре, не считаются международной смешанной перевозкой. Акцентируя внимание на критической важности точного понимания терминологии и определений, таких как "международная смешанная перевозка", способствует более эффективному правовому регулированию и правильному применению норм, касающихся данного вида перевозок.

Kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarning tayyorgarlik jarayonini rejalashtirishda o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etishni ta'minlash kerak, bu tayyorgarlik dasturi mashg'ulotning bir bosqichidan yoki bir makrosikldan ikkinchisiga sezilarli darajada murakkablashishiga imkon beradi. Bunday holda, sportchining jismoniy va texnik qobiliyatlarini muntazam ravishda o'sishiga, uning tanasining asosiy tizimlarining funkcionalligini oshirishga erishish mumkin. Shuning uchun sportni takomillashtirishning butun yo'lida mashg'ulot jarayonini kuchaytirish kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniq belgilash kerak.

Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

alohida o'quv yili yoki makrosikl davomida bajariladigan o'quv ishlarining umumiy hajmini tizimli ravishda oshirish;

o'z vaqtida tor sportga ixtisoslashuvi, bu esa yuqori yutuqlarga tayyorlanish bosqichi chegaralariga mos keladi;

mikrosikllarda o'quv mashg'ulotlarining umumiy sonini yildan-yilga bosqichma-bosqich oshirish;

og'ir yuklar bilan mashg'ulotlarning mikrosikllarini muntazam ravishda oshirish;

o'quv jarayonida organizmning funksional imkoniyatlarini chuqur safarbar qilishga sabab bo'ladigan selektiv faoliyat turlarini muntazam ravishda oshirish;

maxsus chidamlilikni oshirishga, shuningdek, sportni takomillashtirishning yakuniy bosqichlarida musobaqa amaliyotini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradigan qat'iy mashg'ulot rejimlaridan keng foydalanish;

yuqori psixologik intensivlik va shiddatli raqobat bilan ajralib turadigan asosiy musobaqalar umumiy sonining ko'payishi;

ishlashni rag'batlantiradigan, og'ir yuklardan keyin tiklanish jarayonlarini tezlashtiradigan va tananing stressga javobini oshiradigan qo'shimcha vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish;

mo'ljallangan raqobat faoliyatiga imkon qadar yaqin sharoitlarda texnik-taktik tayyorgarlik hajmini oshirish;

mashg'ulot jarayonida aqliy zo'riqishni muntazam ravishda oshirish, har bir darsda raqobat mikroiklimi va shiddatli raqobatni yaratish.

Sport amaliyotida mikrosikli deganda bir necha kun davomida (3-4 kundan 10-14 kungacha) o'tkaziladigan va mazkur tayyorgarlik bosqichi vazifalarini kompleks hal etishni ta'minlaydigan mashg'ulotlar ketma ketligi tushuniladi va kalendar haftaga muvofiq bo'lgan 7 kunlik ananaviy mikrosikllar 1-jadvaliga qarang.



mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Shanba kungi mashg'ulot yo'nalishida aerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar amalga oshirili, yuklama kattaligi esa kichik darajadagi mashg'ulot jarayoni bilan yakunlanadi. Yakshanba kuni esa passiv dam olish bilan o'tkaziladi.

2. Rivojlantiruvchi mikrosiklda haftaning dushanba kuni mashg'ulot yo'nalishi texnik mahoratini takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulotlarda olib borilsa, yuklama kattaligi o'rta darajada olib boriladi. Seshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarga urg'u berilib olib boriladi, yuklama kattaligi yuqori darajada qo'llaniladi. Chorshanba kungi mashg'ulot yo'nalishida kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) mashqlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, yuklama kattaligi yuqori darajagacha oshiriladi. Payshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi tezlik imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar qo'llanilsa, yuklama kattaligi yuqori darajada olib boriladi. Juma kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (tezlik va anaerob imkoniyatlarini oshirish) yo'nalishda olib boriladi, yuklama kattaligi yuqori darajadagi mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Shanba kungi mashg'ulot yo'nalishida nazorat olishuvlari amalga oshirilib boriladi, yuklama kattaligi esa o'rta darajadagi mashg'ulot jarayoni bilan yakunlanadi. Yakshanba kuni aktiv dam olish bilan o'tkaziladi.

3. Zarbdor mikrosiklda haftaning dushanba kuni mashg'ulot yo'nalishi texnik mahoratini (shox usulni) takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib borilsa, yuklama kattaligi o'rta va katta darajada olib boriladi. Seshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) jarayonga qaratilgan mashg'ulotlarga urg'u berilib olib boriladi, yuklama kattaligi yuqori darajada qo'llaniladi. Chorshanba kungi mashg'ulot yo'nalishida kompleks (tezlik va anaerob imkoniyatlarini oshirish) mashqlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, yuklama kattaligi sezilarli darajada olib boriladi. Payshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi aerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar qo'llanilsa, yuklama kattaligi o'rta darajada olib boriladi. Juma kuni mashg'ulot yo'nalishi turli sharoitlarda kurash tushish maxortini takomillashtirish (hujum, himoya, qarshi hujum og'ir toliqishda turli vaznlar bilan)ga qaratilgan yo'nalishda olib boriladi, yuklama kattaligi yuqori darajadagi mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Shanba kungi mashg'ulotlar yo'nalishida kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) yo'nalishda amalga oshirilib boriladi, yuklama kattaligi esa sezilarli va o'rta darajadagi mashg'ulot qo'llaniladi. Yakshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi



taktik mahoratni takmillashtirish bilan o'tkaziladisa, yuklama kattaligi esa sezilarli darajadagi mashg'ulot jarayoni bilan yakunlanadi.

4. Musobaqaoldi mikrosiklda haftaning dushanba kuni mashg'ulot yo'nalishi texnik mahoratini takomillashtirish (murakablashtirilgan sharoitlarda kurashchi shox usularini qisqa muddatli bajarish asosida maxsus harakat faoliyati rejimidagi intinsiv mashg'ulotlar ta'sirini qo'llash)ga qaratilgan mashg'ulotlar olib borilsa, yuklama kattaligi submaksimal darajada olib boriladi. Seshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (tezlik va anaerob imkoniyatlarini oshirish) yo'nalishdagi mashg'ulot jarayoniga qaratilgan mashg'ulotlarga urg'u berilib olib boriladi, yuklama kattaligi o'rta darajada qo'llaniladi. Chorshanba kungi mashg'ulot yo'nalishida kompleks (aniq texnik va taktik vazifani bajarishga qaratilgan olishuvlar) mashg'ulotlarga qaratilgan bo'lib, yuklama kattaligi submaksimal darajada olib boriladi. Payshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) mashg'ulotlar qo'llanilsa, yuklama kattaligi o'rta darajada olib boriladi. Juma kuni mashg'ulot yo'nalishi kombinatsion usullari turli holatda qo'llashga qaratilgan erkin bellashuvlar qaratilgan yo'nalishda olib boriladi, yuklama kattaligi yuqori darajadagi mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Shanba kungi mashg'ulot yo'nalishida aerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilib boriladi, yuklama kattaligi esa sezilarli darajadagi mashg'ulot qo'llaniladi. Yakshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (aktiv va passiv dam olish) mashg'ulotlar jarayoni bilan yakunlanadi.

5. Musobaqalashuv mikrosiklda haftaning dushanba kuni mashg'ulot yo'nalishi taktik mahoratni takmillashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib borilsa, yuklama kattaligi o'rta darajada olib boriladi. Seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba kunlardagi mashg'ulot yo'nalishlarida bevosita musobaqalarga qatnashish (rejalashtirilgan taktika bo'yicha texnik usullar arsenalidan foydalanib qo'yilgan vazifani amalga oshirish)ga qaratilgan mashg'ulotlar jarayonlari amalga oshiriladi, yuklama kattaligi esa submaksimal va maksimal darajalarda mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Yakshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi dam olish bilan yakunlanadi.

6. Qayta tiklovchi mikrosiklda haftaning dushanba kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) mashg'ulotlarga qaratilgan mashg'ulotlarda olib borilsa, yuklama kattaligi o'rta darajada qo'llaniladi. Seshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi aerob xarakterdagi ish bilan chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarga urg'u beriladi, yuklama kattaligi sezilarli darajada qo'llaniladi. Chorshanba

kungi mashg'ulot yo'nalishida kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) mashg'ulotlar jarayoni bo'lib, yuklama kattaligi kichik darajada olib boriladi. Payshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks tiklanish tadbirlariga qaratilgan mashg'ulotlar qo'llanilsa, yuklama kattaligi kichik darajada olib boriladi. Juma kuni mashg'ulot yo'nalishi kompleks (kelgusida jismoniy va texnik tayyorgarlik masalalarini yechish) mashg'ulot jarayonlari bilan olib boriladi, yuklama kattaligi kichik darajadagi mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Shanba kungi mashg'ulot yo'nalishida aerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilib boriladi, yuklama kattaligi esa kichik darajadagi mashg'ulot qo'laniladi. Yakshanba kuni mashg'ulot yo'nalishi dam olish bilan yakunlanadi.

O'z navbatida taniqli mutaxassislar beshta turdagi mikrosikllarni ajratishni taklif qilganlar; tortuvchi, zarbdor, yaqinlashtiruvchi, musobaqa va tiklanish. Biroq bu turdagi mikrosikllar mazmunining tahlilidan shu narsa ko'zga tashlanadiki, ular boshqa olimlarning taklif etgan turlardan muhim darajada farq qilmaydi.

2-jadvalda pedagogik tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhleri kurashchilarining tayyorgarlik mikrosikllarida mashg'ulotlar kunlari yo'nalishi va yuklamalar kattaligi asosida olib borilgan mashg'ulotlardan keyin maxsus tayyorgarligi o'rtacha ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

2-jadval

Pedagogik tajriba davomida nazorat va tajriba guruhleri sportchilarining maxsus tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi (n=30)

Ko'rsatkichlar nomi	Guruh	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			t	p
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
Hujum samaradorligi (bahoga)	NG	0,41	0,048	11,57	0,44	0,051	11,41	1,77	>0,05
	TG	0,4	0,047	11,98	0,46	0,51	11,13	3,31	<0,01
Himoya samaradorligi (bahoga)	NG	0,4	0,054	13,50	0,44	0,059	13,29	2,13	<0,05
	TG	0,41	0,057	13,90	0,51	0,067	13,14	4,40	<0,001
Hujum darajasi hujum (bahoga)	NG	2,3	0,29	12,61	2,53	0,31	12,37	2,10	<0,05
	TG	2,4	0,31	12,92	2,96	0,36	12,16	4,57	<0,001
Hujum oralig'i (bahoga)	NG	48,7	6,62	13,59	44,6	5,94	13,32	1,79	>0,05
	TG	50,1	7	13,97	41,8	5,48	13,11	3,62	<0,01



Muvaffaqiyatli hujum oralig‘i (s.)	NG	56,9	7,15	12,57	51,7	6,36	12,30	2,10	<0,05
	TG	58,2	7,54	12,96	46,9	5,69	12,13	4,63	<0,001
Raqibni 8 marta tashlash vaqti (s.)	NG	18,75	2,17	11,57	17,16	1,96	11,42	2,11	<0,05
	TG	19,4	2,32	11,96	15,9	1,77	11,13	4,65	<0,001
Raqibni 15 marta tashlash vaqti (s.)	NG	49,1	5,68	11,57	45,6	5,16	11,32	1,77	>0,05
	TG	50,2	6,02	11,99	43,3	4,38	10,12	3,59	<0,01

Jadvaldan tajriba guruhi sportchilarning maxsus tayyorgarlik ko‘rsatkichi ko‘proq o‘sganligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Tajriba guruhida hujum samaradorligi 11,98% ga, himoya samaradorligi 13,90% ga, hujum darajasi 12,92% ga, hujum oralig‘i 13,97% ga, muvaffaqiyatli hujum oralig‘i ko‘rsatkichi 12,96% ga, raqibni 8 marta tashlashlar 11,96% ga, raqibni 15 marta tashlashlar 11,99% ga o‘sdi.

Nazorat guruhida natijalar yaxshilandi, lekin sezilarli darajada kamroq bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning halqaro nufuzi yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020 yil 04 noyabr, PQ-4881-son.
2. Годик М.А. Педагогические основы нормирования и контроля соревновательных и тренировочных нагрузок: автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. – М.: 1982. – 54 с.
3. Гончаров В.М. Развитие общей гибкости у студентов в процессе занятий физической культурой / В. М. Гончаров, Н.А.Щеблыкина // Научные достижения молодых исследователей : материалы между-нар. студен. науч. конф. – Белгород: 2014. – С. 324–329.
4. Karimov R.U. Yakkakurash sport turlari va uni o‘kitish uslubiyati (kurash) / darslik. Toshkent: 2020. – 106 b.
5. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры: Учебник / Под ред.проф. Ю.Ф. Курамшина. 3-е изд., стереотип. – М.: Советский спорт, 2007. – С. 464.
6. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. – Тошкент: 2001. – 31 б.



JISMONIY MADANIYAT SOHASI TALABALARINING ILMIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TIZIMINI MUAMMOLARI

Maxmudov B.A.

TAFU Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti, PhD

Tayanch so'zlar: jismoniy madaniyat, talaba, pedagogika, ta'lim, tizim, ilmiy faoliyat, xorijiy tajriba, kasb, jarayon.

Ключевые слова: физическая культура, студент, педагогика, образование, система, научная деятельность, зарубежный опыт, профессия, процесс.

Key words: physical culture, student, pedagogy, education, system, scientific activity, foreign experience, profession, process.

Резюме:

Mazkur maqola jismoniy madaniyat sohasi talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etish tizimini muammolari va u faoliyatni takomillashtirish yo'llari borasida fikrlar keltirilgan.

Резюме:

В статье представлены взгляды на проблемы системы организации научной деятельности студентов в области физической культуры и пути ее совершенствования.

Summary:

This article presents the views on the problems of the system of organization of scientific activity of students in the field of physical culture and ways to improve it.

Jahon ta'limining rivojlanish tendensiyalari negizida, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtirish, har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazishda, ilmiy tadqiqot ishlarning samaradorligini takomillashtirish vazifalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda AQSH, Angliya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish orqali yuksak salohiyatli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo miqyosida oliy ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash[1,2], mutaxassislarni, shu



jumladan, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativligi, ijodkorligini oshirishda ilmiy tadqiqot funksiyalarini takomillashtirish vazifalari qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda nafaqat jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi balki boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot (referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi hamda pedagogik amaliyot) ishlarni amalga oshirishda talabalar qator muammolarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi talabalar tomonidan bajariladigan ilmiy ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir[3]. Shuningdek, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzu sifatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, har qanday insondan o'zi bilmagan va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so'rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish mumkin. Shu bois mazkur jarayonni amalga oshirishda, talabalar bilimni takomillashtirishda har bir fan mazmunidan kelib chiqib, referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari qay tartibda rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini izohlash lozim.

Talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etish tizimini takomillashtirish yuzasidan turli fan tarmoqlarida M.Qaxxarova, O.Muminov, K.M.Maxkamjonov, L.R.Ayrapetyans, T.S.Usmonxo'jayev, S.S.Xo'jayev, Y.Masharipov R.H.Djurayev, S.T.Turg'unov, J.G'.Yo'ldoshev, Sh.Qurbonov, U.SH.Begimqulov, S.S.G'ulomov, Q.O'rolov, Q. N.Abdurahmonovlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, MDH mamlakatlari olimlaridan A. Chesnokov, A.M. Voronin, V.P.Kvasha, N.V. Konoplina, L.G. Rodionova, M. V. Klarin, V.Bespalko, L.S.Podimova tadqiqotlarida xorij o'qitish jarayonida ilmiy faoliyatni tashkil etish modellar tahlillari keltirilgan. Shuningdek, ilmiy faoliyatni olib borish yuzasidan xorij mamlakatlarda M.O'Maxouny, Metyo Xolms, C. Jenks, P.Skott kabi olimlarning tadqiqotlari talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ilmiy-pedagogik, psixologik masalalar o'rganilgan.

Tahlillarga ko'ra, jismoniy madaniyat sohasi talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etish tizimini takomillashtirish muammosi yetarlicha tadqiq qilinmaganligi mazkur jarayonni keng qamrovli o'rganish va takomillashtirishni talab etadi.

Bu borada quyidagi muammolarni ilmiy tadqiqot doirasida o'rganishni talab etadi:



jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etishning metodologik-nazariy asoslarini va uning mexanizmining tahliliy jihatdan tavsiflash;

jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etishda amaldagi ilmiy tadqiqot olib borish tartibini tanqidiy o'rganish asosida uning pedagogik strukturasi kalsifikatsiyalash;

jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etishda har bir parametrlarning rasmiylashtirish tartibini takomillashtirish;

jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etishda amalga oshiradigan metodikani takomillashtirish asosida uni amaliyotga tatbiq etish samaradorligini aniqlash;

talabalarni jismoniy madaniyat sohasida ilmiy faoliyatni mustaqil olib borishlari ta'minlovchi o'quv adabiyotlarini yaratish;

jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etish bo'yicha uning mazmuniga qo'yiladigan talablarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan muammolarni xal etish natijasida jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etishda vata'lim samaradorligini oshirishda, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi tizimini rivojlantirishda foydalanilishi bilan izohlanadi hamda oliy ta'lim muassasalar tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlashda, talabalar ilmiy faoliyatini samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Зиёмухаммадов Б. Абдуллаева Ш. Педагогика. -Т.: Ўқитувчи, 2000. -126б.
2. Слободчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. -2005. -№2. - 4-12 с.
3. Мкрытичян Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. // Ж. Педагогика. -2001. -№5. -45-50 с.
4. Подласый.И.П. Педагогика . 2-х томах.-М.: Владос, 2004.-572 с.



БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАР СПОРТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ МУАММОЛАРИ

Хасанов А.Б.

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети

Таянч сўзлар: жисмоний маданият, жисмоний тарбия, спорт, муассаса, таълим, сифат, илмий-тадқиқот, мактаб таълими, методология.

Ключевые слова: физкультура, физкультурное воспитание, спорт, учреждение, образование, качество, научно-исследовательская работа, школа образования, методология.

Key words: physical education, physical education, sports, institution, education, quality, research work, school of education, methodology.

Резюме:

Мазкур мақолада жисмоний тарбия ва спорт орқали болалар ва ўсмирларнинг саломатлиги, жисмоний ҳолатини ривожлантириш масалалари ўрганилган. Шунингдек, мактаб ўқувчиларининг жисмоний тарбияси муаммолари, уларда жисмоний тарбияга қадриятли муносабатларни шакллантиришнинг аҳамияти кўрсатиб берилган.

Резюме:

В данной статье исследуются вопросы здоровья, физического состояния детей и подростков посредством физического воспитания и спорта. Также показаны проблемы физического воспитания школьников, важность формирования у них ценностного отношения к физическому воспитанию.

Summary:

This article examines the issues of health, physical condition of children and adolescents through physical education and sports. The problems of physical education of schoolchildren, the importance of forming their value attitude to physical education are also shown.

Кириш. Бугунги кунга қадар кўплаб спорт дастурлари ишлаб чиқилган, улар орасида ҳатто жисмоний имконияти чекланган одам ҳам ўзи учун мос машқлар ва юқларни танлаши мумкин. Табиийки, спорт инсон танасини мустаҳкамлайди, унда зарур жисмоний фазилатларни ривожлантиради. Лекин бу ҳаммаси эмас. Спортда инсоннинг иродаси ва характери шаклланади. Яъни, замонавий спорт нафақат тикланиш воситаси, балки инсоннинг жисмоний ва ақлий ўзини ўзи такомиллаштириш воситаси сифатида ҳам ишлайди.

Мураббийлар кўпинча спортчиларнинг энг юқори натижаларга эришиш учун энг маъқул бўлган ёш даврларини ҳисобга олмайдилар, натижада улар келажакдаги тақдир ҳақида ўйламасдан, ўсмирлик даврида юқори натижаларга эришишга интилиб, ўз ўқувчиларининг тайёргарлигини инобатга олмайдилар. Ёшлар спортининг асосий мақсади ҳар бир спорт тури учун мақбул ёшда халқаро тоифадаги натижаларга эришиш учун қулай шарт-шароитларни яратишдир. Шу билан бирга, маҳаллий спорт амалиётида энг янги технологиялардан фойдаланиш кўрсаткичлари, афсуски, етарли даражада юқори эмас, айниқса хорижий технологияларга нисбатан, маблағ етишмаслиги туфайли ҳам, улардан тўлиқ фойдалана оладиган малакали мутахассислар жуда кам. Бироқ, ёшлар спортининг машхурлигига қарамай, унинг ривожланишига тўсқинлик қиладиган бир қатор асосий қарама-қаршиликлар мавжуд[1,2].

Биринчи қарама-қаршилик-бу миллий мақсадлар, стратегик вазифалар, жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг асосий тамойиллари ва бир қатор тушунчаларни аниқлашга оид қонунчилик нормалари ўртасида уйғунликнинг йўқлиги. Улар ягона тизимни ташкил етмайди, улар турли вазирликлар юрисдикциясидаги ташкилотлар турлари бўйича бўлинади. Қонун ҳужжатлари илмий асосланган меъёрлар билан тўлдирилишини таъминлаш ва концептуал аппаратни миллий мақсадлар, стратегик вазифалар ва жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг асосий тамойилларига мослаштириш керак.

Иккинчи қарама-қаршилик-бу ёш авлоднинг шахсий манфаатлари ва спортнинг мавжуд имкониятлари ўртасидаги номувофиқлик, аксарият ҳолларда болалар ва ўсмирларнинг замонавий эҳтиёжларини қондирмайди ва уларнинг ҳаёт тарзига тўғри келмайди. Ушбу қарама-қаршилик жисмоний тарбия ва спортдан соғломлаштириш ва ривожлантириш самарасини олиш учун аниқ етарли бўлмаган машғулотлар учун шароитлар ва ҳафталик жисмоний фаолият нормалари таҳлили билан тасвирланган. Уни миллий мақсадлар, стратегик вазифалар ва қонунчиликнинг асосий принципларига мослаштириш учун моддий-техник хавфсизлик нуқтаи назаридан тегишли стандартларни, жисмоний тарбия ва спортнинг соғлом ва ривожланиш таъсирини кафолатлайдиган ҳамда мунтазам равишда шуғулланадиганларни рағбатлантириш механизмларини жорий этиш зарур[3,4].

Учинчи қарама-қаршилик-тизимли спорт билан шуғулланиш вазифаси ва уни ёш авлоднинг жисмоний ривожланиш даражаси, жисмоний тайёргарлиги, индивидуал саломатлик хусусиятлари ва қизиқишларини ҳисоб-



га олган ҳолда асосий фаолияти билан бирлаштиришга имкон берадиган механизмлар ўртасидаги номувофиқлик. Мавжуд қарама-қаршиликларни бартараф этиш учун жисмоний тарбия ва спорт тизими болалар ва ёшларга жисмоний тарбия ва спортга қизиқишларини рўёбга чиқариш учун кенг имкониятлар яратиши керак.

Шунингдек, жисмоний тарбия ва спорт ҳаракатини ривожлантириш истиқболларини аниқлаш, айниқса замонавий шароитда мураккаб муаммодир. Биз уни фақат назарий концепция асосида муваффақиятли ҳал қилиш мумкинлигига ишонамиз. Бундай концепция ижтимоий-педагогик муаммоларни ҳал қилиш, жисмоний тарбия, болалар ва ўқувчиларспортини ривожлантиришда ижтимоий тамойилларнинг ролини ошириш, ушбу соҳада болалар ва ёшларнинг ўзини ўзи бошқаришини ривожлантириш, болалар ва ёшларни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг асосий йўналишларини белгилашда аниқ қўлланма бўлиши керак[5,6].

Ҳозирги вақтда жисмоний тарбия, спорт ва туризм, болалар ва ёшларнинг бўш вақтлари тобора кўпроқ тижорат фаолияти объектига айланиб бормоқда. Бу, айниқса, йирик шаҳарларда, кам таъминланган оилалар ва ҳатто ўрта даромадли талабалар учун камроқ кириш имкониятига эга бўлмоқда.

Жисмоний тарбия ва спорт ҳаракатининг ривожланишига катта тўсиқ-бу аниқ минтақавий шароитларда болалар ва ўсмирлар спорт уюшмаларининг мавжудлиги учун ҳар томонлама ишлаб чиқилган меъёрий асослар, уларни яратиш, фаолият кўрсатиш ва жойлардаги давлат идоралари билан ўзаро муносабатларни тартибга солувчи зарур қонун ҳужжатларининг йўқлигидир.

Бизга маълумки жисмоний тарбия ва спорт ҳаракати жисмоний тарбия ва спорт фаолиятининг инсон, жамият ва давлат учун муҳим ижтимоий аҳамиятини тан олишга асосланган. Унинг аҳамияти ушбу ҳаракат доирасида инсонпарварлик нуқтаи назаридан баҳоланади, яъни инсоннинг ўзи, унинг бахти, саломатлиги, эркинлиги ва қадр-қиммати, кўп қиррали ва уйғун ривожланиши, унинг барча қобилиятлари, тинчлик, дўстлик, ўзаро тушунишда намоён бўлиши энг олий қадрият деб ҳисоблайди. [7,8]

Замонавий шароитда, ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларини инсонпарварлаштириш мавжуд бўлганда, болалар жисмоний тарбия ва спорт ҳаракати тобора аниқ демократик, гуманистик характерга эга бўлиб бормоқда. Борган сари у қуйидаги принципларга амал қилади:

- ҳаракатда ихтиёрий иштирок этиш;

- умуминсоний, маънавий ва ахлоқий қадриятларнинг устуворлиги, ирқий, диний ёки сиёсий асосларда ҳар қандай камситишларнинг олдини олиш;

- болалар ва катталар ўртасида спорт соҳасидаги фаол ҳамкорлик, уларнинг биргаликдаги фаолияти болалар манфаатларининг устуворлигини ҳисобга олган ҳолда;

- педагогик бошқарув ва болаларнинг ўзини ўзи бошқариш, ўз-ўзини тарбиялаш, шахсни ўзини ўзи англаш учун шароит яратиш (ташкилий, услубий, меъёрий ва ижтимоий-психологик даражаларда);

- битта ҳаракат доирасида бир-бирини органик равишда тўлдирадиган турли хил ёндашувларнинг мавжудлиги.

Сўнгги йилларда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бундай кўринишлардан бири бу бутун жамиятнинг жисмоний тарбия ва спортга бўлган чуқур муносабати, уларни ёш шахсни, унинг ахлоқий, эстетик ва маънавий табиатини ўзгартиришнинг мураккаб омили сифатида тушунишдир.

Яна бир муаммо-ёшларни спорт иншоотлари билан таъминлаш, уларнинг бир марталик имкониятлари, жамоат бирлашмалари, болалар ва ўсмирлар спорт мактабларига жалб этилганларни қамраб олиш, объектларни куриш ва реконструкция қилиш, спорт, жисмоний тарбия ва ишлаб чиқариш учун аниқ капитал қўйилмалар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш. Шунингдек, таълим муассасаларини кенг спорт билан шуғулланиш, болалар ва ўсмирлар жисмоний тарбия ва спорт ҳаракатини ривожлантиришни бошқариш схемасини ишлаб чиқиш, ҳудудий ва тармоқ спорт клубларини ташкил этишни таъминлаш керак. Асосан, уч хил: тўлиқ спорт турлари асосида ишлайдиган клублар. шахсий аъзолик бадаллари, иқтисодий фаолиятдан олинган маблағлардан фойдаланган ҳолда иқтисодий ҳисоблаш ва ўзини ўзи молиялаштириш; шахсий аъзолик бадаллари ва клубнинг иқтисодий фаолиятдан олинган маблағлардан фойдаланган ҳолда таъсис ташкилотлари ва қисман ўзини ўзи таъминлаш ҳисобига мавжуд бўлган клублар; ўз фаолиятини таъсис ташкилотлари ва шахсий аъзолик бадалларидан олинган маблағлар ҳисобидан амалга оширадиган клублар.

Европанинг аксарият мамлакатларида болалар ва ўсмирлар жисмоний маданияти ва спорт ҳаракати, талабаларнинг жисмоний тарбиясини ривожлантиришнинг мақсад ва вазифалари турли даражаларда шаклланади: Белгия, Италия, Португалия, Францияда-давлат даражасида, Германия, Испания, Швейцария-минтақавий ёки маҳаллий.

Барча Европа мамлакатлари спорт қадриятлари тўғрисида умумий фикрга ега: сиёсий мақсадларга эришиш учун спортчиларни манипуляция



қилмаслик, "ҳамма учун спорт" дам олиш ғоясини тўлиқ қўллаб-қувватлаш, ёшлар тарбиясида спортнинг аҳамиятини кучайтириш.

Чунки, жамият томонидан ёшларга спорт билан шуғулланиш имкониятларини тақдим этиш нафақат бўш вақтдан конструктив фойдаланишга, балки мурасасизлик, тажовузкорлик, алкоголизм ва жамиятнинг бошқа касалликларини даволаш каби ижтимоий муаммоларни ҳал қилишга олиб келиши керак. Шунингдек, улар ёшларни ўз-ўзини тарбиялаш, ўзини тақомиллаштириш ва спорт орқали ўзини намоён қилиш жараёнларига жалб қилиш учун янги шароитларни яратиш зарур.

Сўнгги ўн йилликларда Ғарбий Европанинг кўплаб мамлакатларида спорт жисмоний тарбия ўрнини боса бошлади. Кўпгина мамлакатларда ўқувчиларнинг мойиллигини ҳисобга олган ҳолда, тушдан кейин мактаб спорт уюшмалари ёки касаба уюшмаларидаги дарслардан холи бўлган мажбурий ихтиёрий танлов спорт турлари қўлланилади. Дания, Германия, Голландия, Буюк Британия, Францияда мактаблар ва уларнинг спорт уюшмалари одатда дарслар учун давлатга қарашли ёпиқ ва очиқ спорт иншоотлари билан таъминланади.

Германияда ёшлар спортини ривожлантиришда кўплаб жамиятлар, вазирликлар, уюшмалар, уюшмалар, черковлар, илмий муассасалар ва партиялар иштирок этмоқда. Таниқли бизнес фирмалари кўпинча мактаб мусобақаларининг ҳомийси сифатида ишлайди. Мактаб спортини ривожлантиришда давлат ва маҳаллий ҳақомият иқтисодий сектор сифатида маълум бир вазифаларни бажаради.

Мамлакатимизда ҳам спортни ривожлантиришда спорт мактабларининг асосий муаммоларини ҳал қилиш – ўқитувчи-мўраббийлар таркибининг касбий ўсишини рағбатлантириш, мактабда ўқувчилар сонини кўпайтириш, спорт натижаларига эришиш-давлат томонидан қўллаб-қувватлаш билан бевосита боғлиқдир. Ёшлар спортининг энг муҳим ташкилий муаммоларини ҳал қилиш учун нафақат ёшлар спорт мактабларини сақлаш ва ривожлантириш бўйича самарали чораларни кўриш, балки молиялаштириш масаласини ҳам ҳал қилиш зарур.

Иккинчидан, кадрлар. Чунки мактабнинг таълим ва тарбия жараёнида соғломлаштириш ва тарбиявий жиҳатлар биринчи ўринда туради. Нега бугунги кунда муаммо шунчалик кескин?

1. Замонавий шароитда касбнинг обрўси етарлича юқори эмас ва биз мўраббий ва ўқитувчиларнинг иши учун етарли пул тўламаймиз.

2. Ўқув-машғулот жараёни ва оммавий спорт ишлари тиббий назорат ва таъминот билан бирга бўлиши керак.



Мураббий-ўқитувчи бир вақтнинг ўзида ўқитувчи, психолог, шифокор ва методист бўлиши керак. Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун:

- мутахассисларни касбий тайёрлаш ва қайта тайёрлаш;

- ёш авлодга малакали жисмоний тарбия ва соғломлаштириш хизматларини кўрсатишга йўналтирилган юқори малакали кадрларни жалб этиш;

- обрў-эътиборни ошириш, ўқув йили якунлари бўйича бир марталик бонуслар шаклида моддий рағбатлантириш ва қўшимча тўловлар тизимини ўз ичига олган мураббий-ўқитувчиларни рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш. Масалан, танлов совриндорлари бўлган ўқувчиларни юқори даражада тайёрлаш, ижодкорлик, талабалар контингенти хавфсизлиги учун;

- тренер-ўқитувчиларга материалларни тайёрлаш бўйича ишларни, очик дарсларни, турли танловларда иштирок этишни ўз ичига олган аттестациядан ўтишда ёрдам бериш.

- болалар ва ўсмирлар ўртасида соғлом турмуш тарзининг жозибадорлигини шакллантириш муаммосини ҳал қилиш учун жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланадиган ёш шахснинг ижобий имиджини яратиш, шунингдек, барча ахборот хизматларининг самарали ижтимоий рекламасини яратиш учун барча оммавий ахборот воситалари билан мақсадли ишлаш керак.

Бизнингча спорт мактаблари фаолиятига таъсир қиладиган муаммоларга қуйидагилар киради:

- ўқув-тарбия жараёни сифатини ошириш;

- жисмоний тарбия ва спортнинг нодавлат шаклларини кенгайтириш;

- жисмоний тарбия тадбирлари ва спорт мусобақалари сонининг кўпайиши;

- болалар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш.

Хулоса қилиб айтганда, спорт таълим муассаслари муаммоларини тўғри кўриш ва тушуниш, уларни ҳал қилиш йўллари, мактаб мураббий-ўқитувчиларининг касбий ва малака даражаси, албатта, ёш ўқитувчилар даражасининг ошиши шарт билан муассаса хусусиятларини яхшилашга ёрдам берадиган омил ҳисобланади.

Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланадиган болалар ва ўсмирлар сонининг кўпайиши аҳолининг ушбу тоифаси орасида турли касалликларни даволаш ва вояга етмаган жиноятчилар ва жиноятчиларни қайта тарбиялаш жараёнига сарфланган маблағни бир неча бор тежаш имконини беради. Спорт мактаблари фаолиятида назарда тутилган чора-тадбирларнинг амалга оширилиши жисмоний тарбия ва спорт ишларини ях-



шилайти, шунингдек, болалар ва ўсмирларнинг соғлиғини ўзгартириш, уларнинг жисмоний тайёргарлиги даражасини ошириш учун имконият беради, бу эса пировардида жамиятнинг иқтисодий ва маънавий яхшила-нишига таъсир қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 ноябрдаги “Спорт таълими тизимини тубдан такомиллаштириш орқали олимпия ва паралимпия спорт турлари бўйича спортчилар за-хирасини шакллантириш сифатини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5279-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 ноябрдаги “Спорт-таълим муасса-салари фаолиятини 2025 йилгача ривожлантириш дастури тўғрисида”ги ПҚ-5280-сонли қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 5-ноябрдаги "2024-йил Париж шаҳрида (Франция) бўлиб ўтадиган XXXIII ёзги Олимпия ва XVII Паралимпия ўйинларига спортчилари-мизни комплекс тайёрлаш тўғрисида"ги ПҚ- 5281-сонли қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 5-ноябрдаги "Юриш, югуриш, ми-ни-футбол, бадминтон, стритбол ва «workout» спорт турларини янада ривожлантириш чора-тад-бирлари тўғрисида"ги ПҚ-5282-сонли қарори.
5. Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Пед. фан. док. ... дис. –Т.:ЎзДЖТИ нашриёти, 2004. – 210 б.
6. Абрамова В.В. Формирование профессиональной компетентности будущих учителей физи-ческой культуры. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Ростов-на-Дону:2006.–28 с.
7. Бавтрюков И.А. Формирование психолого-педагогической компетентности у будущих спе-циалистов по физической культуре и спорту. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Ульяновск: 2009. – 25 с.
8. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: Физкультура и спорт, 2000. – 331 с.



JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOT ISHLARINI TASHKIL ETISH MEZONLARI

Maxmudov B.A.

TAFU Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, PhD

Tayanch so'zlar: jismoniy madaniyat, ta'lim, ilmiy tadqiqot, talaba, tarbiya, oliy ta'lim, pedagogika, ilmiy rahbar, sport, tizim, jarayon, soha, standart.

Ключевые слова: физическая культура, образование, научные исследования, студент, образование, высшее образование, педагогика, научный руководитель, спорт, система, процесс, сфера, стандарт.

Key words: physical culture, education, scientific research, student, education, higher education, pedagogy, scientific supervisor, sport, system, process, field, standard.

Резюме:

Mazkur maqola jismoniy madaniyat sohasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan mezonlarga bag'ishlangan bo'lib, unda talaba va uning ilmiy rahbari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tavsiyalar berilgan.

Резюме:

Данная статья посвящена критериям, которые должны быть реализованы при организации научно-исследовательской работы студентов в области физической культуры, а также даны рекомендации, которые должны быть реализованы студентом и его научным руководителем при проведении научно-исследовательской работы.

Summary:

This article is devoted to the criteria that should be implemented in the organization of scientific research work of students in the field of physical culture, and recommendations that should be implemented by the student and his scientific supervisor when conducting scientific research work are given.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish hisoblanadi[1].

Ta'limning amalda bo'lgan meyoriy-huquqiy hujjatlarida, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida ro'yxati tizimlashtirilgan holda keltirilgan, oliy ta'limning davlat



ta'lim standarti - muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi ishlab chiqilgan va takomillashtirilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bakalavr hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi magistr darajasini olishda bitiruvchilarning yakuni davlat attestatsiyalari bu ularning yakuniy olib borgan ilmiy tadqiqoti bilan belgilanadi. Bu bilan talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorgarligi hamda ilmiy daraja olish uchun tayyorlanadigan dissertatsiya ishlarining devorчасi sifatida ham e'tirof etiladi.

Hozirda jismoniy madaniyat va sport yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar nafaqat izlanuvchilarbalki o'quv muassasalarining boshqa jismoniy madaniyat va sport murabbiylari tomonidan ham olib borilishi fikrimizning dalilidir. O'z faoliyatiga ijodiy munosabat pedagogik muammolarni hal qilishning yangi, o'ziga xos va samarali usullarini izlashni nazarda tutadigan tadqiqot ishlari talabalarning ham kelgusi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish yuzasidan tushunchlar berish hamda yo'naltirish bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Buning uchun talabalarning ushbu jarayonga yo'naltirish va uning muayyan talablarini o'rgatish orqali kelgusida yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyati yuzaga kelishi mumkin.

Jismoniy madaniyat sohasida talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda, avvalo, ilmiy tadqiqot ishining bosqichlarini to'hri va aniq o'rgatish hamda yo'naltirish lozim bo'ladi. Uning turlari quyidagilarnio'z ichiga oladi:

- uslubiy ishlar;
- ilmiy va uslubiy;
- tadqiqot.

Jismoniy madaniyat sohasida har qanday tadqiqotning ilmiy xarakteri tadqiqot turining o'zi bilan emas, balki ilmiy ish uchun taklif qilingan talablarning bajarilishi bilan belgilanadi. Pedagogika tajribasining ushbu umumlashmasiga ko'ra, o'rganilayotgan mammoning kimlar va qay darajada o'rganilganligini to'liq ilmiy ishlarga kiritish lozim[2]. Masalan, "Metodik" va "ilmiy-uslubiy" ishlarining tushunchalari tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Bu esa o'qitish va tarbiya usullari masalalarini hal qilishga ustunlik berish bilan tavsiflanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda dasturiy amal, ya'ni manbalar to'plami sifatida foydalanish nazarda tutiladi.

Uslubiy ish bilan ilmiy-uslubiy ishning farqi unda mavjud bo'lgan yangilik elementlari mavjudligi bilan farqlanadi. Agar talaba u yoki bu mavzuda tadqiqot olib borsa, talabaning faoliyati, amalga oshirish tartibi, izlanishi, mavzuning xususiyatlarini aniqlashtirish uchun ularning tajribasi bilan tanishish bilan cheklanib qolsa va masalani hal qilishda o'ziga xos yondashuv bo'lmasa, noma'lum (ishlab chiqmoqchi bo'lgan yangiligi) tadqiqot usullari topilmaydi[4]. Agar xuddi shu umumlashtirish bilan tajriba topilgan bo'lsa, unda eksperimental sharoitda o'qitish va tarbiyaning yangi namunalari ko'paytiriladi, bunday o'rganish uchun u ilmiy va uslubiy materiallarni o'rganish hamda qiyosiy tahlil qilish lozim bo'ladi.

Jismoniy madaniyat sohasida talaba tomonidan olib boradigan tadqiqotda ilmiy-uslubiy ishlar mohiyatan ilmiy tadqiqotlarning alohida ahamiyatga molik jarayoni hisoblanadi[5]. Shu o'rinda u nafaqat ta'lim va tarbiya metodikasi masalalari, balki jismoniy madaniyat sohasidagi keng doiradagi masalalarni ham qamrab oladi. Bu tadqiqot metodologiyasi va tadqiqot usullari tushunchalariga amal qiladi. Tadqiqot metodikasi - bu o'rganish uchun tadqiqot dasturining bir turi, muayyan tadqiqot mavzusi yoki muammosini har tomonlama oldindan ishlab chiqish natijasi sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot usullari - bu texnik yoki tadqiqotda foydalaniladigan qator usullar majmui sirasiga kiradi.

Jismoniy madaniyat sohasida talaba tomonidan aniqlangan muammo bo'yicha tadqiqot olib borishda uning bosqichlariga alohida e'tibor qaratishi va unga rahbarlik qilayotgan professor-o'qituvchining ko'rsatmalariga rioya qilishi talab etiladi. Har qanday aniq tadqiqot bir necha bosqichda taqdim etilishi lozim[4]. Bular:

- tadqiqot mavzusini tanlash;
- tadqiqot obyekti va predmetining ta'rifi;
- maqsad va vazifalarni aniqlash;
- olib borilgan tadqiqot hajmi;
- gipotezalarni ishlab chiqish;
- tadqiqot rejasini tuzish;
- adabiyot bilan ishlash;
- mavzuni o'rganilganlik darjasi;
- tadqiqot usullarini tanlash;
- tadqiqot olib borish shartlarini tashkil etish;
- tahlil qilish (materiallar yig'ish);
- tadqiqot natijalarini qayta ishlash;
- natijalar to'g'risidagi bayonot;
- tadqiqot ishini shakllantirish.



Har bir bosqichningo‘z vazifalari bor, ular ko‘pincha ketma-ket, ba‘zan esa bir vaqtning o‘zida hal qilinadi.

Tadqiqot mavzusini tanlash: butun ilmiy tadqiqot har qanday ilmiy muammoni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Ilmiy etishmovchilik, faktlar, ilmiy izlanishlarning nomuvofiqligi ilmiy izlanishlarga zamin yaratadi. Ilmiy muammoni shakllantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tanlangan mavzuning amaliyotda mavxumligini aniqlash;
- mavxumlikni bartaraf etish zarurligini asoslash;
- maqsadlarni belgilash.

Talaba ko‘proq vakolatli bo‘lgan muammolarni va uning amaliy faoliyati bilan qanday bog‘liqligini (sport, ta‘lim, tashkiliy, o‘qitish yoki murabbiylik) o‘rganish afzalroqdir[3]. Shu bilan birga, taklif qilingan mavzuni eksperiment o‘tkazish imkoniyati nuqtai nazaridan baholash kerak. YA’ni, tadqiqot guruhlarini (tajriba va nazorat), tadqiqot olib borish usullarini shakllantirish, eksperimental sinovlarni o‘tkazish uchun tegishli sharoitlarni yaratish uchun etarli miqdordagi sotsiologik testlarning mavjudligi ta‘minlangan bo‘lishi lozim.

Jismoniy madaniyat sohasida talaba tomonidan muayyan mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi mustaqil bajarilishi talab etiladi. Uni bajarishda talabadan kasb odob-axloqi qoidalariga qat’iy rioya etishi (plagiat, statistik va boshqa ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek, yolg‘on sitatlar keltirishga yo‘l qo‘ymasligi) talab etiladi. Bu bilan bir vaqtda talabning ilmiy rahbariga ham muayyan talablar qo‘yiladi.

Ilmiy rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan masalalar bo‘yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish;
- tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo‘llashda talabaga ko‘maklashish;
- talabning ilmiy tadqiqot ishini olib borishda belgilangan kalendar ish rejasi bo‘yicha ishlarning bajarilishini va ilmiy tadqiqot ishini o‘z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;
- dastlabki himoyagacha ilmiy tadqiqot ishiga xulosa berish.

Yuqoridagilar asosida tegishli kafedra mudiri va ilmiy rahbari zimmasiga aniq mas’uliyatlar yuklatiladi.

Yuqori saviyada va sifatli bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari turli tanlovlarda ishtirok etishi yoki mazkur tadqiqot ishini yanada kengroq hajmda o‘rganish imkoniyatlari yaratiladi.

Xulosa tariqasida jismoniy madaniyat sohasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda mazkur jarayonda yuqorida keltirilgan metodik



ko'rsatmalarga rioya etgan holda amalga oshrilsa ijobiy natijalarga erishish imkoniyati oshadi.

Adabiyotlar:

1. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. “Баркамол авлод орзуси”. Тошкент-1997 й.
2. Абдуллаев А.А. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида илмий тадқиқотлар олиб бориш муаммолари. Жисмоний маданият ва жисмоний тарбия соҳасидаги муаммолар. Илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент-2016 й. 89-93 б.
3. Radjabov A. Ilmiy tadqiqotasoslari: o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012.–208b.
4. Махмудов Б.А. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисини касбий фаолиятга тайёрлашда мустақил илмий ишларини ташкил этиш. Муғаллим хэм билимбердилуғу журнал. №2-сан. Нукус-2021 й. 135-139 б.
5. Махмудов Б.А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методологик асослари. Молодой Ученый – Международный научный журнал. Казан-2021 г. 459 с.



MINI FUTBOLNING INNOVASION YO‘NALISHLARI ASOSIDA TALABALAR JAMOASINI TAYYORLASH

Davronov O.E.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti jismoniy madaniyat va
sport kafedrasi dosenti*

Tayanch so‘zlar: talaba, mini futbol, yo‘nalish, jamoa, asos, jismoniy tarbiya, sifat, faoliyat, tayyorgarlik, ko‘nikma.

Ключевые слова: студент, мини-футбол, направление, команда, основа, физическое воспитание, качество, активность, подготовка, мастерство.

Key words: student, mini football, direction, team, basis, physical education, quality, activity, preparation, skill.

Резюме:

Mazkur maqola mini futbolning innovasion yo‘nalishlari asosida talabalar jamoasini tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, unda yangi uslubiy yondashuv asosida yaxlit pedagogik jarayonning nazariy jihatlarini yoritib berilgan.

Резюме:

Данная статья направлена на подготовку студенческого коллектива на основе инновационных направлений мини-футбола, в которой освещены теоретические аспекты всего педагогического процесса на основе нового методического подхода.

Summary:

This article is aimed at training the student team based on the innovative directions of mini-football, in which the theoretical aspects of the whole pedagogical process are highlighted based on a new methodological approach.

Mini-futbol o‘yinining shakllanishi va rivojlanishining nisbatan qisqa bosqichi, birinchi navbatda, mashg‘ulot jarayonining qurilishi, o‘quv yuklamalarining mazmuni va ularning yo‘nalishi asosan "katta futbol"dan olinganligi bilan izohlanadi. Professional jamoalardagi o‘yinchilarning asosiy tamoyilini ham klassik futbolning sobiq o‘yinchilari qilganligi ham muhimdir. Shu erdan o‘qitish maqsadining uzluksizligi, har bir bosqich bo‘yicha vazifalar, o‘quv jarayonining makrosikli, o‘qitish vositalarining mazmuni ayon bo‘ladi. B.F.Boychenkoning ta’kidlashicha, ayni paytda o‘yinning o‘ziga

xos xususiyatlari ularni rejalashtirish va jamoani musobaqalarga tayyorlashda foydalanish xususiyatlarini aniqladi [2].

Mini futbolda o'yin faoliyati mazmunining xilma-xilligi asosiy jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish va barcha tana tizimlari faoliyatini funksional jihatdan yaxshilashga asoslanadi, bunga ko'p qirrali jismoniy tayyorgarlik jarayonida erishiladi. Shu bilan birga, asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonida alohida sifatlarni ham tarbiyalanadi [1].

Ko'pgina mualliflar jismoniy sifatlarni tarbiyalash va turli motorli ko'nikmalarni egallash futbolchilarni tayyorlashning barcha jabhalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar, lekin eng muhimi - texnik-taktik tayyorgarlikda innovasion ilmiy yondashuv zarur [3].

Jismoniy fazilatlarini rivojlantirishning etarlicha yuqori darajasiga erishish zarurati, masalan, yuqori tezlikda chidamlilikka ega bo'lgan va eng samarali yuqori tezlikdagi hujumlar futbolchilar jamoasi yuqori sur'atdan foydalanishi mumkin bo'lgan o'yinning u yoki bu taktik sxemasini tanlash bilan bevosita bog'liq.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchilarni tayyorlashning barcha bosqichlarida va barcha davrlarida mashg'ulotlarning majburiy tarkibiy qismidir. U yuqori mahoratga erishilganda, tor ixtisoslikning bir yoqlamaligini tuzatish vositasi sifatidagi roli oshganda ham, ishtirokchilarning xilma-xilligi, almashinishi va takomillashtirilishini ta'minlaganda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik deganda, sportchilarning jismoniy sifatlari va funksional imkoniyatlarini maqsadli rivojlantirish, futbol o'yinining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlash jarayoni tushuniladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlikda asosiy mashqlarga xos bo'lgan keskinlik, muvofiqlashtirish, harakat tezligi va ritmi bilan maxsus tayyorgarlik mashqlari qo'llaniladi. Zamonaviy mini futbolda mushaklar faoliyatining turli usullarida yuqori darajadagi tana ko'rsatkichlari yoki maxsus chidamlilik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, ushbu jismoniy sifatning rivojlanishi 12 yoshdan 13 yoshgacha va 15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrlar bundan mustasno, butun maktab davrida sodir bo'ladi. Chidamlilik 13 yoshdan 15 yoshgacha, eng intensiv esa 16 yoshdan 17 yoshgacha sezilarli darajada oshadi. Chidamlilik, mashg'ulot paytida, amaliyotchining tanasi charchoq holatiga keltirilsa, rivojlanishi mumkin.



Talabalar uchun esa, umumiy chidamlilikni tarbiyalashning asosiy vositalari bir xil sur'atda yugurish, suzish, velosipedda yugurish bilan uyg'unlashtirishlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, futbol o'ynashning o'zi ham bu sifatni mukammal darajada rivojlantiradi. Dam olish oraliqlari bilan chidamlilik mashqla-rining hajmi va intensivligini yurak urish tezligi ko'rsatkichlariga e'tibor qaratgan holda tartibga solish tavsiya etiladi. Bir daqiqada yurak urishi soni 190 dan oshmasligi kerak. Qisqa segmentlarni (30-80 m.) yugurishda dam olish oralig'ining davomiyligi 1 dan 1,5 daqiqagacha bo'lishi mumkin. 150 dan 250 m.gacha yugurishda interval 3-4 daqiqagacha ko'tariladi.

Bunday mashqlarni uzoq vaqt davomida bajarish natijasida nafas olish va qon aylanish organlarining faoliyati sezilarli darajada yaxshilanadi, shuningdek, mushaklarning umumiy kuchi va harakatlarni muvofiqlashtirish yaxshilanadi. To'p bilan o'yin mashqlari yordamida esa o'yin davomidagi o'yin masalalarini echish uchun zarur bo'lgan maxsus chidamlilik rivojlanadi.

Futbol maydonida tezkor silkinishlar qilish, to'p ortidan sakrash, 25- 30 qadam masofadan raqib darvozasiga zarba berish yoki sherigiga uzoq paslar berish, to'satdan to'xtab, yugurish yo'nalishini keskin o'zgartirish uchun, 31 futbolchining kuchi bo'lishi kerak. Kuch o'yin harakatlarining yuqori samaradorligini, ayniqsa, tugatish zarbalarini ta'minlaydi. Eng katta qiymat - bu mushaklararo va mushak ichiga muvofiqlashtirish va mushaklarning qisqarishini yaxshilash natijasi bo'lgan dinamik portlash kuchidir. Shuning uchun futbolda nisbiy kuchning yuqori ko'rsatkichlari, ya'ni o'yinchining vaznini oshirmasdan kuchning oshishi alohida baholanadi.

Kuchni rivojlantirish uchun chig'anoqlarda sakrash, akrobatik va gimnastika mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi, siz engil og'irliklar, arqon bilan ko'tarilish, o'q otish bilan dinamik mashqlardan foydalanishingiz mumkin. Har bir intensiv mashg'ulotdan so'ng qisqa dam olish (20-30 s.), dam olish uchun pauzalarda gevşeme mashqlarini bajarish tavsiya etiladi.

Tezkorlik, qoida tariqasida, tug'ma qobiliyatga bog'liq bo'lib, bunga potentsialga ega bo'lmagan o'yinchining tezkorligini o'rtacha darajadan yuqori darajada rivojlantirish mumkin emas. Tezlik kuch va moslashuvchanlik kabi jismoniy qobiliyatlar va eng kamida chidamlilik bilan chambarchas bog'liq. Futbolchilarning tezligi bir necha omillardan iborat:

1) boshlanish tezligi;

2) yugurish tezligi (futbolchilarning yugurish texnikasi sportchilarning sprint yugurishidan farq qiladi, chunki to'p va raqibning mavjudligi, shuningdek, o'yin vaziyatlari va harakat yo'nalishlarining tez-tez o'zgarishi boshqa yugurish texnikasini talab qiladi);



3) mavjud vaziyatni tezkor baholash: futbolchi maydonni ko‘radi;

4) to‘p bilan o‘ynash tezligi (tug‘ilayotgan o‘yin vaziyatlarida futbol texnikasidan to‘g‘ri foydalanish);

5) taktik fikrlash tezligi. Tizimli mashg‘ulotlar yordamida har bir kishi boshlang‘ich va yugurish tezligini rivojlantirishi mumkin, lekin faqat o‘z qobiliyatining ma‘lum chegaralarigacha.

Ilmiy ma‘lumotlarni tizimlashtirish va uzoq muddatli kompleks eksperimental tadqiqotlar futbolda zaxiradagilarni uzoq muddatli tayyorlash tarkibini yangilash konsepsiyasini shakllantirishni oldindan belgilab beradi. Bu konsepsiya yosh futbolchilarni uzoq muddatli tayyorlash tamoyillarini uning mazmunini optimallashtirishga yangi uslubiy yondashuv asosida yaxlit pedagogik jarayon sifatida nazariy va eksperimental asoslashga muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Бондаревский, Э. Я. дис ... д-ра пед. Фанлар / Э.Я. Бондаревский. - М., 1993. - 45 б.
2. Бойченко, Б.Ф. ёш футболчилар танлови [Матн] / Б.Ф. Бойченко // Турли ёшдаги жисмоний тарбия ва спортнинг илмий жиҳатлари: университетлараро. Шанба. илмий тр. - Изевск, 1997. - С. 5-8.
3. Брагинский, А.Э. Футбол жамоаларини 17-18 ёшли футболчилардан уларнинг индивидуал психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жалб этиш [Матн]: муаллиф. дис. ... канд. пед. Фанлар / А.Е. Брагинский. - М., 2001. - 20 б.



MINI-FUTBOL BO‘YICHA O‘QUV JARAYONI VA TALABALAR JAMOASINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Davronov O.E.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti jismoniy madaniyat va sport kafedrasida dosenti

Tayanch so‘zlar: mini futbol ko‘nikma, yo‘nalish, jamoa, asos, jismoniy tarbiya, sifat, faoliyat, tayyorgarlik, talaba.

Ключевые слова: мастерство мини-футбола, направление, команда, основа, физическое воспитание, качество, активность, подготовка, ученик.

Key words: mini football skill, direction, team, basis, physical education, quality, activity, preparation, student.

Резюме:

Ushbu maqola mini-futbol bo‘yicha o‘quv jarayoni va talabalar jamoasini tashkil etish masalalariga qaratilgan bo‘lib, unda sportchilarning o‘yinda bajaradigan texnik va taktikasini hisobga olgan holda, mashg‘ulot ta‘sirini majburiy ravishda farqlashni nazariy jihatlarini yoritib berilgan.

Резюме:

Данная статья посвящена учебному процессу и организации студенческих команд по мини-футболу, а также освещает теоретические аспекты обязательной дифференциации эффектов тренировки с учетом технико-тактических аспектов выступления спортсменов в игре.

Summary:

This article is focused on the educational process and student team organization in mini-football, and it sheds light on the theoretical aspects of necessarily differentiating the effects of training, taking into account the technical and tactical aspects of sportsmen's performance in the game.

Bugungi kunda O‘zbekistonda uyushgan mini futbol o‘yini jadal sura‘tlarda rivojlanmoqda. O‘tgan davrda mini futbol o‘zbek sportchilari uchun kashfiyot bo‘lmadi, chunki mavjud futbol jamoalarining o‘quv jarayonida va aholi orasida turli variantlarda mashg‘ulot vositasi sifatida kamol topib kelmoqda. Shu bilan birga, amaliyot va tadqiqot sifatida har bir futbol ustasi mini futbolda e‘tirofga erisha olmaydi. Bu pozisiyaning sabablaridan biri o‘yin qoidalaridagi farqdir. Mini-futbol sport maydonchasining sezilarli darajada kichikroq o‘lchamlari nafaqat harakatlanish xususiyatiga, balki futbolchilarning texnik va taktik harakatlarining tuzilishiga ta‘sir qiladi.

Futbol sport o'yini sifatida, asosiy musobaqa mashqlari tasnifiga ko'ra, musobaqa shartlariga qarab o'zgarib turadigan futbol texnikasining polistrukturali xususiyati bilan ajralib turadi [1].

O'yinlar shartlariga ko'ra, futbol nisbiy davomiylik va 90 daqiqagacha bo'lgan o'yin davrida raqobat harakatlarining tezkorligi kuchli namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, o'yinning aniq vaqti o'rtacha 60-65 daqiqani tashkil qiladi (o'yinning qo'shimcha vaqti bundan mustasno) va o'yinchining o'yinda ishtirok etishining faol bosqichi 30-40 daqiqa hisoblanadi. Shu ham alohida ta'kidlash lozimki, mini futbol o'yini futboldan sezilarli farq qiladi, birinchi navbatda, harakatlar tuzilishi (o'yin maydonini engib o'tishdagi farq) bilan, eng muhimi, davriy yopilish imkoniyati mavjud, o'yin jarayonida (o'yinchilarni bir necha marta almashtirish). Shu munosabat bilan, butun o'yin davomida futbolchining motor faolligini energiya bilan ta'minlash prinsiplari "katta" futboldan sezilarli darajada farq qiladi [2].

Bir qator mutaxassislar [55] fikricha, "katta" futbolda taktik harakatlar muvaffaqiyatini belgilovchi omillar quyidagilardir:

- maxsus intellektual fazilatlar;
- psixomotor va idrok xususiyatlari;
- qiyin o'yin sharoitida texnikani bajarishning yuqori ishonchligi;
- jismoniy tayyorgarlik.

Mini futboldagi o'yin faoligi yuqori ko'p qirraliligi, individual va guruhli texnik va taktik harakatlarning xilma-xilligi, jamoaviy ishlash, o'zaro almashinish, maksimal tezlikda hujum olib borish va himoya harakatlarini rivojlantirish bilan tavsiflanadi [58]. O'yin faoliyatining bunday yuqori ko'rsatkichlari ushbu sport turi bo'yicha sportchilarni tayyorlashning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq. Bu O'zbekistonning etakchi klub jamoalari tomonidan tabaqalashtirilgan o'quv yuklamalarini bajarish va ilg'or texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali erishiladi [59].

O'quv jarayoni muvaffaqiyatining asosiy mezonlari - bu tanlov faoliyati natijalari bo'lib, ularning tahlili etarli miqdordagi ishlarga bag'ishlangan. Raqobat faoliyatining namunaviy tavsiflarini tahlil qilar ekanmiz

O'zbekiston va dunyoning eng yaxshi jamoalarining o'rgandik. Xususan, raqobat faolligining individual ko'rsatkichlari turli darajadagi tayyorgarlikdan o'tgan jamoa o'yinchilarining faoliyatini taqqoslash asosida tekshirildi. Tahlil natijalari mini futbol bo'yicha futbolchilarning raqobatbardosh motorli faoliyati strukturasi past, o'rta va maksimal (maksimumga yaqin) intensivlikdagi harakatlar sifatida ifodalash mumkinligini ko'rsatdi. Futbolchilar asosan o'rtacha tezlikda, maksimal va maksimal tezlikda harakat qiladilar, futbolchilar



deyarli harakat qilmaydilar va bu harakatlardan faqat to'p yo'qotilganda va raqib tomonidan "tezkor tanaffus" tashkil etilganda himoya harakatlarini bajarishda foydalanadilar.

jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikning bir qator vositalarini taklif qildi, bu esa an'anaviy yuklamalarni rejalashtirishga nisbatan sport shakllarining yanada samarali o'sishini ta'minlaydi. Eksperimental mezosiklda jismoniy-texnik va taktik tayyorgarlik vositalarining miqdori:

- ▶ texnik va taktik ish - 76%,
- ▶ umumiy jismoniy tayyorgarlik - 23,6%,
- ▶ ayerob va aralash yuk - taxminan 76%,
- ▶ alaktik - 11%, anabolik - 12% ni tashkil etadi.

Glikolitik yuklamalarning amalda yo'qligi bilan oksidlovchi va glikolitik mushak tolalarini rivojlantirishning qo'llaniladigan metodologiyasi futbolchilarning motor faolligini, jismoniy tayyorgarligini oshirishga imkon beradi.

Asosiy yo'nalish sifatida mini futbol bo'yicha jamoalarning jismoniy tayyorgarligi, muallif tezlik-kuch, tezlik sifatleri va maxsus chidamlilikning turli jihatlarini tayyorgarlik bosqichi va makrosiklda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar bilan belgilanadigan nisbatlarda har 43 tomonlama va tanlab o'qitishni tavsiya qiladi. Maqsadli jismoniy tayyorgarlik uchun barcha asosiy mushak guruhlariga izchil ta'sir ko'rsatishni va mashqlarni bajarishda futbolchilarni tashkil qilishning optimal shaklini ta'minlaydigan aylanma mashg'ulot usuli katta imkoniyatlar beradi. Jismoniy fazilatlarni har tomonlama tarbiyalash o'yin sharoitida eng ko'p ishtirok etadigan funksional tizimlarga ta'sir ko'rsatadigan texnik, taktik va ba'zi texnik vazifalarni bajarish uchun maxsus tashkil etilgan kuchaytirilgan rejim bilan ta'minlash taklif etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan sharoitlarda jismoniy tarbiyaning asosli metodologiyasi quyidagi qoidalar bilan tavsiflanadi:

- makrosiklning har bir bosqichi uchun jismoniy tarbiya maqsadlarini va ularni amalga oshirish vositalarini aniq belgilash;
- barcha o'yinchilar uchun majburiy bo'lgan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bazasini aniqlash va yaratish, bu makrosiklda sport shaklini shakllantirishni ta'minlaydi, o'yin taktikasining aniq variantlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi;
- sportchilarning o'yinda bajaradigan texnik va taktikasini hisobga olgan holda, mashg'ulot ta'sirini majburiy ravishda farqlashni o'rgatadi;
- samaradorlik ko'rsatkichlarining makrosikldagi darajasi va dinamikasi ustidan majburiy nazorat o'rnatadi.



Ushbu pozisiya mashg'ulot jarayonida ishlatiladigan yuk komponentlari qiymatlarining dinamikasi bilan tasdiqlanadi, ba'zi hollarda bu sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos keladi.

Adabiyotlar:

1. Запорожанов, В. А. Методика оценки перспективности спортсменов в условиях центра отбора [Текст] / В.А. Запорожанов, К.П. Сахновский, А.И. Кузьмин // Теория и практика физической культуры. - 1990. - №4.-С. 27-29.
2. Зациорский, В. М. Теоретические и метрологические основы отбора в спорте: учеб, пособ. для слушателей УСО и ВШТ [Текст] / В.М. 123 Заци-орский, Н.Ж. Булгакова. -М.: ГЦОЛИФК, 1980. - 41 с.
3. Золотарев, А. П. Структура и содержание многолетней подготовки спортивного резерва в футболе [Текст]: автореф.....д-ра пед. наук /А.П. Золотарев. - Краснодар, 1997. - 50 с.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YOSHIDAGI BOLALAR BILAN FUTBOL MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Xalikov A.A.

AndDU “Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrası” dotsenti

Tayanch so‘zlar: prinsiplar, futbol, asosiy, tayyorlov, yakuniy, ta‘lim shakllari, mashg‘ulot, jarayon, insoniy fazilatlar, dars, murabbiy.

Ключевые слова: принципы, футбол, базовый, подготовительный, заключительный, формы обучения, обучение, процесс, человеческие качества, урок, тренер.

Key words: principles, football, basic, preparatory, final, educational forms, training, process, human qualities, lesson, coach.

Резюме:

Ushbu maqola ta‘lim jarayonida prinsiplarga asoslangan, ta‘lim jarayonining qonuniyatlari, murabbiy o‘tayotgan dars va mashg‘ulotlarni shu prinsiplar orqali namoyish qilinishi aks ettirilgan. Bu prinsiplarni mashg‘ulotlar jarayonida qay tarzda qo‘llay olishi, ularni shakllantirishi, qay metodlar orqali yuzaga chiqishi haqida fikr yuritiladi.

Резюме:

В данной статье отражены принципы воспитательного процесса, закономерности воспитательного процесса, демонстрация уроков и занятий, которые проводит тренер, через эти принципы. Рассуждают о том, как эти принципы можно применять в процессе обучения, формулировать их, с помощью каких методов они всплывают на поверхность.

Summary:

This article is based on principles in the educational process, reflects the legalities of the educational process, the lesson and training that the coach is going through, through these principles. It is thought about the ways in which these principles can be applied in the process of training, their formation, through which methods they come to the surface.

Mamlakatimizda hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarni keng ma‘noda targ‘ib etish biz yoshlarning eng oliy vazifamizdir. Bugungi futbolimizni yanada rivojlantirish maqsadida juda ko‘p ishlar olib borilyapti. Futbolni yuqori natijalarga olib chiqish uchun har bir murabbiy, komanda a‘zolari, shu bilan birgalikda federatsiya raislari hamma bir tan-u, bir jon bo‘lib bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishmoqda. O‘zbekiston futbolini rivojlantirish mamlakatimizning oldida turgan eng asosiy vazifa va maqsadlarimizdan biridir.

Futbol musobaqalari o‘quv – mashg‘ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ular mashg‘ulotlarda qiziqishlarini oshiradi, mamlakatda futbolning ommaviy rivojlanishiga katta yordam beradi. Futbolchi o‘yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmasligini hammamiz yaxshi bilamiz.. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman jamoaning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi darajasini aniqlab beradi, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining ahvolini va yo‘nalishini aniqlash darajasi imkonini beradi. Musobaqa natijalari o‘quv-mashg‘ulot ishlarini yakunlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘lim va mashg‘ulot maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida didaktik prinsiplarga, ya‘ni ta‘lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi prinsiplarga muvofiq tuziladi. Ta‘lim va mashg‘ulotning asosiy prinsiplariga tarbiya beruvchi ta‘lim prinsipi, onglilik va faollik prinsipi, ko‘rsatmalilik prinsipi,

Tarbiya beruvchi ta‘lim prinsipi yetakchi prinsip hisoblanadi.

Murabbiy ta‘lim va mashg‘ulot jarayonida futbolchilarni zarur maxsus bilimlardan xabardor qilib, kerakli ko‘nikma va malakalarni hosil qilibgina qolmay, balki ularda ong va ijobiy karakter fazilatlarini shakllanishiga ham har taraflama yordam beradi. Murabbiy tarbiyalashning umumiy maqsadlariga amal qilgan holda har bir mashg‘ulotda muayyan tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. Bunda mashg‘ulotni aniq va o‘z vaqtida boshlash, murabbiyning shaxsiy namunasi, o‘z ishiga muhabbati, yuksak madaniyati, xulqi, talabchanligi, pedagogik nazokati katta ahamiyatga molikdir. Ta‘lim va mashg‘ulotning tarbiya beruvchi xarakteri murabbiy zimmasiga shogirdlarga o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlash, keyinchalik, sport bobida o‘sishi uchun rag‘batlantira bilishini yuklaydi. Pedagog bilan vrach nazoratida sport yuklamalarni o‘ylab, mulohaza bilan asta-sekin oshirib borish futbolchi mahoratining og‘ishmay oshib borishini kafolatlaydi.

Ta‘limning onglilik va faollik prinsipi shogirdning ongli, ijodiy faoliyati bilan pedagogik rahbarlikning eng qulay nisbatini bildiradi. Mashg‘ulotlarga ongli munosabatda bo‘lmay turib, yuqori sport natijalariga erishib bo‘lmaydi. Shug‘ullanuvchilar bajarayotgan mashqlaridan maqsad va vazifa nima ekanligini tushunishlari zarur. Texnik va taktik usullarni mustaqil bajarib o‘rganish, murabbiy kuzatuvidagi mustaqil mashg‘ulotlar onglilikni o‘stirishning muhim vositalaridir. Bunga futbolchining o‘z xato va kamchiliklarini tahlil qilishni ham ko‘rsatish lozim. Faollik, ayniqsa, musobaqalarda asqotadi. Futbolchi o‘yin paytida mustaqil harakat qilishi, doimo o‘zgarib turuvchi vaziyatlarda



tezda bir qarorga kela olishi, o'z harakati va qilgan ishiga to'liq javob berishi lozim. Chunki o'yin paytida murabbiy yordam bera olmaydi.

Agar futbolchi puxta fikrlashni bilmasa, muayyan vaziyatlarda musobaqa qoidalarini, umumiy taktik rejani buzmaganda holda bir qarorga kela olish qobiliyatiga ega bo'lmasa, u yaxshi o'ynay olmaydi. Harakat malakalarini to'g'ri shakllantirishda, ularni puxtalashda, mashg'ulotlarga qiziqishni oshirishda ko'rsatmalilik prinsipining ahamiyati katta. To'g'ri tanlangan ko'rsatma vositasigina murabbiy e'tiborini alohida jalb etmoqchi bo'lgan vaziyatlarni ravshanroq aks ettirishi mumkin. Ta'lim va mashg'ulotda ko'rsatmalilikka turli usullar bilan erishiladi. Murabbiy usullami o'zi ko'rsatishi yoki bu ishni tajribali futbolchiga topshirishi mumkin. Yuqoriroq klassdagi jamoa o'yinini futbolchilar bilan birgalashib ko'rish, mashg'ulotlarda fotosuratlardan, rasmlardan, sxema, chizma, kinogramma, kinofilmlardan, videoyozuv va shu kabilardan foydalanish mumkin. Ta'lim va mashg'ulotning hamma bosqichlarida: futbolchining mahorat darajasidan qat'iy nazar, yangi usullami o'rganish, tafsilotlarni tushuntirishda, ularni puxtalash va takomillashtirishda ko'rsatmalilik prinsipi amalga oshiriladi. Tizimlilik prinsipi mashg'ulotlarning o'zida materiallarni o'rganishda qat'iy izchillik va muayyan tizimlilikka rioya qilishni ko'zda tutadi.

Futbolchilarning ta'lim va mashg'ulot uslublari turlicha bo'lib, ular futbolchilarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda, harakat malakalarini egallash va takomillashtirishda, irodaviy hamda axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va mashg'ulotni tashkil qilishda shug'ullanuvchilarning, o'rganilayotgan materialning xususiyatlarini va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli uslublardan foydalanish zarur. O'quv mashg'ulotlarida barcha uslublar majmuasi qo'llaniladi. Ba'zan esa vazifa va muayyan sharoitga bog'liq ravishda u yoki bu uslubga ko'proq o'rin berilishi mumkin. Ta'lim va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan uslublarning quyidagi guruhlari mavjud:

1. Ko'rsatmali uslublar: mashqlarni sxemada, maketda, kinogrammada ko'rsatish, o'quv va rasmiy musobaqalarni tomosha qilish.

2. So'z bilan tushuntirish uslublari: aytib berish, tushuntirish, yo'llanma berish, kamchilikni ko'rsatish, ishontirish, suhbat, ma'ruza, doklad.

3. Amaliy uslublar: mashq qilish uslubi va uning variantlari (usullarni butunicha yoki qismlarga ajratib ilk bor o'rganish), ko'p marotaba takrorlash uslubi, oralatib, interval bilan takrorlash uslublari, o'yin hamda musobaqa uslublari. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan asosiy uslublardan tashqari.

Mashg'ulotning turli vazifalarini hal qilish uchun boshqa uslublar ham mavjud. Ta'lim jarayonida mashg'ulotni ko'rsatib, izohlab, tushuntirib berish katta o'rin tutadi.

Ko'rsatib berish mashq to'g'risida aniq tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. Ko'rsatish uslubiga ham bir qator talablar qo'yiladi. Namoyish qilinayotgan usul shug'ullanuvchilarning hammasiga yaxshi ko'rinishi lozim. Shunga muvofiq murabbiy o'zi uchun hamda guruh yoki jamoa uchun qulay joy tanlaydi. Usulni o'qituvchilar diqqatini mashqning muhim elementlariga qaratgan holda shoshilmay, aniq va yaqqol ko'rsatib berish zarur. Masalan, to'pni yugurib kelib tepishni ko'rsatayotganda to'pga nisbatan tayanch oyoqni qo'yishni aniq ko'rsatish, tepayotgan oyoqning boldir tovon va tizza bo'g'imlari harakati xususiyatlarini ifodalab berish kerak.

Ko'rsatib berish har qancha aniq bo'lmasin, usullarning murakkab ekanligi shug'ullanuvchining asosiy narsalarni darhol ilg'ab olishga hamma vaqt ham imkon beravermaydi. Shuning uchun ko'rsatib berishdan ilgari tushuntirish yoki ko'rsatish asnosida tushuntirib, izohlab berish lozim. Ko'rsatish bilan tushuntirish bir-birini to'ldirib boradi. Ko'proq qaysi biriga e'tibor berish zarurligi esa usulning xarakteriga bog'liq. Aytaylik, to'pni oyoq yuzining ichki tomoni bilan olib yurish o'rgatilganidan so'ng, to'pni oyoq yuzining tashqi qismi bilan olib yurishga o'rgatayotganda uni ko'rsatish bilangina kifoyalanish mumkin. Yaxshi tayyorlangan futbolchilar bilan mashg'ulotlar o'tayotganda, tanish materiallar asosida yangi texnik usul va taktik harakat o'rgatilayotgan bo'lsa, faqat tushuntirib berishning o'zi yetarlidir. Namoyish qilinadigan materiallar ham bunda qo'l keladi.

Mashg'ulot jarayonida xatolarni tuzatish, u yoki bu usul to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilish uchun tushuntirish uslubi ishga solinadi. Mashg'ulot oxirida, tushuntirish yordamida eng muhim uslublar shug'ullanuvchilar xotirasida mustahkamlanadi.

Ko'rsatmali va so'z bilan tushuntirish usublari yordamida o'rganilayotgan material haqida umumiy tasavvur hosil qilinadi, xolos, o'yin texnikasi va taktikasini to'liq egallab olish uchun amaliy uslubni qo'llash zarur. Har bir ta'lim yoki mashg'ulotning amaliy uslubi muayyan tarkibiy qism yoki usuldan iborat bo'ladi. Ularning yig'indisi uslubning yaxlitligi demakdir. Mana, masalan, harakat yoki harakat faoliyatini ko'p marotaba takrorlash uslubi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

a) murabbiyning u yoki bu harakatni (masalan, to'pni to'xtatish va h.k.) ko'rsatish;



b) futbolchining ko'rsatilgan harakatni bajarib ko'rishiga va mashg'ulotning ko'rsatmasiga muvofiq yo'l-yo'lakay xatolarni tuzatib borishiga harakat qilishi;

c) futbolchilarning o'rganilgan harakatni avtomatik tarzda malaka hosil bo'lguniga qadar takrorlay berishi;

d) harakat faoliyatini murakkablashtirish va unga yangi elementlar (masalan, taktik kombinatsiyalar va shunga o'xshashlar) kiritilishi. Shu zaylda boshqa uslublarni ham tarkibiy element yoki usullarga ajratib chiqish mumkin.

Murabbiy ta'lim va mashg'ulot uslublarini tanlayotganda, har qaysi holat uchun oqilona uslubni ko'rsatuvchi qoidalarga suyanadi. Ta'lim va mashg'ulot uslublariga qo'yiladigan asosiy talablarga muvofiq bu uslublar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) mashg'ulotning maqsad va vazifalari futbolchilarning individual va yosh xususiyatlariga muvofiq kelish;

b) mashg'ulotlarda futbolchilarning faolligini oshirish, bilimlarini, o'yin malaka va ko'nikmalarini ongli va puxta o'zlashtirishni ta'minlash;

c) mashg'ulot va ta'limning uzviy va izchil o'tkazilishiga, futbolchilar bu ishda osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, umumiydan xususiya o'tishiga yordam berish. o'yinni o'zlashtirib olish bilan shug'ullanuvchilarda muayyan harakat malakalari shakllanadi. Shuning uchun har bir usul harakat malakalarining shakllanuvchi bosqichlariga muvofiq o'rgatiladi.

Usullarni o'rgatish paytida quyidagi izchillikka rioya qilinadi:

a) usul bilan tanishtirish;

b) usulni birmuncha soddalashtirgan holda o'rgatish;

c) o'yin sharoitiga yaqin sharoitda usulni takomillashtirish;

d) usulni o'yin chog'ida mustahkamlash.

Ta'lim va mashg'ulotni tashkil etish shakllari. Dars (mashg'ulot) futbolchilar ta'limi va trenirovkasini tashkil etishning asosiy shakllaridan biridir. Bunda har-xil guruh bo'lib, ham individual o'tkaziladigan mashg'ulotlar ko'zda tutiladi. Mashg'ulotlar murabbiy rahbarligida mashg'ulotning usublari qo'llangan holda o'tkaziladi. O'yinning jamoa xarakteriga ega ekanligi uning o'ziga xos tomoni bo'lib, guruh mashg'ulotlariga katta o'rin berilishi ham shundandir.

Futbolchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qo'yiladigan talablar mana bunday:

1. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiyaning umumiy maqsadlariga muvofiq ravishda murabbiy belgilaydigan aniq-ravshan maqsad bo'lishi lozim.

2. Mashg'ulotlar futbolchilarda yuksak axloqni, mehnatsevarlikni, intizomlilikni tarbiyalashi kerak. Mashg'ulotlar shunday tashkil qilingan



bo'lishi kerakki, bunda futbolchilar harakat malakalarini ongli va puxta egallab, harakat sifatlarini zarur darajagacha rivojlantirsinar.

3. Har bir mashg'ulot futbolchilarni sport mahoratining oliy bosqichiga olib boruvchi umumiy mashg'ulotlar silsilasining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

4. Mashg'ulotlarning mazmuni futbolchilarning jismoniy rivojlanishini yaxshilashga, bilim doiralari, ko'nikma va malakalarini kengaytirishga javob beradigan bo'lishi darkor.

5. Mashg'ulotda darsning maqsad va mazmuniga, shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos keladigan, ta'limning futbolchilar mahoratini takomillashtirishga ko'maklashuvchi turli uslublarini qoplash kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars tuzilishiga ko'ra quyidagi uch qismdan: tayyorlov, asosiy va yakunlovchi qismlardan iborat bo'ladi. Har qaysi qismning maxsus vositalar bilan hal qilinadigan vazifasi bor. Tayyorlov qismida mashg'ulotning vazifa va mazmuni tushuntiriladi. Mashg'ulotning asosiy qismi vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan maxsus mashqlar bajariladi. Mashg'ulot tayyorlov qismining vazifasi batamom asosiy qism vazifasiga bog'liqdir. Masalan, agar mashg'ulotning asosiy qismi texnik usullarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, unda mashg'ulotlarning tayyorlov qismidagi mashqlar unchalik intensiv bo'lmasligi lozim. Bunday paytlar cho'zilish mashqlari va bo'shashtiruvchi mashqlarni bajarish maqsadga muvofiq. Bu mashqlar bo'g'imlar harakatidagi ba'zi qotib qolganlikni bartaraf etadi va texnik usullarni erkin bajarish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda o'yin mashqlaridan foydalanish mumkin. Bu qismning mashqlari ortiqcha charchatadigan va emotsional bo'lmasligi lozim, yo'qsa ularni bajarish shug'ullanuvchilarning texnik usullarni nozik idrok etishlariga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asosiy qism o'z ichiga mazkur mashg'ulotning o'yin texnikasi va taktikasini egallab olishga, shug'ullanuvchilarning jismoniy va axloqiy irodaviy tayyorgarligini yaxshilashga yordam berishga doir asosiy materialini qamrab oladi.

Yakunlovchi qism mashg'ulotlarning uyushqoqlik bilan tugallanishidir. Bunda shug'ullanuvchilarning organizmi nisbatan tinch holatga keltiriladi. Yakunlovchi qismda sekin yugurish, yurish, bo'shashish mashqlaridan foydalanish mumkin. Shu asnodan mashg'ulotga yakun yasaladi, xatolar ko'rsatiladi, o'yin qachon o'tkazilishidan xabardor qilinadi. Har bir mashg'ulot mobaynida yuklamani asta-sekin oshirish hamda kamaytirish prinsipiga, eng yuqori zo'riqish bosqichi bilan nisbatan dam olishni navbatlashtirib turishga rioya qilish kerak. Bu prinsipga rioya



qilish mashqlarni to'g'ri tanlashni va ularni bajarishda izchillik bo'lishini ko'zda tutadi. Maqsadi va o'tkazilish uslubikasiga ko'ra bir-biriga o'xshash mashg'ulotlar kompleks va tematik mashg'ulotlarga bo'linadi.

Individual mashg'ulotlar uchun mashg'ulotning davrali, takroriy, oralatib o'tkaziladigan, birga qo'shib olib boriladigan uslublari yetakchi hisoblanadi. O'yin va musobaqa uslublaridan kam foydalaniladi.

Mustaqil mashg'ulotlar uchun maxsus jihozlar, trenajyor va hokazolar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga quyidagilar kiradi:

a) otboyka ustunlari, batutlar, nishonlar, osma koptoklar, aylanib o'tish uchun ustunlar;

b) gimnastika snaryadlari, shtangalar, gantellar, puflama koptoklar, arg'amchilar, espanderlar, to'siqlar;

c) futbol, tennis, voleybol to'plari;

d) panja uchun, stanli, zarb beradigan dinamometrlar va polidinamometrlar;

e) tenzometrik platformalar, elektron otboyka devorlari, to'pni avtomatik tarzda uzatib beradigan moslamalar.

Mustaqil mashg'ulotlar uchun vositalar tanlayotganda, ularni sparring - sheriksiz va ko'pincha maxsus mashg'ulot joyidan chetda qo'llash mumkinligini hisobga olish lozim.

Adabiyotlar:

1. Akramov B.N. "Futbol". Darslik. Chirchiq., -2022. 414 b.
2. Nurimov R.I. "Futbol nazariyasi va uslubiyati". Darslik. T.,- 2018. 316 b.
3. Nurimov R.I.ning umumiy tahriri ostida. "Futbol nazariyasi va uslubiyati". Darslik. T.,- 2015. 364 b.
4. Isroilov Sh.X.ning umumiy tahriri ostida. "Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol)". Darslik. T.,- 2015. - 224 b.
5. Alimjonov S.I. "Futbol nazariyasi va uslubiyoti (jismoniy tayyorgarlik)". O'quv qo'llanma. Chirchiq., — 2022. 189 b
6. Achilov A.M. "Futbol nazariyasi va uslubiyati". O'quv qo'llanma. T.,- 2021. 200 b
7. Nurimov R.I. "Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash". O'quv qo'llanma. T.,-2005. 105 bet



ZAMONAVIY VOLEYBOLDA HUJUM ZARBASINI BAJARISHNING SAMARALI TURISH HOLATIGA (AMPLUA) QO‘YILADIGAN TALABLAR

Odilova F.V.

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti.

Tayanch so‘zlar: amplua, kombinatsiyalar, voleybol sport o‘yini, sportchilar, texnika va taktikalar, tezlik va chaqqonlik, hujum va blok.

Ключевые слова: амплуа, комбинации, спортивная игра волейбол, спортсмены, техника и тактика, скорость и ловкость, атака и блок.

Key words: role, combinations, sports game volleyball, athletes, technique and tactics, speed and agility, attack and block.

Резюме:

Maqolada voleybolchilarning amplusini tanlash va ularning individual xususiyatlari: antropometrik xususiyatlar va jismoniy sifatlarning rivojlanish darajalari tahlil qilingan.

Резюме:

V статье анализируются выбор амплуа волейболистов и их индивидуальные особенности: антропометрические характеристики и уровни развития физических качеств.

Summary:

The article analyzes the choice of role of volleyball players and their individual characteristics: anthropometric characteristics and levels of development of physical qualities.

Kirish. Mamlakatimizda har tomonlama soq'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z iqtisodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit qizlarini XXI asrga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar uchun keng ko'lamda aniq yo'naltirilgan chora tadbirlar omalga oshirilyapti. Sport insonning komil inson bo'lishiga, uning jismoniy va ma'naviy dunyoqarashining, tabiatini rivojlantirishga yordam beradigan samarali usullarni taklif etadi. Undan tashqari sport o'z-o'zini tarbiyalash uchun etakchi omil hisoblanadi. Sportdagi ko'rsatkichlarning oshishi me'yoriga qarab, sportchi nafaqat jismoniy, balki ruhiy, aqliy, axloqiy, ma'naviy va vatan tarbiyasi jarayoniga kirib bormoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sport



musobaqalarning pedagogik ahamiyati nihoyatda kattadir. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yiladigan asosiy maqsad -sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalambor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy voleybolning talablaridan biri o'yinchilarni jismoniy va taktik-texnik jihatdan tayyorgarlikni universallashtirishdir. Zamonaviy voleyboldagi g'alaba uchun, shuningdek, o'yinchilarning ma'lum darajadagi antropometrik parametrlari va ularning yuqori funksional tayyorgarlikni turli jihatlarini birlashtirishni talab qiladi.

Ko'plab mahalliy va xorijiy mutaxassislarining fikricha, zamonaviy voleybolda o'yinchilarni o'qitishning universallashtirish bilan bir qatorda, oyin ampluasini orqali o'yinchilarning aniqroq bo'linishi zarur. "Universallashtirish" va "mutaxassislik"ning ushbu kombinatsiyasi, yoshi va jinsidan qat'iy nazar, o'yinchilarga, turli vaziyatlarda ham hujumda, ham himoyada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga imkon beradi.

Hozirda o'yinchilarning quyidagi amplualar ajralib turadi: bog'lovchilar, liberolar, 1 temp hujumchilar (markaziy blokirovkachilar), 2 temp hujumchilar (diagonal o'yinchilar), amplusidan qat'iy nazar, har bir o'yinchi o'yin vaziyatiga qarab ma'lum taktik-texnik aniq holatlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan yuqori mahorat va texnik vositalarning keng arsenaliga ega bo'lishi lozim. Buning uchun o'yin maydonchasida egallagan mavqega-vaziyatiga qarab voleybolchilarni qo'shimcha maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish talab etiladi. O'yinchilarning amplusini tanlash uning individual xususiyatlari: antropometrik xususiyatlar va jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi (birinchi navbatda tezlik va sakrash) bilan sezilarli darajada ta'sir qiladi. Qoidaga ko'ra baland bo'yli va chaqqonlar 1-temp hujumchilar vaziyatini (markaziy blokirovkachilar), baland va atletiklar 2-temp hujumchilar vaziyatini (diagonal o'yinchilar).

Bog'lovchilar ham diagonal hujumchilar kabi baland bo'yli, chunki himoyada o'ynashda ular guruh blokirovkasida qatnashadilar. Bog'lovchi o'yinchi yuqori reaktiv sifatlarga ega bo'lishi zarur, mudofaa komanda harakatlarini hujumning muvaffaqiyatli bosqichiga o'tkazishning standart bo'lmagan usullarini tezda topish imkoniga ega bo'lishi lozim. Ushbu amplusidagi o'yinchi yaxshi taktik fikrga ega bo'lishi va jamoa o'yinining turli xil taktik sxemalarini tushunishi, periferik ko'rish, antisipatsiya va hujumni yakunlash uchun to'g'ri qabul qilish sifatidan qat'iy nazar, sheriklarga "qulay" uzatishni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Bog'lovchining asosiy vazifasi: uyushmagan blokga hujum qiluvchi zarbani amalga oshirish uchun sherikni "olib chiqish" va jamoaning



hujumini tashkil etishning eng yuqori yutug‘i sifatida hujum zarbasini bloksiz bajarish.

Bir qator mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ikkinchi tempdagi hujumchilar (diagonal o‘yinchilar) turli xil uzatib berish va turli o‘yin sharoitlarida variativ hujumga ega bo‘lishlari shart. Hujumchi o‘yinchi uchun chalg‘ituvchi harakatlarni (korpusing chalg‘ituvchi holatlari, yugurish, uzatish) amalga oshirish juda muhimdir. Biroq, ushbu texnikani maxsus adabiyotlarda qo‘llash bo‘yicha nazariy va uslubiy ishlanmalar deyarli yo‘q. Boshqa ampluda o‘ynaydigan o‘yinchilar bilan taqqoslaganda, ikkinchi tempdagi hujumchilar ko‘proq stressga chidamli bo‘lishlari zarur, o‘yinining hal qiluvchi daqiqalarida majburiyatni o‘z zimmlariga olishlari va katta miqdordagi “qo‘pol-qora” ishlarni bajarishlariga tog‘ri keladi (to‘pni qabul qilish, himoya holatlari, himoyadan hujumga va aksincha turli xil o‘tish harakatlari).

Ushbu voleybolchilar yuqori taktik tayyorgarlikka ega bo‘lishi, komanda o‘yining turli kombinatsion sxemalarida ishtirok etishi zarur. Bunday o‘yin xususiyatlari ikkinchi temp o‘yinchidan universal tayyorgarlikning talab qiladi.

Birinchi tempning hujumchi yuqori sakrash tayyorligiga ega bo‘lishi zarur (samaradorlikni yo‘qotmasdan o‘yin davomida yuqori va tez sakrash imkoniyatiga ega bo‘lishi), yaxshi reaktivlikka ega bo‘lish, o‘yin holatining rivojlanishini oldindan ko‘ra olish (antisipatiya) muhimdir. U qarshi jamoaning blokirovka qiluvchi o‘yinchilarining yo‘nalishlaridan chiqarish uchun ma‘lum bir o‘yin “artistizm” va hujumning rivojlanish joyini tanlash hamda kombinatsion hujum tempini belgilash bilimli qobiliyat xususiyati talab qilinadi.

Libero pozitsiyasi uchun murabbiylar nisbatan kichik bo‘yli, tez o‘ynadigan o‘yinchilarni tanlaydilar, ammo shu bilan birga yaxshi taktik fikrlashga va turli texnik usullarni yuqori samaradorlik bilan ayniqsa, o‘yinining hal qiluvchi lahzalarida bajarish qobiliyatiga ega bo‘lganlarni qo‘yadilar. “Libero” yuqori stress qarshiligi va oldindan ko‘ra olish (antisipatiya - o‘yin vaziyatining rivojlanishiga qarab himoya o‘rnini tanlash), butun bahs davomida harakatning yaxshi “maktabi”ga ega bo‘lishi zarur (to‘g‘ri himoya nuqtai nazarini saqlab turish va hudud bo‘ylab tez harakat qilish). Voleybolchilarning rollarini-ampula hisobga olgan holda o‘yin harakatlari tahliliga qo‘shilgan eng katta hissa, mahalliy va horijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi

Voleybolchilarni tayyorgarligida ikkita tendentsiya mavjud: bir tomondan, murabbiylar har bir oyinchi boshqa vaziyatda ham muvaffaqiyatli oynay olishini ta‘minlash maqsadida o‘yinchilarni tayyorgarligini universallashtirishga harakat qiladilar. Boshqa tomondan, har bir o‘yinchining turli o‘yin



vaziyatlaridagi kuchli tomonlaridan samarali foydalanish uchun o'yinchining maxsus tayyorgarligi zarur.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy voleybol turli texnik-taktik usullarning murakkablashishi tufayli dinamik ravishda rivojlanmoqda, lekin ko'pincha voleybolning ko'ngilochar va xilma-xilligiga zarar yetkazgan holda. O'yin holatlari ba'zi bir ampulalarning funksional vazifalarining tor doirasi bilan chegaralanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 oktyabrdagi "O'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi 864- son Qarori. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommolashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. PF – 5924-son Farmoni, 24.01.2020 y.http://lex.uz
3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun Darslik. T.: 2011. - 278 b.;
4. Guryev A.A. Voleybolchilarning morfofunktsional xususiyatlarini hisobga olgan holda koordinatsion qobiliyatini va vestibulyar barqarorligini oshirish uchun maxsus jismoniy tayyorgarlik metodikasi: ped. fan. nom.dis.avtoref. Малаховка, 2010. 24 b.).
5. Айрапетъянц Л.Р. Волейбол. //Учебник для высших учебных заведений.Т.: Zarqalam. 2006. - 240 с.;
6. Беляев А.В. Обучение технике игры в волейбол и её совершенствование. // Методическое пособие. Олимпия. Человек, М.: 2008. - 54 с.;
7. Беляев А.В., Савин М.В. Волейбол. // Учебник для студентов вузов ФК. М.: ТВТ, 2005. – 360 с.;
8. Гарипов А.Т., Клещев Ю.Ю., Фомин Е.В. Скоростно-силовая подготовка юных волейболисток. // Методические рекомендации. ВФВ, М.: 2009. - 45 с.;
9. Железняк Ю.Д. Волейбол: У истоков мастерства. ФАИР – ПРЕСС. М.: 1998. – 336 с.;
10. Клещев, Ю.Н. Волейбол / Ю.Н. Клещев. – Москва: Физкультура и спорт, 2005. – 399 с. : ил. – (Школа тренера).
11. Мишук Д. Психофизиологические аспекты определения игровых амплуа в современном классическом волейболе / Д. Мишук // Наука в олимпийском спорте. – 2015. – № 2. – С. 63–66.
12. Т.С.Усмаходжаев. 500 ҳаракатли ўйинлар ўқув қўлланма.Т.: 2011.-280с.:
13. Хапко, В.Е. Совершенствование мастерства волейболистов / В.Е. Хапко, В.Н. Маслов. – Киев : Здоровья, 1990. – 124, с.
14. Pittera C., PeData P., Pasqualoni P. Volleyball for 11-14 years old children/Federazione italiana pallovolo. 2010.- 685s.;
15. Teri Clemens, Jenny McDowell. The volleyball Drill book//125 technical and tactical Drills/American volleyball coaches association. 2012.-239 s.



BOKSDA TIK TURISHLAR VA SILJIB YURISHLAR TEXNIKASI

Adilshaev P. M.

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali o'qituvchisi*

Tayanch soʻzlar: ringdagi jangovar tik turishlar, chap, oʻng, yuzma-yuz tik turish, siljib yurishlar, qadam tashlash, sakrash va ring boʻylab siljib yurish texnikasi.

Ключевые слова: боевые стойки на ринге, левая, правая, стойки лицом к лицу, выпады, шаги, прыжки и выпады по рингу.

Key words: fighting stances in the ring, left, right, face-to-face stances, lunges, steps, jumps and lunges around the ring.

Резюме:

Ushbu maqolada ushbu kunga qadar soha olimlari bokschilarning boksdagi tik turishlar va siljib yurishlar texnikasini rivojlantirishda zamonoviy izlanish natijalari va uslubyatlari oʻrganilib chiqildi. Maqolada bokschilarning ringda harakatlanish, tik turishlar va siljib yurishlari, qadam tashlab siljib yurishlar, siljib yurishlarda usullarning uygʻunlashuvi, oddiy qadam tashlash, sirgʻalib qadam tashlash texnikasi haqida malumotlar keltirilgan.

Резюме:

В данной статье по сей день ученые данной области изучают результаты и методы современных исследований в области развития техник стояния и движения боксеров в боксе. В статье приведены сведения о движениях боксеров на ринге, стоянии и скольжении, шаге и скольжении, сочетании приемов в скольжении, простом шаге, скользящем шаге.

Summary:

In this article, up to this day, scientists of the field have studied the results and methods of modern research in the development of boxers' techniques of standing and moving in boxing. The article contains information about boxers' movements in the ring, standing and sliding, stepping and sliding, combination of techniques in sliding, simple stepping, sliding stepping.

Jangovar tik turishlar va siljib yurishlardan bokschining keyingi harakatlar uchun maksimal tayyorgarligini yaratish maqsadida foydalaniladi, birinchidan istalgan usulda va istalgan tomonga siljib yurish uchun, ekinchidan istalgan vaqtda zarbalarni bajarish uchun.

Hujum paytida siljib yurish raqib bilan tez yaqinlashish va hujum holatidan chiqish uchun xizmat qiladi. Ringda harakatlanish chogʻida umumiy ogʻirlik



markazining (UOM) tikka tebranishini yo‘q qilish va faqat bir oz bukilgan oyoqlarda siljib yurish zarur.

Jangovar tik turishlar – bu oldinda turgan harakat vazifalarini oqilona hal etishga yordam beradigan gavda bo‘g‘inlarining bir-biriga nisbatan optimal joylashishi.

Jangovar tik turish – ringdagi hamma harakatlarda universal dastlabki holatdir. U bokschiga raqib zarbalaridan himoyalaniшни tashkil etishda eng kuchli qo‘llardan foydalanish imkonini beradi va bir vaqtning o‘zida zarbalarni bajarish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, chunki bunda eng kuchli qo‘l qulay dastlabki holatda turadi.

Bokschi ning funksional asimmetriyasi va jismoniy qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga qarab, tik turishlarning uchta turi ajratiladi: *o‘ng tomonlama*, uni, odatda, o‘naqay bokschi lar qo‘llaydilar; *chap tomonlama*, uni chapaqay bokschi lar tez-tez qo‘llab turadilar; *yuzma-yuz (ro‘parada) turish* – u yaqin masofadan jangda taktik vazifalarni hal etishda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, jangovar tik turishlar gavda bo‘g‘inlarining guruhlanish darajasiga (ochiq va yopiq) hamda UOM ni ko‘tarish balandligiga ko‘ra (yuqori, past) ajratiladi.

Tasniflash belgilarining rasmiy ko‘rib chiqilishi jangovar tik turishlarning 12 variantini beradi (1-jadval).

Jangovar tik turishlarning variantlari

1-jadval

Usullar		Variantlari	Variantlar raqamlari
joylashish	guruhlanish		
Chap tomonlama	Ochiq	Yuqori	1
		Past	2
	Yopiq	Yuqori	3
		Past	4
O‘ng tomonlama	Ochiq	Yuqori	5
		Past	6
	Yopiq	Yuqori	7
		Past	8
Yuzma-yuz (ro‘parada)	Ochiq	Yuqori	9
		Past	10
	Yopiq	Yuqori	11
		Past	12

Chap tomonlama tik turishda bokschi raqibga gavdasining chap tomoni bilan buriladi. Bunda chap oyog‘ini oldinga qo‘yib, butun oyoq kaftiga tayanadi.

O'ng oyoq bir qadam orqada va yarim qadam o'ngda turadi, bunda faqat oyoq uchiga tayaniladi. Oyoqlar kaftlari parallel joylashadi. Gavda og'irligi tizzalardan birmun-cha bukilgan ikkala oyoqlarga bir tekis taqsimlanadi. UOM tayanch maydonining o'rtasiga tushadi. Tana birmuncha oldinga egilgan. Bukilgan chap qo'l bokschi tanasi oldiga uzatilgan. Bunda tirsak tushirilgan, chap musht taxdaqan yelka bo'g'imi darajasida turadi. Mushtning ichkari sirti yuqorigatashqariga qaratilgan. Bukilgan o'ng qo'l bokschi tanasi ko'kragi oldida turadi. Tirsak tushirilgan, o'ng musht o'ngda iyakda turadi va ichkariga qaratilgan.

O'ng tomonlama tik turishda bokschi raqibga gavdasining o'ng tomoni bilan buriladi. Bunda o'ng oyoq oldinga qo'yiladi, chap oyoq – orqaga. Qo'llar va oyoqlarning holati xuddi chap tomonlama tik turishdagidek.

Yuzma-yuz tik turishda bokschi raqibga gavdasining yoki chap, yoki o'ng


tomoni bilan bir oz buriladi. Bunday holat xohlagan tomonga siljib yurish va olishuv davomida o'ng yoki chap tomonlama tik turishga tez o'tib olish uchun qulay hisoblanadi.

Bokschi morfofunktsional va psixologik qobiliyatlariga qarab, jangovartik turish individuallashtirilishi mumkin, biroq uning umumiy tamoyili to'raligicha saqlab qolinadi (1-rasm).

Raqibgacha bo'lgan masofaga qarab, jangovar tik turishlar usullari o'zgarishi mumkin. Uzoq masofada ko'proq yuqori jangovar tik turish qo'llaniladi. Bunda oyoqlar tizzalardan bir oz bukiladi (son va boldir orasidagi burchak 150-175o), nisbatan nomustahkam holat hosil qilinadi (UOM yuqori – muvozanat burchagi kam) va shu bilan siljib yurish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi.

Qadam tashlab siljib yurishlar

Qadam tashlab siljib yurishlarning ikkita usuli mavjud: oddiy va sirg'alib. Oddiy qadam bilan siljib yurish sirg'alib



1-rasm. Jangovar tik turish va uning individual ko'rinishi:

1. A.Risqiyev; 2. R.Risqiyev; 3. M.Abdullayev; 4. A.Qodiroxunov; 5. N.Otayev

O'rta va yaqin masofalarda ko'proq past jangovar tik turish qo'llaniladi (son va boldir orasidagi burchak 120-150o), mustahkam holat hosil qilinadi (UOM past – muvozanat burchagi katta va shu bilan zarbalarni bajarish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi).




siljishdan ko‘ra birmuncha tezroq bajariladi (10-15% ga). Tasniflash belgilarini rasman ko‘rib chiqish qadam tashlab siljib yurishlarning 5 ta variantini beradi (2-jadval).

2-jadval

Uslub	Varianti	Variantlar raqamlari
Oddiy qadam tashlash	Oldinga	1
	Orqaga	2
Sirg‘alib qadam tashlash	Oldinga	3
	Orqaga	4
	Yon tomonlarga	5

Oddiy qadam tashlash (o‘ng va chap oyoqda) raqibgacha uchta qadamdan ko‘proq masofa bor bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Ring bo‘ylab siljib yurish va manyovr qilishning asosiy usuli – sirg‘alib qadam tashlashdir (2-rasm).



2-rasm. Ring bo‘ylab siljib yurish texnikasi

Ushbu holda oldinga qadam tashlashdan avval orqada turgan oyoqqa gavda og‘irligi o‘tkazilmaydi, UOM o‘z joyida qoladi (bu raqibga bokschining ko‘zlagan maqsadini ochib qo‘ymaydi). So‘ngra orqada turgan oyoq qadam

tashlashni bajargan oyoq yoniga shunday qo‘yiladiki, bunda jangovar tik turish holati saqlab qolinadi.

Oyoqlarni ko‘chirish tayanch yaqinida amalga oshiriladi va siljish “sirg‘aluvchan” xususiyatga ega bo‘ladi.

Oldinga siljib yurilganda qadam tashlash chap oyoq bilan bajariladi, o‘ng oyoq ketidan qo‘yiladi; orqaga siljib yurilganda qadam tashlash o‘ng oyoq bilan bajariladi, chap oyoq keyin qo‘yiladi. Yon tomonga siljib yurilganda birinchi qadam tashlash harakat amalga oshiriladigan tomondagi oyoq bilan bajariladi (o‘ngga – o‘ng oyoqda, chapga – chap oyoqda). Bokschi burilish paytlarida ham qadam tashlab harakatlanadi.

